

ODILQORIYEV X. T.
RAZZOQOV D. X.

SIYOSATSHUNOSLIK



ODILQORIYEV X. T., RAZZOQOV D. X.

SIYOSATSHUNOSLIK

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi tomonidan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan**

(To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr)

**O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT — 2009**

Odilqoriyev X. T.

Siyosatshunoslik: Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik/
Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. -(To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr). -
T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. - 352 b.
I. Razzoqov D.X.

Mazkur darslik davlat ta'lim standartlari va O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida siyosatshunoslik fanini o'qitish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur asosida tayyorlangan bo'lib, unda siyosatshunoslikning predmeti, tarkibi va vazifalari, ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarning shakllanishi va rivojlanishi, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojining asosiy bosqichlari, jamiyat hayotida siyosat va siyosiy tizim, siyosiy hokimiyat va ko'ppartiyaviylik, siyosiy yetakchilik, jamiyat siyosiy hayotining demokratik asoslari, siyosat, din va mafkuraning o'zaro aloqasi, xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlar, xalqaro terrorizm va unga barham berishning siyosiy-huquqiy choralari, umuminsoniy madaniyat tizimida siyosiy madaniyat kabi dolzarb masalalar o'z ifodasini topgan.

Darslik oliy o'quv yurtlari talaba va o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan siyosatshunoslik bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

BBK 66.0 ya73

Taqrizchilar: siyosiy fanlar doktori,
professor **I.Ergashev;**

siyosiy fanlar doktori,
professor **Z.I.Munavvarov.**



ISBN 978-9943-319-71-4

© Xojimurod T. Odilqoriyev, Davron X. Razzoqov, 2009.
© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.

SO‘ZBOSHI

Siyosatshunoslik ilmi hozirga qadar boy nazariy va amaliy tajribaga ega bo‘lib, uning ibtidosi Konfutsiy, Platon va Aristotel yashagan zamonlarga borib taqaladi. U siyosiy taraqqiyotning yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish jarayonida siyosiy faoliyatning xarakteri, maqsadlari, manfaatlari, mohiyati va usullarini tahlil etadi hamda siyosiy g‘oyalarning mohiyat-mazmunini, siyosatda erishilgan yutuq va yo‘l qo‘yilgan xatolarning ildizlarini ochib beradi.

Siyosatshunoslik faniga nisbatan kuchli ijtimoiy ehtiyoj siyosatga insonparvarlik ruhini singdirishga qaratilgandir. Buning dolzarbligi shundaki, insoniyatning butun tarixi davomida siyosiy xatti-harakatlarda muhosasizlik va yengiltaklik, jamiyatni ratsionallashtirish bayrog‘i ostida amalga oshirilgan «inqiloblar, odatda, hamma davrlarda ham zo‘ravonlik, qon to‘kish va ajdodlar yaratgan barcha narsani johillik bilan vayron qilish vositasi va quroli bo‘lib kelgan. Aqidaparastlik esa, qanday qiyofada bo‘lishidan qat’i nazar — bu diniy aqidaparastlik bo‘ladimi yoki kommunistik aqidaparastlik bo‘ladimi — o‘z mafkurasiga, hayotga qarashlariga mos kelmaydigan hamma narsani inkor etadi va «Kimki biz bilan emas ekan, u bizga qarshi», degan tamoyil asosida harakat qiladi»¹. Shuning uchun demokratik siyosiy ta’limning eng asosiy vazifalaridan biri fuqarolarda demokratik tuzumga qarshi bo‘lgan va jamiyatga u yoki bu ijtimoiy utopiyani tiqishtirayotgan turli xil radikal mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirishdir.

Mustaqillikning samarasi o‘laroq demokratik prinsiplar, qadriyatlar va institutlar hayotimizning barcha sohalariga tobora ko‘proq kirib bormoqda. Mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, «Har bir kishi o‘z mamlakatining fuqarosi ekanligini his qilishi, uning o‘ziga berib qo‘yilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo‘lishi va qadrlashi, mashaqqatli mehnat bilan qo‘lga kiritilgan demokratik qadriyatlarni asrab-avaylashi va himoya qilish

¹ *Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т. 13. — Т., 2005. — Б. 183.

g'oyat muhim»¹. Bu esa, tabiiyki, fuqarolardan yuksak siyosiy savodxonlikni talab qiladi.

Yuqoridagi zaruriyat tufayli O'zbekiston oliy ta'lim tizimida siyosatshunoslik fanini yanada rivojlantirish, bu fanni o'rganish va o'rgatish ishlarini jahon standartlari darajasiga ko'tarish uchun keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar samarasi o'laroq bugungi talaba so'nggi yillarda ko'plab chop etilgan darslik, monografiya, ma'ruzalar kurslari va o'quv qo'llanmalardan foydalanmoqda².

Ushbu darslik siyosatshunoslik fanining umumnazariy masalalari aks etgan darslik va o'quv qo'llanmalardan Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojining asosiy bosqichlari, shuningdek, xalqaro terrorizm va unga barham berishning siyosiy-huquqiy choralari kabi yangi, dolzarb masalalar tahlil etilganligi bilan ajralib turadi. U yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga, ular dunyoqarashida sog'lom siyosiy immunitetni shakllantirishga, siyosatning vujudga kelish sabablari, ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rni, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi ahamiyatini tushunib olishga yordam beradi.

Darslikni tayyorlashda mamlakatimiz siyosatshunosligida erishilgan ilmiy-amaliy tajribalar, O'zbekiston va xorijda chop qilingan adabiyotlar hamda vaqtli matbuot nashrlaridan keng foydalanildi.

Mualliflar.

¹ *Каримов И.А.* Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Т., 1997. — Б. 225–226.

² *Рамазонов И., Муминов Э.* Политология: Дарслик. — Т., 1997; *Қирғизбоев М.* Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998; *Политология: Ўқув қўлланма / С.Отамуродов, И.Эргашев, Ш.Акрамов, А.Қодиров.* — Т., 1999; *Қодиров А.Қ.* Сиёсат фалсафаси. — Т., 1999; *Мамадалиев Ш. О.* Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истиқболлари. — Т., 2004; *Одилқориев Х.Т., Фойибназаров Ш.Ф.* Сиёсий маданият. — Т., 2004; *Нишанов М.Н., Джавакова К.В.* Политология: Учебное пособие. — Т., 2005; *Кадыров А.К.* Политология: Курс лекций. — Т., 2006.

SIYOSATSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, TARKIBI VA VAZIFALARI

1. Siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishi

«Siyosat» deb ataluvchi ijtimoiy fenomen yoki hodisaga insoniyat o'z taraqqiyotining ibtidosidayoq duch kelgan. O'tgan uzoq tarixiy davr mobaynida bir zamonlar urug' va qabilalararo tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar to'xtovsiz rivojlanib, bu murakkab dunyoda insonlarni birga yashashdek buyuk bir san'atni egallashga o'rgatdi. Siyosat tom ma'noda odamlarning ijtimoiy hayotni tashkil etishga oid ehtiyojlarini aks ettiradi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining in'ikosi, hosilasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy hayotning turli sohalarini yo'naltirish, turli kuchlar manfaatlarini muvozanatini topish va ta'minlash orqali jamiyat yaxlitligini, jipsligini ta'minlash, taraqqiyotning ilg'or strategiyasini ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etishdir.

Odamlar siyosatni kundalik amaliy tajriba orqali oddiy kuza-tuvlar va tadqiqotlar natijasida olingan ilmiy bilimlar asosida idrok etadilar. Siyosat to'g'risidagi kundalik, tartibga solinmagan tasavvurlar ko'p ming yillardan buyon mavjud. U yoki bu shaklda ular har bir insonda mavjud ommaviy ongning ajralmas qismini tashkil etadi. Bunday tasavvurlarga ko'ra kundalik hayotda aniq maqsadga yo'naltirilgan har qanday faoliyatni siyosat deb atash mumkin. Lekin siyosiy hodisalarning asosan tashqi, amaliy tomonini aks ettiruvchi kundalik bilimlar voqelikni chuqur va har tomonlama aks ettira olmaydi. Siyosat to'g'risidagi kundalik tasavvurlarning noaniqligi, cheklanganligi, avvalo, «siyosat» deb ataluvchi hodisaning murakkabligi, ko'pqirraliligi, sermazmunligiga borib taqaladi. Shuning uchun ham kundalik ijtimoiy bilimlar siyosat dunyosida odamlar uchun ishonchli yo'llanma bo'la olmaydi. «Siyosat» atamasining ilmiy talqinlari birmuncha ziddiyatli bo'lsa-da, mantiqiy asoslanganligi va tar-

tibga solinganligi bilan kundalik tasavvurlardan ajralib turadi. Siyosat to'g'risidagi bunday ilmiy, mantiqiy bilimlarni siyosatshunoslik fani o'rgatadi.

Hozirgi zamon ijtimoiy fanlarining tarkibiy qismi bo'lgan siyosatshunoslikni o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Miloddan avvalgi V asrda yashagan buyuk yunon donishmandi Aristotel ta'kidlaganidek, avvalo, insonning to'laqonli hayot kechirishi uchun lozim bo'lgan shart-sharoitlar faqatgina jamoada, jamiyatda mavjud bo'ladi. Xususan, demokratik tartiblarni joriy etishni maqsad qilib qo'ygan har bir mamlakatda siyosiy bilim va madaniyat kasbi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, millatidan qat'i nazar, har bir odam uchun zaruratga aylanadi. Chunki inson jamiyatda yashar ekan muqarrar ravishda boshqa odamlar va davlat bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish ommaviy siyosiy savodxonlikni taqozo etadi, chunki demokratik siyosiy ta'limga suyangan jamiyatda mustabidlikka, davlat va ijtimoiy tuzumning g'ayriinsoniy va iqtisodiy zararli shakllariga o'rin qolmaydi. Demokratik tuzum aholining siyosiy madaniyatisiz o'rnatilishi va samarali bo'lishi mumkin emas.

Siyosatshunoslik demokratik siyosiy-ma'rifiy vazifani bajarish jarayonida asosiy gumanistik qadriyatlar, avvalo, har bir shaxsning erkinligi va sha'ni, uning tabiiy ajralmas huquqlarini e'tirof etadi. Siyosatshunoslik fani fuqaroga tegishli ijtimoiy tuzumni to'g'ri baholash, uning davlatdagi o'z o'rni va rolini, huquq va majburiyatlarini anglashda yordam beradi. Natijada, fuqaro boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilgan holda o'z manfaatlarini himoya qila olishga, umumiy muammolarni jamoa bilan hal qilishga o'rganadi. Shuningdek, fuqaroda demokratik tartibotga va uni ta'minlovchi davlat va ijtimoiy institutlarga nisbatan hurmat tuyg'usi shakllanadi.

Siyosat va siyosiy faoliyatning vujudga kelishi eng qadimgi zamonlardan boshlanar ekan, tabiiyki, siyosat haqidagi dastlabki risolalar va siyosiy qarashlar ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Siyosatni anglashning tarixan dastlabki shakli uning diniy-afsonaviy talqini bo'lib, miloddan avvalgi II—I ming yilliklarda

barcha qadimgi xalqlarda hokimiyatning va ijtimoiy tuzumning ilohiy kelib chiqishi to'g'risida tasavvurlar hukmronlik qilgan hamda bu tasavvurlar, odatda, afsonalar tarzida ifodalangan.

Taxminan miloddan avvalgi I ming yillikda siyosiy qarashlarning ratsionallashuvi kuzatila boshlangan. Birinchi siyosiy kategoriyalar va ta'riflar, keyinchalik esa falsafiy-axloqiy shakldagi qator ta'limotlar paydo bo'lgan. K. Yaspersning qayd etishicha, miloddan avvalgi IX–III asrlar oralig'ida qariyb bir vaqtda bir-biridan mustaqil tarzda Sharqda – Xitoy, Hindiston, Eron, Falastinda va G'arbda – Yunonistonda siyosiy-huquqiy qarashlarni o'zida mujassam etgan madaniy markazlar vujudga kelgan¹. Bu davrda Xitoyda Konfutsiy, Lao-szi, Mo-szi asarlari, Hindistonda ma'naviy-ruhiy «erkinlik»ni targ'ib etgan diniy-falsafiy tizim sifatida Upanishadilar, Xorazm va Eronda Zardusht ta'limoti, Yunonistonda esa Gomerning «Iliada» va «Odissey» dostonlari vujudga kelgan hamda buyuk mutafakkirlar Geraklit, Demokrit, Suqrot, Platon, Aristotel nomlari dunyoga tanilgan. Shu tariqa siyosatni nazariy jihatdan tahlil qilish asoslari yaratilgan. Biroq qadimgi zamon mutafakkirlarining siyosiy tadqiqotlari hali mustaqil fan sifatida ajralmagan hamda falsafiy, axloqiy g'oyalar bilan uzviy bog'liq edi. Shu hol e'tiborga molikki, aynan qadimgi davrlarda o'sha mutafakkirlar tomonidan biz bugun foydalanayotgan falsafiy va siyosiy kategoriyalarning aksariyat qismi ishlab chiqilgan.

Insoniyat siyosiy tafakkurining g'oyat katta shitob bilan o'sishida XVI–XIX asrlar oralig'ida G'arbiy Yevropa mamlakatlari ro'y bergan iqtisodiy, ilmiy, siyosiy o'zgarishlar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, italiyalik mutafakkir N. Makiavelli XVI asrda siyosiy fan, falsafa va axloqni bir-biridan aniq ajratib berdi. U siyosiy tadqiqotlarni mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ajratib, davlat va hokimiyat masalalarini tahlil markaziga qo'ydi, hokimiyat uchun kurash uslublarini ishlab chiqdi. Uning ijodi siyosatshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga qo'yilgan yirik qadam bo'lishi bilan birga amaliyot va nazariyaning yaqinlashuviga shart-sharoit tug'dirdi. Keyinroq esa Gobbs,

¹ Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. – М., 2000. – С. 31.

Lokk, Monteskyo, Russo, Medison, Berk, Tokvil kabi mutafakkirlar tomonidan siyosiy tadqiqotlar yanada rivojlantirildi.

Siyosatshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar tarkibidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqish jarayoni XIX asr o'rtalaridan XX asr boshlariga qadar davom etdi. Xuddi shu davrda u mustaqil fan sifatida to'liq shakllandi. Bu jarayonda siyosiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan ilmiy markazlar muhim rol o'ynadi. Jumladan, 1871-yilda Fransiyada «Siyosiy fanlarning ozod (erkin) maktabi» ish boshladi (Hozir bu maktab Parij universitetining siyosiy tadqiqotlar markaziga aylangan). AQSHning Kolumbiya universitetida 1880-yildan siyosiy fanlar maktabi, Angliyada 1895-yildan iqtisodiy va siyosiy fanlarning London maktabi, 1903-yildan boshlab esa siyosiy fanlarning Amerika assotsiatsiyasi faoliyat yurita boshladi. Bugun bu assotsiatsiya 16 mingdan ortiq a'zoga ega.

Yuqorida ta'kidlangan ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan chop etilgan jurnal, turli tahlilnoma va boshqa xil nashrlarda o'sha davr siyosatshunosligining dolzarb muammolari ilmiy jamoatchilikka havola etilgan.

Siyosatshunoslik shug'ullangan muammolar unda turli tarmoqlarning turkumlanishiga olib keldi. Jumladan, parlamentarizm masalalari bilan shug'ullangan taniqli siyosatshunos va sotsiolog G. Moska 1896-yilda «Siyosiy fan elementlari» nomli asarini, V. Pareto siyosiy elitalar nazariyasini, R. Mixels siyosiy partiyalar mohiyatiga oid partologiya asoslarini yaratdilar. Shu tariqa XX asr boshlarida siyosatshunoslikning mustaqil fan sifatida ajralib chiqish jarayoni nihoyasiga yetdi. Yevropada «siyosat fani» atamasi e'tirof etilib, keng tarqala boshladi. Biroq 1933-yilda Germaniyada natsional sotsialistlarning davlat tepasiga kelishi, so'ngra boshlanib ketgan fashistik terror Yevropada siyosiy tadqiqotlar rivojiga chek qo'ydi. Z. Freyd, G. Markuze kabi o'nlab yevropalik mashhur olimlar AQSHga ketishga majbur bo'ldilar. Shu bois siyosiy tadqiqotlar markazi ham AQSHga ko'chdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin siyosatshunoslikning fan sifatida taraqqiy etishida yangi davr boshlandi. Bu fanga muayyan mamlakatlar manfaatlari nuqtayi nazaridan emas, balki

umuminsoniy manfaatlar nuqtayi nazaridan qaraluvchi xalqaro fan sifatida yondashish kelib chiqdiki, bunda BMTning tashkil topishi va faoliyati katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimida siyosatshunoslik fani XX asrning o'rtalariga kelib keng qamrovli o'rinni egallay boshladi. 1948-yili Parijda BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YUNESKO tashabbusi bilan siyosatshunoslarning xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Konferensiyada siyosiy fanlarni siyosiy nazariya, siyosiy institutlar, partiyalar, guruhlar, ijtimoiy fikr, xalqaro munosabatlardan iborat to'rt guruhga bo'lish hamda YUNESKO a'zolari bo'lgan mamlakatlar oliy ta'lim tizimida siyosatshunoslikni fan sifatida o'qitishni yo'lga qo'yish taklif etildi. G'arbiy Yevropaning barcha, Sharqiy Yevropaning ayrim davlatlari ushbu taklifni amaliyotga tatbiq etdilar. Shu asnoda asta-sekin siyosiy fan institutlari tiklandi. 1949-yilda siyosiy fanlarning xalqaro assotsiatsiyasi tashkil etildi. 1956-yilda Fransiyada siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasi joriy etildi. Siyosiy guruhlar va siyosiy muvozanat nazariyasi bo'yicha D. Trumen, D. Iston, R. Teylor; siyosiy tizimlar nazariyasi bo'yicha D. Iston, R. Aron; partiyaviy tizimlar bo'yicha M. Dyuverje, U. Bernxem; siyosatning tarkibiy-funksional masalalari bo'yicha T. Parsons, Ch. Bernard, R. Merton kabi olimlar dunyoga tanildilar. Siyosatda konflikt va konsensus nazariyasi, qiyosiy siyosatshunoslik sohalarida S. Lipset, G. Almond, S. Verba kabilar salmoqli asarlar yaratdilar. Natijada, XX asrning so'nggi choragiga kelib siyosatshunoslik alohida nufuzga ega bo'lgan fan sifatida shakllandi.

Biroq sobiq SSSR va unga mafkuraviy tobe davlatlarda siyosatshunoslik fani o'qitilmadi, fanga doir biror jurnal yoki gazeta nashr etilmadi. Chunki mustabid tuzum fuqarolarning siyosat ilmidan xabardor bo'lishlari ularda kommunistik partiya va sovet davlati siyosatiga nisbatan tanqidiy, hech bo'lmasa tahliliy yondashuvni shakllantirishidan xavfsirar edi. Faqat SSSRning parchalanishi tezlashgach, ya'ni 1989-yildan boshlab Rossiyada bu fan plyuralistik asosda mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi. Sovetlardan keyingi makonda tashkil topgan mustaqil davlatlarda

siyosiy ta'lim va siyosiy madaniyat masalalariga qiziqish ommaviy tarzda keskin kuchayib ketdi.

Jumladan, O'zbekistonda ham davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi siyosiy fanlarni o'rganish va o'qitishga nisbatan eskicha yondashuvlarni batamom o'zgartirib yubordi. Mustaqillik sharoitida oliy ta'lim tizimini takomillashtirishning dastlabki choralaridan biri mamlakatimizda siyosatshunoslik fanini o'rganish va o'qitishga kirishishdan iborat bo'ldi. Chunki, amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarning samarali bo'lishi fuqarolarning siyosiy fan va demokratik madaniyat asoslaridan qanchalik xabardorliklariga bevosita bog'liqdir. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jamiyatni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish fuqarolardan avvalgidek qaram, mute, beparvo bo'lib qolishni emas, balki erkin, mustaqil mushohada, siyosiy madaniyatda keskin o'zgarishlar yasash, bozor iqtisodiyotiga va demokratiyaga mos bo'lgan omma mentalitetini shakllantirishni taqozo etmoqda. Mustaqillik va o'zlikni anglashning kuchayishi jarayonida ijtimoiy hayotning turli sohalarida siyosiy faoliyat, davlat, siyosiy partiyalar, nodavlat, nohukumat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va inson, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini, siyosatshunoslikning asosiy tushunchalarini anglashga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda. Shu bois siyosatshunoslikni o'rganish inson kamolotining, mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning zarur shartiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov: «Ko'p asrlik tariximiz shuni ko'rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o'rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo'ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo'ladimi — ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega»¹, deb ta'kidlagan edi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida 1992-yildan boshlab siyosatshunoslik fanini o'qitish yo'lga qo'yildi. Bu harakat, avvalo, siyosiy bilimlarga nisbatan ijtimoiy ehtiyojni qondirish

¹ *Каримов И. А.* Миллий истиқлол мафкураси — халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир // *Каримов И. А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т. 8. — Т., 2000. —Б. 504.

vositasi, ikkinchidan, har bir kishi va butun jamiyatning siyosiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan uzluksiz tadbirdir. Chunki fuqarolarning oqilona qarorlar qabul qilishi, siyosatda ishtirok etish qobiliyati stixiyali (tartibsiz) tarzda shakllanmaydi, balki yetarli bilim va tajribani muntazam o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Bunday qobiliyat esa aynan siyosatshunoslikni chuqur o'zlashtirish va yuqori siyosiy madaniyatga erishish tufayli shakllanadi.

Biroq sobiq Ittifoq davrida boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham siyosatshunoslik fanini o'rganish imkoniyatidan mahrum qilinib, xalq siyosatshunoslikdan, siyosatshunoslik esa xalqdan ajratildi. Bu fanga kibernetika, genetika, sotsiologiya va boshqa fanlar kabi «soxta fan», «burjua fani» deb tamg'a bosildi. Faqatgina mustaqillik tufayli siyosatshunoslikni fan sifatida qaror toptirishga va uning mavqeyi bilan bog'liq zalvorli ishlarni amalga oshirishga imkon yaratildi. Yangi siyosiy voqeliklarni tahlil va tadqiq etish jarayonida shakllanayotgan O'zbekiston siyosiy fani rivojida R. Z. Jumayev, S. A. Jo'rayev, B. K. Iminov, I. Ergashev, A. Q. Qodirov, Sh. G'. G'oyibnazarov kabi olimlarning hissalarini katta. Ularning tadqiqotlarida O'zbekistonda demokratik tizimning shakllanishi, siyosiy ong, demokratlashtirishning o'ziga xosliklari, siyosiy madaniyat kabi muhim masalalar o'z ifodasini topdi. Bugun mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida siyosatshunoslik fani nufuzini yanada yuksaltirish borasida ko'plab yosh iqtidorli olimlar samarali mehnat qilmoqdalar.

Bugun O'zbekistonda siyosatshunoslikning fan sifatidagi obro'sini oshirishga davlat miqyosida e'tibor berilmoqda. Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining tashkil etilishi, I. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti qoshida siyosatshunoslik bo'limining, oliy o'quv yurtlarida o'nlab siyosatshunoslik kafedralarining faoliyat yuritayotganligi fikrimizning dalilidir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Prezident I. A. Karimovning qator asarlarida ijtimoiy fanlarni o'qitishni tubdan yangilash masalalari bilan bir qatorda, hozirgi zamon o'zbek siyosat ilmining asosiy qoidalari ham o'z ifodasini topdi.

Mustaqillik sharoitida jamiyat hayotining erkinlashuvi, de-

mokratiyaning kirib kelishi, eski siyosiy tuzumning yangisi bilan almashinuvi, aholi katta qismining siyosatga e'tiborining kuchayishi, siyosiy partiya va harakatlar, fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan nodavlat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirining kengayishi siyosatshunoslik fani rolining yanada oshib borishini ko'rsatmoqda. Bu esa, qaysi sohada mutaxassis bo'lib yetishishidan qat'i nazar, har bir talabdan bu fanga mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi. Biroq mutaxassislikka oid fanlarga nisbatan siyosatshunoslikni «ikkinchi darajali fan» deb qarash ham ayrim talabalar tafakkurida mavjudligi sir emas. Albatta, har bir talaba siyosatchi bo'lishi shart emas. Lekin har bir oliy ma'lumotli mutaxassis, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimi o'z kasbiy faoliyatini «davlat» deb ataluvchi muhim ijtimoiy-siyosiy institut doirasida amalga oshirar ekan, u qonun himoyachisi sifatida obyektiv jihatdan mamlakatdagi siyosiy jarayonlarning ishtirokchisi hisoblanadi. Shu sababli jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlarga xos bo'lgan qonuniyatlarni bilish ichki ishlar idoralari xodimining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutadi. Chunki murakkab ijtimoiy jarayonlar sharoitida mustaqil, puxta o'ylangan, xalq va davlat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan holda mas'uliyat bilan yondashish uchun nafaqat chuqur va keng huquqiy, falsafiy, axloqiy, balki siyosiy bilim va madaniyat ham zarurdir. Siyosatshunoslikni o'rganish bugungi davrning dolzarb muammolarini mushohada etishga, siyosatda yuksak axloqiy talablarga rioya qilishga, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda odamlardagi imkoniyat, yutuq va kamchiliklarni aniq tasavvur qila olishga yordam beradi. Siyosiy bilimlarni puxta o'zlashtirgan ichki ishlar idoralari xodimi murakkab siyosiy hodisa va jarayonlar mohiyatini, siyosatning jamiyat hayotiga ta'sirini teranroq anglab, qonunlarni tayyorlash va ularni hayotga tatbiq etishga oid muammolarni yaxshiroq tasavvur etadi. Fuqaro huquqiy bilimlardan qanchalik chuqur xabardor bo'lsa, jamiyat siyosiy hayotidagi faoliyatida o'ziga shunchalik chuqur ishonadi va mas'uliyatni his eta oladi. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimi uchun ham siyosat dunyosida to'g'ri yo'nalishni aniqlab olish, siyosiy jarayonlar rivojlanishidagi qonuniyatlarni, siyosiy

ishtirok, siyosiy yetakchilik san'ati, siyosiy rahbarlik prinsiplari va usullari mohiyatini bilish katta ahamiyatga ega. Xullas, huquqshunos siyosatshunoslik fanini qanchalik puxta bilsa, uning siyosiy dunyoqarashi va madaniyati shunchalik boy bo'ladi.

Zamonaviy siyosiy bilimlarni egallash siyosatni siyosatbozlikdan, davlatni diktaturadan, demokratiyani anarxiyadan ajratish, davlat, partiya va boshqa jamoat tashkilotlarining jamiyatdagi o'rni va vazifalarini teran anglab olish imkonini beradi. Qolaversa, bu fanni o'rganish har bir fuqaroga davlat va jamiyat tizimini chuqurroq bilishga, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zining munosib o'rini topishga yordam beradi, boshqalar bilan murosa qila olishga, adolatli yashashga o'rgatadi. Siyosatshunoslikni mensimagan, siyosiy tafakkur maktabini o'tamagan kishi jamiyatda o'z o'rini yaxshi his eta olmay, ma'muriy-buyruqbozlik tazyiqi oldida ojiz qoladi, o'zi va boshqalarning manfaatlarini dadillik, bosiqlik bilan himoya qila olmaydi.

Demak, ijtimoiy hayotda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, odamlarning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirish, eski tuzum asoratlariga barham berib, demokratik o'zgarishlar ko'lamini kengaytirish hamda chuqurlashtirish uchun har bir kishi siyosiy tafakkur maktabini o'tashi, siyosatshunoslikni qunt bilan o'rganishi lozim. Qolaversa, siyosatshunoslikni o'rganish nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyat uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu fanni chuqur egallash jamiyatni demokratlashtirish va isloh etish vazifalarini hal etishda muhim o'rin tutadi. Shu bois har bir talaba, tinglovchi va kursant unga asosiy fanlardan biri sifatida qarashi, uni astoydil qunt bilan o'rganishi zarur.

2. Siyosatshunoslikning predmeti, qonuniyatlari va kategoriyalari

Xo'sh, siyosatshunoslik nima? U jamiyat haqidagi fanlar tizimida qanday o'rin egallaydi? Uning predmetini nima tashkil etadi?

«Siyosatshunoslik» atamasi lug'aviy ma'nosiga ko'ra yunoncha «politika» — davlat yoki ijtimoiy ishlar hamda «logos» —

ta'limot so'zlarining birikishidan tashkil topgan bo'lib, siyosat haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Bu haqda birinchi atamani Aristotel (mil. av. 384–322-y.), ikkinchi atamani esa Geraklit (mil. av. 530–470-y.) ilmiy muomalaga olib kirgan.

Siyosat insonlarning o'ziga xos faoliyati sifatida qadim zamonlardayoq ilmiy tadqiqotlarning obyektiga aylangan. Siyosatga oid bilimlar siyosiy tafakkurning ilk ko'rinishlari sifatida 2,5 – 3 ming yil avval paydo bo'lgan. Avvallari siyosatga oid bilimlar falsafaning uzviy bir bo'lagi hisoblangan. Platon (mil. av. 427–347-y.) siyosatshunoslikka oid asarlarini «Qonunlar», «Davlat», Aristotel esa «Politika» deb nomlagan. Qadimgi Gretsiya va Rimda polis – davlat va jamiyat qurilishining o'ziga xos shakli bo'lib, u o'z hududida yashovchi erkin mulkdorlar va ishlab chiqaruvchi jamoalarning iqtisodiy hamda siyosiy suverenitetiga tayangan. Bu suverenitet har bir fuqaroga shahar–davlat, ya'ni polis hayotiga oid muhim masalalarni hal etishda ishtirok etish, eng muhimi, xalq yig'inida ovoz berish orqali qatnashish huquqini ta'minlagan hamda muayyan majburiyatlar yuklagan.

Siyosatshunoslik jamiyat haqidagi fanlardan biri sifatida ijtimoiy-siyosiy fanlar tizimida muhim o'rin tutadi hamda siyosatni o'rganishda o'ziga xosligi, maqsad va vazifalari bilan ajralib turadi. U ham falsafa, iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, etika, huquqshunoslik, dinshunoslik va boshqa fanlar singari jamiyat hayoti, ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Biroq siyosatshunoslik o'zining tadqiqot obyektiga ko'ra boshqa ijtimoiy fanlardan farq qiladi. Uning predmetini ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy, axloqiy, diniy sohalarining mohiyati va o'ziga xos muammolari emas, balki siyosiy sohaning tabiati va o'ziga xos muammolari, siyosiy hokimiyatning amalga oshirilishi bilan bog'liq munosabatlar tashkil etadi. U jamiyatda ijtimoiy tartibni, adolatni ta'minlovchi siyosiy institutlar haqidagi fandır.

Siyosat an'anaviy soha bo'lganligi bois nafaqat siyosatshunoslik, balki falsafa, sotsiologiya, iqtisodiy nazariya, psixologiya, huquqshunoslik, tarix, siyosiy tarix, davlat va huquq nazariyasi, madaniyatshunoslik, mantiq, geografiya va boshqa fanlar bilan ham doimo aloqada bo'lgan. Jumladan, huquqshunoslik fanlaridan davlat va huquq nazariyasi, ma'muriy huquq, siyosiy

va huquqiy ta'limotlar tarixi, xalqaro huquq kabilar siyosat obyektlari va davlat siyosati masalalarini bevosita o'rganadi. Siyosatshunoslik fani yuqoridagi huquqiy fanlar bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotning xilma-xil masalalarini o'rganishda ularda ishlab chiqilgan nazariy xulosalarga, amaliy tajribalarga asoslangan holda ish olib boradi hamda jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardan, umuman bu fanlarning yutuq va imkoniyatlaridan foydalanadi.

Garchi uning predmeti va mazmuni boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlardan farq qilsa-da, biroq siyosiy jarayonlar va munosabatlarning kechishini o'rganishda boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlarning xulosalariga tayanadi, ularda ishlab chiqilgan nazariy qoida va xulosalarning mohiyatini umumlashtiradi.

Jamiyat hayotida biror-bir siyosiy o'zgarish, siyosiy voqea-hodisalar siyosatning ta'siridan chetda qolmaydi. Shu bois siyosatshunoslik fan sifatida jamiyat hayotining turli sohalari-dagi o'zgarishlarda siyosatning o'rni va rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi. Bu hol, shubhasiz, uning boshqa siyosiy fanlar bilan bog'liqligini, o'zaro aloqalarini ifodalaydi. Bunday aloqadorlik siyosiy fanlarda jamiyatning siyosiy hayoti va munosabatlariga daxldor masalalarni o'rganish bilan ham belgilanadi.

Masalan, falsafa siyosatning birmuncha umumiy tomonlarini o'rganadi. Siyosiy muammolar, voqea-hodisalarni falsafiy jihatdan umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan nazariy qoida va xulosalar, falsafaga xos umumiy qonuniyatlar siyosatshunoslik fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi holat siyosatshunoslikning falsafa fani bilan qanchalik bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Siyosiy fanlarning har biri jamiyat hayotiga oid masalalarni turli tomondan o'rganganligi uchun ham biz jamiyat, uning rivojlanishi to'g'risida aniq tushuncha va bilimga ega bo'lamiz.

Shuningdek, so'nggi yillarda fanlarning tarixiy taraqqiyot davomida tabiiy ravishdagi bo'linishi hamda fanlararo mehnat taqsimotining ro'y berishi siyosatni u yoki bu jihatdan tahlil etuvchi siyosiy nazariya, siyosiy institutlar to'g'risidagi ta'limot, siyosiy sotsiologiya, xalqaro siyosat nazariyasi, siyosiy ta'limotlar tarixi, siyosiy antropologiya, siyosiy psixologiya,

siyosiy geografiya, siyosiy ekologiya, siyosiy astrologiya kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi oraliq fanlarni vujudga keltirdi.

Jumladan, siyosatshunoslik va boshqa fanlar orasida oraliq mavqeni egallovchi fanlardan biri siyosiy sotsiologiya siyosat va jamiyat, ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni; siyosiy psixologiya inson hissiyotlari va irodasi, e'tiqodining umuman, siyosiy xulq-atvorning siyosatga ta'sirini; siyosiy antropologiya insondagi biologik, intellektual, sotsial, madaniy, diniy va boshqa xususiyatlarning siyosatga ta'sirini o'rganisa, siyosiy geografiya siyosiy jarayonlarning hududiy joylashish, iqtisodiy-geografik, tabiiy iqlim sharoitlari va boshqa tabiiy omillar (dengiz va okeanlarga yaqinlik, kuchli davlatlar bilan qo'shnichilik) bilan bog'liqligini o'rganadi. Siyosiy astrologiya esa, garchi xulosalari taxminiy va shubhali bo'lsa-da, fazo, yulduzlar joylashishi, quyosh faolligining siyosiy hodisalar, ommaviy xulq-atvor hamda siyosiy faollikka ta'sirini o'rganadi.

Demak, siyosatni turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganish imkoniyati mavjud va ayni paytda yuqorida qayd etilgan fanlarning birortasi ham siyosat to'g'risida yaxlit, tugal tasavvurni bermaydi. Ulardan hech biri siyosatni o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida yaxlitligicha maxsus o'rganmaydi. Siyosatshunoslik esa siyosat sohasi bilan bog'liq bo'lgan bilimlar to'g'risida ana shu vazifani amalga oshiradi.

Siyosat nima? U jamiyatni tartibga solish va o'zgartirishga qodirmi? Agar qodir bo'lsa, uni qay ahvolda tartibga soladi va o'zgartira oladi? Siyosiy hokimiyat nima? Davlat bilan fuqaroning, hokimiyat bilan xalqning bir-biriga munosabati qanday tamoyillar asosida qurilmog'i kerak? Demokratik davlat nima? Uni qanday barpo etish mumkin? Ushbu siyosiy masalalar bo'yicha umumnazariy tadqiqotlar olib borish siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi va bu savollarga batafsil javob beradi.

Modomiki shunday ekan, siyosatshunoslik nimani o'rganadi, ya'ni uning predmeti nima, degan savol tug'iladi. Bunga quyidagicha javob berish mumkin. *Siyosatshunoslik jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarini hamda jahon siyosatining namoyon bo'lish yoki ta'sir etish xususiyatlarini o'rganuvchi fandır.*

Jamiyatni boshqarish va undagi muammolarni hal qilishga daxldor bo'lgan davlat, siyosiy partiyalar va harakatlar, xalqaro siyosiy tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, shuningdek, ijtimoiy guruhlarining siyosiy faoliyati ham siyosatshunoslikning predmetini tashkil etadi.

Bu fanning predmeti to'g'risida boshqa bir qator ta'riflar, qarashlar ham mavjud. Biroq ularning hammasi mohiyatan bir-biriga o'xshashdir.

1. Siyosatshunoslik jamiyatda hokimiyatni an'anaviy tarzda amalga oshiruvchi davlat, partiyalar va boshqa institutlarni, shuningdek, boshqa siyosiy institutlarni tadqiq etuvchi fandır. Fanning predmeti xususidagi bunday an'anaviy qarash u o'rganadigan bosh obyekt — davlat, uning tuzilishi va faoliyati bo'lganligidan kelib chiqadi.

2. Siyosatshunoslik — siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar, siyosiy madaniyat, xalqaro tizimlar, ularning mexanizm va vositalari hamda amaliyotini o'rganuvchi fan. Bu ta'rifga ko'ra siyosiy tashkilotlarning shakllanishi va rivoji, siyosiy madaniyat va mafkura, xalqaro tizimlar hamda umumbashariy taraqqiyotning siyosiy muammolarini o'rganish siyosatshunoslik fanining asosiy yo'nalishidir.

3. Siyosatshunoslik — jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy jarayonlar va siyosiy hokimiyat, uning asosiy tarkibiy qismlari, davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, siyosiy tashkilotlar va harakatlar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar, fuqarolarning o'rni va roli, hokimiyatga munosabat, uni saqlab turish mexanizmi va vositalari, jarayonlari hamda amaliyotini o'rganadigan fan.

Fikrimizcha, so'nggi ta'rif o'zining keng qamrovliligi va ravonligi bilan e'tiborga molikdir.

Masalani yanada soddaroq bayon qilib aytish mumkinki, siyosatshunoslikning predmeti — siyosat. Siyosat esa siyosiy hokimiyatni shakllantiradi. Demak, siyosatga oid fan haqida so'z yuritganda muayyan ma'noda hokimiyat haqidagi fanni nazarda tutgan bo'lamiz.

Ammo keyinchalik siyosatshunoslik predmeti boshqa siyosiy fanlar o'rganmaydigan masalalar, masalan, siyosiy jarayonlar,

siyosiy xulq-atvor, siyosiy tizimlar va hokazolar hisobiga kengayib bordi. Natijada, dunyoda siyosatshunoslikni siyosat haqidagi umumiy, yagona, ayni paytda ko'p tarkibli fan sifatida qabul qilish, uni siyosat va uning shaxs hamda jamiyat bilan o'zaro ta'siri to'g'risidagi yagona, integral fan deb e'tirof etish keng tarqalmoqda¹. Ayrim olimlarning fikricha², bu fanga bundan-da aniq umumiy ta'rif berish mumkin emas. Bu, avvalo, «siyosat» atamasining ko'p ma'noliligi, uni tavsiflashning xilma-xil usullari mavjudligi, siyosatshunoslik predmeti haqidagi tasavvurlarning munozaraliligi bilan izohlanadi. Shularning barchasini hisobga olib, ayrim mualliflar mazkur fanga umum e'tirof etuvchi ta'rif izlashdan voz kechish kerak, deb hisoblaydilar.

Siyosatshunoslikning fan sifatidagi o'ziga xos jihati shundaki, u barcha ijtimoiy jarayonlarni siyosiy hokimiyatga nisbatan o'rganadi. Shuning uchun ham aynan «siyosiy hokimiyat» kategoriyasi siyosat fenomenining mohiyat va mazmunini to'liq ochib beradi. Qayerdagi hokimiyat uchun kurash mavjud ekan, u yerda siyosat bo'ladi. Hokimiyatsiz siyosatning yoki siyosatning hokimiyatsiz mavjud bo'lishi mumkin emas, chunki siyosat hokimiyat orqali amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, siyosatshunoslik siyosiy institutlarni jamiyat, fuqarolar bilan o'zaro aloqadorlikda deb biladi. Chunki siyosiy institutlar kishilar ijtimoiy hayotining tashkiliy shakli, fuqarolar esa siyosiy institutlarning ijtimoiy manbayidir.

Shuning uchun siyosatshunoslikni siyosiy hokimiyatni kim, qaysi siyosiy yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday maqsadlar, manfaatlar va prinsiplar asosida amalga oshirishi qiziqtiradi.

Siyosatshunoslik fani siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirishda o'rnatilgan siyosiy rejim faoliyati doirasi, shuningdek, muayyan guruhlar mavqeyi va munosabati, hokimiyat qamrovi, uni boshqarish usullarini aniqlab beradi.

Xullas, yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida siyosatning mohiyatini yoritish siyosatshunoslikning predmetidir.

¹ Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сийәсәтшуносликка кириш. – Т., 2004. – В. 31.

² Nemis olimi P.Noak siyosatshunoslikni siyosiy nazariya, siyosiy institutlar to'g'risidagi ta'limot, siyosiy sotsiologiya, xalqaro siyosat nazariyasidan iborat fan deb hisoblaydi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, siyosatshunoslik jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Siyosiy jarayonlarning borishi, unda ishtirok etayotgan siyosiy kuchlar tomonidan siyosatning idrok etilishi, ularning maqsad va maslakhari, tashabbuslari, faollik darajalari siyosatda o'z ifodasini topadi.

Siyosatshunoslik jamiyat hayotining siyosiy sohasini o'rganar ekan, unda jamiyatni boshqarishning asosiy institutlari, davlat, partiyalar va boshqa siyosiy-ijtimoiy tashkilotlarning o'zaro munosabatlari mazmunini, xarakterini ham hisobga oladi. Chunki siyosiy munosabatlarning natijasi ko'proq ana shularga bog'liq bo'ladi.

Siyosatshunoslik fanida jamiyat siyosiy hayoti, uni harakatga keltiruvchi siyosiy tuzilmalar va mexanizmlar faoliyatini o'rganish yetakchi o'rinni egallaydi. Ya'ni, u asosiy e'tiborni siyosiy institutlarning asl mohiyatini tashkil etgan davlat, parlament, hukumat, siyosiy muassasalar va partiyalar rolini o'rganishga qaratadi.

Agar siyosiy institutlarni, guruhlarini siyosatning subyektlari tarzida tasnif qiladigan bo'lsak, ularni ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, ijtimoiy guruhlar, millatlar va boshqa ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar, ikkinchisi, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiyalar, harakatlar bilan muayyan siyosiy kuchlar o'rtasidagi munosabatlar. Bir-biriga to'liq mos keladigan yoki biri ikkinchisini uyg'unlashtiradigan maqsadlar yo'lida siyosiy kuchlar o'zaro harakat qilishi va konsensusga ega bo'lishiga siyosiy hamkorlikka erishish deyiladi.

Siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlarida bir-biriga mos kelmaydigan holatlar ayrim hollarda siyosiy ixtiloflarga sabab bo'ladi. Siyosiy munosabatlarda bunday holatlarni hisobga olish siyosatdagi strategik maqsadlarni amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Demak, siyosatshunoslikning obyektini jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy institutlar va turli guruhlar, predmetini esa siyosat, siyosiy munosabatlar va hokimiyatning rivojlanish qonuniyatlari tashkil etadi.

Boshqa ijtimoiy fanlar singari siyosatshunoslik ham muay-

yan qonuniyatlarga muvofiq ish olib boradi. Ayrim mualliflar siyosatshunoslikning asosiy qonuniyatlarini uch guruhga bo'ladilar.

1. Siyosiy-iqtisodiy qonuniyatlar — jamiyatning iqtisodiy bazisi bilan siyosiy hokimiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aks ettiradi.

2. Siyosiy-ijtimoiy qonuniyatlar — siyosiy hokimiyatning o'ziga xos ijtimoiy tizim sifatidagi rivojlanishini xarakterlaydi. Bu asosiy qonuniyat siyosiy hokimiyatning barqarorligini mustahkamlashni ifoda etadi.

3. Siyosiy-psixologik qonuniyatlar — shaxs va hokimiyat o'rtasida amal qiluvchi munosabatlar majmuini tashkil etadi. Bu qonuniyatdagi eng muhim jihat siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va uni ushlab turishdir. Bu qonuniyat birinchi bo'lib N. Makiavelli tomonidan ta'riflab berilgan.

Siyosatshunoslikning qonuniyatlari obyektiv xarakterga ega bo'lib, ular ayrim adabiyotlarda¹ ikki guruhga ajratib ko'rsatilgan.

Birinchi guruhga mamlakatlarning ichki siyosiy hayotida amal qiladigan qonuniyatlar kiradi. Bular ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, siyosiy hokimiyat mexanizmlaridan samarali foydalanish, siyosiy boshqarish prinsiplariga amal qilish singari ko'plab umumiy qonuniyatlardir.

Ikkinchi guruhni xalqaro siyosiy munosabatlar doirasida amal qiladigan umumiy qonuniyatlar tashkil etadi. Bularga turli davlatlar bilan siyosiy hamkorlikni amalga oshirish, xalqlarning tinchtotuv yashashi uchun kurash, xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etishda siyosiy vositalardan foydalanish, umumbashariy muammolarni hal qilishda siyosat kuchidan foydalanish kabi umumiy qonuniyatlar kiradi.

Bugungi kunda rossiyalik olimlar siyosatshunoslikning qonuniyatlari to'g'risida quyidagi yangi talqinlarni ham ilgari surmoqdalar:

— siyosiy va huquqiy madaniyatning rivoji barobarida odam-

¹ Носирхўжаев С., Сафарбоев М., Султонов К. Сийосатшунослик фанидан кўрғазмали методик қўлланма. — Т., 1997. — В. 13.

larning jamiyat siyosiy hayotida ongli ravishda ishtiroki kengayishi tufayli siyosatning demokratlashuv tendensiyalari kuchayishi;

– taraqqiyotning o'tish bosqichlarida siyosiy liderlik rolining oshishi;

– tarixiy taraqqiyotning murakkab davrlarida siyosiy faoliyatga qatnashuvning faollashuvi va hokozolar¹.

Siyosatshunoslikning mohiyati va mazmunini ifodalashda uning kategoriyalari muhim ahamiyatga ega. Siyosatshunoslikning kategoriyalari ham boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlarning kategoriyalari kabi shu fanda o'rganiladigan masalalarni umumiy tarzda ifodalashda qo'llaniladi. «Kategoriya» tushunchasi siyosiy fanlarda jamiyat hayotida ro'y beradigan voqea-hodisalar, o'zgarishlarni umumiy tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Siyosatshunoslik kategoriyalariga «siyosat», «siyosiy hokimiyat», «siyosiy jarayonlar», «siyosiy hayot», «siyosiy munosabat», «siyosiy faoliyat», «siyosiy partiyalar», «siyosiy tashkilotlar», «siyosiy institutlar», «siyosiy tizim», «siyosiy ong va madaniyat», «siyosiy qadriyatlar», «xalqaro siyosiy munosabatlar», «siyosiy qatnashuv», «siyosiy begonalashuv», «jahon siyosati», «geopolitika» va boshqalar kiradi.

Bu tushunchalarning har biri o'z siyosiy mazmuniga ega bo'lib, siyosiy jarayonlar tizimida namoyon bo'ladi. Masalan, siyosat davlat ishlarida ishtirok etish, davlatning yo'nalishini, faoliyat mazmunini, shakli va vazifalarini belgilashda ishtirok etish, siyosiy hokimiyat esa muayyan xalq, sinf, guruh, shaxs siyosatida ifodalangan irodaning amalga oshirilish imkoniyatini anglatadi. Jamiyat va siyosatning fundamental asoslaridan biri bo'lgan siyosiy hokimiyat turli erk-irodalarning hokimiyat uchun to'qnashuvida siyosiy kuchlar muvozanati sifatida vujudga keladi.

«Siyosiy tizim» kategoriyasi davlat hokimiyati va boshqaruvini shakllantirish hamda amalda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar mohiyatini, siyosiy jarayon kategoriyasi esa individlar, guruhlar, hokimiyat institutlarining o'ziga xos o'rni va vazifalarini amalga oshirish uchun bir-

¹ Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. – М., 2000. – С. 25.

birlari hamda davlat bilan o'zaro munosabatlari mohiyatini ochib beradi.

«Siyosiy institutlar» kategoriyasi ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi, muayyan subyektlarning manfaatini ko'zlab ish ko'ruvchi davlat, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy muassasa va tashkilotlar.

«Siyosiy hayot» kategoriyasi esa siyosiy hokimiyatni joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotning bir qismi, sohasini ifoda etadi.

Siyosatshunoslik kategoriyalari umumiylik xususiyatiga ega bo'lib, boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlarning ham kategoriyasi hisoblanadi. Masalan, ong muammosini sotsiologiya fani guruh ongi, davlat va huquq nazariyasi esa huquqiy ong muammosi sifatida, siyosatshunoslik fani esa siyosiy ong muammosi tarzida o'rganadi, madaniyatni siyosiy madaniyat tarzida tahlil etadi.

Siyosatshunoslikning kategoriyalari siyosatga daxldor masalalarni oydinlashtirishga, bir tushuncha orqali keng ma'noli fikrni umumlashtirgan holda ifodalashga xizmat qiladi.

3. Siyosatshunoslikning vazifalari va usullari

Har qanday fan singari siyosatshunoslik ham muayyan vazifalarni bajaradi. Siyosatshunoslikning siyosiy-ma'rifiy vazifalari yuqorida umumiy tarzda yoritilganligi bois, quyida ushbu faning aniq vazifalari xususida to'xtalamiz:

1. Siyosiy hodisalarni bilish vazifasi. Bu vazifa orqali inson ongida siyosiy voqelik, uning rivojlanishi haqida umumiy bilim va tasavvurlar hosil bo'ladi. Jamiyatning siyosiy hayotida ro'y beradigan voqea-hodisalar va o'zgarishlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

2. Tushuntiruvchilik vazifasi orqali siyosatshunoslik siyosiy hodisalar va jarayonlarni tushuntiradi. Siyosiy hayotda paydo bo'luvchi savollarga (xususan, nimaga, qanday sabablarga ko'ra muayyan holat kelib chiqdi kabi) javob beradi. Siyosiy tizimlarning, davlat institutlari va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning o'rnini, vazifalarini, ularning o'zaro munosabatlarini tushuntirib beradi.

3. Siyosatshunoslik siyosiy hodisalar va jarayonlarni tushuntiribgina qolmay, baholaydi ham. Bunda uning baholash vazifasi o'z ifodasini topadi. Jahon tajribasi siyosiy qarashlarni yagona mafkuraga bo'ysundirish g'oyasining asossizligini hamda siyosiy fikr va demokratiya rivojiga zid ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi davrda siyosiy institutlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizm avtoritarizm va totalitarizm g'oyasiga zid ravishda aholining jamiyat siyosiy hayotida kengroq ishtirok etishini ta'minlamoqda. Shundan kelib chiqqan holda siyosatshunoslik siyosiy tuzumni, undagi siyosiy tartiblarni, muassasalarni, xulq-atvor va voqealarni sinfiylik nuqtayi nazaridan emas, balki umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida baholaydi.

4. Siyosiy bilimlarni to'plash, to'ldirish va boyitish, qonun va tushunchalarni ishlab chiqish orqali siyosatshunoslik mavjud siyosiy tuzilmalar faoliyatini, ularni yangidan tashkil etish tamoyillarini nazariy aks ettiradiki, bu uning nazariyotchilik vazifasiga kiradi.

5. Siyosiy jarayonlarni tahlil qilishning muayyan yo'llarini ishlab chiqish siyosatshunoslikning uslubiy vazifasida o'z ifodasini topadi.

6. Siyosiy voqelik dalillarini o'rganish, to'plash, ularga tavsif berish, dalillarni tizimlashtirish, shu asosda siyosiy taraqqiyotning qonuniyatlarini ochib berish siyosatshunoslikning tavsiflash, bayon qilish vazifasiga kiradi.

7. Siyosatshunoslik faqat nazariya emas, balki amaliyot hamdir. Amaliy siyosat bilan bog'liq vazifalarni bajarish asnosida siyosatshunoslik «Ko'zlangan siyosiy maqsadni amalga oshirish uchun qanday qaror qabul qilish lozim yoki qanday amaliy harakat qilish kerak?» kabi savollarga javoblar taklif qiladi.

8. Siyosatshunoslikning eng asosiy vazifalaridan biri aholining siyosiy madaniyatini shakllantirishdir. Zero, siyosiy madaniyat jamiyatni birlashtirishga, elita va elektorat munosabatlari barqarorligini ta'minlashga, fuqaroga o'z huquqlari, siyosiy vazifa va manfaatlarini amalga oshirishda imkon beruvchi muayyan ko'nikmalarni egallashga yordam beradi.

9. Shu asosda siyosatshunoslik siyosiy xulq-atvorni tartibga

solish va siyosiy hayotni mukammallashtirish vazifalarini ham bajaradi.

10. Siyosatshunoslik bashorat qilish vazifasini ham ado etadi. Siyosiy qarorlar qabul qilishda, siyosiy jarayonlar va munosabatlarni modellashtirishda bashorat muhim ahamiyatga ega. U jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida obyektiv, qonuniy jarayonlarni bilish, real siyosiy vaziyatni, uning asosiy ziddiyatlarini va ijtimoiy kuchlar nisbatini tahlil etish asosida voqealarning qaysi tomonga rivojlanishini oldindan bashorat qiladi. Bu bilan u amaliyotda oqilona qarorlar qabul qilish, eng ma'qul, to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradi.

Yuqoridagilardan tashqari siyosatshunoslik jamiyat taraqqiyoti, siyosiy hokimiyatning shakllanishi va amal qilishi, shaxsning ijtimoiylashuvi, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning shakllanishi kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan nazariya, konsepsiyalarni ishlab chiqish vazifasini ham bajaradi.

Xo'sh, bugungi sharoitda O'zbekistonda siyosatshunoslik qanday nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda? Quyida ana shu savollarga javob beramiz:

1) mamlakatimizning siyosiy hayotida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va uni jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari bilan solishtirish asosida mamlakatimiz, millatimiz xususiyatlariga va manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy xulosalar berish;

2) O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga kirib borishining qulay yo'llarini belgilash;

3) jamiyatda demokratik jarayonlarni rivojlantirishning mexanizmlarini vujudga keltirish va ularning uyg'un holatda faoliyat ko'rsatishlariga yordamlashish;

4) fuqarolarning siyosiy madaniyati, salohiyati va faoliyatini oshirish, ularda mamlakatimiz oldida turgan ulkan vazifalarni bajarishida yakdillik ruhiyatini, jahonda va mintaqamizda sodir bo'layotgan turli o'zgarishlarga siyosiy hushyorlik bilan qarash tuyg'ularini shakllantirish;

5) siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va yuksak ilmiy salohiyat mamlakat mustaqilligini ta'minlashning, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallashning

asosiy sharti ekanligini yoshlarimizning ongi va qalbiga singdirish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiya vazifasini amalga oshiradi¹.

Siyosatshunoslik siyosiy hodisa va jarayonlarni o‘rganishda xilma-xil usullardan foydalanadi. Bu usullar uning predmetini chuqurroq va har tomonlama bilish imkonini beradi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan ahamiyatga molik usullarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

– siyosatni tadqiq etishning umumiy usullari (Ularni zamonaviy siyosatshunoslikda ko‘pincha «umumiy yondashuvlar» deb ham atashadi);

– siyosatni tadqiq etishning umummantiqiy usullari;

– empirik tadqiqot usullari.

Birinchi guruhdagi eng muhim usul yoki yondashuvlardan biri – **sotsiologik yondashuv** siyosatning jamiyatga bog‘liqligiga, siyosiy hodisalarning ijtimoiy belgilanganligiga, iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy qatlamlashuv, mafkura va madaniyatning siyosiy tizimga ta’siriga alohida e’tibor beradi. U siyosatga turli ijtimoiy guruhlarining o‘z manfaatlaridan kelib chiquvchi raqobati sifatida qaraydi. Sotsiologik yondashuv siyosiy sotsiologiyada markaziy o‘rinni egallaydi va bu yondashuvdan **me’yoriy yondashuv** kelib chiqadi. U siyosiy hodisalarning jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini aniqlash, ularni umumiy farovonlik, adolat, erkinlik, inson sha’nini hurmat qilish va boshqa qadriyatlar nuqtayi nazaridan baholashni taqozo etadi.

Me’yoriy yondashuv siyosiy borliqni ideallashtirgani uchun amaliyotdan uzoq deya tanqid qilinadi. Ammo bu yondashuv, birmuncha cheklanganligiga qaramay, siyosatshunoslik uchun zarur, chunki u siyosatga axloqiy, insoniy mezonlarni olib keladi, unga gumanistik ruh beradi.

Siyosatni tadqiq etishning umumiy usullari qatoriga funksional, tizimli, institutsional, antropologik, psixologik, faoliyatli, tanqidiy dialektik, qiyosiy, tarixiy yondashuvlarni ham kiritamiz.

Jumladan, **funksional yondashuv** siyosiy voqea-hodisalarni o‘rganishda ular o‘rtasidagi bog‘liqliklarni faqat dalillar va tajriba

¹ Политология: Маърузалар матни / Тақризчилар: В.С. Ким, Ж. Бахронов. – Т., 2000. – В. 11.

asosida tekshirishni afzal ko'radi. Masalan, iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan siyosiy tuzum o'rtasidagi, aholining urbanizatsiya darajasi va siyosiy faollik o'rtasidagi bog'liqliklarni tajriba asosida tekshirishni talab etadi. Bu usul fanda ilk bor N. Makiavelli tomonidan qo'llanilgan.

Siyosatga nisbatan **tizimli yondashuv** esa XX asrning 50–60-yillarida taniqli amerikalik olim T. Parsons va D. Iston tomonidan ishlab chiqildi. Uning mohiyati siyosatni yaxlit, murakkab, o'z-o'zini boshqaruvchi mexanizm sifatida baholashdan iborat. U siyosatni tizimli tahlil etish vositasi hisoblanadi va siyosiy tizim kategoriyasini o'rganishda katta samara beradi. Chunki siyosiy tizim jamiyatdagi oliy hokimiyat egasi bo'lib, o'zini doimo saqlab qolishga intiladi. Siyosiy tizimlarni totalitar, avtoritar, demokratik tiplarga bo'lish tizimli yondashuv natijasidir.

Institutsional yondashuv davlat, partiyalar, turli tashkilotlar va uyushmalar, siyosiy faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa institutlarni o'rganadi.

Antropologik yondashuv qadim tarixga ega bo'lib, u siyosatni ijtimoiy omillar emas, balki inson tabiati, har bir odamga xos bo'lgan ehtiyojlar (ovqat, kiyim, uy-joy, xavfsizlik, erkinlik, muloqot, ma'naviy o'sish va boshqalar) belgilaydi, deb hisoblaydi. Bugungi kunda antropologik yondashuv insonning erkinlikka tug'ma egaligi, irqiy, etnik, ijtimoiy, geografik va boshqa farqlarga qaramay barcha odamlarning tengligi, davlat tuzilishi va qonunlariga nisbatan insonning tabiiy, asosiy huquqlarining ustuvorligi prinsipidan kelib chiqqan holda siyosatni tadqiq etishga ahamiyat bermoqda.

Siyosatni o'rganishda qo'llaniladigan **psixologik usul** siyosiy xulq-atvorning subyektiv mexanizmlarini, individual sifatlarni o'rganishga katta e'tibor beradi. Hatto Konfutsiy o'z davrida Xitoy hukmdorlariga fuqarolar ishonchi va itoatini ta'minlash uchun o'z faoliyatlarida ularning psixologiyasini hisobga olishni tavsiya etgan. N. Makiavelli esa «Davlat» asarida hokimlik psixologiyasini ishlab chiqishga samarali hissa qo'shgan.

Zamonaviy siyosatshunoslikda bu masalada Z. Freyd ishlab

chiqqan ruhiy tahlil usuli e'tiborga molikdir. Freydning fikricha, odamdagi kuchli va affektiv kechinmalar uning ongidan yo'qolmaydi, balki botiniy ongga o'tadi va siyosiy xulq-atvorga kuchli ta'sir ko'rsatishda davom etadi. Bu usul yordamida siyosiy xulq-atvorning har xil turlarini tushuntirish mumkin. Masalan, avtoritar shaxsiyat egasi bo'lgan inson o'z qo'lidagi hokimiyatdan o'zidagi shaxsiy nomukammallik, turli komplekslar, ichki zo'riqish hislarini yengish uchun foydalanishi kuzatilgan.

Faoliyatli yondashuv esa siyosatning rivojlanish tasvirini ochib beradi. Unga ko'ra siyosat butun jamiyat uchun majburiy qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonidir. Siyosatni jamiyatni boshqarishning o'ziga xos shakli sifatida talqin qilish ushbu usulga xosdir.

Tanqidiy dialektik usul esa siyosatni tanqidiy tahlil asosida o'rganib, undagi ichki ziddiyat va ixtiloflarni siyosiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi manbayi deb biladi. Bu usul jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni umumiy aloqadorlik va o'zaro ta'sir natijalariga asoslangan holda tahlil qiladi. Tanqidiy-dialektik usul siyosatning marksistik tahlilida, neomarksizm (I. Xabermas, T. Adorno va boshqalar), so'l liberal va sotsial-demokratik g'oyaviy-siyosiy oqimlarida qo'llanilgan. Jamiyatni plyuralistik asosda tashkil etishning barcha tarafdorlari tanqidiy-dialektik usulni samarador usul deb biladilar. Chunki plyuralizm xilma-xil g'oyalar, qadriyatlar, siyosiy, iqtisodiy va madaniy institutlar, individlar va guruhlarning ziddiyatlari, raqobatli kurashiga asoslanadi. Siyosatshunoslik va sotsiologiyaning muhim tarmoqlaridan biri – konfliktologiya uchun ham tanqidiy-dialektik yondashuv asosiy usul hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlarda ro'y beradigan voqea-hodisalarni o'zaro taqqoslash, ularni bir-biriga solishtirish orqali siyosiy hayotning eng samarali shakllarini yoki vazifalarni hal qilishning ma'qul yo'llari haqida ilmiy xulosalar berishni ko'zda tutuvchi usul **qiyosiy usul** bo'lib, u dastlab Platon va Aristotel tomonidan qo'llanilgan.

O'tmishning tarixiy hodisa va dalillarini **tarixiy yondashuv** asosida o'rganish esa uning hozirgi kun va kelajak bilan bog'-

liqligini aniqlashga, tarixda yo‘l qo‘yilgan xatolardan siyosiy saboq chiqarishga yordam beradi.

Siyosatni tadqiq etishning ikkinchi guruhiga mansub usullari umummantiqiy usullar bo‘lib, ularga **induksiya va deduksiya, analiz va sintez, modellashtirish, xayoliy eksperiment, matematik, kibernetik bashorat** kabilar kiradi.

Siyosatni tadqiq etishning uchinchi guruhini esa **empirik tadqiqot, siyosiy voqelik to‘g‘risida birlamchi axborot olish usullari** tashkil etadi.

Empirik usul anketa so‘rovi, laboratoriya tajribalari, hujjatlar tahlili, statistik tahlil, matematik modellashtirish, tajriba qilinayotgan vaziyat sharoitidagi odamlarning xulq-atvorini kuzatish kabilardan foydalanadi.

XX asrning 50-yillarida empirik tahlillar funksionalizmning o‘ziga xos hosilasi sifatida bixevioristik yondashuvni keltirib chiqardi. Bixevioristlar fikricha, siyosatshunoslik qat’iy ilmiy, empirik usullar yordamida odamlarning bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan siyosiy xulq-atvorini o‘rganishi kerak. Dalillar va qadriyatlarni bir-biridan ajratish, fanni qadriyatli mulohazalardan xoli qilish tarafdori bo‘lgan bixevioristlar bilish jarayonida faqat dalillar va mantiqqa suyanishni taklif etadilar.

Bixevioristlarning kuzatish, statistik ma’lumotlar va hujjatlarni o‘rganish, anketa so‘rovlari, laboratoriya tajribalarini keng qo‘llashni izchil rag‘batlantirishlari tadqiqotlarning yangi darajasi — amaliy siyosatshunoslikning rivoji uchun shart-sharoit yaratdi. Amaliy siyosatshunoslik xulosalari, odatda, siyosiy barqarorlikni saqlab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi aniq tavsiyalar va qisqa muddatli bashoratlarni muayyan subyektlar uchun ular faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida bayon etishdan iborat. Bu fanning imkoniyatlari hukumatning sog‘liqni saqlash, ijtimoiy, milliy va mudofaa siyosatida va boshqa faoliyatida dasturlar tuzishda, ijtimoiy ixtiloflarning oldini olish yoki ularni hal etish yo‘llarini belgilashda, jamiyat uchun zarur bo‘lgan murosaga kelishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman, siyosatshunoslik usullarini umumlashtirib:

- 1) siyosiy tahlil;
- 2) qiyosiy taqqoslash;

3) empirik sotsiologik usullarga bo'lish mumkin.

Siyosatshunoslikning usullari uning nazariya va amaliyot uyg'unligidan iborat fan ekanligini ko'rsatib turibdi. Siyosatshunoslik usullaridan samarali foydalanish asosida mamlakat va xalqaro maydondagi siyosat, uning o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish istiqbollari to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Umuman, nazariy va amaliy siyosatshunoslik bir butunlikni tashkil etib, bir-birini to'ldirib boradi, siyosatning samaradorligi va insonparvarligi yo'lida muhim imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda siyosatshunoslik fanining o'rni va ahamiyati tobora o'sib bormoqda. Bu bevosita quyidagi omillarga bog'liq:

1) dunyoning bir-biriga qarama-qarshi ikki qutbga bo'linishi oqibatida kuchli qarama-qarshilik barham topganidan keyin ham dunyoda osoyishtalik qaror topmadi. Insoniyat XXI asrda ham ko'pgina global muammolarga duch kelmoqda. Global xavfsizlik jahonda yangi siyosiy tartibni, ko'p qutbli olamni, tolerantlik va harbiy-siyosiy muvozanatni shakllanishiga bog'liq bo'lib, bu masalalar siyosat nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil etib borishni taqozo etadi;

2) umumbashariy muammolarni hal etishda mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikka qaratilgan qarashlar, nazariya va tahlillarni ishlab chiqish bu fanning dolzarb vazifasiga aylanmoqda;

3) jadal kechayotgan siyosiy jarayonlarning dunyo hamjamiyati va inson manfaatlari bilan uyg'unlashuviga erishish davr taqozosidir. Buning uchun siyosatga insonparvarlik ruhini olib kirish kerak. Bu ongli siyosiy faoliyatni, siyosatga ongli munosabatda bo'lishni talab etadi. Bularni o'rganish siyosiy fan vazifalaridir;

4) kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar shaxsda siyosatga qiziqish, u bilan shug'ullanishga ehtiyojning oshishi siyosiy bilimlar ahamiyatini yanada oshirmoqda;

5) demokratik tuzumga qarshi bo'lgan va jamiyatga u yoki bu ijtimoiy utopiyani tiqishtirayotgan turli xil radikal mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni fuqaro ruhiyatida shakllantirish zarurati siyosatshunoslikni keng o'rganishni talab etmoqda;

6) sivilizatsiyaning bugungi kundagi buyuk kashfiyotlaridan

biri — shaxs va hokimiyat tizimlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarda adolatning, inson qadr-qimmatining ustuvor ahamiyat kasb etishi, shaxs erki va huquqlarini himoya qilishga qodir demokratik qadriyatlarning shakllanganidir. Bu qadriyatlarni oʻrganmay turib, demokratik institutlarni shakllantirish, fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratish mumkin emas. Bunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan siyosatshunoslikka katta ehtiyoj sezamiz.

Barcha ijtimoiy fanlarda boʻlganidek, siyosatshunoslikda ham subyektivizmga yoʻl qoʻymaslik, uning oldini olish muammosi mavjud. Bu muammoni siyosiy jarayon, siyosiy bilimlarni oʻrganishda xolislik, ochiq-oydinlik va plyuralizmga rioya qilish orqali hal etish mumkin. M. Veber taʼkidlaganidek, auditoriyada oʻqituvchi ham, talaba ham siyosat bilan shugʻullanmasliklari lozim. Zero, siyosiy koʻrsatma va siyosiy muassasa yoki muayyan partiyaviy nuqtayi nazarining ilmiy tahlili amalda boshqa-boshqa narsalardir. Ilm tolibi oldidagi asosiy vazifa siyosatga oid nazariy bilimlarni egallash, murakkab siyosiy hodisa va jarayonlarni chuqur tahlil qilishga oʻrganishdir.

Siyosatshunoslik odamlarga ular qanday siyosiy nuqtayi nazarni egallashlari yoxud qaysi siyosiy partiyaga aʼzo boʻlishlari lozimligini oʻrgatmaydi. Bilʼaks u siyosat toʻgʻrisidagi ilmiy bilimlar majmuasidir. Har bir inson oʻz siyosiy yoʻlini mustaqil tanlashi lozim. Bunda, albatta, toʻgʻri yoʻlni tanlash imkoniyati koʻp jihatdan siyosatshunoslikni inson qay darajada oʻzlashtirganligiga bogʻliq.

Shunday qilib, siyosatshunoslik fanining oʻrni va ahamiyati hozirgi zamonda insoniyat taraqqiyotidagi oʻzgarishlar, siyosat va siyosiy jarayonlar bilan bogʻliqdir. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida kechayotgan erkinlashtirish jarayonlari kelajakda siyosiy fan nufuzining yanada mazmunan yetuk tadqiqotlar bilan boyishidan dalolat beradi.

Tayanch tushunchalar

Siyosat, siyosiy fan, siyosatshunoslikning predmeti, siyosatshunoslikning obyekti, siyosiy nazariya, siyosiy institutlar toʻgʻrisida taʼlimot, siyosiy sotsiologiya, xalqaro siyosat nazariyasi, siyosiy taʼlimotlar tarixi, siyosiy antropologiya, siyosiy psixologiya,

siyosiy geografiya, siyosiy ekologiya, siyosiy astrologiya, siyosatshunoslik fanining qonun va kategoriyalari, siyosatshunoslikning vazifalari va usullari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jamiyatda demokratik tartiblarni joriy etishda siyosiy bilim va siyosiy madaniyat qanday ahamiyatga ega?
2. Siyosatshunoslikning fan sifatidagi shakllanish tarixini tushuntiring.
3. XIX–XX asrlarda siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishida qaysi ilmiy maktablar, muassasalar va xalqaro tashkilotlar katta rol o'ynadi?
4. Sobiq SSSR va unga tobe mamlakatlarda siyosatshunoslik fanining o'qitilmaganligi sababini qanday izohlash mumkin?
5. Siyosatshunoslik fanining predmeti, tarkibiy qismlari, qonuniyatlari, kategoriyalari va vazifalari haqida gapirib bering.
6. Sotsiologik, me'yoriy, institutsional, antropologik, psixologik, tanqidiy-dialektik, qiyosiy, tarixiy yondashuv (usul)lar mohiyatini tushuntirib bering.
7. Siyosatshunoslikning empirik tadqiqot usullarini izohlang.
8. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tizimida siyosatshunoslik fanining o'rni va ahamiyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Siyosatshunoslik va huquqshunoslik fanlari o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
10. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda siyosatshunoslik fani qanday ahamiyat kasb etadi?

ADABIYOTLAR

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т. 8. —Т., 2000. — Б. 330–351.

Каримов И. А. Ўзгариш ва янгиланиш — ҳаёт талаби. Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг иккинчи сессиясида сўзланган нутқ. 2000 йил 25 май /

/ Каримов И. А. Т. 8. – Т., 2000 – Б. 479–488.

Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б. 5–22; 370–404.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 174–222.

Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006. – Б. 61–97.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 176.

Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. Т., 2007. – Б. 320.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. Т., 2008. – Б. 368.

Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат (фалсафий-сиёсий таҳлил). – Т., 2008. – Б. 202.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. – М., 2000. – С. 7–29.

Қодиров А. Қ. Сиёсат фалсафаси. – Т., 1999. – Б. 6–29.

Политология: Ўқув қўлланма / *Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А.* – Т., 1999. – Б. 3–15.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – Б. 26–47.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997. – Б.5 –21.

IJTIMOYIY-SIYOSIY TA'LIMOTLAR: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida siyosiy-huquqiy g'oyalarning kelib chiqishi

Siyosatshunoslikni ijtimoiy-tarixiy muhit taqozo etuvchi muayyan siyosiy qarashlar va g'oyalarsiz tasavvur etish qiyin. Siyosiy fikr tarixan huquqiy fikr bilan bog'liq bo'lib, ular o'rta-sida uyg'unlik mavjud. Jumladan, u yoki bu shaxsning, guruhning ijtimoiy tabaqa yoki sinfning mavqeyi huquqiy jihatdan asoslangan siyosatni taqozo etadi. Siyosatshunoslikning o'zak g'oyasi — siyosiy hokimiyat, jamiyatni boshqaruv, idora etish g'oyasidir. Buni chuqurroq anglamoq uchun siyosiy g'oyalarning ilk shakllanish davriga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Qadimgi Misr, Bobil, Hindiston va Xitoy xalqlari siyosiy-huquqiy qarashlaridagi o'ziga xos an'analar. Siyosiy-huquqiy qarashlar taxminan miloddan avvalgi 4 ming yillikda insoniyat sivilizatsiyasining ilk o'choqlari bo'lgan Sharq o'lkalari — Misr, Mesopatamiya, Hindiston va Xitoyda paydo bo'lgan. Sivilizatsiya insonlarning nafaqat oila, urug' yoki qabila tegrasidagi, balki davlat doirasida kechadigan madaniy hayoti, o'zaro aloqalarini anglatadi. Buni goho submadaniyat deb ham atashadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, hukmronlik va bo'ysunuvchilik munosabatlari, odamlarning siyosiy-huquqiy tasavvurlarida aks etib, bu tasavvurlar jamiyat sivilizatsiyalashuvi darajasining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Dastlabki siyosiy-huquqiy fikrlar barcha qadimgi xalqlarda, Sharqda ham, G'arbda ham diniy negizdagi afsona va rivoyatlar ta'sirida shakllangan.

Qadimgi xalqlardan misrliklar, bobilliklar (Dajla va Frot daryolari oralig'ida yashagan aholi), xitoyliklar, hindlar, yahudiy-lar, forslar, greklar va rimliklar yerdagi tartiblarni koinot tartiblarining uzviy bir qismi va kelib chiqishi jihatidan ilohiydir, xudo uning bosh sababidir, deya talqin qilganlar. Bunday tafakkur

tarzi uzoq davrlar mobaynida ijtimoiy-siyosiy ongda chuqur oʻrnashib, davlat, siyosatga oid gʻoyalarda ham oʻz ifodasini topgan.

Hokimiyat – hukmdorlik tarixan jamiyatda mehnat taqsimoti, tengsizlikning vujudga kelishi, bu tengsizlikni siyosiy-huquqiy jihatdan asoslashga yoʻnaltirilgan ilk urinishlar natijasidir. Masalan, Qadimgi Misrda oliy siyosiy va diniy hokimiyatni oʻz qoʻlida jamlagan firʻavn xudo va odamlar oʻrtasida vositachi sifatida ilohiylashtirilib, xudo irodasini ifoda etuvchi firʻavnga soʻzsiz va mutlaq itoat etish lozimligi miloddan avvalgi XXVIII asrga oid «Ptaxotep oʻgʻitlari» nomli qadimiy siyosiy-diniy hujjatda ham oʻz aksini topgan.

Dajla va Frot daryolarining oraligʻi – Mesopatamiyadagi siyosiy-huquqiy fikrlarning yorqin namunalari Vavilon, Assuriya va Xett podshohlarining qonunlari boʻlib, ularda hokimiyatning ilohiy tarzda kelib chiqqanligini ifodalovchi tasavvurlar aks etadi. Jumladan, miloddan avvalgi XVIII asrga oid Xammurapi (Vavilon podshosi) qonunlarida hukmdor oʻz fuqarolariga gʻamxoʻrlik qiluvchi, ayni paytda ilohiylik sifatlariga ega xudoga monand mavjudot sifatida tavsiflanadi.

Qadimgi Hindiston xalqlarining siyosiy-huquqiy qarashlarini oʻrganishda miloddan avvalgi 2 ming yillikka oid muqaddas bitik – Vedalar («Veda» – sanskrit tilida «bilim» degan maʼnoni anglatadi.) muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xudolarga bagʻishlangan madhiyalardan iborat boʻlgan rigvedalar bu masalada eng koʻhna va yirik yozma yodgorlik boʻlib, ularda azaldan yerda va butun koinotda oliy qudrat tomonidan oʻrnatilgan ilohiy tartibot, odamlarning bu tartibotga boʻysunishlari xususida soʻz yuritiladi.

Miloddan avvalgi IV–III asrlarda braxman Kautilya tomonidan yozilgan «Artxashastra yoki siyosat haqidagi fan» risolasida oʻsha davrga oid davlat va xoʻjalik boshqaruvi bilan bogʻliq boʻlgan qator masalalar bayon etilgan. Xususan, ideal shoh haqidagi qarashlarda uning adolatli va xalqparvar, oʻz lafzida turuvchi, yomonlikdan hazar qiluvchi, maʼrifatli, haqiqatga intiluvchi, zolim amaldorlarni boshqaruvdan chetlashtiruvchi boʻlishi lozimligi qayd etiladiki, bu gʻoyalar hozirgi zamon siyosiy

fani uchun ham nihoyatda qimmatli hisoblanadi. «Artxashastra»da ichki va tashqi siyosat masalalari ham qalamga olinib, hokimiyat va boylikni saqlab qolish hamda kuchaytirish uchun har qanday vositalardan foydalanish ma'qulligi g'oyasi ilgari suriladi (Oradan 2 ming yillar o'tgach, bu g'oyani N. Makiavelli «Hukmdor» asarida takrorlagan edi).

Qadimgi Xitoydagi ilk siyosiy-huquqiy qarashlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularda muqaddas bitiklarning emas, balki mutafakkir olimlarning davlatni tashkil etish, boshqarish, inson va jamiyat munosabatlari tahlili aks etgan ta'limotlari muhim o'rin egallaydi. Ular safida Konfutsiy (Kun-Fu-szi — mil. av. 551—479) qarashlari alohida ahamiyatga molik. Xitoyning keyingi taraqqiyoti uchun ham g'oyatda ahamiyatli bo'lgan konfutsiychilik falsafiy-axloqiy va siyosiy ta'limoti dinning o'ziga xos muqobili vazifasini o'tagan. Mamlakat turli mayda davlatchalarga bo'linib, ular o'rtasida to'xtovsiz nizolar va urushlar kuchaygan davrda yashagan bu mutafakkir davlatning patriarxal-paternalistik konsepsiyasini rivojlantirgan. Uning fikricha, davlat ulkan oiladir. Imperator hokimiyati oila boshlig'i, ya'ni otaning oiladagi hokimiyatidek, qo'l ostidagilarga nisbatan adolat va mehr-shafqatga asoslanishi lozim. Hokimiyatning ilohiy tarzda kelib chiqqanligini inkor etmagan holda Konfutsiy o'z diqqat-e'tiborini jamiyatda va davlatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalalariga qaratadi. U qadimda mavjud bo'lgan adolatli davlat boshqaruvi to'g'risidagi qarashlar va ular asosida yotuvchi ko'hna Xitoy urf-odatlariga sog'inch hissini tuyib, qadimgi e'tiqod va an'analarga katta umid va ishonch bilan qaraydi.

Konfutsiy «Lun-yuy» (Suhbat va mulohazalar) nomli risolasida «Men hech narsani kashf qilganim yo'q, balki o'tmish durdonalarini avlodlarga yetkazyapman. Men o'tmishga ishonaman va uni sevaman», deb yozgan edi.

Mutafakkir davlat va jamiyat boshqaruvini, avvalo, intizom va tartib bilan bog'lab «Podshoh podshohdek, xizmatkor xizmatkordek, ota otadek, o'g'il o'g'ildek bo'lsin», deydi. Bunday boshqarish — hammani joy-joyiga qo'yish degan xulosani chiqaradi. U odamlarni ijtimoiy kelib chiqishiga qarab to'rt

qatlarga ajratadi: aslzodalar (tabiiy tugʻma qobiliyatli); bilimlarga oʻqish-oʻrganish jarayonida ega boʻlganlar; bilimlarni qiyinchilik bilan oʻzlashtiruvchilar; bilim olishga intilmaydiganlar.

Konfutsiy fikricha, qatlamlararo tafovutlar ular oʻrtasidagi tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu tengsizlik kichiklarning kattalarga, quyi tabaqalarning yuqori tabaqalarga boʻysunishini, hokimiyatning aslzodalar qoʻlida toʻplanishi zarurligini taqozo qiladi. Konfutsiy siyosiy taʼlimotining negizida ezgulik, insoniylik gʻoyasi yotadi. Insoniylik oilada va jamiyatda izzat-ikrom bilan oʻzini tuta olishda, oʻz xizmatiga sidqidillik bilan yondashishda, boshqa kishilar bilan munosabatlarda adolatli boʻlishda namoyon boʻladi. Konfutsiydan koʻpgina hikmatlar yodgor boʻlib qolgan. Ular axloq-odob, turmush tarzi, baxt va omad kabi mavzularga oiddir. Masalan, «Mamlakatda imkoniyat borligida faqir va nochor boʻlishga, bunday imkoniyat yoʻqligida boy va zodagon boʻlishga uyal»¹, deydi. Oradan ikki yarim ming yil vaqt oʻtgan boʻlishiga qaramay, Konfutsiy taʼlimoti hozirgi Xitoyda hamon oʻz taʼsir kuchiga ega.

Qadimgi Gretsiya va Rimdagi ijtimoiy-siyosiy gʻoyalar. Dastlabki siyosiy gʻoyalar Sharqda paydo boʻlganligiga qaramay Gʻarbda, xususan, Qadimgi Gretsiya va Rimda tom maʼnoda ilmiy shaklga yaqinlashdi. Siyosiy fikr afsona va rivoyatlar qobigʻidan chiqib, inson, jamiyat masalalarini ilmiy-falsafiy talqin qilishga intildi. Buning boisi shuki, Qadimgi Gretsiyada xudolarga Sharq submadaniyatlaridagi kabi insonlardan ustun turuvchi, jamiyatga oʻz irodasini oʻtkazuvchi mutlaq kuch va haqiqat deb qarash emas, balki nisbatan erkin munosabat shakllangan edi.

Qadimgi Gretsiya va Rimda xudolar inson qiyofasida tasavvur qilingan. Bu esa xudolar toʻgʻrisida mulohazalarda birmuncha erkinlikni keltirib chiqargan. Qadimgi greklar davlat va xudolarni bir butun, yaxlit tasavvur etishgan. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotdagi turli muammolar ularni dunyoviy fikr-mulohaza yuritishga undagan. Shu bois aynan Qadimgi Gretsiyada hozirgi

¹ Антология мировой политической мысли: В 5 т. Т.1. – М., 1997. – С. 53 / Ирхин В.Д., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. – М., 2000. – С. 40

G'arb sivilizatsiyasining ilk kurtaklari vujudga kelib, dunyoviy bilimlarning taraqqiyotiga yo'l ochilgan. Xususan, inson erkinligining ko'rsatkichi – demokratiya haqidagi tasavvurlar mifologiya va din o'rniga aniq dunyoviy bilimlarning rivojiga yo'l ochgan.

Biroq adolat yuzasidan shuni qayd etish lozimki, antik G'arb madaniyatidagi inson hurfikrliligi va ijtimoiy turmushdagi demokratik tartib kelib chiqishi ilohiy deya qaralgan davlat manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Davlatga ilohiy xususiyat bag'ishlab, uni shaxs va jamoa manfaatlaridan ustun qo'yish an'anasi aynan o'sha davrlarda kelib chiqqan. Shu bilan birga Qadimgi Gretsiya va Rim mutafakkirlaridan Platon, Aristotel, Sitseron va boshqalarning kishilik ijtimoiy hayotini tashkil etishda davlatga eng zarur ijtimoiy institut sifatida qarashlari bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini qayd etishimiz zarur.

Davlat va uning boshqaruv shakllari, usullari haqida dastlab Suqrot, uning shogirdi Platon, undan so'ng Aristotel yaratgan g'oyalar diqqatga sazovordir.

Platonning (mil. av. 427–347) siyosiy-huquqiy qarashlariga dastlab ustози Suqrotning ratsional falsafasi katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, keyinchalik u obyektiv idealizm tarafdori va ifodachisiga aylandi. Bu ruh uning «Davlat», «Siyosatchi», «Sofist», «Parmenid» va «Qonunlar» kabi asarlarida ilgari surilgan ikki dunyo to'g'risidagi qarashlarida yaqqol seziladi. Uningcha, g'oyalar dunyosi haqiqiy borliq bo'lib, mutlaq va abadiydir. Insonning o'zgaruvchan dunyosi real, hayotdagi narsa va hodisalar esa g'oyalar dunyosining buzilgan ifodasidir.

O'zining «Qonunlar» asarida ideal davlatning sof ratsional andozasini nazariy jihatdan asoslashga intilgan Platonning fikricha, inson tabiati uch asosiy elementdan tarkib topgan: aqliy, jangarilik va yaratuvchilik. Shunga muvofiq ideal davlat ijtimoiy tuzilish jihatidan uch asosiy toifani o'z ichiga oladi. Donolikka salohiyati bo'lgan faylasuflar hukmdorlik qilib, davlatni boshqaradilar, jangarilikka moyil bo'lgan jangchilar mudofaa bilan, yaratuvchilik egalari – dehqon va hunarmandlar esa moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan band bo'ladilar. Fay-

lasuflar va jangchilar Platon orzu qilgan davlatda xususiy mulkka ega bo'lmaliklari lozim, chunki bu hol ularning o'z vazifalarini, burchlarini suiiste'mol qilishlari xavfini tug'diradi.

Platon davlat shakllarining uch turini: timokratiya (harbiylar hokimiyati), oligarxiya (oz sonli quldorlar hokimiyati), demokratiya (xalq hokimiyati)ni buzilgan, noto'g'ri shakllar deb, monarxiya va aristokratiyaning boshqaruvini esa ma'qul boshqaruv deb hisoblaydi. Qullar mehnatini aristokratik yoki monarxiyaga asoslangan davlatning zarur sharti deb biladi. Demokratiyaning mohiyatini to'liq tushunmagan va unga nisbatan butunlay salbiy munosabatda bo'lgan Platon faqat bilimdon odamlargina davlatni boshqarishlari mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, demokratiya ommaning hukmronligi bo'lib, u oxir-oqibatda ko'pchilikni ezishga olib keladi. Barcha odamlar tabiatan bir-birlariga teng emaslar, demokratiya ham bunday tenglikni ta'minlay olmaydi, shuning uchun davlatni dono va aqlli faylasuf olimlar boshqarishi zarur, degan g'oyani ilgari suradi. Davlatning kelib chiqishini ijtimoiy ehtiyojga bog'lagan holda «Davlat — har birimiz o'zimizni qondira olmaganimiz holda juda ko'p ehtiyojlarga muhtojligimizdan kelib chiqadi. Har bir inson biror-bir ehtiyojini qondirish uchun yo unisini, yo bunisini jalb qiladi. Ko'p narsaga muhtojlik sezgan odamlar birgalikda yashash va bir-birlariga yordam berish uchun birlashadilar. Ana shunday uyushma bizlarda davlat nomini oladi», deydi Platon. Ushbu davlatda har bir inson o'z tabiatida ustunlik qiluvchi xususiyatlarga ko'ra mehnat taqsimotida o'z vazifasini bajaradi. Demokratik tuzum doirasida inson istagan ishini qilishi mumkin, deya fikrlagan Platon bunday tuzumga qarshi chiqadi.

Suqrotning vafotidan keyin Gretsiyani tark etib, Egey dengizi atrofidagi mamlakatlarda, jumladan, Qadimgi Misr va janubiy Italiyada kechgan 12 yillik musofirlikdan so'ng Afinaga qaytgan Platon bu yerda qadimgi grek qahramoni Akadem nomi bilan atalgan Akademiyaga asos soladi. Deyarli ming yil faoliyat ko'rsatgan Platon Akademiyasida falsafa, mantiq va etikaga oid qator muammolar xususida uzoq davom etuvchi bahs — munozaralar bo'lib o'tgan.

Platonning ideal davlat to'g'risidagi nazariyasi uning mashhur shogirdi, A. Makedonskiyning ustози, Sharqda «birinchi muallim» nomi bilan tanilgan Aristotel (mil. av. 384–322) tomonidan keskin tanqidga uchradi. Jamiyatdagi sinfiy tabaqalanish va davlatning kelib chiqishini mutlaq, ilohiy g'oya bilan bog'lagan Platonga qarama-qarshi o'laroq Aristotel inson salohiyatiga ko'proq e'tibor bilan qaradi. Bu hol Platon va Aristotel ta'limotlari o'rtasida muayyan tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni keltirib chiqardi. Jumladan, «Siyosat», «Etika», «Ritorika», «Afina politiyasi» kabi asarlarida Gretsiya va uning atrofidagi 158 shahar-polislar hayotini kuzatish asosida Aristotel real hayotdagi o'zgarishlarning o'z ichki ziddiyatlari asosida sodir bo'lishini ta'kidladi va bu fikrlari bilan ustozidan ijobiy jihatdan o'zib ketdi. Bu holni izohlar ekan «Platon mening do'stim, lekin haqiqat undan ustunroqdir», degan edi Aristotel.

Aristotel «Inson o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudotdir», degan fikrni ilgari surib, unga adolat va adolatsizlikning farqini anglaydigan yagona mavjudot sifatida qaraydi. Davlatning nisbiy yaxlitligini ma'qullab, uning maqsadi hamma fuqarolarga farovonlik ulashishdir, deb hisoblaydi.

Aristotel Platonga zid ravishda xususiy mulkni himoya qilar ekan, shaxsiy manfaatdorlik va xususiy mulkka ega bo'lish insonga huzur bag'ishlaydi, har kim o'z ishi bilan band bo'ladi, bu o'z navbatida taraqqiyotni tezlashtiradi, deb biladi. Muta-fakkir fikricha, boylikka bunday munosabat xudbinlik emas, balki o'z-o'zini hurmat qilishga hamda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Davlat shakllarini kim tomonidan (yakka shaxs, nisbatan ozchilik, hamma) yoki qanday maqsadda (umummanfaati yoki shaxsiy manfaat) amalga oshirilishiga qarab to'g'ri va noto'g'ri shakllarga bo'ladi.

Davlatning to'g'ri shakllariga monarxiya (bir kishi), aristokratiya (ozchilik) va politiya (ko'pchilik boshqaruvi)ni; noto'g'ri shakllariga esa tiraniya (mustabidlik), oligarxiya (oz sonli boylar boshqaruvi) va demokratiyani kiritadi. Shu hol diqqatga sazovorki, Aristotel ta'limotida hozirgi zamon siyosiy fanida keng ishlab chiqilayotgan nazariyalarning kurtaklarini uchrata-

miz. Masalan, Aristotelning «Qaysi hokimiyat afzalroq: barkamol insonlar hokimiyatimi yoki barkamol qonunlar hokimiyatimi?» degan savoliga e'tibor beraylik. XVII asr mutafakkiri Sh.L. Monteskyo ushbu savolga «Barkamol qonunlar hokimiyati afzalroq», deb javob beradi va jamiyatda qonun oldida barcha insonlarning tengligi, qonunlarning o'zi esa butun jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib yaratilishi lozimligi prinsipini ilgari suradi. Aristotel kun tartibiga qo'ygan savol oradan yigirma to'rt asr o'tgach, hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarining demokratiyalari timsolida o'z amaliy yechimini topmoqda.

Aristotel davlat tuzilishining asosini uch qismga bo'ladi:

— *birinchisi*, qonun muhokama etuvchi organ — hokimiyat ishlarini ko'rib chiqadi;

— *ikkinchisi*, lavozimlar;

— *uchinchisi*, sud organlari.

Aslida hokimiyatlarning bo'linishi to'g'risidagi bu fikrlar o'zini demokratik deb atayotgan har bir zamonaviy davlat konstitutsiyasida uchraydi.

Garchi, demokratiya kambag'al — yo'qsillar manfaatini ifodalaydi, umum manfaatini nazarda tutmaydi deb, demokratiyani mukammal tuzum qatoriga kiritmagan bo'lsa-da, Aristotel davlatning mustaqilligi uchun kambag'allar to'g'risida g'amxo'rlik qilish lozim, chunki kambag'allar, odatda, davlatni boshqarishdan chetda bo'ladilar. Isyon va jinoyatlar ko'payadi, qayerdagi o'rta sinf bo'lmasa, kambag'allar soni ko'p bo'lsa murakkab vaziyat vujudga keladi va davlat halok bo'ladi, deb hisoblaydi.

Shunday qilib, Platon ideal davlatni orzu qilgan bo'lsa¹, uning shogirdi Aristotel o'z ustoziga nisbatan birmuncha pragmatik va realistroq chiqdi, insonga siyosiy mavjudot deya baho berib, siyosatning adolatga tayangan holda qonunlar ishlab chiqishi lozimligini qayd etdi.

Grek falsafasi, madaniyati, fani qadimgi Rim jamiyatiga

¹ *Izoh:* Mashhur tarixchi A. Toynbi Platonning ideal davlat to'g'risidagi nazariyasini reaksion nazariya deb hisoblaydi. K. Popper esa Platonni totalitarizmning ilk nazariyotchisi deb ataydi. Chunki, Platon ta'limoti shaxs, inson ustidan davlatning total (to'la) nazoratini himoya qiladi.

katta ta'sir ko'rsatgan. Lekin Qadimgi Gretsiyadagi siyosiy-huquqiy tafakkurda ijtimoiy-siyosiy masalalarga katta e'tibor ustuvorlik qilgan bo'lsa, Qadimgi Rim siyosiy-huquqiy qarashlarida huquqiy jihat ustunlik qilgan. Greklarda davlat va huquq masalalari bilan faylasuflar, rimliklarda esa amaliy tajribaga ega bo'lgan huquqshunoslar shug'ullangan.

Rim huquqshunosligi hokimiyat, mansabdor shaxs va uning vakolatlari, fuqarolik kabi siyosiy kategoriyalarni ishlab chiqishda, umumiy huquq nazariyasi va davlat huquqini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishdi.

Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta'limotlari tarixi Mark Tuly Sitseron (mil. av. 106 — mil. 43), Ulpian, Modestin (I–III asrlar) nomlari bilan bog'liq. Mashhur notiq va davlat arbobi Sitseron «Davlat to'g'risida», «Qonunlar to'g'risida», «Majburiyatlar to'g'risida» kabi asarlarida huquqiy davlatning ildizlari haqidagi ta'limotni yaratdi. Uning fikricha, dastlab insonning tabiiy huquqlari, keyin esa davlat va uning qonunlari vujudga kelgan. Huquqshunos va tajribali ma'mur sifatida Sitseron davlatni qonunlar jamiyati deb biladi va odamlar boylik, qobiliyat jihatidan teng bo'lmasalar-da, lekin barchalari qonun oldida teng bo'lishlari lozim, deydi. Umuman, Sitseron davlatning paydo bo'lishini tabiatda mavjud bo'lgan adolat va huquqning ro'yobga chiqishidan iborat, deb tushunadi.

Sitseronning qarashlarida uchraydigan «xalq» va «olomon» tushunchalariga berilgan ta'riflar yanada qiziqarlidir. Xalqqa umumiy huquq va foyda asosida birlashgan kishilar, olomonga esa hurmatga loyiq bo'lmagan, davlatga zarar keltirishga, isyonlar qilishga moyil kuch sifatida qaraydi. Davlat boshqaruvining uch shaklini — podsholik, optimatlar (aristokratlar hokimiyati) va xalq hokimiyati (demokratiya)ning har biridagi ijobiy jihatlarni tahlil qilib, davlatni boshqarishning aralash shaklini ma'qul ko'radi.

Sitseron nutqlari notiqlik san'atining haqiqiy durdonalari sanaladi. Shu bois huquqshunos bo'lishni maqsad qilgan har bir talaba, tinglovchi Rim senati «Vatanning otasi» deya ulug'lagan bu mutafakkirning ilmiy-amaliy merosidan ko'p narsani o'rganishi mumkin. Shu o'rinda Sitseronning quyidagi fikrini

keltiramiz: «Siyosiy fanni tushunmasdan, unga oid bilimlarni puxta egallamasdan turib senatda davlat ishlari yoxud xalq oldida muayyan qonunni qabul qilish yoki rad etish to‘g‘risida qanday qilib nutq so‘zlash mumkin? Faylasuflarning inson xarakteri va xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini chuqur o‘rganmay turib, tinglovchilar qalbiga yo‘l topuvchi nutqni irod etish mumkinmi?»¹

Darhaqiqat, ushbu fikr hozir ham o‘z ahamiyatini zarracha yo‘qotgani yo‘q.

Shunday qilib, siyosiy-huquqiy ta‘limotlarning kelib chiqishi antik davrlarga borib taqaladi. Antik davr mutafakkirlarining siyosiy qarashlarida davlat qurilishi va boshqaruvi, ichki va tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, urush va tinchlik, tinchtotuv yashash, xalq harakatlari, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish kabi ko‘plab siyosiy masalalar to‘g‘risida muhim fikrlar ilgari surilgan.

2. O‘rta asrlar va yangi davrdagi ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar

«O‘rta asrlar» antik dunyo va Yangi davr oralig‘idagi tarixiy bosqich bo‘lib, dastlab XV asrdagi italyan gumanistlari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan atamadir. An‘anaga ko‘ra V asr boshlarida (410-yil) qirol Alarix boshchiligidagi got qabilalarining Rim shahrini vayron qilishi va G‘arbiy Rim imperiyasining qulashidan boshlanuvchi O‘rta asrlar XIV asrgacha davom etgan. Uyg‘onish va Reformatsiya davrini qamrab oluvchi XV asrdan XVII asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni so‘nggi O‘rta asrlar yoki Yangi davr boshlariga kiritish fikri keng tarqalgan.

O‘rta asr siyosiy-huquqiy g‘oyalarining negizida xristian ilohiyotshunosligi yotadi. Xristianlik I asrda Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida vujudga keldi va XIII asrga kelib g‘oyaviy jihatdan tugal diniy mafkuraga aylandi.

Avreliy Avgustin. O‘rta asr siyosiy-huquqiy fikri tarixida diniy an‘analarning eng klassik (mumtoz) ko‘rinishi katolik cherkovi asoschilari va da‘vatchilaridan biri Avreliy Avgustin (345–

¹ Цицерон. Эстетика. Трактаты, речи, письма. – М. 1994. – С. 175 // Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. – М., 2000. – С. 55.

430)ning siyosiy nazariyasida o'z ifodasini topdi. Afrika shimolida tavallud topib, Karfagen notqlik maktabida tahsil olgan A. Avgustin Rimning varvarlar tomonidan istilo etilishidan ta'sirlanib yozgan «Iloh shahri» hamda «Va'z, pand-nasihat» («Ispoved») asarlarida dunyoviy davlat hokimiyatini inkor etib, katolik cherkovi diniy hokimiyatining yer yuzida hukmronlik qilishi lozimligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi.

A. Avgustinning fikricha, insoniyat tarixi ilohiy bashorat orqali belgilab qo'yilgan bo'lib, ezgulik va yovuzlik kuchlarining o'zaro kurashidan iboratdir. Ilohiylikdan faqat ezgulik taraladi, yovuzlik va zulm esa o'zbiarmonlikka intiluvchi, ilohiy aqidalarni tan olmaydigan erkin iroda mahsulidir.

Cherkovga bo'ysunmay shayton izmida yurganlar qurgan dunyoviy davlat qasoskorlar to' dasidan farq qilmaydi, deb bilgan bu ilohiyotshunos «iloh shahri»ni «insonlar shahri»ga qarama-qarshi qo'yadi. Zo'rlikning har qanday ko' rinishini rad etar ekan, insonlar bir-birining ustidan hukmronlik qilish, biri ikkinchisini itoat ettirish, hukmronlikka intilish ishtiyoqida davlat va uning jazolovchi idoralarini o'ylab topganlar, deya hisoblaydi. Odamlarni «o'zlaricha», ya'ni shayton domidagi «yerdagi odamlar»ga va xudoga intilib yashayotganlar — «ilohiy odamlar»ga ajratadi. «Diniy e'tiqodsiz bilim yo'q, haqiqat yo'q», degan tamoyilni ilgari surib, «gunohga botgan shaharlar va davlatlar»ga «ilohiy shahar»ni, katolik cherkovining jahonga hukmronligini qarama-qarshi qo'yadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Platonning ikki dunyo, stoiklarning ikki polis to'g'risidagi qarashlari bilan Avgustin nazariyasi o'rtasida o'xshashlik mavjud.

Avgustin ta'limotiga tayangan katolik cherkovi XI—XIII asrlarga kelib Yevropa ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida yetakchi mavqeni egalladi.

Sharq mamlakatlariga uyushtirilgan salib yurishlari, inkvizitsiya sudlari, cherkovning rasmiy-siyosiy mafkurasiga qarshi chiqqan, papa hokimiyati va feodal tartiblarga bo'ysunishni istamagan yeretiklarga qarshi qo'llanilgan jazolar bu davrning siyosiy tafakkuri, yurisprudensiyasi, falsafasi va tabiatshunosligi ilohiyotning kuchli ta'siri ostida qolib ketganligidan dalolat beradi.

Foma Akvinskiy. U (1225–1274) yashagan davr katolik cherkovining eng kuchli mavqega erishgan asrlariga to‘g‘ri keladi. Uning siyosiy qarashlari aks etgan «Hukmdorlarning boshqaruvlari to‘g‘risida», «Ilohiyot majmuasi» asarlarida, qolaversa, Aristotelning asarlariga yozgan sharhlarida ilohiyot va falsafa muammolaridan tashqari, huquq, axloq, davlatchilik va iqtisodiyot masalalari ham qalamga olingan. Umuman, F. Akvinskiyning diniy-siyosiy ruhdagi nazariyasi ijtimoiy tengsizlikning xudo tomonidan o‘rganilganligi to‘g‘risidagi g‘oyani himoya qilishga asoslangan. Uning ta‘limotiga ko‘ra, dunyoviy hokimiyat ilohiy hokimiyatning yerdagi ifodasidir. Dunyoviy hokimiyat ilohiy hokimiyat talablari asosida ish ko‘rsatishiga insonlarga yaxshilik va ezgulik olib kelishi mumkin. Faqat hokimiyatning aniq shakli, hokimiyatga ega bo‘lish usullari, uning tuzilishi va undan foydalanish xudoning g‘oyalariga zid, adolatsiz bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

F. Akvinskiy davlat boshqaruvi masalasiga ilohiyot nuqtayi nazaridan yondashganligiga qaramay, dunyoviy davlatda suiiste‘molchiliklarning oldini olish uchun siyosiy hokimiyatning xalq roziligi asosida amalga oshirilishi lozimligi, qonunlarning esa xalq yoki uning vakillari tomonidan qabul qilinishi kerakligi to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatga molikdir.

«Tokı o‘zga shaxs irodasiga tobe ekanmiz, xavf-xatardan xoli bo‘lishimiz mumkin emas»,¹ — degan edi F. Akvinskiy.

Xullas, yerdagi davlat doirasida mavjud bo‘lishi lozimligi qayd etilgan xalq suvereniteti siyosiy fikr tarixida antik davrdan keyin paydo bo‘lgan yangilik nishonasi edi.

Qonun nazariyasining tahlili F. Akvinskiy merosida muhim o‘rin tutadi. Xristian davlatining fuqarosi sifatida inson qonunlarning to‘rt turiga duch keladi:

1. Abadiy qonun — koinotni boshqaruvchi ilohiy tafakkur.
2. Tabiiy qonun — ilohiy, abadiy qonunning inson tafakkuridagi in‘ikosi.

¹ Антология западноевропейской классической либеральной мысли. — М., 1995. — С. 397 // Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. — М., 2000. — С. 64.

3. Inson qonuni – tabiiy qonun, tabiiy huquqdan inson irodasi orqali kelib chiqadi. F. Akvinskiy xuddi Aristotel kabi insoniyat yaratgan qonunlar barcha fuqarolarning manfaatlariga xizmat qilishi kerak, bu qonun vakolatli hokimiyat tomonidan ishlab chiqilishi lozim, deb hisoblaydi.

4. Ilohiy qonun – Bibliyadagi Eski va Yangi ahdlar bo‘lib, insonning narigi dunyodagi saodatga borishiga yo‘l ochadi.

XIV asrga kelib, Yevropada cherkov hokimiyatining kuchsizlanishi, qirollar dunyoviy hokimiyatining kuchayishi davri boshlandi va bu hol markazlashgan milliy davlatlarning tashkil topish jarayonida yangi siyosiy-huquqiy nazariyalarni paydo qildi. Jumladan, ingliz faylasufi V. Okkam (1300–1350) dunyoviy hokimiyatning diniy hokimiyatdan mustaqil bo‘lishi lozimligi g‘oyasini ilgari surdi. Bu esa xalq huquqining demokratik nazariyasi yaratilishiga olib keldi. Lekin bu nazariyada xalq individlar jamoasi tarzida tushunilmas, O‘rta asrga xos jamoa huquqi tafakkuri ustunlik qilar edi.

Uyg‘onish davri ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari. Yevropadagi Uyg‘onish (XIV–XVI asrlar) va Reformatsiya (XVI asr) davrlari O‘rta asr tartiblari sharoitida yangi burjua munosabatlarining paydo bo‘lishi, Petrarka va Bokkacho, Leonardo da Vinchi va Nikkolo Makiavelli, Dyurer, Lyuter, Mikelandjelo va Myunserlar nomini dunyoga tanitgan davrdir.

Antik davr demokratiyasi g‘oyalari ruhlanib, inson tafakkuriga ishonchni qayta tiklagan Uyg‘onish davri va uning g‘oyalari insoniyat tarixidagi tub burilish davridir. Inson qadr-qimmatini, uning huquqlarini himoya qilish, inson uchun munosib hayot yaratish g‘oyalari aynan G‘arb mamlakatlarida ularning davlatchilik va siyosat sohasidagi amaliy izlanishlari davomida vaqt sinovidan o‘tib, real voqelikka aylandi.

Uyg‘onish va Yangi davr siyosiy-huquqiy qarashlarida davlatning paydo bo‘lishi va qaror topishi muammosini o‘rganish kuchayganligi ko‘zga tashlanadi. Davlat, jamiyat va shaxs to‘g‘risidagi qarashlar tizimida individ-fuqaroga alohida e‘tibor berish boshlandi. Shuning uchun bu davrning siyosiy qarashlari «fuqarolik to‘g‘risidagi qarashlar» deb ham ataladi.

Yangi davr siyosiy fanining asoschisi deya tan olingan buyuk

italyan gumanisti **N. Makiavelli** (1469–1527) diniy aqidalardan xoli bo'lgan Uyg'onish davri siyosiy falsafasini yaratdi. U «Hukmdor»¹, «Florensiya tarixi» asarlarida siyosatni birinchi bo'lib fan sifatida asoslab berdi va jamiyatning ilohiy emas, balki tabiiy qonunlar asosida rivojlanishini ta'kidladi.

Leonardo da Vinchining zamondoshi, Mikelandjeloning do'sti, 27 yoshida Florensiya Respublikasining davlat arbobi, tarixchi va shoir, bir qator G'arbiy Yevropa mamlakatlarida elchi sifatida faoliyat ko'rsatgan N. Makiavelli XV asr oxiri va XVI asr boshlarida uzluksiz urushlardan jabr ko'rgan, markazlashgan davlatga ehtiyoj sezayotgan Italiya manfaatlarining ifodachisi edi. Shu nuqtayi nazardan uning siyosiy nazariyasi o'z davri talablarini ilgari surganligini unutmash lozim.

«Makiavelli va uning ta'limoti tarafdori bo'lgan boshqa mualliflar, — deydi F. Bekon, — u yoki bu vaziyatda odamlar qanday qadam qo'yishlari lozimligini emas, balki, odatda, amalda qanday qadam qo'yishlarini ochiq va to'g'ridan-to'g'ri bayon qilganliklari uchun ham hurmatga loyiqdirlar»². Siyosat dunyosini o'rganishda N. Makiavelli tadqiqotning yangi usullaridan foydalandi. Me'yoriy-qadriyatli nazariyaga asoslangan falsafiy yondashuvdan tashqari, bu mutafakkir real siyosiy munosabatlarni kuzatishda empirik usuldan foydalandi. Tarixiy jarayonlarni o'rganish asosida u birinchi bo'lib siyosatni fan sifatida asoslab berdi, siyosiy faoliyatda cherkov axloqi emas, balki foyda va kuch mezon bo'lganligini qayd etdi. Makiavellining fikricha, xristianlikning axloqiy qadriyatlarini amalda hayotga tatbiq etish mumkin emas, chunki oliy saodatni itoatda, dunyoviylikka nafrat bilan qarashda, hayotdan yuz o'girishda deb bilgan cherkov axloqi odamlarni kuchsiz va zabun qilib, ablahlar qurboniga aylantiradi. Dinni davlatga ma'qul axloqni hayotga joriy etuvchi siyosiy vosita deb biladi.

Siyosiy ta'limotlar tarixini tahlil etish bilan shug'ullangan ayrim mutaxassislar «Maqsad vositani oqlaydi» degan tamoyil-

¹ *Izoh*: Bu asarni N. Makiavelli Italiya qiroli Lorenzo dei Medichiga bag'ishlagan.

² *Бэкон Ф.* Соч.: В 2 т. Т. 1. — М., 1977. — С. 401 // *Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В.* Политология. — М., 2000. — С. 71.

ni ilgari surgani uchun Makiavellini keskin tanqid qiladilar. Masalaga bugungi kun talabidan kelib chiqib emas, balki o'sha davr ehtiyoji nuqtayi nazaridan turib yondashilsa, muammo oydinlashadi. Chunki Makiavelli Rim papasiga tobe bo'lmagan, kuchli, markazlashgan milliy davlat tuzish yo'lida mamlakatni birlashtiruvchi, xalq saylagan islohotchi podshoning barcha vositalardan foydalanishini ma'qullab, agar natija ko'ngildagidek bo'lsa, barcha vositalarni, garchi ular noaxloqiy bo'lsa-da, oqlash mumkin deb bilar edi.

Makiavelli o'sha davr siyosiy boshqaruvida foyda hamda kuch asosiy mezon bo'lganligidan kelib chiqqan holda hukmdor kuchli armiya to'g'risida qayg'urishi kerak va qaysi tarafning armiyasi kuchli bo'lsa, taqdir o'sha tarafga kulib boqadi, degan fikrni olg'a suradi. Makiavelli nazarida barcha davlat va xalqlarning tabiatida hokimiyatparastlik, munofiqlik, jur'atsizlik, nonko'rlik, qo'rqoqlik, dangasalik va ikkiyuzlamachilik, hasadgo'ylik va bir-birini ko'rolmaslik illatlari uchraydi. Shu bois davlat boshlig'i inson tabiatini yaxshi bilmog'i, bu boradagi bilimlarini davlat manfaatlari yo'lida ishlata bilmog'i kerak, deya ta'kidlaydi.

Makiavelli davlat boshqaruvida respublika shaklini ma'qul ko'radi. Omma qirolga nisbatan aqlliroq va doimiyroqdir. Xalq ovozi — xudo ovozidir, chunki xalq barcha masalalarda hukmdorga nisbatan odilroq mulohaza yuritadi. Respublika idora usuli o'rnatilsa, davlat mustahkam va barqaror bo'ladi, deb hisoblaydi.

Makiavelli «Hukmdor» asarida respublikani boshqarishning to'g'ri va qulay shakli deb bilsa-da, avvalo, «yangi hukmdor»ning yakka hukmronligi o'rnatilib, u Italiyani birlashtirishi, isloh qilishi va yuksaltirishi, so'ng uning o'rmini respublika yoki boshqaruvning «aralash» shakli (demokratiya, aristokratiya, monarxiya elementlaridan iborat shakl) egallashi lozimligini qayd etadi. Shu tariqa Makiavelli davlatchilikning monarxiyadan respublikaga tomon rivojlanishini oldindan aytib o'tgan.

Ta'kidlash joizki, A. Smit erkin bozor afzalliklari to'g'risidagi liberal nazariyasini yaratishidan ancha avval Makiavelli individual erkinlikning butun jamiyat uchun foydaliligini uqitirib o'tgan edi. Biroq boshqaruvning respublika shakli xalqning

muayyan fazilatlarga, jumladan, fuqarolik sifatlariga ega bo'lishini taqozo qiladi, bunday fazilatlarga ega bo'lmagan xalqlar uchun esa monarxiya boshqaruvini ma'qul deb biladi.

Umuman olganda, Sohibqiron Amir Temurning «Kuch adolatdadir» tamoyili aks etgan «Temur tuzuklari» Sharq mamlakatlari hukmdorlari uchun qanchalik zarur qo'llanma bo'lgan bo'lsa, ko'proq «adolat kuchdadir» degan g'arbona mentalitet aks etgan Makiavellining «Hukmdor» asari 400 yildan ko'proq davr mobaynida G'arb mamlakatlari davlat boshliqlari diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Shuni unutmaslik lozimki, Uyg'onish davri-ning bu mutafakkiri qarashlari o'sha davr ehtiyojlari in'ikosi bo'lib, hali klassik liberalizm g'oyalari darajasiga yetmagan edi. Makiavelli ta'limotida inson ijtimoiy hodisa, mavjudot sifatida katta ma'no kasb etmagan, uning manfaatlari davlat va umummanfaatlarga tobe etib qo'yilgan edi.

Fransuz mutafakkiri **Jan Bodin** (1630–1596)ning qarashlari ham muayyan qiziqish uyg'otadi. «Davlat to'g'risida olti kitob» asarida u birinchi bo'lib davlat suvereniteti g'oyasini ilgari surdi, davlat ilohiy tarzda kelib chiqmaganligini ta'kidlab, uning manfaatlari din manfaatlaridan ustun bo'lishi lozimligini va vijdon erkinligi o'rnatilishini targ'ib etdi.

Xullas, Uyg'onish davri siyosiy ta'limotlari siyosiy-huquqiy ta'limotlar rivojining keyingi taraqqiyoti uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.

Ma'rifatparvarlik davrida siyosiy g'oyalarning taraqqiyoti. Bunday siyosiy qarashlar keyinchalik **Tomas Gobbs** (1598–1679) qarashlarida rivojlantiriladi. Gobbs monarxiyani – hokimiyatning eng qulay shakli, deb hisoblaydi. Buni o'zining «Leviatan» asarida insonlarning davlat paydo bo'lgunigacha bo'lgan davrdagi hayotini tasvirlab, unda «xaos» va «ixtilof»lar hukmron bo'lganligini ta'kidlaydi yoki bu hukmronlikni «hammaning hammaga qarshi urush» holati sifatida qayd etadi. «Ijtimoiy kelishuv»ga «xaos»dan chiqishdagi muhim yo'l sifatida qaraladi. Gobbs monarxning asosiy vazifasi qonunni saqlay bilish, deb tushunadi.

Angliya faylasufi **J. Lokk** (1632–1704) qarashlarida esa siyosatda fuqarolik konsepsiyasi ilgari suriladi. Lokk ta'limoti

nisbatan real hayotga asoslanganligi bilan ajralib turadi va cheklangan monarxni o'rnatishni yoqlaydi.

U siyosiy fikr tarixida birinchilardan bo'lib «shaxs», «jamiyat» va «davlat» tushunchalarining tahlilini beradi hamda shaxsni jamiyat va davlatdan yuqori qo'yadi. Lokkning fikricha, inson tug'ilganidan boshlab tabiiy huquqlarga ega bo'ladi. «Hayot» yoki «yashash», «erkinlik» va «mulkka ega bo'lish» huquqlarini ana shu huquqlar jumlasiga kiritadi. U xususiy mulkka ega bo'lish huquqini quyidagicha asoslaydi. *Birinchidan*, xususiy mulkka ega bo'lish insonning o'zini va uning oilasining yashashi uchun zarur ehtiyojni ta'minlash uchun kerak, inson zarur narsalarga ega bo'lgan taqdirdagina o'zining rivojlanishiga alohida e'tibor berishi mumkin. Xususiy mulk mutlaq qadriyat emas, aksincha, erkin jamiyatga erishish vositasidir. Insonlar mulk jamg'arishda erkin bo'lishlari kerak. *Ikkinchidan*, mulkka ega bo'lish insonning individualligi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat jamiyatga, jamiyat o'z navbatida shaxsga bo'ysunishi lozim. Davlat va jamiyat bir narsa emas, davlat hokimiyatining qulashi jamiyat rivojining tugaganidan dalolat bermaydi. Jamiyat yangi davlat hokimiyatini o'rnatishi lozim. Davlat shaxs huquqlarini himoya qilish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. U shaxsdan kuchliroq bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs jamiyatni, jamiyat esa davlatni tashkil etadi. Lokk qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati bo'lishini yoqlaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatga ustuvorlik beradi, chunki u davlatning siyosatini belgilaydi, deb ko'rsatadi.

Fransiya ma'rifatparvari **Sharl Lui Monteskyo** (1689–1755) o'zining «Qonunlar ruhi» asarida «idora etish tarzi»ga yoki «qonunlar ruhi»ga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib beradi. «Ko'pgina narsalar — iqlim, din, qonunlar, idora etish shakllari, o'tmish saboqlari, axloq, odatlar xalqning umumiy ruhining natijasi sifatida insonlarni boshqaradi», — deb yozadi Monteskyo.

Monteskyo hokimiyatning bo'linish nazariyasini «aralash idora etish» g'oyasining davomi hisoblab, qonun ustuvorligini qayd etadi. Shu asosda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bir-birlarini to'ldirgan holda hokimiyatni saqlab turishlari mumkin, degan xulosaga keladi.

Siyosiy fikr rivoji Yevropadagi davlatlar qurilishi bilan uzviy bogʻliq holda bordi. Bu davr namoyandalari unitar mustaqil davlatning kamchiliklarini hisobga olib, siyosiy nazariyani amaliyot bilan bogʻliq holda amalga oshirishga harakat qila boshladilar.

AQSH Konstitutsiyasining mualliflaridan biri **J. Medison** (1751–1836) respublikanizmning koʻzga koʻringan nazariyotchilaridan biri boʻlib, u xalq – siyosiy hokimiyatning yagona manbai, saylovlar – respublikaviy idora etishning muhim xususiyati, degan qoidaga asoslanadi. U koʻpchilik fraksiyasiga ehtiyotkorlik bilan yondashadi, hokimiyatdan foydalanib, ozchilikning manfaatlarini poymol etishi mumkinligi xavfining oldini olish choralariga alohida eʼtibor bilan qaraydi. Ozchilikning erkinligini kafolatlash zarurligini himoya qiladi. Medison demokratiyaning vakillik orqali idora etish shakli bilan birga liberal idora etish ham zarurligini isbotlaydi. Davlat hokimiyatining boʻlinishi, ularning har birining nisbiy mustaqilligini va tengligini tan oladi.

Siyosatning «ijtimoiy konsepsiyasi» fuqarolik konsepsiyasining davomi sifatida shakllandi. U endi alohida individ – fuqaroga emas, ayrim ijtimoiy guruhga tayana boshladi. Millat, sinflar, insonlar, individlar muayyan guruhlarning, birlashmalarning mahsuli sifatida qaraladi.

Fransuz maʼrifatparvari **J. J. Russo** (1712–1778) esa siyosatda fuqarolik konsepsiyasining qatʼiy ifodachisi va tadqiqotchisidir. Individlar davlatni yaratadi yoki ayni paytda individlarning oʻzi davlatning mahsulidir, degan fikrni olgʻa suradi. Russo uchta tashqi omilni quyidagicha qayd etadi:

1. Ijtimoiy tenglikni quvvatlab, mulkning jamiyat aʼzolariga nisbatan tengsiz taqsimlanishiga qarshi chiqadi.

2. Siyosiy yaxlitlikni himoya qiladi. Davlatda xususiy hamkorlik boʻlishi mumkin emas, degan gʻoyaga tayanadi.

3. U vakillik hokimiyatini qullik deb hisoblaydi. Bir soʻz bilan aytganda, Russo demokratiyaning bevosita shaklini qoʻllab-quvvatlaydi.

Angliyalik konservator **E. Berk** (1729–1797) taʼlimotida tabiiy huquqlarni tan olmaslik gʻoyasi muhim oʻrin tutadi. Uning-

cha, davlat va jamiyat insonlarning ixtirosi emas, balki tabiiy rivojlanishning natijasidir. Davlatning asosiy vazifasi tartib va qonunni saqlashdan iborat. Hokimiyatning vakillik shaklini qoʻllab chiqadi. Berk parlamentga Angliyadagi hokimiyatning haqiqiy shakli sifatida qaraydi va uning faoliyati xalq tomonidan nazorat etilishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

A. Tokvil (1805–1797) «Amerikadagi demokratiya» nomli asarida oʻziga xos liberal siyosiy nazariyani yaratadi. Uni siyosiy tenglik bilan siyosiy erkinlik oʻrtasidagi munosabat koʻproq oʻylatadi. Siyosiy apatiya – siyosiy markazlashuv va ijtimoiy boʻysundirishning boshlanishidir, deydi. Demokratiyaning ijobiy va salbiy jihatlari boʻlishi mumkinligi toʻgʻrisida fikr yuritadi.

XIX asrning 40-yillaridan boshlab siyosiy fikr rivoji mustabid kommunistik tuzumni asoslagan qarashlar bilan bogʻliq kechdi. Ular tomonidan muayyan ijtimoiy guruhga, sinfga tayanish, ularning siyosiy qarashlari, manfaatlarini «himoya» qilish, ular yordamida «proletar inqilobini» amalga oshirish gʻoyasi ilgari suriladi. Tenglik, demokratiya, erkinlikni taʼminlashda ular «proletariat diktaturasini» oʻrnatish zarurligini, shu orqali adolatli demokratik jamiyat qurish mumkinligini asoslashga urindilar. «Sinfiy kurash»ga jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida qaradilar.

Bu gʻoyada siyosiy hokimiyatga ega boʻlish, yaʼni diktaturaning proletariat qoʻliga oʻtishi tub masala sifatida qaraldi. Oktabr toʻntarishi Rossiyada bolshevizm koʻrinishida totalitar, maʼmuriy buyruqbozlik jamiyatining oʻrnatilishiga olib keldi. Sobiq SSSR konstitutsiyasida hokimiyatning vakillik va bevosita shakllaridan foydalanish koʻrsatilgan boʻlsa-da, amalda haqiqiy demokratik jamiyatni oʻrnatilishiga emas, aksincha, mustaqillik, erkinlik, inson huquqlariga zid boʻlgan tamoyillar markaz bilan respublikalar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarda, jamiyat siyosiy hayotida oʻzining ifodasini topdi. Bu siyosiy qarashlarning gʻoyaviy jihatdan bir tomonlama, nodemokratik va soxta ekanligini hayot koʻrsatdi.

3. XIX–XX asr siyosiy g‘oyalaridagi asosiy yo‘nalishlar (liberalizm, konservatizm, sotsializm)

Liberalizm va neoliberalizm. Liberalizm – lotincha «liberalis» – ozod, erkin so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, Yangi davrning birinchi tarixiy g‘oyasi sifatida vujudga kelgan. Uning paydo bo‘lish tarixi Yevropadagi XVII–XVIII asrlarda bo‘lib o‘tgan burjua inqiloblari davriga borib taqaladi, ya’ni liberalizm feodal tartiblar va xristian cherkovi hukumronligiga qarshi olib borilgan kurashlar jarayonida siyosiy ta’limot sifatida shakllangan.

Liberalizm ta’limotining asoschilari angliyalik Jon Lokk (1632–1704) va Adam Smit (1723–1790) hamda amerikalik Tomas Jefferson (1743–1826)lardir.

XIX asrda liberalizm Angliyada kuchli rivojlandi. Uning rivojiga bu yerda Mill (1806–1873), Gerbet Spenser (1820–1903), keyinroq esa Djon Keyns (1883–1946)lar katta hissa qo‘shdilar. Bu ta’limot taraqqiyoti XX asrda «yangi liberalizm» konsepsiyasining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Liberalizmning ijtimoiy fikr va siyosiy oqim sifatida asosiy prinsiplari inson erkinligi va ozodligi bo‘lib, liberalizmning asosiy qadriyatidir. Uning boshqa barcha prinsiplari mana shu asosiy qadriyatdan kelib chiqqan va bular qatoriga quyidagilarni kiritish lozim:

- inson o‘z erkinligiga tayanib, jamiyatda hayotiy maqsadlarini belgilash va faoliyat yo‘nalishini tanlash huquqiga ega;
- u o‘z faoliyatining natijalari uchun, farovonligi va ijtimoiy ahvoli uchun o‘zi mas’uldir.

Liberalizm insonning individual erkinligini uning, avvalo, siyosiy erkinligi va tabiiy huquqlari bilan uyg‘un holda tushunadi. Bunda insonning xususiy mulkka egalik qilish huquqiga alohida e’tibor beriladi. Demak, individual erkinlik, avvalo, xususiy mulk egasining erkinligi bilan uzviy bog‘liqlikda tushuniladi.

Xullas, liberalizmning asosiy ideali teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lgan fuqarolarning jamiyatidirki, undagi har bir inson, agar mehnatsevar va aqlli ekan, hayotda muvaffaqiyatlarga hamda ijtimoiy tan olinishga, ya’ni hurmatga erishishi mumkin. Tarixda bu g‘oyaning amalga oshirilishida ibratli ish-

lar qilingan. XIX asrning 60-yillarida AQSHning liberal-demokratik hukumati prezidenti Avraam Linkoln 21 yoshdan katta bo'lgan har bir amerikalik fuqaroning davlat fondidan 64 gektar yer olish huquqi to'g'risidagi hujjatni tasdiqlagan edi. Bu esa AQSH qishloq xo'jaligida fermerlik rivojini ta'minlashga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

XIX–XX asrlar davomida liberalizmda ikki oqim shakllandi:

1. Burjua-elitar oqimi – mulkdorlarning manfaat va huquqlarini himoya qiluvchi hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga aralashuvini rad etuvchilar. Bu oqim XIX asrning oxirlarigacha nazariyot va amaliyotda hukmronlik qildi.

2. Demokratik yoki ijtimoiy liberalizm oqimi – XIX–XX asrlarda kuchli mavqeni egalladi. Uning mashhur vakillari – M. Veber, siyosatchilar orasida esa Lloyd Djordj, V. Vilsonlar bo'lishgan.

Amaliy siyosatda demokratik liberalizmni AQSH prezidenti F. D. Ruzvelt «yangi kapitalizm» shaklida 1930-yillarda Amerika hayotiga tatbiq etdi. Aynan shu model tufayli II jahon urushida G'arbiy Yevropadagi vayron bo'lgan iqtisodiy hayot qayta tiklandi va liberal-demokratik turmush vujudga keltirildi.

Inson erkinligi, ozodligi prinsipiga tayangan liberalizm hozirgi zamonaviy demokratiyaning g'oyalari, me'yorlarini yaratishda katta rol o'ynadi. Bu yerda gap barcha insonlarning qonun oldidagi tengligi; har bir insonning asosiy erkinliklardan (vijdon erkinligi, so'z erkinligi, assotsiatsiya va partiyalar tuzish erkinligi) foydalanish huquqini tan olish; o'zgacha fikrga nisbatan sabrtoqat; ozchilik huquqlarining tan olinishi to'g'risida bormoqda.

Nihoyat, zamonaviy demokratiyadagi huquqiy davlat nazariyasi ham liberalizm mahsulidir, ya'ni jamiyatni boshqaruvchi barcha tizim xalqning nazorati ostida ishlamoq' i kerak.

Jamiyat iqtisodiy hayotini tashkil etishning zamonaviy prinsiplarini ishlab chiqishda ham liberalizm katta hissa qo'shgan. Bu quyidagilarda ko'rinadi:

- erkin individual va guruhiy tadbirkorlik;
- erkin bozor va erkin raqobat.

Hozirgi zamon liberalizmining mohiyati quyidagilardar iborat:

1. Xususiy mulk ijtimoiy tabiatga ega. Zero, uning yaratilishi va ko'payishida faqat mulkdorning o'ziga ishtirok etmaydi.

2. Xususiy mulkdorlik munosabatlarini davlat yo'naltirish huquqiga ega.

3. Sanoat demokratiyasining liberal nazariyasi ishchilarning boshqaruvdagi ishtirokini tan olmoqda va qo'llab-quvvatlamog'ida.

4. Davlatning «tungi qorovul» ekanligi to'g'risidagi klassik liberal nazariya «farovon davlat» to'g'risidagi konsepsiya bilan almashtirildi. Ya'ni, jamiyat o'zining har bir a'zosining kun kechirishi uchun zarur bo'lgan narsalarning eng kam miqdorini yaratadi, davlat siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va ijtimoiy bo'hronlarning oldini olishga qaratilmog'i kerak. Chunki bizning asrimizda ko'pchilik aholi yollanma ishchilardir, shuning uchun davlat zamonaviy iqtisodiyot sharoitida o'z fuqarosining kambag'al bo'lib, yordamga muhtoj bo'lib qolishidan mutlaqo manfaatdor emas.

5. Zamonaviy liberalizmga ijtimoiy adolat konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Bu prinsip individning tadbirkorligi va qobiliyatini rag'batlantirishni, ayni chog'da kam ta'minlangan aholi guruhlari uchun ijtimoiy boylikni qayta taqsimlash zaruratini inobatga oladi.

Liberalizm siyosiy tafakkurning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi sifatida tarixiy taraqqiyot davomida o'z partiyalarini ham vujudga keltirdi:

- 1828-y. AQSH demokratik partiyasi;
- 1832-y. Buyuk Britaniya liberal partiyasi;
- 1884-y. Norvegiya liberal-burjua partiyasi;
- 1922-y. Italiya liberal partiyasi;
- 1923-y. Shveysariya liberal partiyasi;
- 1948-y. Niderlandiya liberal partiyasi bugun dunyoning eng obro'li liberal partiyalaridir.

Konservatizm va neokonservatizm. Konservatizm – lotincha «conservare» – «saqlab qolmoq»; «buzilib, yo'qolib ketishga yo'l qo'ymaslik» degan so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, uzoq vaqtlardan buyon bizning siyosiy terminologiyamizda salbiy ma'no kasb etuvchi so'z, jarayon sifatida ishlatib kelingan edi.

Konservatizm ijtimoiy-siyosiy tafakkur ko‘rinishi sifatida 1789–1791-yillardagi Buyuk fransuz inqilobining natijalari va tajribalarining tanqidiy baholari sifatida shakllandi. Ta’limotning asoschisi angliyalik mutafakkir Edmund Berkdir (1729–1797). Shunga ko‘ra, klassik konservatizmni Angliyada vujudga kelgan deyish mumkin. E. Berk 1790-yil yozgan «Fransiyadagi inqilob to‘g‘risida o‘ylar» asarida erkinlik konsepsiyasini himoya qildi, hatto bunga liberallar ham tan berishdi. Biroq Berk fikricha, jamiyat hayotida yaxshi natijalarga inqilob orqali emas, balki ijtimoiy-siyosiy institutlarning evolyutsion taraqqiyoti orqali erishiladi.

XX asrda angliyalik faylasuf Karl Popper konservatizmning yirik nazariyotchisi sifatida tanildi.

Konservatizmning asosiy qadriyatlari tarix, hayot, qonun, tartib, intizom, ijtimoiy barqarorlik, an‘analar, oila, millat, davlat, jamiyat, hokimiyat, iyerarxiya va dindir.

Ijtimoiy konservatizmning o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- insoniyatning qadimiy axloqiy an‘analarini saqlab qolish;
- qadriyatlar yoki ijtimoiy institutlarni radikal inkor qilishga nisbatan shubhali munosabat;
- jamiyatni o‘z ichki hayoti va juda mo‘rt tuzilishga ega bo‘lgan ma‘naviy reallik, borliq sifatida idrok etish;
- jamiyatni yaxlit organizm sifatida tushunish va uni mashinaga o‘xshab qayta qurish mumkin emasligiga ishonish.

Konservatizmning asosiy qoidasi shundan iboratki, go‘yo inson ongi, aqli, tafakkuri imkoniyatlari cheklanganligi bois, u ijtimoiy jarayonlarning mohiyat va maqsadini to‘liq anglashga ojizdir. Ijtimoiy jarayonlar, konservatizm tarafdorlarining fikricha, odamlar taqdirini belgilovchi oliy ilohiy kuch (Yaratuvchi) tomonidan boshqariladi. Biroq inson onggi ham Yaratuvchi bilan birgalikda bu boshqaruvda ishtirok etadi. Real ijtimoiy jarayon esa ijtimoiy institutlar va qadriyatlarda ifodalangan tajriba va xatolar natijasidir. Bu real ijtimoiy jarayonlarni inson ongli ravishda o‘ylab topmagan va amalga oshirmagan, shu bois uni radikal tarzda o‘zgartirish huquqiga ham ega emas.

Shuning uchun konservatizm mafkurasining asosiy qoidala-

ri yanada tushunarliroq bayon etilgan quyidagi fikrga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

«Biz o'z institutlarimizni doimo yaxshilashga harakat qilmog'imiz lozim, biz ularni butunlay qayta qurishni hech qachon o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaymiz, o'z imkoniyatimizdagi yaxshilanishi lozim bo'lganlarini biz tushunmagan narsalarning biri sifatida qabul qilmog'imiz kerak. Biz doimiy ravishda o'zimiz yaratmagan shu qadriyatlar va institutlar ichida hamda ularning atrofida harakat qilmog'imiz lozim»¹.

Konservatorlarning nuqtayi nazaricha, davlat doimiy mavjud bo'ladigan organik butunlikdir, uning ayrim qismlari paydo bo'ladi, o'z shaklini o'zgartiradi, yo'qoladi, lekin davlatning o'zi o'zgarmasdir.

Vorisiylik, avloddan avlodga o'tuvchi ijtimoiy aloqalarni yangilab borish qoidasiga tayangan konservatizm inqiloblarga mutlaqo salbiy qaraydi. Jumladan, tarixga, taraqqiyotga bunday nuqtayi nazardan qarash tarafdorlari kommunistik tuzum inqirozi bois, keyingi o'n yilliklarda keskin oshdi. Konservatorlar jamiyatda asta-sekinlik bilan evolyutsion o'zgarishlar yasash tarafdorlaridir. Konservatizmni bunday talqin qiluvchilar neokonservatizm vakillari hisoblanadi. Ularning siyosiy falsafasida ikki g'oya mavjud:

1. Individni davlatga bo'ysundirish.
2. Millatning ma'naviy va siyosiy birligini, yakdilligini ta'minlash.

Ta'kidlash joizki, neokonservatorlar iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlari tarafdori bo'lib, shu ma'noda ular liberalistlar bilan hamfikrdirlar. Biroq siyosiy qarorlar u yoki bu individ, guruh manfaatini o'ylab emas, balki millatning mushtarak, umumiy manfaatlarini ko'zlab qabul qilinmog'i kerak, deya hisoblaydilar konservatorlar.

Xalqaro muammolar neokonservatizmida muhim o'rin tutmoqda. O'z davlatini dunyoning ilg'or davlatiga aylantirish oliy va absolyut maqsad deya belgilanmoqda, shaxsiy va guruhiy manfaatlar shu maqsadga bo'ysundirilmoqda. Ularning fikri-

¹ Мельник В. Основы политологии. — Минск., 1992. — С. 135.

cha, faqat davlatgina o'z qonunlariga ko'ra rivojlanishi, erkin bo'lishi mumkin. Individ o'z erkinligida cheklangan, shuning uchun ham u millat va davlat a'zosi sifatida foydali bo'lishi mumkin.

Bugungi dunyodagi mashhur konservativ partiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Angliya konservativ partiyasi;
- AQSH respublikachilar partiyasi;
- Xristian-demokratik yo'nalishdagi G'arbiy Yevropa partiyalari;
- Kanada konservativ partiyasi;
- Avstraliya va Yangi Zelandiya konservativ partiyalari.

Angliyadagi neokonservatorlar (tetcherizm) va AQSHdagi neokonservatorlar (reyganomika)ning fikricha, davlat liberallar va sotsial-demokratlar davrlarida iqtisodiy yo'naltirish hamda ijtimoiy himoya masalalari bilan ko'proq shug'ullandi, bu esa davlat apparatida byurokriyani kuchaytirdi, shaxsiy tashabbus va raqobatning rolini pasaytirib yubordi.

Shuning uchun ham 1975-yilda Angliya bosh vaziri lavozimiga saylangan Margaret Tetcher o'n yil ichida o'z «tetcherizm siyosati» bilan «temir xonim» nomini olgan bo'lsa-da, Angliyani yuksak taraqqiyotga olib chiqdi.

Xo'sh, uning siyosatidagi asosiy tamoyillar nimalar edi? Bular:

1. Tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
2. Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini minimum darajaga tushirish, xususiy mulkchilikni demokratlashtirish;
3. Har kim o'z-o'zini moddiy jihatdan ta'minlashi shart, davlat faqat nogironlarga yordam beradi;
4. Ijtimoiy xarajatlarni mumkin qadar kamaytirish;
5. Jamiyat uchun zarar keltiradigan ish tashlashlarni qat'iyan taqiqlash.

Natijada, 1982–1987-yillarda Angliya iqtisodiy va madaniy jihatdan G'arbiy Yevropada birinchi o'ringa chiqib oldi¹.

Sotsializm – XIX–XX asr siyosiy g'oyalaridagi yo'nalish-

¹ Дунёнинг кучли аёли // О'zbekiston ovozi. —2001. —20-dek.

lardan biri. Bu g'oya XIX asrda ishchilar sinfi manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keldi.

Sotsializm tenglik, ijtimoiy adolat, umumiy manfaatlarning ustunligiga asoslangan jamiyat haqidagi g'oya sifatida dastavval qadimgi dunyoda paydo bo'lgan. Uning negizida ilk xristian jamoalari qurilgan. Biroq sotsializm yangi davrda T. Mor, T. Kampanella, R. Ouen, Sh. Fure, A. Sen-Simon asarlarida nazariy jihatdan ishlab chiqildi va g'oyaviy oqim sifatida shakllantirildi. Keyinroq XIX asrda sotsializm proletariatning mafkurasi sifatida nemis mutafakkirlari K. Marks va F. Engels tomonidan asoslab berildi va marksizm nomini oldi. Marks ta'limotiga ko'ra, tenglik va ijtimoiy adolatni kapitalizm emas, balki sotsializm va kommunizm ta'minlaydi. Unga esa inqilobiy yo'l bilan, proletariat diktaturasini o'rnatish orqali dunyoning rivojlangan mamlakatlarida birdaniga o'tiladi.

XX asrning boshlarida marksizm bir-biriga qarama-qarshi ikki g'oyaviy oqimga: leninizm va sotsial-demokratiyaga bo'linib ketdi.

1864-yilda I Internatsional tashkil topgach, Yevropaning ko'p davlatlarida ommaviy sotsial-demokratik partiyalar vujudga keldi. 1889-yilda II Internatsional, 1898-yilda esa RSDRP¹ tuzildi. 1895-yilda F. Engels vafotidan keyin marksizmning asosiy postulatlar² masalasida o'zaro kelishmovchiliklar boshlandi. Natijada, 1918-yildan keyin yagona sotsialistik harakat bo'linib ketdi. 1917-yildagi kommunistik rus inqilobidan keyin Rossiya-dagi bolsheviklar (rus kommunistlari) sotsial-demokratik partiyalardagi so'l kuchlarni III Kommunistik Internatsionalga birlashtirdilar. Lenin va uning tarafdorlari fikricha, sotsializmga dunyoning rivojlangan mamlakatlarida birdaniga emas, balki kapitalizmning «zaif halqasi» hisoblangan, alohida olingan bir mamlakatda, inqilobiy yo'l bilan – burjua davlat mashinasini sindirib tashlash va proletariat diktaturasini o'rnatish, xususiyl mulkni tugatish hamda uni ijtimoiy (davlat) mulkka aylantirish

¹*Izoh:* РСДРП – Российская социал-демократическая рабочая партия (Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi).

²*Izoh:* Postulat – isbotsiz qabul qilinadigan dastlabki qoida, faraz.

yo'li bilan erishiladi. Bu ta'limot asosida sobiq SSSR va bir qator Sharqiy Yevropa mamlakatlarida olib borilgan sotsializm qurish tajribasi samarasiz bo'lib chiqdi va xalq ishonchini qozonmadi. Oqibatda, sotsializmning lenincha konsepsiyasi siyosiy g'oya sifatida inqirozga uchrab, amal qilishdan to'xtadi.

O'ng sotsialistik va sotsial-demokratik partiyalar esa 1923-yilda Sotsialistik Internatsionalga birlashdilar va u bugungi kunda ham mavjud. G'arbiy Yevropada XIX asr oxiri XX asr boshlarida E. Bernshteyn va K. Kautskiylar tomonidan nazariy jihatdan ishlab chiqilgan sotsial-demokratik ta'limot Rossiyadagi Lenin boshliq kommunistlar ta'limotidan o'z pragmatizmi hamda hayotiyligi bilan tubdan farq qilar edi. Bu ta'limotga ko'ra, sotsializmga sinfiy kurash, inqilobiy yo'l orqali emas, balki tinch, evolyutsion yo'l bilan burjua jamiyatini asta-sekin isloh qilish orqali o'tiladi. Sotsial-demokratlar bu ko'rsatmalarini amalga oshirishni davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga faol aralashi-shini, daromadlarni kambag'allar foydasiga qayta taqsimlash, iqtisodiyotning davlat sektorini va ko'plab davlat ijtimoiy dasturlarini rivojlantirish bilan bog'laydilar.

Bernshteyn va Kautskiylar marksizm-leninizm xatolarini keskin tanqid qilib, «demokratik sotsializm» tushunchasini ijtimoiy ongga olib kirdilar. Bernshteyn yaratgan demokratik sotsializm nazariyasi K. Marksning «kapitalizm inqirozi va xalqning tobora kambag'allashuvi» to'g'risidagi tezisini rad etdi. Shu munosabat bilan proletar inqilobini amalga oshirish va uning diktaturasini o'rnatish to'g'risidagi markscha-lenincha g'oya ham zararli hamda asossiz deb topildi.

XX asrning ikkinchi yarmida sotsial-demokratik g'oya negizida G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida turli-tuman «sotsializm modellari» shakllandi. Bular ichida hayotning yuqori darajasi hamda sifatini ta'minlay olgani uchun shved va german modellari katta obro' qozondi, ayrim mamlakatlarda sotsial-demokratik partiyalar uzoq yillar davomida hokimiyatni ham boshqarishdi. Jumladan, Norvegiya ishchi partiyasi oltmish yil davomida hukmron partiya bo'ldi, Shvetsiyada esa sotsial-demokratik partiya 1932-yildan buyon hokimiyatni boshqarmoqda. «Shved sotsializmi» g'oyasi shu partiya

hukmronligi yillarida hayotga tatbiq etildi. Ammo XX asrning 80-yillari oxirlarida bu mamlakatlarning iqtisodiyotida davlat monopoliyasi va byurokratizm, xususiyl tadbirkorlik uchun rag'batlantirishning pasayishi bilan bog'liq salbiyl jarayonlar kuchaydi. Natijada, sotsial-demokratlar ko'pchilik saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi va hokimiyatni konservativ partiyalarga topshirishga majbur bo'ldilar. XX asrning 90-yillari oxiriga kelib sotsial-demokratlar saylovlarda g'alaba qozonib, qaytadan hokimiyat tepasiga keldilar.

Hozirgi zamonning obro'li sotsial-demokratik partiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1869-y. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi;
- 1871-y. Daniya sotsial-demokratik partiyasi;
- 1879-y. Ispaniya sotsialistik ishchi partiyasi;
- 1887-y. Norvegiya ishchi partiyasi;
- 1889-y. Shvetsiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi;
- 1900-y. Buyuk Britaniya leyboristlar (ishchi) partiyasi va

boshqalar.

Ikkinchi jahon urushidan keyin qayta tuzilgan Sotsialistik Internatsional 1951-yilda Frankfurt deklaratsiyasida o'z rasmiyl doktrinasini e'lon qildi. Bu «sotsializmga faqat demokratik yo'l bilan borish kerak», degan tezisga asoslangan «Demokratik sotsializm» doktrinasi edi. Hozirgi zamonda Sotsialistik Internatsionalga dunyoning 120 mamlakatidagi 139 partiya a'zodir. Jahon sotsialistik sistemasining inqirozidan keyin ko'pgina kommunistik partiyalar ham Sotsialistik Internatsionalga a'zo bo'lib kirishdi. Hozirda Sotsialistik Internatsional markaziy boshqaruv organiga ega emas. Kongresslari esa har 3-yilda bir marta o'tkaziladi.

Mafkura jihatdan turlicha, lekin siyosiy yo'li mushtarak bo'lgan partiyalar Sotsialistik Internatsionalni tashkil etganlar. Shunisi e'tiborga loyiqki, siyosiy plyuralizmni inkor etuvchi partiyalar bu tashkilot a'zosi bo'la olmaydilar. XX asrda sotsial demokratiyaning bir qator mashhur vakillari dunyo siyosati va tarixida chuqur iz qoldirdilar. Ular qatoriga V. Brandt, U. Pal-

¹ Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. – М., 2000. – С. 362–365.

me, B. Krayskiy, Fransua Mitteran, Sotsialistik Internatsional raisi – Fransiyaning sobiq bosh vaziri Per Morua va boshqalarni kiritish mumkin¹. So‘nggi paytlarda sotsial-demokratlar «ekologik sotsializm» g‘oyasini ilgari surmoqdalar.

Sotsial demokratiya hozirgi davrning eng ta’sirli g‘oyaviy oqimlaridan biri bo‘lib, u ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish yo‘li orqali jamiyatni sotsialistik asosda qayta qurishni, xalq farovonligiga erishishni ko‘zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning shakllanishi va rivojlanishiga oid yuqorida keltirilgan ma’lumotlar siyosiy qarashlarning uzoq tarixga egaligidan, bugungi jamiyat siyosiy hayotidagi turli masalalarni hal etishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Shu bois bu bilimlarni chuqur o‘rganish aqidaparastlikning va siyosat dunyosida biryoqlamalikka berilishning oldini oladi.

Tayanch tushunchalar

Siyosiy-huquqiy g‘oyalar, sivilizatsiyaning ilk o‘choqlari, Xam-murapi qonunlari, davlatning patriarxal-paternalistik konsepsiyasi, timokratiya, oligarxiya, demokratiya, monarxiya, aristokratiya, Akademiya, polis, siyosiy mavjudot, politiya, tiraniya, «xalq», «olomon», O‘rta asrlar, inkvizitsiya, yurisprudensiya, katolik cherkovi, dunyoviy hokimiyat, ilohiy hokimiyat, Uyg‘onish davri, makiavellizm – Uyg‘onish davri siyosiy falsafasi, Reformatsiya, «fuqarolik to‘g‘risidagi qarashlar», Yangi davr, siyosatning fuqarolik konsepsiyasi, siyosatning ijtimoiy konsepsiyasi, liberalizm, neoliberalizm, konservatizm va neokonservatizm, sotsializm, marksizm, leninizm, sotsial demokratiya, «demokratik sotsializm», «sotsializm modellari».

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Qanday tarixiy sharoit siyosiy g‘oyalarning kelib chiqishiga turtki bo‘ldi?
2. Dastlabki siyosiy qarashlarning Qadimgi Sharqda shakllanishi sabablari nimada deb bilasiz?
3. Platon ideal davlat to‘g‘risidagi qarashlarida demokratiya va davlat boshqaruvi masalasiga qanday yondashgan?

4. Xususiy mulkka munosabat masalasida Platon va Aristotel qarashlaridagi asosiy tafovutlarni aniqlang.
5. Aristotel insonni «siyosiy mavjudot» deganda nimalarni nazarda tutgan edi?
6. Jamiyatda o'rtahollar va kambag'allar nisbati xususidagi Aristotel fikrlari hozirgi zamon uchun qanday ahamiyatga ega?
7. Sizningcha, antik davr mutafakkirlari qarashlarida hozirgi jamiyat uchun qanday foydali jihatlar mavjud?
8. Yevropada o'rta asrlar siyosiy g'oyalari dunyoviy va diniy ta'limotlarning nisbatini taqqoslang.
9. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiyning siyosiy qarashlarini tahlil qiling.
10. Uyg'onish davrining siyosiy sohadagi o'ziga xos jihati nimada edi?
11. Makiavellining «Maqsad vositani oqlaydi», degan tamoyili siyosatni demokratlashtirish vazifasiga muvofiq keladimi? Javobingizni tarixiy dalillar bilan isbotlashga harakat qiling.
12. Lokk «Davlat shaxsdan kuchliroq bo'lishi mumkin emas», deganda nimalarni nazarda tutgan edi?
13. Liberalizm va neoliberalizmning ijtimoiy fikr sifatidagi asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
14. «Tungi qorovul» va «farovon davlat» kabi liberalistik konsepsiyalarni o'zaro taqqoslang.
15. Zamonaviy demokratiyaning shakllanishida liberalizm va neoliberalizmning qanday xizmati bor deb o'ylaysiz?
16. Konservatizm va neokonservatizm ta'limotining xarakterli xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
17. Konservatizm jamiyatni yaxlit organizm deb biladi. Buning ma'nosini siz qanday tushunasiz?
18. «Tetcherizm» va «reyganomika» – neokonservatizmning ifodasi deganda nimani tushunasiz?
19. Sotsializm ta'limotining asosiy ideali nimadan iborat?
20. XX asr sotsial-demokratik harakatining qaysi mashhur arboblari bilasiz?
21. Sotsializmning so'f radikal konsepsiyalarini tahlil qiling.

Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қура-
миз. Т. 7. – Т., 1999. – Б.132–154.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам
бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 174–22.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008. –
Б. 176.

Аристотель. Политика. Сочинения в 4-х т., Т.4. – М.,
1984. – С. 112–134.

Монтескьё Ш. О духе законов. М., 1955. – С. 22 – 43.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997. –
Б.17–23.

Политология: Ўқув қўлланма / *С. Отамуродов, И. Эрга-
шев, Ш. Акрамов, А. Қодиров* – Т., 1999. – Б. 21–39.

Политология: Маърузалар матни /*Тақризчилар: В. С. Ким,
Ж. Бахронов.* – Т., 2000. – Б.15–40.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учеб-
ник. – М., 2000. – С. 30–127.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш:
Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – Б.10–25.

Макиавелли Н. Государь. История Флоренции. – М., 1987. – С.
3–33.

Сулаймонова Ф. Шарқ ва Фарб. – Т., 1997. – Б. 3–44.

Артхашастра или наука политики. М., 1993. – С. 3–18.

Цицерон. Речи. М., 1993. – С. 7–25.

MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY-SIYOSIY TAFAKKUR RIVOJINING ASOSIY BOSQICHLARI

*(Qadimgi davrdan XX asrning
30-yillariga qadar)*

1. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning kelib chiqishi

Jamiyatning siyosiy hayoti masalalariga doir qarashlarning yuzaga kelishi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasidir. Bunday qarashlar dunyoning barcha xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida mavjuddir. Shu sababli Markaziy Osiyoda antik zamonlarda, uyg'onish va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning vujudga kelishi hamda rivojlanishi to'g'risidagi bilimlarni o'rganish, bu bilimlarning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi ahamiyatini bilish, shuningdek, jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'rganish, bu qarashlarning mustaqillik davridagi ahamiyatini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlar tarixining eng qadimgi davrlaridan guvohlik beruvchi dastlabki manba bundan 2700 yil ilgari ilk bor tartib berilib, to'plangan tarixiy yozma manba «Avesto» kitobidir. «Avesto» so'zining o'zagi «sto» bo'lib, «o'rnatilgan, muqarrar qilingan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'riqnomasi» demakdir. Mintaqamizda islomga qadar amal qilgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan «Avesto» uzoq ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy dunyosi haqida noyob ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Markaziy Osiyodagi turli qabilalarni ilk buyuk davlatchilik g'oyasi atrofida birlashtirish zaruratini anglagan yetakchi shaxslardan biri sifatida tarix sahnasida yorqin iz qoldirgan, Amudaryo bo'yalarida yashagan, Spitama urug'i vakili Zardusht ko'p xudolik tasavvurlari, tabiat hodisalariga sig'inishga qarshi chiqib, yakka xudolik g'oyasini targ'ib qiladi. Ajdodlarimizning bundan qariyb 3 ming yil avvalgi siyosiy-huquqiy qarashlarida hokimiyat, hukm-

ronlik uchun kurash mavzusi diniy-mifologik shaklda o'z ifodasini topib, ularda yaxshilik, adolat, haqiqat, saxovat va olijanoblik kabi fazilatlar ulug'langan. Zardushtning barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarini bajo keltirish har bir kishining muqaddas burchi hisoblangan. Har bir inson o'z umrini yaxshi fikr, yaxshi so'z, ezgu ishlarga bag'ishlashi lozimligi uqtirilgan.

«Avesto»dagi yaxshi fikr, yaxshi so'z, ezgu ishlar haqiqat asosida bajarilishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan. «Haqiqat, — deb yozilgan «Yasna»ning¹ muqaddimasida, — eng oliy ne'mat, baxt-saodat manbayidir. Baxt faqat haqiqatni sevguvchi inson-gagina mansubdir»².

«Avesto»da ijtimoiy-siyosiy hayotni, hokimiyatni boshqarishning axloqiy, huquqiy muammolariga oid ko'plab masalalar keng yoritilganini ko'rish mumkin. Bu ta'limotdagi siyosiy-huquqiy qadriyatlarining g'oyat muhim xususiyatlaridan biri insoniyatga qirg'in keltiruvchi urush va mojarolarning qoralanganligi, tinchtotuv yashash, sulhparvarlik kabi olijanob g'oyalarning ilgari surilganligidir. «Yerni odil hukmdor, pokiza qalb va ezgu niyatlardan bilan boshqarish kerak. Zolim hukmdorning boshqarishiga yo'l qo'yma!» yoki «Adolat tantana qilishi, yovuzlik yo'q qilinishi kerak»³, kabi murojaatlarning o'z davri ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkuriga amaliy ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir.

Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, «Avesto»da bayon qilingan axloq va huquqiy mezonlar Markaziy Osiyo hududida qariyb 3 ming yil avval siyosiy kategoriyaning ilk kurtaklari shakllanganligidan dalolat beradi.

«Avesto»da ijtimoiy masalalarga ham keng ahamiyat berilgan. Kimki yerga vaqtida ham o'ng qo'li, ham chap qo'li bilan

¹ *Кадыров М.* «Ясна», Пур Дауда / Тегеран, 1968. — С.50. Бу тўғрида қаранг: *Ф.С.Низамов.* «Авесто»да ҳуқуқий қадриятлар намоён бўлиши шакллари-нинг таҳлили////*Нуқуқ—Право—Law.* — 2003. — № 1. — В. 68.

² *Izoh:* «Avesto» 21 nask, ya'ni kitobdan iborat bo'lgan. Lekin bu 21 kitob bizgacha yetib kelmagan. Hozir fanda «Avesto»ning «Yasna», «Videvdot», «Yasht», «Visparat» kabi kitoblari ma'lum («Yasna» —namoz uchun zarur duolarni, «Videvdot» —devlarni mahv etishga oid duolar to'plamini, «Visparat» —namoz va zikr-u sano matnlarini, «Yasht»lar esa alqov (gimn)lar to'plamini o'z ichiga olgan.

³ *Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане.* — Т., 1976. — С. 54.

ishlov bermagan, mehnat qilmagan bo'lsa, unday kimsalarga Zamin: «O sen, odam, menga topinmaydigan, mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatdan ham sening yoningda har xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan, ya'ni to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo'lajak!» — deb javob beradi¹.

Umuman, zardushtiylik ilgari surgan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy fikrlar harbiy demokratiya tipidagi qabilalar birlashmasi emas, balki boshqaruvning markazlashgan tizimi va uning faoliyatiga asos bo'lgan qonunlar, qat'iy tartib-intizomga tayanadigan davlatlarga xos bo'lgan xususiyatlardir. Shuning uchun ham zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy qarashlari ifoda etilgan noyob manbadir. Bugungi «Avesto»ning o'zbek tilida chop etilganligi xalqimiz ijtimoiy-siyosiy tafakkuri tarixini o'rganishda, shubhasiz, katta voqelik bo'ldi.

Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarini o'rganishda «Avesto»dan tashqari moniylik manbalari ham muhim ahamiyatga ega. Diniy-siyosiy ta'limot sifatida milodning III asrda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan moniylikka musavvir Moniy (216–276) asos solgan. O'z targ'iboti orqali zardushtiylik, xristianlik va buddizm g'oyalarini umumlashtirgan Moniy 276-yilda rasmiy hokimiyat tomonidan qatl etilgan. Uning oromiy (Suriya), mo'tadil fors va so'g'd tillarida yozgan asarlari bizgacha yetib kelgan. Moniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari «Sir-ul asar» (Sir-u asror kitobi), «Kitob-ul xudo vost tadbir» (Rahbarlik va boshqaruv kitobi), «Shaburkan» (Shapurkan) va boshqa asarlarida bayon qilingan.

Moniylik qarashlarida ham zardushtiylikdagi kabi dualistik xarakter ustunlik qiladi. Moniy siyosiy qarashlarida o'z davridagi hokimiyat vakillarini axloqsizlikka, manmanlikka, poraxo'rlikka, tubanlikka duchor bo'lganlikda ayblaydi. Umuman, moniylikda

¹ Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. — Т., 1998. — В. 104.

siyosatga nisbatan nasihatgʻoylik yondashuvi ustunlik qiladi¹. Unda siyosat har qanday vaziyatda ham axloqiy prinsiplar: rostgʻoylik, halollik, odamlarga xayrixohlik va hokazolarga zid boʻlmasligi kerakligi va faqat axloq yoʻl qoʻyadigan vositalardan foydalanish lozimligi talab qilinadi.

Milodiy V asrning oxiri VI asr boshlarida Markaziy Osiyoda mazdakiylik deb nom olgan diniy-falsafiy taʼlimot yuzaga keldi. Eronning Nishopur shahrida tugʻilgan Mazdak dehqonlar qoʻzgʻoloniga rahbarlik qilganligi hamda mazdakchilar oʻz siyosiy talablarida «z» harfi bilan boshlanuvchi toʻrtta narsa «zamin» (yer), «zar» (oltin, boylik), «zoʻr» (kuch, hokimiyat), «zan» (xotin)ning barchaga teng taqsimlanishini talab qilib chiqqanlari tarixdan maʼlum. Ijtimoiy tengsizlikni jamiyatdagi falokat va baxtsizliklar sababi deb hisoblovchi bu taʼlimot mol-mulknini umumlashtirishdek utopik gʻoyani ilgari surgan².

Markaziy Osiyo turkiy xalqlarining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri tarixini oʻrganishda Oʻrxun-Enisey yodgorliklaridan Tunyuquq, Qul tegin, Bilga hoqon bitiklarining ham ahamiyati kattadir. Ayniqsa, Baykal koʻliga quyiladigan Oʻrxun daryosining sharqiy qirgʻogʻi yaqinida joylashgan (732-yilda toshga oʻyib yozilgan) Qul tegin bitiktoshi Turk hoqonligidagi davlat boshqaruvi masalalarini oʻz ichiga olganligi bilan diqqatga sazovordir. Bu bitiktoshdagi «...turk beklari, xalqi buni eshiting! Turk xalqini toʻplab davlat tutishingizni bu yerda toshga oʻyib yozdim. Unga qarab biling, turkning endigi xalqi, beklari!» soʻzlari eʼtiborga molikdir.

Xulosa shuki, «Avesto», «Oʻrxun-Enisey» yodgorliklari va boshqa yozma manbalar «qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarida ijtimoiy-siyosiy taʼlimotlar boʻlgan emas, siyosiy-falsafiy naza-

¹ *Izoh:* Siyosatni axloqiy qilishga intilish sifatida tushuniladigan bunday yondashuv siyosatning insoniylashuviga yordam beradi. Bunday intilish hozirgi gʻarb xristian demokratik harakatlari mafkurasida ham ifodalanmoqda. Hozirgi dunyoda siyosatga nisbatan axloqiy talablarning institutsionallashuvidagi markaziy yoʻnalish inson huquqlaridir. Amalda siyosatning insoniyligi eʼlon qilinayotgan maqsadlari bilan emas, ularga yetish jarayonida qoʻllayotgan usul va vositalari bilan belgilanadi.

² *Izoh:* Xususiy mulknini jamiyat hayotidan siqib chiqarishga, ijtimoiy mulkchilikni mutlaqlashtirishga tayangan kommunistik boshqaruv tizimi mol-mulknini umumiyashtirish istiqbolsiz va hatto taraqqiyot uchun zararli ekanligini yaqin tarixda isbotladi.

riya ular uchun mutlaqo yot, falsafa to'la ma'noda G'arbda boshlangan», degan yevropatsentristik da'volarning puch va haqiqatga tamomila zid ekanligini isbotlaydi.

2. Sharq uyg'onish davridagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ta'limotlar

Ma'lumki, VIII asr boshlarida Markaziy Osiyo arablar istilosiga uchradi. Bu istilo o'lkamiz xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga kuchli zarba berdi. Abu Rayhon Beruniy «Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Qutayba Xorazm yozuvini bilgan, Xorazm afsonalarini saqlagan kishilarni, ularning orasida bo'lgan olimlarning hammasini turli yo'llar bilan ta'qib ostiga oldi va yo'q qilib yubordi», deb yozgan edi. Bosqinchilarga qarshi olib borilgan ozodlik kurashi tufayli IX asrning ikkinchi yarmiga kelib mustaqil davlatlar (Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar)ning paydo bo'lishi bu yerda ijtimoiy gumanitar fanlarning, jumladan, siyosiy g'oyalarning taraqqiy etishiga olib keldi.

Markaziy Osiyoda siyosiy fikrlarning vujudga kelishi va rivojlanishida islom dini ham muhim manbalardan biri bo'ldi. IX asrda maxsus islom ilmlari shakllandi. Greklardan o'tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa qator ilmlardan tashqari kalom, hadis, fiqh kabi islomiy ilmlar yuzaga keldi. Islom Sharqda nafaqat din sifatida, balki yaxlit madaniyat, ma'naviyatning shakllanishida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. U madaniyatning ilm-fan, san'at, axloq, siyosat kabi sohalarining rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Siyosat va siyosiy masalalar Qur'on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun-qoidalari majmui shariatda o'z aksini topdi. Musulmon huquqshunoslari, qozilar ish yuritish oson bo'lishi uchun shariat doirasida Qur'on, hadis, ijmo', qiyosdagi qonun va qoidalarni alohida to'plam holiga keltirib, fiqh ilmiga asos soldilar. Chunki shariat juda keng bo'lib, u o'zida huquqiy, axloqiy, diniy mezonlarni mujassamlashtirgan bo'lsa, fiqh esa undan torroq, ko'p jihatdan qozilar, huquqshunoslar uchun masalalarni qonuniy hal qilish uchun zarur bo'lgan qoidalar (me'yorlar) to'plamidir. Muhammad payg'ambarning vafo-

tidan keyin ikki asr davomida shakllangan fiqh (islom qonunchiligi) to'rt imomning nomi bilan bog'liq to'rt maktabni (mazhabni) yuzaga keltirdi. Bu mazhablar asoschilarining nomi bilan ataldi.¹

Shu davrda mintaqa shuhratini olamga tanitgan o'nlab buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdilar. Ulardan eng mashhuri — *Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad Uzlug' Tarxon Forobiy* (873–950). Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi «Al-muallim as-Soniy» — «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» deb ulug'langan. Forobiy ilmiy merosida ijtimoiy-siyosiy masalalar, xususan, davlat tuzilishi va uni idora etish, yetuk va mukammal jamoaga erishish masalalari alohida o'rin egallaydi. Mutafakkir o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari — davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va sulh, mehnat va boshqa masalalar qamrab olingan. Umuman, Forobiy o'z umri davomida 160 dan ortiq asar yaratgan, ular orasida ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalari yoritilganlari quyidagilardir:

«Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fit tanbih ala asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As-siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi maoyish va-l xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazilat»), «Fozil odamlar qarashlari» va h.k.

Mutafakkirning fikricha, har bir inson yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi.

Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy

¹*Izoh:* Hanafiy mazhabi (Imom Abu Hanifa), molikiy mazhabi (Imom Molik ibn Anas), shofiiy mazhabi (Muhammad ibn Idris Shofiiy), hanbaliy mazhabi (Imom Ahmad ibn Hanbal).

urushlar va bosqinchiliklarga asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi. Davlat boshlig'i va davlat xizmatchilari boshqaruv san'atini yaxshi bilishlari shartligini qayd etadi. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, — deb yozadi u, — bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi». Forobiy davlatni yetuk shaxs (ma'rifatli shoh), yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida adolatli boshqarish mumkinligini qayd etadi. Uning fikricha, davlatning vazifasi shahar aholisining (Forobiy «shaharni» kamolot va baxtga erishishning zaruriy vositasi deb hisoblagan) baxtli hayotini ta'minlash va qo'riqlashdan iborat, deb hisoblaydi.

Umuman, Forobiy ta'limotida shahar-davlatlar ikkiga — Al-Madina al-Fozila, va Al-Madina al-Johiliyaga bo'linadi. O'zaro birlikda, ittifoqda yashab, bir-biriga yordam ko'rsatuvchilar shahrini fozillar shahri deb baholaydi. O'z davrining mavjud feodal davlatlaridagi adolatsizliklarni, tengsizlik va baxtsizliklarni qoralab, bosqinchilik siyosati va urushlarni nomaqbul deb biladi, bunday tashqi siyosatga amal qilayotgan davlatni fazilatsiz davlat deb hisoblaydi. Davlat boshliqlarini va barcha fuqaroni yaxshilik qilishga, o'zaro yordam asosida yashashga da'vat etadiki, bunday da'vat hozirgi zamon jamiyatlari uchun ham katta ma'riy-siyosiy qimmatga ega.

Shunday qilib, Forobiy orzu qilgan fozil shahar-davlatlarning asosiy vazifasi tinchlikni ta'minlash, adolatni himoya qilish, odil sudlovni o'rnatishdir. Bunday fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi.

Adolatli davlat va fozil jamiyatning o'zaro bog'liqligi, siyosiy hokimiyat masalalari *G'azzoliy, Nizomulmulk* (XI asr) asarlarida ham qalamga olingan. Imom G'azzoliyning «Kimyoi saodat» asarida davlat rahbari jamiyatning yuragi, odamlarning dono va diyonatli rahbar atrofida uyushishi Haq taolo xohishiga muvofiq, degan g'oya ifodalangan. Ammo *Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy-Nizomulmulk* (1018–1092) o'zining «Siyosatnoma» («Siyar ul-muluk»), «Dastur-ul-vuzaro», «Qonun ul-mulk» kabi asarlarida adolat, insof, to'g'rilik va halollik kabi axloqiy kategoriyalarga urg'u bergan bo'lsa-da, siyosat hodisasini real

hayot bilan bog'lab talqin etgan hamda markazlashgan kuchli davlat g'oyasini qat'iy himoya qilgan. Shohning jasur, dono, tadbirkor va qat'iyatli bo'lishi g'oyasini ilgari surgan. Davlatni idora qilishda amaldorlar katta o'rin tutishlarini, ularni tanlash va joy-joyiga qo'yishga o'ziga xos talab darajasida qaragan. «Siyosatnoma»da amaldorlarni tarbiyalash, himoyalash va zarur bo'lsa, jazolash bilan bog'liq bo'lgan tavsiyalar berilganki, bu hol siyosatchi va davlat rahbarlarining e'tiborini jalb etadi. Nizomulmulk davlatda markazlashgan hukumat (ijro hokimiyati) kuchli bo'lsa, shunda tinchlik va adolat barqaror bo'ladi, raiyat (xalq) o'z maqsadiga yetadi, jamiyat sulh va adolatda, muruvvatda yashaydi, deb qayd etadiki, kuchli ijro hokimiyati haqidagi bu muallif qarashlari demokratik qadriyatlarni qaror toptirayotgan hozirgi zamon siyosiy tizimlari uchun ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Umuman, «Siyosatnoma» jiddiy siyosiy-tarixiy hujjat bo'lib, markazlashgan hukumatning parchalanishiga qarshi qaratilgan asardir.

Uyg'onish davrining buyuk qomusiy olimi *Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy*dan (973–1048) ilm-fanning turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalar, turli hajmdagi asarlar, yozishmalar qolganligi ma'lum. Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari aks etgan asarlari orasida «Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») va «Hindiston» asarlari, ayniqsa, mashhurdir.

Mutafakkir davlat va huquqning paydo bo'lishi, ularning vazifalari masalalarini Forobiy kabi ehtiyojga bog'lab, ma'rifatli shoh boshqaruvi g'oyasini ilgari suradi, ijtimoiy hayotni o'ziga xos «shartnoma»ning natijasi deb biladi. «Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir», deb hisoblaydi alloma.

Beruniy fikricha, idora qilish va boshqarishning mohiyati boshliqning zolimlardan aziyat chekkanlar huquqlarini himoya qilishi, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishi-

dir deb biladi. Qolaversa, jamiyatni boshqaruvchi shaxs qat'iyatli, ma'rifatparvar, yangilikka intiluvchi bo'lmog'i, oliy va quyi tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatilishi lozim. Har qanday nizo-janjallar, toj-taxt talashish, zo'ravonlik, bosqinchilik harakatlariga qarshi turgan Beruniy davlatlar va xalqlar o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini olib borish g'oyasini ilgari surgan.

Buyuk mutafakkir *Abu Ali ibn Sino* (980–1037) ham qomusiy olim bo'lib, umumiy asarlari soni 450 dan ortiq, lekin bizgacha faqat 160 taga yaqini yetib kelgan. Jahonda «Shayx ur-ra'is», ya'ni «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi» nomlari bilan ulug'langan bu olimning «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») asari XII asrdan boshlab Yevropada lotin tiliga tarjima qilingan va 30 martadan ortiq nashr qilingan.

Ulug' hakimning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga Forobiy, Platon, Aristotel va Suqrot kabi allomalar ta'limoti katta ta'sir ko'rsatgan. U ham Forobiy kabi haqiqiy ideal jamoaga mavjud dunyoda erishish mumkin, jamiyat a'zolari o'zaro kelishuv asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlarga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim deb bilgan.

Ibn Sino fikricha, ideal jamiyat aholisi uch tabaqaga, ya'ni ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar va harbiylarga bo'linadi. Ularning barchasi o'z sohasida foydali mehnat bilan shug'ullanishlari lozim.

Mutafakkir «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi») asarida agar jamiyatda hamma shoh yoki aksincha, hamma oddiy mehnatkash bo'lsa edi, jamiyat bunday holda halok bo'lur edi, deya ijtimoiy tabaqalanishni va moddiy tengsizlikni e'tirof etadi. Lekin alloma jamiyatda kambag'allar soni ko'payishiga qarshi chiqib, odamlarni bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatishga, hamjihatlikka da'vat etadi. Xalqlar va davlatlar o'rtasida tinchlik bo'lishi, ma'rifatparvar shoh boshqaruvi, ilm-fan ravnaq topishini orzu qiladi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy

siyosat bilan bog‘liq barcha masalalar VIII asrdan boshlab shariat qoidalari asosida hal etila boshlangan. Shu o‘rinda shariat me‘yorlarini ishlab chiqishga benazir hissa qo‘shgan ulkan fiqhshunos *Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Marg‘inoniy* (1123–1197)ning «Hidoya» asari xususida to‘xtalib o‘tish joizdir. Fiqh ilmidagi shuhrati uchun bu olimni «Burhon ud-din val-l-milla» («islom dinining dalili, isboti») va Burhoniddin al-Marg‘inoniy deb atashgan. «Hidoya» asari o‘z ixchamligi, mukammalligi, hanafiy mazhabini boshqa sunniylik mazhablari bilan qiyosiy o‘rganib, har tomonlama yoritganligi uchun o‘ziga xos nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi¹.

Faqh o‘z asarida davlat huquqi, moliya huquqi, fuqarolik huquqi, oila huquqi, meros huquqi, jinoyat huquqi, sud huquqi bo‘yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi shariat normalarini aniq, izchil va mukammal tarzda bayon etgan.

«Hidoya» bir necha asrlar davomida ko‘pgina musulmon mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarida ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma sifatida qozilik sudlari bekor qilingan 1930-yillargacha amalda qo‘llanilib kelingan. Ayni paytda ham musulmon davlatlarida «Hidoya»dan huquqshunoslikda keng foydalanilmoqda.

Umuman olganda, mutafakkirlarning fozil jamiyat va komil inson, ma‘rifatli shoh va tenglik haqidagi fikrlari o‘z davri uchun xayoliy bo‘lishiga qaramay, siyosatga insonparvarlik yo‘nalishini olib kirishga qaratilganligi uchun ijtimoiy-siyosiy tafakkur ravnaqiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi. Shu o‘rinda Forobiy va boshqa Sharq mutafakkirlarining g‘oyalarini bugungi kunda yanada teran anglashimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning qarashlarini yevropatsentristik tamoyillar asosida allaqanday siyosiy «izm»larga bog‘lab tushuntirish to‘g‘ri bo‘lmas. Xalqimizning taniqli tasavvufshunos olimi Najmiddin Komilov aytganidek, «Bu – insoniyat kamoloti va jamiyat takomillashuvi uchun olib borilgan kurash sahifalari, orzu-armonlar, xayol va takliflar, istiqbolga mo‘ljallangan «loyihalar», ya’ni ulug‘ muta-

¹ Исхаков С. А. «Хидоя»нинг мусулмон ҳуқуқи манбаи тизимида тутган ўрни // Нуқуқ–Право–Law. – 2003. – №2. – В. 56.

fakkirlarning ideal inson va jamiyat haqidagi fikrlari edi. Biroq bu shunchaki xayol emas edi, bunday jamiyatni hech qachon amalga oshmaydigan xomxayol, utopiya desak adolatdan bo‘lmaydi»¹.

O‘tmishdagi mutafakkirlar asarlarida o‘z davri tartiblari va tafakkurining ta’siri kuchli bo‘lsa-da, o‘sha zamonlardayoq davlat va uning timsoli bo‘lmish hukmdorga qo‘yilgan talablar, hukumatning jamiyat oldidagi majburiyatlari xususidagi tasavvur va qarashlar mohiyatiga ko‘ra bugungi kun me‘yorlaridan farq qilmaydi. Bu esa davlat va jamiyatni boshqarish to‘g‘risidagi qarashlar Makiavelli (1469–1527) Yevropa siyosat ilmidagi tanilmasdan ancha ilgariroq Markaziy Osiyoda ilmiy-nazariy shaklga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

3. Amir Temur va temuriylarning siyosiy qarashlari

Markaziy Osiyo mutafakkirlari va davlat arboblarning siyosiy-huquqiy merosini o‘rganishda sohibqiron *Amir Temur* (1336–1405)ning hokimiyat va uni boshqarish to‘g‘risidagi qarashlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, Amir Temurning siyosiy qarashlari o‘z davri ma’naviyati va davlat boshqaruvi bilan bevosita bog‘liq, ikkinchidan, bu masalaning xolisona va haqqoniy baholanishi davlat tepasida turgan birinchi rahbarning shaxsiy sifatlarini mukammalroq bilish, uning insoniyat tarixida tutgan o‘rnini obyektiv baholash imkonini beradi.

1370-yilda Movarounnahr taxtining sohibi bo‘lib, Samarqandni hokimiyat poytaxtiga aylantirgan Amir Temur faoliyatidagi asosiy siyosiy yo‘l – mayda feodallar hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo‘llarida ustunlik qilib turgan Oltin O‘rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta’minlay oladigan markazlashgan davlat tashkil etish edi. Shu jihatdan Amir Temurni o‘z davri va o‘z xalqi talab-ehtiyojlarini to‘g‘ri anglagan pragmatik hukmdor deyish o‘rinlidir. Shuning uchun sohibqiron

¹ *Комилов Н. Ҳикмат ва ибрат достони// Tafakkur. — 2003. — №4. — В. 54.*

mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta'minlash yo'lida qo'shinning qudratini oshirish kabi masalalarga katta e'tibor berdi.

Ma'lumki, Amir Temur o'z faoliyatining birinchi davri — 1360—1385-yillarda Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzib, o'zaro urushlarga chek qo'ygan bo'lsa, ikkinchi davri — 1386—1405-yillarda boshqa mamlakatlarga bir qator harbiy yurishlarini amalga oshirdi. Bu harbiy yurishlarning sabablarini, umuman, Amir Temurning siyosiy-huquqiy qarashlarini u qoldirgan nazariy va amaliy qo'llanma «Temur tuzuklari»ni chuqur o'rganmay turib tushunish mushkuldir.

Yangi tashkil topgan davlatning chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalani, karvon yo'llarini qaroqchilardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldanchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish kabi holatlar Amir Temur harbiy yurishlariga sabab bo'lgan edi. Masalan, 1379-yilda Amir Temur O'rusxonni yengib, Oltin O'rda taxtiga To'xtamishxonni o'tqazgan, unga ko'p iltifotlar ko'rsatgan edi. Lekin To'xtamishxon Movarounnahrda bir necha bor talonchilik yurishlarini amalga oshirgach, 1395-yil 15-aprelda Qunduzchada Amir Temur To'xtamish va Oltin O'rda taqdirini bir yo'la hal qilgan edi.

Shu o'rinda mashhur mojar (vengr) olimi Herman Vamberining «Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo'yib, uni yovuz, o'zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir. U, avvalo, o'zining g'olibona qurolini zamonasining odatiga ko'ra ishga solgan osiyolik hokim edi. Uning dushmanlari ta'kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari esa biror jinoyat uchun olingan o'ch edi, xolos. To'g'ri, bu o'ch juda qattiq, lekin shu bilan birga adolatli edi»,¹ deb yozganligi bejiz emas.

Temur o'z siyosiy qarashlari va davlatchilik faoliyatida qan-

¹ Муминов И. А. Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. — Т., 1993. — В. 49.

day bo‘lmasin nizo va urush chiqarish va shu yo‘l bilan mol-dunyo orttirishni maqsad qilib qo‘ygan emas. Bu holni «Temur tuzuklar»idagi ayrim tafsilotlardan ham bilib olish mumkin.

«Jahongirlik qilishga kirishganimda, — deb yozadi Sohibqiron, — to‘rt narsani xotiramda mahkam saqladim. Birinchisi — qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsam, to‘g‘ri tadbir va kengash bilan ish tutdim. Ikkinchisi — xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim... Uchinchisi — uch yuz o‘n uch asil, zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim... To‘rtinchisi — qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo‘lsa, unda qilich ishlatmadim»¹.

Amir Temur takliflarini rad etgan, unga nisbatan har xil ig‘volar qilgan hukmdorlarga qarshi daf‘atan urush e‘lon qilmagan, aksincha, ular bilan muzokaralar olib borgan, o‘z siyosatini va imperiyasining asl maqsadlarini tushuntirishga harakat qilgan. Bu tadbirlarning foyda bermasligiga ko‘zi yetgandagina jang harakatlari haqida amirlari bilan maslahat qilgan, ularning maslahatlari bilan ish tutgan. Turkiyaning buyuk sultoni Boyazid Yildirim, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon bilan bo‘lib o‘tgan janglar shunday hodisalarga misol bo‘la oladi.

Qayd etish kerakki, ana shunday savob maqsadlarni nazarda tutgan urush va kurashlar hamma zamonlarda ham, jumladan, biz yashab turgan hozirgi zamonda ham qoralanmaydi, ularga adolat va tinchlik o‘rnatishning, xalqlar baxt-saodatini ko‘zlagan taraqqiyotga yo‘l ochishning bir vositasi, majburiy usullari deb qaraladi. Chunonchi, hozir dunyoning ko‘p mamlakatlari-da ro‘y berib turgan terrorizm, diniy ekstremizm va boshqa yovuz kuchlarga qarshi kurashlar shunga dalildir².

«Temur tuzuklari»da davlat tizimi, davlatdagi lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo‘lgan qoidalar, qo‘shinlarning tuzilishi,

¹ Темур тузуклари / Масъул муҳаррир Муҳаммад Али. — Т., 2005. — В. 116–117.

² *Фойибов Н.* Темур тузукларида Соҳибқирон ҳарбий сиёсатининг асослари // Ниқуқ—Право—Law. — 2002. — №4. — В. 24.

uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, qo'shin turlarining tutgan o'rni va o'zaro munosabati kabi masalalar bayon etilgan.

Ta'kidlash joizki, davlatchiligimiz tarixida davlat boshqaruviga doir asar yozib qoldirgan yagona hukmdor Amir Temur hisoblanadi. Oliy maqomdagi hukmdorning davlatchilik masalalari haqida mukammal asar bitishi dunyo xalqlari tarixida kamdan-kam uchraydigan holdir. O'zbek davlatchiligini Amir Temur va temuriylar taraqqiy ettirgan davrni tahlil etishda, milliy davlat boshqaruvi tizimi shakllana borish yo'lining o'ziga xos jihatlarini aniqlashda «Temur tuzuklari» bizga nihoyatda qo'l keladi. Amir Temur jamiyatning biror-bir tabaqasiga imtiyoz bermaydi. Garchi ul zot zamonasi tartiblariga mos ravishda jamiyatni o'n ikki toifaga ajratsa-da, ammo mohiyatan ular aslida barcha ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan edi. Amir Temur qaysi sabablarga ko'ra jang qilgan va qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lmasin, u yerda zudlik bilan o'zining asosiy maqsadini hayotga tatbiq etishga kirishgan. Mamlakat aholisining holini so'ragan, olim-u fozillarni siylab, ularning ijodlari uchun keng shart-sharoitlar yaratgan, adolat va tinchlik o'rnatgan, obodonchilik sohasiga katta e'tibor bergan. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda «Tarix bu ko'hna dunyoda ko'p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan... Eng muhimi, mazkur qurilishlar geografiyasi birgina Turkiston bilan chegaralanib qolgan emas. Buning isboti sifatida Sohobqiron qadami yetgan joylardagi tarixiy obidalarni eslashning o'zi kifoya...»¹

Umuman, Amir Temur davlati «Tuzuklar»dagi o'n ikki qoida asosida idora etilgan. Bu qoidalar hozirgi zamonda ham o'z amaliy ahamiyatini yo'qotmaganligi bois, ko'p temuriyshunoslar, masalan, pokistonlik Hanif Ramey ham Temurni buyuk shaxs sifatida ta'riflab, davlat tuzish tartibini Amir Temurdan o'rganishimiz lozim, deydi².

¹ *Каримов И. А. Маънавий юксалиш йўлида.* — Т., 1998. — В. 411.

² *Фоййбов Н. «Темур тузуклари»да Соҳибқирон ҳарбий сиёсатининг асослари // Ҳуқуқ—Право—Law.* — 2002. — №4. — В. 25.

Amir Temur qoidalari quyidagilardan iborat edi:

- 1) islom dini va shariat qoidalariga rioya qilish;
 - 2) turli tabaqalar va toifalar bilan bamaslahat ish yuritish;
 - 3) maslahat, tadbirkorlik, halollik, hushyorlik, ehtiyotkorlik bilan gʻanim qoʻshinlarini yengish;
 - 4) davlat ishlarini saltanat qonunlariga asoslangan holda boshqarish;
 - 5) amirlar va sipohiyalar bilan yaxshi munosabatda boʻlish, martaba va unvonlarni hurmatlash;
 - 6) adolat va insof bilan ish koʻrish;
 - 7) saidlar, ulamo-yu mashoyix, oqil-u donolar, muhandislar, tarixchilarni eʼtiborli shaxs sifatida izzat va hurmat qilish;
 - 8) siyosatda qatʼiyatlilik;
 - 9) oddiy xalq ahvolidan doimo ogoh boʻlish;
 - 10) turk, tojik, arab-u ajamning turli toifalaridan oʻz panohiga kirgan kishilarga hurmat koʻrsatish;
 - 11) farzandlar, qarindoshlar, oshna-ogʻayni, qoʻni-qoʻshnilar va ular bilan doʻstlashgan kishilarni davlat martabasiga erishganda ham unutmazlik, ularga izzat va hurmat koʻrsatish;
 - 12) doʻst-dushmanligiga qaramay sipohiyalarni hurmat qilish.
- Oʻz xalqini, millatini sevgan Sohibqiron 1405-yil 18-fevral kuni oʻlimi oldidan oʻgʻillariga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi oʻqishni va hayotga tatbiq etishni, millatning dardiga darmon boʻlib, beva-bechoralarni boylar zulmidan himoya qilish hamda har ishda adolat va ozodlik dastur boʻlishini vasiyat qiladi.

Sharq hukmdorlaridan Shoh Jahon (1628–1657), Muhammad Alixon (1821–1842), Abdulahadxon (1885–1910) bu hujjatdan koʻchirmalar olishgan va qoʻllanma sifatida foydalanishgan.

Xulosa qilib aytganda, «Temur tuzuklari» oʻziga xos kodeks, yaʼni davlat va uni idora qilish normalari, qoidalari toʻplami boʻlib, ularda ilgari surilgan gʻoyalar hozirgi kunda ham muayyan darajada oʻz ahamiyatini yoʻqotgan emas.

Amir Temur va temuriylar davri (1370–1501) siyosiy-huquqiy qarashlarini tahlil etishda shoir va buyuk faylasuf olim *Alisher Navoiy* (1441–1501) merosi alohida ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy siyosiy qarashlarining shakllanishi va rivojlanishini nisbiy ravishda ikki davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Birinchi davr – uning yoshlik yillaridan to 1476-yilda Husayn Boyqaro hokimiyatidagi vazirlik mansabidan iste'fo etib ketishigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr esa 1476-yildan boshlab, umrining so'nggi kunlarigacha bo'lgan vaqtni qamrab oladi.

Birinchi davrda Alisher Navoiy mamlakatda hokimiyat tepasiga adolatli podsho kelishiga, baxtli jamiyatga erishish mumkinligiga ishonadi hamda uni amalga oshirish uchun kurashadi. Navoiyshunos olimlarning yozishicha, «Navoiy davlat ishida turganida ham bir nafas bo'lsa-da, xalqni esdan chiqarmadi. U davlatni xalq manfaatlarini ko'zlovchi, xalq orzularini amalga oshiruvchi vositaga aylantirishga, davlat arboblari xalq xizmatchilariga aylantirishga tirishdi va bu ishda uning o'zi namuna bo'ldi. U davlat ishlarini intizomga solishga, hukumat idoralarini, saroyi yaramaslardan, xalq hisobiga zarbof to'n kiyuvchi, aysh-u ishrat qiluvchi ifloslardan, amalparastlardan, fitnachilardan tozalash, ularni fosh etish, qamchilash uchun qo'lidan kelganicha harakat qildi»¹.

Alisher Navoiy mamlakat siyosiy hayotidagi siyosiy tarqoqlikka chek qo'yish, taxt uchun ketayotgan qon to'kishlarining oldini olish borasida sa'y-harakatlari kutilgan natijani bermagach, siyosiy faoliyatdan voz kechadi. Uning siyosiy qarashlaridagi ikkinchi davr boshlanadi. Endi Navoiy o'zining xayoliy adolatli davlati va shohini yaratishga kirishadi. Muta-fakkir ma'rifatparvar shoh g'oyasidan kelib chiqib, butun dunyoda yagona adolatli, tartibli davlatning qaror topishini istaydi va «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») dostonini yaratadi. Asardagi Iskandar davlati utopik davlat bo'lib, Navoiy unda o'zining siyosat, davlat, huquq haqidagi orzu-istaklarini, g'oyalarini tasavvuf ta'limoti asosida bayon qiladi. Asarda eng oddiy siyosiy masalalardan, ya'ni bo'lajak adolatli shohni tanlash, tarbiyalash, bozorlarda tosh-u taroziga davlat nazoratini o'rnatishdan eng murakkab masalalar – davlatlararo munosabat, ado-

¹ Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т., 1970. – В. 104.

latli va adolatsiz urushlar, hokimiyatni boshqarishda shoh, omma va ma'rifatning roli kabi qator masalalargacha tahlil etilgan.

Navoiy idealidagi Iskandar obod o'lkalarni, madaniyatli shaharlarni vayron qiluvchi ya'juj-ma'juj degan maxluqlar yo'liga devor solib, jabr ko'rgan xalqni ular zulmidan xalos qiladi. Ya'juj-ma'juj birinchi marta Tavrotda tilga olingan (Gog-Magog). Qur'oni karimning «Qahf» surasida (83–98-oyatlar) ham bu haqda xabar berilgan. Qur'onda keltirilishicha, Iskandar Zulqarnayn kunchiqarga qarab qilgan yurishlarida ya'juj-ma'juj zulmidan azob chekkan xalqni uchratadi. Ular: «Senga boj to'laymiz, bizni shu balodan qutqar», – deb so'raydi. Iskandar ularga qarab: «Parvardigorim bergan qudratga tayanib, sizlar bilan ya'juj-ma'juj orasida bir mahkam devor qurayin» (18, 95), deb bu ishni amalga oshiradi¹. Aslida esa Navoiy nazarida ya'juj-ma'juj to'yimas va tiyilmas nafs ramzi edi.

Navoiy podshohsiz raiyat va davlatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas deb biladi. Jamiyat bo'lishi uchun davlat bo'lishi zarur. Chunki manfaat kishilarni bir-biridan ajratadi va ayni paytda birlashtiradi. Bu – jamiyat qonuni. Shu qonunni nazorat qilish – odil podshoning vazifasi. Podsho va lashkar, podsho va boshqaruv tizimi xalqning osoyishta hayot kechirishiga kafil, deydi Navoiy. Odamlar bilim va amaliy faoliyat, zehn-u zakovatda bir emas, deydi u. Birov aqlli, birov o'ta aqlli, kimningdir aqli kam, birov esa johil. Chunki har bir kishida Ollohning bir sifati aks etadi, sifatlar esa turlicha, «ikki sifat birday» emas. Shunday bo'lgach, axloq nuqtayi nazaridan ham odamlarni teng bir holga keltirib bo'lmaydi. Demak, ularning mol-mulki teng bo'lishi amrimahol.

Mutafakkirning «Saddi Iskandariy» asarida mamlakat rahbarining asosiy to'rt sifati haqidagi qadimiy qarashlar aks etgan: 1) rahbar donishmand bo'lsin; 2) rahbar qonun tarafdori bo'lsin; 3) rahbar qo'lida hokimiyat bo'lsin; 4) rahbarda imomlik (rahnamolik) xislatlari bo'lsin. Bu aslida fozil shahar hokimining sifatleri, chunki Abu Nasr Forobiy sanab o'tgan o'n ikki xislat shu to'rt sifat ichiga kiradi. Navoiy nazarida ilm-u hikmat

¹ *Комилов Н. Хикмат ва ибрат достони // Tafakkur. – 2003. – № 4. – В. 57.*

hokimiyatning dastyori emas, balki rahnamosi, qudratidir. Iskandar — xalqlar podshohi, ammo u xalq bilan birga va xalq dardiga sherik, mushkullarni oson qiluvchi xaloskor hukmdor. Shu asosda Navoiy tasavvuf g'oyalarining ezgulikka, adolatli siyosatga xizmat qiluvchi jihatlarini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning merosi juda boy va serqirradir. Uning o'ttizdan ortiq nodir asarlari bizgacha yetib kelgan. Navoiy asarlaridagi davlat va huquqning vazifasi insonga xizmat qilishdir, degan fikrlar katta ahamiyatga ega.

Amir Temur va temuriylar davrining siyosiy qarashlarini o'rganishda Farg'ona ulusi hukmdori Umar Shayx Mirzoning o'g'li shoir va yirik davlat arbobi **Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483—1530)ning siyosiy faoliyatiga e'tibor qaratish muhim. Shayboniyxonga qarshi urushlarda mag'lub bo'lgan Bobur 1504-yilda Kobulda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Uning 1505—1514-yillarda o'z yurtiga qaytish uchun qilgan bir necha urinishlari natijasiz tugagach, 1519—1527-yillarda Hindistonni egalladi va 300 yillik davrga cho'zilgan boburiylar sulolasiga asos soldi.

Boburning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari uni jahonga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma»da bayon etilgan. Asarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning XV asr ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi choragidagi siyosiy-iqtisodiy tarixi, muhim siyosiy voqealar mohir sarkarda va davlat arbobi nazari bilan tahlil etilgan. Asarda juda ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy masalalarga nisbatan muallifning shaxsiy nuqtayi nazari o'z ifodasini topgan. Masalan, Bobur Movarounnahrda Chingizxon o'rnatgan tartib-udum va diplomatik qoidalardan voz kechish, diplomatik munosabatlarda turkona tartib-nizom qonunlarini joriy etishni yoqlagan va amalda o'z boshqaruviga olib kirgan. Bobur Chingizxonni ochiqchasiga «yomon ota» darajasida baholaganki¹, uning davlat boshqaruvini isloh etishga intilgan diplomatik tartiblarni o'rniga qo'yishga astoydil kirishgan. «Boburnoma»dagi o'nlab misollar Amir Temur davridan boshlab Chingizxonning davlat boshqaruvi,

¹ Chingizxonning to'rasi nassi qoti' emasdurkim, albatta kishi aning bila amal qilmog'i kerak, agar ota yomon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmog' kerak, — deb yozadi Bobur «Boburnoma»da.

saroydagi diplomatik tartiblariga isloh nazari bilan qarash, mo'g'ulcha iboralarni imkon qadar turkiy, fors tillaridagi atamalar bilan almashtirish mayli kuchayganligini isbotlaydi.

Bobur «Boburnoma»dan tashqari «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi» kabi risolalari, nafis g'azal va ruboiylari bilan islom qonunchiligi, she'riyat va til nazariyasi rivojiga muhim hissa qo'shgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» asarida soliq tizimi, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini nazmda bayon etgan. «Xatti Boburiy»da esa arab alifbosini turkiy tillar, xususan, o'zbek tili nuqtayi nazaridan birmuncha soddalashtirgan.

Umuman, Boburning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va badiiy qarashlari xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi.

4. Markaziy Osiyoda XVII–XIX asrlarda ro'y bergan siyosiy inqiroz sabablari

Xalqimizning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari tarixiga doir ma'lumotlar, dalillar hamda tahlillar Sharq, xususan, Markaziy Osiyo IX–XII, XIV–XV asrlarda kuchli ijtimoiy-siyosiy yuksalishni boshidan kechirganligini ko'rsatadi. Biroq shu qadar yuksak sivilizatsiyani boshdan kechirgan mintaqamiz va millatimiz XVII–XIX asrlar mobaynida tanazzulga yuz tutgani va Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangani ijtimoiy fanlar, jumladan, siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardandir.

O'zbek milliy mustaqil davlatchiligini yanada mustahkamlashda siyosiy tariximizdan bunday murakkab savollarga javob topish katta nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki xalq, millat va davlatning taqdirida faqatgina moddiy boyliklar emas, balki ma'naviy kuch-qudrat va salohiyat ham ko'p narsani hal qiladi.

XVII–XIX asrlar mobaynida Markaziy Osiyo mintaqasida bir-biriga zid omillar, jarayonlar o'rtasidagi nomutanosiblikning keskinlashganini, kuchayganligini kuzatish mumkin. Ularni tizimni tuzuvchi va buzuvchi jarayonlar deb nomlash mumkin. Jumladan, Amir Temur va temuriylar hukmronligidan so'ng

tinchlik, barqarorlik, fuqaroviy hamjihatlikka intilish, jamiyatni boshqarishda taraqqiyotni ta'minlovchi qadriyatlar, davlatchilik tajribasi, Vatan shon-shuhrati uchun qayg'ura olish kabi tizimni barqarorlashtiruvchi jarayonlar birin-ketin barbod bo'lgan. Se-kin-asta ular o'rnini vayron qiluvchi quyidagi omillar egalladi:

1) mahalliy xalq o'rtasidagi parokandalik;

2) qabilachilik va urug'chilik kayfiyatining kuchayishi bois yagona xalqning bir-biriga yovlashishi;

3) birodarkushlik mojarolari (o'zbek xonliklari, qolaversa, markaz hamda bekliklar o'rtasida ro'y bergan qonli to'qnashuvlar);

4) siyosiy, hududiy-madaniy yaxlitlikni saqlab qolishga qodir kuchlarning mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'lgani (Bobur va uning maslakdoshlari, Abdumalik to'ra¹ va boshqalarning qismati) va hokazolar.

Natijada, mamlakatimiz tarixidagi so'nggi 400 yil mobaynida yo'qotilgan ko'pgina qadriyatlarimiz oqibatlar xalqimiz mentalitetida jiddiy asoratlar qoldirdi. So'z va ish birligi buzildi. Milliy birlikka, milliy vijdon va vataniy axloqqa² da'vat etish borasida jiddiy amaliy harakatlar izchil olib borilmaganligi, faqat etnik, sulolaviy va hududiy birlashish bilan qanoat qilish, Vatan va millat manfaatlarini tor shaxsiy manfaatlarga almashtirib yuborish kabi noxush jarayonlar kuchaydi.

Hokimiyatga kelgan yangi, ammo taraqqiyot uchun yaroqsiz kuchlar – xonlar sulolalari xalq ehtiyojlari, fuqarolarning hayotiy manfaatlarini his etish va ifodalashga zaiflik qilganlar. Mahalliychilik va mintaqaviy mojarolar girdobiga tushib qolgan mamlakat Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketgan. Shaxsiy va urug'chilik manfaatlarining ustuvor ahamiyat kasb etishi mamlakatda boshboshdoqlikni keltirib chiqardi.

¹ *Izoh:* Abdumalik yoki Katta to'ra – amir Muzaffarning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1870-yilda Qarshida u boshchilik qilgan isyon bostirilgach, Peshovarga hijrat qilgan.

² *Izoh:* Tarix umumiy bir qoida sifatida shuni ko'rsatadiki, qaysi xalqda milliy vijdon shakllangan bo'lsa, u yerda mustamlaka bo'lib qolish xavfi mavjud bo'lmaydi. Vataniy axloq esa Vatan manfaatlarini uchun o'z hayotini va eng sevgan narsalarini fido qilishdan chekinmaslikdir.

Siyosatshunoslik ilmi nuqtayi nazaridan baholaganda mamlakatda tizim buzuvchi jarayonlar batamom ustun bo'lib qolgan.

To'g'ri, amalda ijtimoiy tizimni, u qanchalik mustahkam bo'lmasin, uzoq muddat avaylab ushlab turish qiyin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy jarayonlardagi noxushlikning oldini olish, bunyodkorlikka erishish Sharq dunyosi sharoitida ko'pgina hollarda xalq va Vatan taqdiri uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan fidoyi yetakchining hokimiyat tepasiga kelishiga, uning kuchli irodasiga bog'liq bo'lgan. Biroq mahalliy-chilikka berilgan har uchala xonlik davrida Markaziy Osiyoda bunday yetakchi hokimiyat shakllanmadi. Aksincha, Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari ham tashqi, ham ichki manfaatlarga erishish uchun bir-biriga qarama-qarshi davlatlar va davlatlararo guruhlar bilan til biriktirdilar. Masalan, Buxoro amirligi tashqi siyosatida Eronga moyillik, Xiva xonligi siyosatida esa ko'proq Rossiyaga suyanish tamoyili sezildi. Buning oqibatida ichki parokandalik, ittifoqchilikni mustahkamlash o'rniga najotni chetdan izlash istagi ustun keldi. Bu hol esa mustamlakachi davlatlarning bosqinchilik istaklariga qo'l keldi. Ma'naviy hushyorlik sezgisi zaiflashib, oxir-oqibatda millatimiz tarixida uch asrdan ziyodroq davom etgan inqirozga olib keldi.

Markaziy Osiyoda ro'y bergan bu tanazzul G'arb davlatlari tashqi siyosatida XVII asr boshlaridan kuchayib borgan istilochilik yurishlari bois yanada chuqurlashdi. G'arbda Sharq mamlakatlariga nisbatan ustuvor yevropatsentrizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, mustamlakachilik va umumbashariy hakamlik sari intilish bilan bog'liq bo'lgan g'oyaviy-siyosiy amaliyot shakllandi. Pirovardida har ikki sivilizatsiyaga mansub xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi ma'rifiy munosabat zaiflashdi. Oxir-oqibatda Markaziy Osiyo hududi jahon siyosatining chekka, ikkinchi darajali obyektiga aylandi, siyosiy-ma'muriy tizim sifatida o'z nufuzini yo'qotdi. Qariyb uch asr davom etgan siyosiy inqiroz va o'zaro nizolar oqibatida mintaqamiz xalqlari bir yuz o'ttiz yillik siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy qaramlikka duchor bo'lishdi.

Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari siyosiy tafakkuri, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayoti qanday jarayonlar ta'sirida kechganini o'rganishda o'sha zamonlarning bevosita shohidi

bo'lgan olim-u fuzalolar merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Shunday olimlardan biri tabiiy va aniq fanlardagi yuksak salohiyati tufayli *muhandis* nomini olgan, ulug' ma'rifatparvar va shoir *Ahmad Donish*dir (1827–1897). U madrasa ta'limini olgach tarix, adabiyot, astronomiya, geometriya, tibbiyot, hattotlik, musiqiy san'at sohalarini mustaqil o'rgangan. XIX asrning 50-yillari o'rtalarida amir Nasrulloh saroyida bosh hattot va rassom sifatida ish boshlagan Donish Buxoro amirlari topshirig'i bilan Rossiyaga yuborilgan elchilar safida uch marta — 1856, 1869, 1873–1874-yillarda Peterburgda bo'lgan edi. Ahmad Donish Buxoro va Rossiya taraqqiyotidagi tafovutni amalda ko'rib, taqqoslaydi va unda mahalliy hukmdorlar ichki va tashqi siyosatiga nisbatan tanqidiy munosabat yanada chuqurlashadi. O'z safari taassurotlari hamda qozilik faoliyatida to'plagan tajribalari asosida olim Buxoro ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishida sotsial-iqtisodiy o'zgarishlar zarur, degan qat'iy xulosaga keladi. Uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari aks etgan «Navodirul-vaqoye» («Nodir voqealar») va «Risolai tarixi amiron mang'it» («Mang'it amirlari tarixi haqida risola») kabi mashhur asarlari yuqoridagi sabablarga ko'ra yaratiladi. Bu asarlarda amirlikning boshqaruv tizimi, undagi xalqlarning ahvoli, Rossiya bilan bo'lib o'tgan urush masalalari yoritilgan.

Ahmad Donish davlat boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirish haqidagi mulohazalarida mang'it amirlari hamda amaldorlari xatti-harakatlarini qattiq tanqid qilib, «xalq axloqining tuzalishidan ilgari podshoh va hukumat amaldorlari axloqining tuzalishi zarurroq. Chunki podshoh axloqli bo'lsa bir shaharga emas, balki viloyatga, hattoki butun bir iqlimga ta'siri o'tadi. Shuningdek, podshohning ma'nan buzuqligi ham butun mamlakat xalqining buzilishiga sabab bo'ladi» qabilidagi fikrlarni yozadi. Masalan, Buxoro vazoratini (Bosh vazir) egallagan Muhammad qushbegi shunchalik ojiz, besavod va aqlsiz bo'lganki, u butun «iqtidori»ni davlatning ayanchli ahvoli haqidagi zarracha to'g'ri fikrni ham amirga yetkazmaslikka sarflagan. Chunki adolat, diyonat, insof talabidagi har qanday gap amirning kayfiyatiga yomon ta'sir o'tkazib, uni g'azablantirgan.

Donishning iqroriga ko'ra, «quruq xushomad, bema'ni maq-tovlar bilan davlatning ishlari o'nnglanmaganidek, xalqning ahvoli ham yaxshilanmaydi»¹.

Umuman, Ahmad Donish o'z «Risola»sida amir Doniyol-dan (1758–1785) to amir Abdulahadgacha (1885–1910) bo'lgan (amir Shohmuroddan tashqari) barcha Buxoro amirlarini davlat va uning fuqarolari farovonligi yo'lida emas, balki faqat o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida qayg'urgan no'noq hukmdorlar sifatida ta'riflaydi. Shu o'rinda Ahmad Donishning quyidagi fikrlari e'tiborni tortadi: «Ular, – deb yozadi Donish, – nimani topishsa o'shani olib qo'yishar, beva-bechoralar shamchirog'idagi olovdan tortib, vaqf omboridagi g'allagacha o'g'irlashar, qorin g'ami va quvonch-u xursandliklariga xizmat qilsa bo'ldi edi. Hech kim qarshilik ko'rsatishga jur'at etmasdi. Amirlar va hokimlar orasida qimorbozlik, mayxo'rlik va buzuqchilik avj oldi, dehqon va hunarmandlarda esa shafqatsizlik, ezish, soliqlar va aminona, vakilona kabi yig'imlar serobligidan na turish, na yurishga hol qoldi».²

Mamlakat amaldorlarining suiiste'molchiliklari, hokimlar va amirlarning ochko'zligi, o'z xatti-harakatlarini oqlash uchun diniy qonun-qoidalardan foydalanishi, sxolastik xususiyat kasb etuvchi ta'limning ayanchli ahvoli, davlat mustaqilligini saq-lashga qaratilgan aniq tashqi iqtisodiy harakatlarning yo'qligi, mintaqada yangi yerlarni bosib olishga yo'naltirilgan ancha tor intilishlar, xalqning qashshoq ahvoli o'sha zamonning umumiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy manzarasini tashkil etardi. Rost so'z, to'g'ri fikrning bir chaqalik qiymati bo'lmagan ana shunday qaltis sharoit va og'ir muhitda saroy xizmatida bo'lgan Ahmad Donish islohotchilikning aniq takliflarini, jiddiy, lekin mutlaq to'g'ri tanqidiy mulohazalarini ayta oldi. Uning fikricha, «hasad-go'ylik, takabburlik, ko'rolmaslik, ittifoqsizlik kabi chirkin il-latlar «boshqalarga qaraganda musulmonlarda ko'proqdir»³.

¹ *Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Калла // Tafakkur. – Т., 2005. – №3. – В. 80.*

² *Жадидчилик: ислоҳот, янгилиниш, мустақиллик ва тараққиёт учун ку-раш. Даврий тўплам // Масбул муҳаррир тарих фанлари доктори Д.А. Али-мова. – Т., 1999. – № 1. – Б. 84–85.*

³ *Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Калла // Tafakkur. – 2005. – №3. – В. 78.*

Aslida yetilib kelayotgan jadidchilikning tamal toshini Ahmad Donish qoʻygan edi. Y. Bertelsning «Donish — Oʻrta Osiyo jadidlarining otasi» deb bergan taʼrifi ayni haqiqat. Shuning uchun ham bunday ulugʻ zotning hayoti va faoliyatini oʻrganmasdan turib jadidchilikning vujudga kelishini hamda ahamiyatini toʻliq tushunish qiyin.

Ulkan salohiyat, tahlil va baholash qobiliyatiga ega boʻlgan oʻsha davr mahalliy mualliflari tarix gʻildiragining aylanishida mahalliy hukmdorlar feʼl-atvoridagi illatlar oqibatlarini oʻz koʻzlari bilan koʻrganlar hamda mamlakatni inqirozga olib kelgan siyosatning guvohi boʻlganlar, toʻgʻri va xolis xulosa chiqarganlar.

Shu tariqa tanazzuli kuchayib borayotgan ijtimoiy boshqaruv tizimining bagʻrida inqirozli ahvoldan chiqishni koʻzlagan izlanishlar yuzaga kelgan. Bu izlanishlarning samarasi sifatida Buxoro va Turkiston jadidchiligi paydo boʻldi.

5. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy gʻoyalari

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab ola bilgan ijtimoiy harakat edi. «Jadid» soʻzining maʼnosi «yangi» demakdir. U shunchaki «yangi», «yangilik tarafdori» degani emas, balki «yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng maʼnolarni oʻzida mujassam etgan. «Jadid» atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton III Salim hukmronligi (1789—1802) davrida paydo boʻldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildiruvlarida u yerda koʻrgan idora tizimini «nizomi jadid» deb tushuntiradi.

«Jadid» va «qadim» iboralari keyingi asrlarda maydonga kelgan boʻlsa-da, u mohiyatan eskilik va yangilik, taraqqiyot va turgʻunlik oʻrtasidagi eski kurash edi. Shu bois jadidchilik gʻoyasi-ning asoschisi Ismoilbek Gasprinskiy (Gasprali) «Yunon qadimchilari ikki ming necha yuz sana muqaddam Suqrotni jadidchilik qabohati bilan ayblab, qatl ettirdilar»,¹ — deya yozganida mutlaqo haq edi.

¹ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. — Т., 2002. — В. 9.

Ismoilbek tomonidan taxminan 1884-yilda «Tarjimon» gazetasi orqali Sharq-u Gʻarbning juda koʻp oʻlkalariga yoyilgan jadidchilik XIX asrning 90-yillarida Turkistonga kirib keldi. 1917-yilgi bolsheviklar toʻntarishidan keyin ham 1930-yillar oxirlariga qadar oʻz mavqe va yoʻnalishini saqlab qola olgan jadidchilik oqim emas, balki kuchli ijtimoiy harakat edi. Jadidchilik — davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va millatni rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qoʻygan va aniq amaliy tadbirlarni oʻzida mujassamlashtirgan gʻoyalar tizimi. Bu tizim jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol oʻynagan Turkistondan bir tarixiy oʻlkada sharqona hayot tarzini saqlagan holda, uni Gʻarb va Yevropa taraqqiyoti natijalari bilan boyitishni koʻzlagan.

Agar I jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan boʻlsalar, 1917-yilgi fevral inqilobidan keyin ularning «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil etgan radikal qismi federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bogʻladilar. Ammo Rossiyadagi Muvaqqat hukumat ham, uning Turkistondagi muvaqqat qoʻmitasi ham oʻlkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yoʻlini tutayotganligi maʼlum boʻlgach, jadidlar muxtoriyat uchun jiddiy siyosiy kurash boshladilar, hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga olib, milliy-hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Boshqacha aytganda, boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Biroq 1917-yilgi oktabr voqealari — bolsheviklarning hokimiyatni egallashi ularga oʻz maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular bolsheviklar hokimiyatining «Millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash toʻgʻrisida»gi deklaratsiyasida koʻrsatilgan huquqlaridan foydalanib, markazi Qoʻqonda boʻlgan, «Turkiston muxtoriyati» deb atalgan mustaqil muxtor respublika eʼlon qildilar. Bu muxtor respublika uch oy faoliyat koʻrsatgach, «qizil» qoʻshin tomonidan qonga botirildi, omon qolgan jadidlar esa 1937–1938-yillarda butunlay qirib tashlandi.

Shu oʻrinda Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi jadidlarning siyosiy qarashlari va faoliyatlaridagi eng muhim jihatlarga eʼtiborni qaratamiz.

Turkistonda jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri I. Gasprinskiyning sodiq shogirdi *Mahmudxo‘ja Behbudiy* (1875–1919) edi. O‘tgan asrning boshlarida Turkiston va undan tashqarida ham zamonasining ko‘zga ko‘ringan ziyolisi sifatida mashhur bo‘lgan Behbudiy to‘g‘risida Fayzulla Xo‘jayevning «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan unga teng kela oladigani bo‘lmasa kerak», deb yozishi bejiz emas edi, albatta. Siyosiy qarashlarida kadetlarni qo‘llagan M. Behbudiy «Xurshid» gazetasida (1906-yil 10-oktabr, 6-son) chop etilgan «Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidur» maqolasida sotsialistik ta’limotni va bolsheviklar partiyasi – RSDRP(b) dasturini keskin rad etib, ularni turkistonliklar uchun mutlaqo yaroqsiz bo‘lgan utopiya deb atagan edi. Chunki jadidlar nazarida marksizmning eng yomon jihatlari xususiy mulkni inkor etish va dahriylik (ateizm) edi.

Jadidlarning siyosiy qarashlari milliy mahdudlikni rad etar, ular Turkistondagi barcha millat va elatlarni birlashtirishga, jamiyatni har qanday kelishmovchilik va ziddiyatlardan xoli qilishga intilardilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu xususda quyidagilarni yozgan edi: «Turkiston musulmonlariga lozimki, avvalo, qadim va jadid nizo lafzini qo‘yib, ittifoq istasak. Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar bilan qo‘shilgan holda, o‘z boshlariga Rusiyaning bir parchasi hisoblana turgan Turkiston hukmini (hukumatini) ta’sis etsak, o‘zimizning majlis-mashvaratimiz (parlament) bo‘lsin desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o‘z zakun (qonun) va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiylari, nasroniylari va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e’tiborga olaturg‘on qonunlar tuzilsin. Agarda biz – Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni... ittifoq etib, bugundan islohotga qadam qo‘ysalar... ziyoli va taraqqiy-parvarlarimiz, boy va ulamomiz birlashib, din va millat, Vatan rivoji uchun xizmat etsak... O‘zimizdan bora-bora tadrijiy sur’atda askarlarimiz bo‘lsin. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va maishat tarzini o‘zimiz tayin qilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdir... Hozirgi ahvolga qaraganda, yana biz musulmonlar, ruslarning fuqarosi

va raiyati bo'lgan o'lkadek, alardan dast va rijoga qolurmiz. Koloniya (mustamlaka) qoidasi ila bizni idora eturlarki, bunga o'z ixtilofimiz sabab bo'lur»¹.

Ko'rinib turibdiki, Behbudiyning qarashlarida milliy qadriyatlarga bo'lgan ixlos va ayni paytda Yevropa dunyosining tarixi, madaniyati, ta'lim tizimi, davlat qurilishi sohasidagi tajribalarini o'rganishga e'tibor katta o'rin tutgan. Shuningdek, Behbudiy millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarga boshqalari bilan teng aralasha oladi, degan fikrni ilgari surib, tarixga alohida e'tibor berdi.

Jamiyatdagi huquqiy muammolar Behbudiyning diqqat markazida bo'lib, uning «Qonuni Ovrupo», «Haq olinur, berilmas!», «Loyiha», «Qozi va biylar haqida loyiha» maqolalarida Turkistonda vujudga kelgan huquq sohasidagi og'ir vaziyat bayon etiladi. Shuningdek, huquqiy masalalarni hal qilishni ellikboshi va qozilar ixtiyoriga butunlay topshirib qo'yilganligi oqibatida, ular nafaqat diniy, balki maishiy masalalarni ham poraxo'rlik asosida bajarayotganliklari uchun rus hukumatini tanqid qiladi. Islom qonunchiligidan chuqur xabardor bo'lgan muftiy Behbudiy o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida shariat normalarini soxtalashtirayotgan qozilarni qattiq tanqid ostiga olgan.

Behbudiy mustaqillikning kurashsiz qo'lga kiritilmasligiga imoni komil bo'lsa-da, lekin u mustamlakachilarga qarshi qon to'kishlarsiz kurash tarafdori bo'lgan. Ya'ni, har qanday ko'rinishdagi inqiloblarga qarshi bo'lgan. Rossiya Dumasi ishini muntazam ravishda kuzatib borgan Behbudiy parlament kurashi orqali ko'p narsalarga erishish mumkin, deb hisoblagan.

«Turkiston muxtoriyati»ning tashkil topishida Behbudiyning amaliy xizmatlari katta. U milliy-ozodlik harakatidagi tarqoqlik qaytadan mustamlaka tuzumiga olib kelishini yaxshi tushunar, shuning uchun muxtoriyat qo'lga kiritilishi bilanoq «Agar bugun Turkiston xalqi ittifoq etsa, qon to'kilmas. Yer va amlok ham taqsim bo'lmay qolur. Oni ham ravo topur. Ming karra dod-u

¹ *Махмудхўжа Бехбудий. Ҳақ олинур, берилмас // Хуррият. – 1917. – №22. Бу haqda qarang: Алимова Д. Ҳақиқатнинг туташ манзили // Tafakkur. – 2000. – №2. – В. 59.*

bedodki, ixtilof etmoq uchun ittifoq etkanimiz va ixtilofimiz sababi ila badbaxtlikka duchor bo‘lurmiz. Butun Turkiston ittifoq etsa, 15 millionlik bir quvvatli imlog‘a kelurki, munga yer tit-raydur», deb xalqni hamjihat bo‘lishga undagan. Xullas, Behbudiyning ijtimoiy qarashlari markazida siyosiy masalalar bosh masala bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz.

Mamlakatda bo‘lib o‘tgan fojiali voqealar Behbudiyda sovet davlati va uning Turkistondagi vakillariga nisbatan shak-shubhasiz nafrat uyg‘otadi. Shu bois 1917-yilning iyul oyidayoq «Haq olinur, berilmas» singari ko‘plab publitsistik maqolalar bilan chiqib, aholini, ayniqsa, yoshlarni hurriyat uchun kurashga da‘vat etgan Behbudiy muxtoriyat tor-mor etilganidan keyin ham taslim bo‘lmadi. Aksincha, u endi hurriyat uchun kurashning yashirin jabhasidan o‘rin egalladi.

Xorijda chop etilgan «Milliy Turkiston» jurnalining 1950-yil 66-sonida yozilishicha, «ul Qarshi shaharinda o‘z vazifalarini o‘rinlov harakatida ekan, Rusiyaning Buxoro elchixonona xizmatchisi Utkin vositasi-la amir tomonidan tutildi. Behbudiy «jadidchi» deya ayblanib, amirning Qarshi shaharindagi voliysi Nuriddin Og‘aliq tomonidan amirning buyrug‘i ila 1919-yilda vahshiyona o‘ldirildi. Bu esa niqob edi. Haqiqatda esa, Behbudiyning o‘limi amir vositasi-la rus bolsheviklarining sovet komissariati tomonidan uyushtirilganligi aniqlandi. Buni sobiq «Turkiston sovet jumhuriyati»ning harbiy ministri Osipov 1919-yil Buxoroga qochgan vaqtinda «Yosh buxoroliklar» jamiyatinda («Yosh buxoroliklar» partiyasi nazarda tutilmoqda. — Muallif.) bergan bayonotida bildirgan edi. Turkiston xalqi bul usulda bundan 31 yil avval o‘zining buyuk jamoat va siyosat xodimidan ayrilgan»¹.

O‘limi oldidan «Biz o‘z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o‘z hayotimizda nima qilishimiz mumkin bo‘lsa, shuni qilganimizni his etish bilan faxrlanganimizdan o‘limni ham xotirjam kutmoqdamiz..., agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz»², degan

¹ Каримов Н. Беҳбудийнинг сўнги кунлари // Tafakkur. — 2005. — №3. — В. 70–71.

² Қосимов Б. Маслакдошлар. Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. — Т., 1994. — В. 39.

mardona so‘zlarni aytgan muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodiy merosi hozirgi mustaqillik sharoitida ham yoshlarimizda, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari dunyoqarashida yurt uchun, xalq uchun fidoyilik ko‘rsatishda ibrat namunasi bo‘lib qoladi.

XIX asr oxirlarida Turkistondagi uyg‘onish davrini boshlab bergan jadidlardan yana biri *Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li* bo‘lib, u 1878-yilda Toshkentning Shayhontohur dahasidagi Darxon mahallasida mudarris oilasida tavallud topgan. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so‘ngra Buxoroda oliy tahsil olib «hofizi Qur‘on» bo‘lgach, XIX asrning 90-yillari oxirlarida jaddichilik harakatiga qo‘shiladi. 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo‘lib «usuli jadid» maktabini ochadi.

Munavvarqori XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy tafakkurning, milliy-ozodlik harakatining eng e‘tiborli namoyandalardan bo‘lganligi uchun ham 1921-yilda uning nomzodi «Turkiston milliy birligi» nomli yashirin harakatning raisligiga qo‘yilgan. Biroq u hech qachon isyonga, qo‘zg‘olonga da‘vat qilgan emas. To‘g‘ri, u «Haq olinur, berilmas»¹, deb yozdi. Lekin bu haqni ilm-ma‘rifatni, fan-texnikani egallash, ma‘rifiy-madaniy vositalarni ishga solish orqaligina qo‘lga kiritishni maqsadga muvofiq deb topdi.

Munavvarqori siyosat bilan jiddiy shug‘ullangan pragmatik shaxs edi. Masalan, 1917-yilda tarix turkistonliklarga mustaqillikni qo‘lga kiritish va munosib idora usulini o‘rnatishdek noyob imkoniyatni berganida bir guruh kishilar xonlikni tiklash, Xudoyorxonning o‘g‘li Muhammad Aminbekni xon qilib ko‘tarish fikrida bo‘lishganda, ikkinchi bir guruh rivojlangan mamlakatlardan o‘rganish, andoza olish yo‘llarini qidirgan edi. Shulardan biri bo‘lgan Munavvarqori 1917-yil voqealaridan ancha oldin Finlyandiyaga borib, fin idora usulini o‘rganib kelgan edi.

¹ *Izoh:* Marhum professor B. Qosimov «Bu fikr asli Jan Jak Russoga tegishli bo‘lib, uning «Ijtimoiy shartnoma» asaridan olingan. XIX asr o‘rtalarida Fransiyada o‘qib kelgan turkiyalik yoshlar orqali u turk matbuotiga, undan Turkistonga kelgan», deya yozgan edi. Bu to‘g‘rida qarang: Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. — Т., 2002. — В. 238.

Munavvarqori va uning safdoshlari kommunistlarning Markaziy Osiyodagi hukmronligini mustamlakachilikning yangi ko'rishini, sotsializm qurilishi to'g'risidagi g'oyani utopiya, uning targ'ibotchilarini esa mutaassiblar deb bilishgan. Istiqloqlilik harakatining g'alabasiga ishongan bu fidoyilar jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosida evolyutsion yo'l va demokratik inqilob yotadi, deb hisoblashgan.

Markaziy Osiyoda sovet tuzumi istibdodi o'rnatilgach, jaddidlar tutgan siyosiy pozitsiya xususida to'xtalar ekan, Munavvarqori Abdurashidxonov o'zining bolsheviklar qamoqxonasida yozgan «Xotiralarimdan» asarida shunday deydi: «Bizlarning sinfiy dunyoqarashimiz negizida sinflarni inkor etish yotadi. Bizlar sinflarni bilmas edik, agar yirik burjuaziya deb hisoblanayotgan katta yer egalari va savdogarlarning juda ozgina guruhi hisobga olinmasa, bizlarning ko'z o'ngimizda hamma teng edi. Burjuaziya to'g'risida gapirganda, bizlar yirik savdogar va katta yer egalarinigina nazarda tutar edik. Bizlar sho'ro hukumatining mana shularga emas, balki mayda va o'rta hol burjuaziyaga nisbatan olib borgan tadbirlariga qarshi bo'ldik. Binobarin, bizlar, asosan, mayda burjuaziya manfaatlarini himoya qildik: mana shundan bizlarning o'ktabr inqilobidan keyin mamlakat siyosiy hayotida tutgan rolimiz, sho'ro hukumati, yo'qsil diktaturasiga qarshi olib borgan kurashimiz tushunarli bo'lsa kerak. Bizlarning mustaqillik haqidagi shiorimiz avval burjua demokratik Turkistonni, undan so'ng esa, qayta chegaralanishdan keyin O'zbekistonni tashkil etish, hokimiyatni mayda va o'rta burjuaziya qo'lga berish to'g'risidagi harakatimiz ana shundan kelib chiqadi»¹.

Bu mashhur siyosatchi qamoqqa olingach, «Munavvarqori to'dasi» degan ish ochildi va 87 kishi tergovga tortildi. O'n yetti oy mobaynida avval Toshkent, keyin esa Moskva avaxtaxonalarida olib borilgan og'ir ruhiy va jismoniy qiynoqlardan so'ng, 1931-yilning 15-aprelida OGPU (sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi Maxsus Davlat Siyosiy boshqarmasi) qarori

¹ *Абдурашидхонев М. Хотираларимдан // Жадидчилик: ислохот, янгила-ниш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. — Т., 1999. — №1. — В. 202.*

bilan shulardan 15 kishi otib o'ldirishga, 31 kishi 10 yil, 19 kishi 5 yil, 14 kishi 3 yil qamoqqa hukm qilinadi, 1 kishi 1 yilga Omskka surgunga yuboriladi, 3 kishi yurtidan badarg'a etiladi¹.

Munavvarqori Abdurashidxonov Salimxon Tillaxonov, Said Ahroriy, Tangriqul hoji Maqsudov, Najmiddin Shermuhammedovlar bilan birga 1931-yilning 23 mayida Moskvaning mashhur Butirkasida otilib, Vagankovo qabristoniga pinhona ko'mildi va bu ma'lumotlar Rossiya matbuotida 1992-yilning 25-mayida, rosa 61-yildan keyin oshkor qilindi. O'zbekistonda bundan ham keyinroq – 1997-yilda ma'lum bo'ldi. Holbuki, uning qatli haqidagi xabar dunyoga 1933-yildayoq tarqalgan edi. Mustafu Cho'qayevning Parijda nashr qilib turgan «Yosh Turkiston» jurnali o'zining 1934-yil yanvar sonida Turkiston ziyolilari boshiga tushgan bu musibatdan jahon jamoatchiligini xabardor qildi. U haqda maqola va xotiralar chop etdi².

Xulosa qilib aytganda, Munavvarqori Abdurashidxonovning siyosiy-huquqiy qarashlari va hayot yo'li XX asr birinchi choragidagi Turkiston xalqlari ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, madaniyati, ma'rifatining mumtoz va betakror namunasi bo'lib qoldi.

Turkiston jadidchiligining taniqli namoyandalaridan yana biri mashhur adib va zabardast olim *Abdurauf Fitrat* (1886–1938) edi. Dastlab, eski maktab, so'ng Buxoroning mashhur Mir Arab madrasasida tahsil olgan Fitrat Turkiya, Hindiston, Markaziy Rossiya shaharlarida va Arabistonda bo'lgan. 1909–1913-yillarda Istanbulda o'qigan davrida «Yosh turklar inqilobi»dan qattiq ta'sirlangan Fitrat siyosatga faol aralasha boshladi, bu hol uning ijodida ham o'z aksini topdi.

1913-yilda maorif va madaniy-ijtimoiy qurilish haqidagi yangi g'oyalar bilan ona shahri – Buxoroga qaytib kelgan bu yosh jadid qisqa muddatda Buxoro jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biriga aylandi. Fitratning o'sha davrdagi siyosiy qarashlari «Rahbari najot» (1915), «Oila» (1915), «Begijon» (1916), «Mavludi sharif» (1916), «Abo Muslim» kabi asarlarida

¹ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т., 2002. – В. 235.

² O'sha asar. – В. 235.

o'z aksini topdi. Qolaversa, u jadid maktablari uchun «Muxtasar islom tarixi» (1915), «O'qu» (1917) kabi darsliklarini yaratdi.

1917-yil fevral voqealari amirlik hududida jadidchilik va undan o'sib chiqqan «Yosh buxoroliklar»¹ harakatiga kuchli turtki berdi. Fitrat ushbu harakatning so'1 qanotidan tashkil topgan «Yosh buxoroliklar» inqilobiy partiyasining bosh kotibi edi. Fitrat Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan 27-noyabrni esa «milliy laylatulqadrimiz», «Turkiston turkining imonini yuksaltguchi bir quvvat»², deb atadi.

Fitratning 1918–1919-yillarda Toshkentdagi eng katta xizmati Turkiston xalqlari madaniy merosini to'plash va o'rganishda katta rol o'ynagan madaniy-adabiy tashkilot – «Chig'atoy gurungi»³ni tashkil etgani bo'ldi. Buxoroda amir Sayyid Olimxon taxtdan ag'darilgach (1920), Fitrat Buxoro hukumati a'zosi, 1921-yildan esa xalq maorifi noziri va boshqa ko'plab muhim lavozimlarda umummilliy taraqqiyot yo'lida xizmat qildi. Jumladan, Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochilishida, 60 dan ortiq yoshlarning xorijga ta'lim olish uchun jo'natishda, «Anjumani tarix» sho'basi tomonidan «Buxoro arki tarixi» qo'lyozmasining yozilishida, Buxoro respublikasida turk (o'zbek) tilining davlat tili deb e'lon qilinishida, Turkiya, Eron, Afg'oniston bilan do'stlik, hamkorlik munosabatlarining yo'lga qo'yilishida, Germaniya va Ozarbayjon vakolatxonalarining Buxoroda ochilishida Fitratning xizmati beqiyos edi. Biroq davlat mustaqilligi yo'lidagi bu harakatlarga 1923-yildan boshlab markaz

¹ *Izoh:* «Yosh buxoroliklar» – Buxoro jadidlarining so'1 oqimidan 1910-yilda tashkil topgan partiya. Bu partiya taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag'allari vakillaridan tuzilib, dastlab mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsion monarxiyani o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimiyatini cheklab qo'yish tarafdorlari bo'lishgan. Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy, Abdulvohid Burhonov (Munzim), Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev)lar «Yosh buxoroliklar» partiyasining dastlabki tashkilotchilari bo'lishgan.

² *Абдурауф Фитрат. Мухторият. Танланган асарлар, 3-жилд. – Т., 2003. – В. 198–199.*

³ *Izoh:* Fitrat madaniyatimiz taraqqiyotining barcha tan olgan yuksak cho'qqisi Navoiy davrini ibrat sifatida olib, «Chig'atoy gurungi» uyushmasini hozirgi o'zbek xalqining XV asrdagi nomi bilan atagan edi. «Chig'atoy gurungi»ning faoliyati haqida qarang: *Абдурауф Фитрат. Ёпишмаган гажжаклар // Танланган асарлар, 3-жилд. – Т., 2003. – В. 232–233.*

tomonidan keskin tazyiqlar boshlandi. Fitrat Buxoro hukumatining boshqa 4 a'zosi qatorida partiyadan o'chirilib, ishdan olindi va Buxorodan chiqarilib yuborildi. 1923–1925-yillarda Fitrat Moskvadagi Sharq tillari institutida ishladi, Sankt-Peterburg davlat universitetining sharq fakultetida sharq tillari, adabiyoti, madaniyatidan ma'ruzalar o'qidi, professorlikka saylandi. Ayni paytda «Abulfayzxon» (1924), «Shaytonning Tangriga isyoni» (1924) kabi dramatik asarlarini yaratdi.

Bu yillar Fitratning sovet hukumati haqidagi siyosiy qarashlarini yanada mustahkamladi. U millatlarni, shu jumladan, Turkiston xalqlarini asriy manbalardan uzib, sovetlar mafkurasi asosida ruslashtirish orqaga qaytmas jarayon ekanligini anglab yeta boshladi. Olimning siyosiy faoliyatida ijtimoiy begonlashuv¹, ijtimoiy muhitdan o'zini tortish boshlandi. Oqibatda Fitratga qarshi kurash harakatlari boshlanib ketdi. O'zKPMK (O'zbekiston kommunistik partiyasi markaziy komiteti) birinchi sekretari Akmal Ikromov Fitratning asarlari va xatti-harakatlarini «sho'roga qarshi urush e'lon qilish», deb atadi. «Shaytonning Tangriga isyoni» asarini «bizga qarshi yozilgan asar», umuman «Fitrat RKP (b) (Rossiya kommunistik (bolsheviklar) partiyasi) siyosatiga qarshi», u: «Meni jazolayvering, men sizing iflos hukumatigizda, sizing partiyangizda ishlashni xohlamayman!» demoqda», – deydi².

F. Xo'jayev tomonidan himoya qilingan Fitrat 1927-yildan Samarqand oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU)da dars bera boshlaydi, ko'plab tadqiqotlar e'lon qiladi. Xususan, olimning Turkistonni mustamlakaga aylanishiga olib kelgan sabablar, Yevropaning Sharqdagi «madaniy» siyosatiga oid mulohazalari e'tiborga molikdir.

«Bu kun oyoqlar taginda ezilgan Sharq bir kun madaniyatning yo'lboshchisi, bilim va hunarning o'chog'i edi... Ovro'pada bir mahalla oqsoqolliq'i yo'q ekan, Sharqning «barahma», «iso», «zardusht» va Muhammadlari butun olam o'g'ullarini bir

¹ *Izoh:* «Ijtimoiy begonlashuv» siyosatshunoslik kategoriyalaridan biri bo'lib, totalitar-repressiv siyosat hosilasi sifatida qaraladi.

² *Qarang:* Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т., 2002. – В. 360–361.

nuqtada to'plab to'g'ri va bilgili yo'lg'a kirguzmak uchun tirishar edilar. Chinlilar yozish uchun qog'oz yasag'anda ovro'palilar o'ng-so'l qo'llarini bir-birindan ayira olmas edilar»¹, deb yozar ekan, adib Sharqning keyinchalik o'z taraqqiyot yo'lida davom eta olmaganligini, xonlar o'z qorinlarini to'ydirmoq uchun xalqni bir-biri bilan urishtirganlarini, hokimiyatdagi muhim lavozimlarni sotganlarini, mullalar o'z istaklariga «din» nomini taqib bozorga chiqarganlarini, din, tangri, payg'ambar, do'zax o'ti bilan xalqni qo'rqitib talaganlarini zo'r bir ichki dard bilan bayon qiladi.

Fitrat milliy tariximizning siyosiy tahlili ustida ham tadqiqot olib borgan siyosatshunos edi. Shu ma'noda uning «Abul-fayzxon» asari tarixiy mavzuda yozilgan birinchi o'zbek dramasi bo'lib, unda ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili — Abul-fayzxon hukmronligi davrida (XVIII asr) saltanatda mang'itlar sulolasining nufuzi ortib, xonning qo'g'irchoqqa aylanib qolishi, qo'shhokimiyatchilik sharoitida zulm va xiyonatning avj olishi qalamga olingan. Fitrat millat tarixidagi eng fojiali ikki davrni (XVIII asr, XX asr boshlari) siyosiy tahlil qilishga undovchi fikrlarni ilgari suradi. Bu ikki davrning bir-biridan farqi shu ediki, biri yangi turmush bayrog'i ostida, ikkinchisi yangi sulola himoyasi yo'lida kechdi. Har ikkisi ham jamiyatning barcha qatlamlarini o'ziga jalb etgan va eng muhimi, har ikkisi ham kuchga, zo'ravonlikka tayangan edi. Hokimiyatga intilgan mang'itlar rahbarlari (Muhammad Hakimbiy, uning o'g'li Rajabbiy) Eron hukmdori Nodirshohga, turkistonlik «inqilobchilar» esa rus bolsheviklari madadiga tayangan edilar. Fikrimizcha, Fitrat bu tarixiy xatoni kechroq bo'lsa-da anglab, muayyan davlat va xalqqa xos bo'lgan zamin va xususiyatlarni hisobga olmasdan yangi zamonaviy siyosiy tartibni tashqaridan turib o'rnatishga qaratilgan harakatlarning ayanchli oqibatlariga olib kelishi muqarrarligiga ishora qilgan.

Fitratning «jadid» va «qadim» bahsi asosiga qurilgan «Munozara» (1911) asarida bugungi Yevropa sivilizatsiyasining manbayi Sharq ekanligini, ilm, axloqning, davlat va jamiyatni boshqaruvning asl andozalari islom madaniyatidan olinib,

¹ *Fitrat Abdurayuf. Sharq siyosati // Tanlangan asarlar, 3-jild. — T., 2003. — B. 213.*

taraqqiy ettirilganini, uning asl egalari esa o'z mulklarini tamom unutib, yevropaliklarga muhtoj bo'lib qolganini farangi tilidan rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan isbotlab beradi¹.

Qisqa muddatda shuhrat topgan Fitratning «Munozara» asari 1911-yilda polkovnik Yagello tomonidan tarjima qilinib, rus tilida chop etilgan. O'zbekcha nashri esa 1912-yilda bosilgan edi. Bu asarning chop etilishi tufayli Buxoroda yangi usul maktablari qayta ochilib, ko'pdan-ko'p mulla-mudarrislar ustidan tavqi la'natlar olib tashlangan.

Olimning «Sayyohi hindi» («Bayonoti sayyohi hindi») asari 1912-yilda yozilgan bo'lib, 1913-yilda A. I. Kondratev tomonidan tarjima qilinib, rus tilida bosilgan edi. O'zbekcha nashri esa 1991-yilda nashr etildi. Yo'l ocherki sifatida yozilgan ushbu asarda Buxoroning maishiy-siyosiy turmushi tasvirlangan. Fitratning fikricha, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qoloqlikning sababi idora usulining buzuq va nobopligiga, hokimiyat egalariining ilm-ma'rifatdan uzoqligiga borib taqaladi. «...Qarshi yo Kitobning biron bir alacha to'quvchisi Farangistonda yashasa, boshdan oyoq zar-zevarga botar edi. Bu bechoralarning nega yeyishga noni yo'q?... Agar shu Shahrisabz yerlari Yaponiyada bo'lganda edi, zar ekib, zar undirar edi. Bu yerlar nega sho'razorga aylangan?» kabi savollarni bejizga muallif asariga kiritmagan. Iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotning asosiy g'ovlari — ishlab chiqarishdagi o'rta asrga xos qonunsizlik tartibi keng yoritib berilgan ushbu asar F. Xo'jayev tomonidan yuksak baholangan edi.

Fitratning 1911-yilda Istambulda chop etilgan «Sayha» («Bong») she'riy to'plami hozir ham yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda o'z amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zotan, jadidchilik mafkurasida Vatan tuyg'usini chuqur anglash, har qanday tamadan xoli bo'lgan chin vatanparvarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaganligi bugungi o'quvchiga yaxshi ma'lum. Fitrat «Sayha»da Vatanni «sajdagoh», «qiblagoh» bildi, uni «izzu sharafi» deb atadi. U uchun baxt va najot qidirdi. 1914-yilda «Sadoyi Turkiston» gazetasida bosilgan

¹ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. — Т., 2002. — В. 364–365.

bu o'tli she'rlarni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, rus hukumati ham ta'qibga ola boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi ilk bora yorqin, ta'sirchan bir shaklda ifodalangan edi.

Fitratning siyosiy qarashlarini o'rganish va tahlil etish jarayonida ma'lum bo'lmoqdaki, 1917-yilgi fevral, oktabr to'ntarishlari ham, 1920-yilgi Buxoro «inqilobi» ham olimning milliy mustaqillik masalasidagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarmagan. *Birinchi*dan, bu inqiloblar Turkistonning mahalliy xalqiga o'z taqdirini o'zi hal qilish imkonini bermadi, *ikkinchi*dan, hokimiyat xalqqa tegmadi. Hokimiyat chor mustamlakachilaridan sovet mustamlakachilari qo'lga o'tgan. Frunze madadi bilan hokimiyatni qo'lga kiritgan Yosh buxoroliklar partiyasining rahbarlari noto'g'ri ish tutganliklarini keyinchalik tushunib yetganlar. Lekin xatolar anglanganda uni tuzatish deyarli imkonsiz edi.

Shu bois 1921-yilda Fitrat Buxorodagi mehmonxonasida Abdulhamid Cho'lpon sharafiga berilgan ziyofatda amirlikdagi taraqqiyparvarlardan sobiq qozikalon Sharifjon qozining¹ haqli e'tirozlariga javoban: «Axir biz bunaqa inqilobni istagan emasmiz, taqsir!» – degan edi. Fitratning bu javobi mash'um 1937-yilda adibga qarshi jiddiy ayblovlardan biri bo'lib ishga tirkalgan.

Vatanning asl fidoyi farzandi bo'lgan Abdurauf Fitrat 1937-yilning 24-aprelida hibsga olinib, bir yarim yillik qiynoqlardan so'ng «millatchi», «aksilinqilobchi», «aksilsho'roviy», «xalq dushmani», «vatan xoini», «nemis, ingliz razvedkasi ayg'oqchisi» degan asossiz ayblovlar bilan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan sud qilinib, 1938-yilning 4-oktabrida Toshkentda otib o'ldirildi.

Fitrat asarlari u hayotlik paytlaridayoq yuksak baholangan edi. Biroq uning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarini xolis va izchil o'rganish, yosh avlodga taqdim etish masalalari amalda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng boshlandi. Zabdast olimning uch jildlik tanlangan asarlari to'plami chop etildi. Bugun Fitrat nomida Toshkent va Buxoroda ko'chalar,

¹ *Izoh:* Sharifjon Maxdum, taxallusi Sadr Ziyo (1867–1932).

maktablar mavjud. Ona shahri hisoblanmish Buxoroda unga atab yodgorlik muzeyi va ko'rkam xiyobon barpo etilgan. 1996-yilda mamlakatimizda Fitrat tavalludining 110-yilligi keng nishonlandi. Millat tarixidagi xizmatlari e'tiborga olinib, Fitrat Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojining asosiy bosqichlariga doir yuqorida qayd etilgan ma'lumot va tahlillar mintaqamiz xalqlari jahon sivilizatsiyasi tarixida o'zining munosib o'rniga ega ekanligidan, haqiqiy ma'nodagi ozodlikni orzu qilgan ota-bobolarimizning Vatan va xalq baxt-saodatini ko'zlagan orzu-istaklari bugungi O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan ro'yobga chiqqanligidan dalolat beradi.

Tayanch tushunchalar

Avesto, moniylik, mazdakiylik, Qul tegin bitiktoshi, shariat, Al-Madina al-Fozila, Al-Madina al-Johiliya, ma'rifatli shoh, Temur tuzuklari, ya'juj-ma'juj, ijtimoiy-siyosiy inqiroz, tizimni tuzuvchi va buzuvchi jarayonlar, yevropatsentrizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, mustamlakachilik, umumbashariy hakamlik, sivilizatsiya, jadidchilik, ijtimoiy harakat, parlamentar monarxiya, federativ davlat, muxtoriyat, sovetlashtirish, «Milliy ittihad», totalitar rejim.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy qarashlar va ta'limotlar rivojini bosqichlarga bo'lib tahlil qiling.
2. Vatanimizda shakllangan siyosiy qarashlarning manbalarini, tarixiy, milliy-ma'naviy ildizlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. Sharq va G'arbdagi siyosiy qarashlarni taqqoslang.
4. Markaziy Osiyoda XVII – XIX asrlarda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy inqiroz sabablarini tahlil qiling.
5. Mahalliychilik, mintaqaviy nizolar, yevropatsentrizm va buyuk davlatchilik shovinizmi Markaziy Osiyo siyosiy

- tarixida qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi?
6. Turkiston xalqlarining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi siyosiy tafakkuri rivojida jadidchilik qanday ahamiyatga ega edi?
 7. Yevropaning Sharqdagi «madaniy» siyosati mohiyatini A. Fitratning «Sharq siyosati» asari asosida tahlil qiling.
 8. Nima sababdan jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida totalitar tuzum tomonidan tor-mor qilindi?

ADABIYOTLAR

Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қура-
миз. Т. 7. — Т., 1999. — Б.132 — 154.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 287—305.

Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Т., 2008. — Б. 176.

Абдулҳаким Нурбой. Озодликка тўланган товон // Тафаккур. — 2005. — №4. — Б. 12—17.

Абдурашидхонов Мунавварқори. Танланган асарлар. — Т., 2003. — Б. 9—60.

Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. — Т., 1993. — Б.3—33.

Алимова Д. Жадидчилик ва диний бағрикенглик // Тафаккур. 2005. — №4. — Б.18—23.

Алимова Д. Ҳақиқатнинг туташ манзили // Тафаккур. — 2000. — №2. — Б. 54 — 59.

Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. 1-китоб. — Т., «Шарқ», 2003. — 320 б

Алишер Навоий. Садди Искандарий. — Т., 1996. — Б. 3 — 17.

Бобоев Ҳ. Алишер Навоий — буюк давлат арбоби. — Т., 1992. — Б.5 — 21.

Вамбери Ҳ. Маърифат йўлидаги уйғониш // Тафаккур. — 2000. — №2. — Б. 60—81.

Жўраев Т. Тузувчи ва бузувчи тизимлар // Тафаккур. — 2000. — №2. — Б. 24—29.

Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Калла // Тафаккур. — 2005. — №3. — Б. 74—85.

Иванин В. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Те-

мур. (Таржимон: А. Маҳкамов.) – Т., 1994. – Б.3–76.

Исмоил Ака. Буюк Темур давлати (Таржимон Т. Қаҳҳор) – Т., 1996. – Б. 3–37.

Каримов Н. Беҳбудийнинг сўнгги кунлари // Тафаккур. – 2005. – №3. – Б. 64–73.

Қодиров П. Амир Темур сиймоси: Илмий бадиа // Жаҳон адабиёти. – Т., 2006. – №7. – Б. 3–57.

Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т., 1994. – Б. 3–37.

Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Т., 2002. – Б. 217–243.

Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулук. – Т., 1997. – Б. 3–36.

Улрих Рудольф. Ал-Мотуридий ва Самарқанд суннийлик илоҳиёти (Рус ва немис тилларидан таржима.). Имои ал-Бухорий халқаро жамғармаси. Т., 2001. – 397 б.

Политология: Ўқув қўлланма / *С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров* – Т., 1999. – Б. 21–35.

Политология асослари: Ўқув қўлланма. (А. А. Аъзамхўжаев таҳрири остида) – Т., 1992. – Б. 12–54.

Политология: Маърузалар матни / Тақризчилар: В.С. Ким, Ж. Бахронов.. – Т., 2000. – Б. 19–35.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997. – Б. 27–30.

Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., 1997. – Б. 3–35.

Темур тузуклари /Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир Муҳаммад Али, форсчадан тарж. А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов. Т., 2005.

Фитрат А. Оила. – Т., 1998. – Б. 5–30.

Фитрат А. Танланган асарлар. Жилд I. – Т., 2000. – Б. 46–98.

Фитрат А. Танланган асарлар. Жилд II. – Т., 2000. – Б. 17–30.

Фитрат А. Танланган асарлар. Жилд III. – Т., 2003. – Б. 5–41.

Хидоя: комментарий мусульманского права. Т. I.– Т., 1994. – С. 3–26.

Шарафиддинов О. Истиклол фидойилари: Мустафо Чўқай, Чўлпон, Отажон Ҳошим. – Т., 1993. – Б. 7–88.

JAMIYAT HAYOTIDA SIYOSAT VA SIYOSIY TIZIM

1. «Siyosat» tushunchasi. Uning obyektlari va subyekt munosabatlari. Siyosatning turlari, yo‘nalishlari va shakllari

«Siyosat» tushunchasi. Siyosatshunoslik fanini egallash, avvalo, siyosat tushunchasini chuqur va har tomonlama o‘rganishni taqozo etadi. Chunki siyosiy hayotda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida siyosat va siyosiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Har qanday davlat jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa muammolarini hal etishda o‘z siyosiy faoliyatini amalga oshiradi. Davlat hokimiyatiga oid munosabatlar siyosiy munosabatlar mohiyatini tashkil etadi. Demak, o‘z-o‘zidan ravshanki, jamiyatni siyosatsiz, siyosiy munosabatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki siyosat yordamida jamiyat taraqqiyoti yo‘naltiriladi va ta‘minlanadi.

«Siyosat» tushunchasi o‘zining ijtimoiy mohiyati, mazmuni va xususiyatlariga ko‘ra keng va tor ma‘nolarda qo‘llaniladi. Keng ma‘noda u jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro‘y beradigan voqea-hodisalar, o‘zgarishlarni aks ettiradi. Tor ma‘noda esa siyosat jamiyat hayotining alohida bir sohasida, ya‘ni uning siyosiy sohasida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni ifodalaydi va shu sohaning o‘ziga nisbatan qo‘llaniladi.

Siyosat – kishilar faoliyatini muayyan maqsad atrofida birlashtiruvchi, ularni mazkur maqsadga erishish uchun birlikda harakat qilishga undovchi vosita. Maqsadlar birligining vujudga kelishi – siyosat ibtidosining shakllanishi demak. Maqsad birligi kishilik tarixining eng ibtidoiy davrlarida – ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan.

Ijtimoiy fanlarda siyosatning kelib chiqishiga oid 3 xil yondashuv mavjud:

1. Formatsion yondashuvga ko‘ra siyosatning kelib chiqishi quldorlik ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib,

bunda dastlabki mehnat taqsimoti va uning natijasida vujudga keluvchi tabaqalanish, antogonistik sinflarga bo‘linish asosiy omillardir. Formatsion yondashuv marksizm mafkurasi bilan bog‘liqdir.

2. Funksional yondashuv. Uning asoschisi siyosat va davlat haqida ilk bor ilmiy asar yozgan qadimgi yunon mutafakkiri Platondir. Ushbu yondashuvda siyosat turli vazifalarga ega bo‘lgan jamoa yoki polis a‘zolarining umumiy maqsad atrofida birlashishi sifatida tushuniladi.

3. Kommunikativ, ya’ni insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ehtiyojini siyosat ibtidosi uchun asos qilib oluvchi yondashuvning asoschisi – Platonning shogirdi Aristotel bo‘lib, u «Siyosatchi» risolasida tirik mavjudotlar ichida faqat insongina tilga ega bo‘lish baxtiga muayassar bo‘lib, bu xususiyat insonga yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik haqidagi tushunchalarni idrok etish va bu bilan hayvonot dunyosidan farqlanish imkonini berishini, bu narsalar majmuasi o‘z navbatida oila va davlatning asosini tashkil etishini aytgan. Shuning uchun olim oilani, jamiyatni o‘zaro aloqa deb, polisni esa yakunlangan va tugallangan o‘zaro aloqa deb ta’rifladi. Demak, Aristotelning fikricha, siyosat nafaqat kishilar hayoti va faoliyatini bir nuqtaga qaratuvchi, birlashtiruvchi hodisa, balki insonning mohiyati hamdir.

Ayrim tadqiqotchilar siyosatni, hatto san’at darajasiga ko‘taradilar. Masalan, taniqli nemis olimi Arnold Bergishtresser siyosatni kishilarga rahbarlik qilish san’atining oliy ko‘rinishi sifatida baholasa, uning vatandoshi Paul Noak esa kishilarni asosiy ishlarga jalb etish san’ati, deb qaraydi.

O‘zbek siyosatshunos olimi A. Qodirov «Siyosat o‘ta jo‘shqin hodisadir. Unga muayyan holatda qarab bo‘lmaydi. Shu ma’noda fransuz tadqiqotchisi J. Byurdoning «Siyosat o‘zini suratga olishga imkon bermaydi», degan fikriga qo‘shilish mumkin», – deb yozadi. Darhaqiqat, siyosat inson hayotining har bir daqiqasi bilan bog‘liq hodisadir. Uning o‘zgaruvchanligi insonni o‘rab turuvchi ijtimoiy voqelikning o‘zgaruvchanligidan kelib chiqadi. Turg‘un holatdagi siyosat haqida faqat o‘tmishga nisbatan gapirish mumkin, chunki o‘tmish o‘zgarmaydi. O‘tmishdagi siyosat o‘z izini qoldiradi.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarda «siyosat» tushunchasiga ko‘plab ta’riflar berilgan. Bunday ta’riflar qanchalik ko‘p va xilma-xil bo‘lishiga qaramay, ularda siyosat tushunchasining mohiyatini ochib berishda umumiy yondashuvlar ustunlik qiladi. Agar ayrim siyosatshunoslar siyosat tushunchasini «davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi fan» deb tushuntirsalar, ba’zilari esa uni siyosiy kuchlarning hokimiyat uchun kurashi bo‘lib, davlat hokimiyatining shakllarini ifoda qiladi, deb ta’riflaydilar.

Siyosat tushunchasi hozirgi zamon siyosatshunosligida muhim o‘rin egallaydi. Masalan, inglizlik siyosatshunos J. Loski o‘zining «Siyosatga kirish» (1957) asarida siyosatni davlatning faoliyati, uning harakatlarining ifodasi, deb ta’riflaydi.

Sankt-Peterburg universitetining professori A. Belyayev siyosat davlat organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlarning jamiyatdagi yirik ijtimoiy guruhlar, birinchi navbatda, sinflar va millatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sohasidagi faoliyati, deya tariflaydi.

Aksariyat o‘zbek olimlarining ta’kidlashlaricha, «Siyosat — bu muayyan davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichki hayotida va xalqaro maydonda millatlar, sinflar va boshqa ijtimoiy guruhlarning maqsad va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir»¹.

Demak, **siyosat — jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro‘y beradigan oddiy va murakkab vazifalarni hal qilishga, aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat va vosita.** Boshqacha aytganda, siyosat — bu ijtimoiy guruhlar va insonning ziddiyatli jamoa manfaatlarini anglash, butun jamiyat uchun majburiy bo‘lgan qarorlarni ishlab chiqish hamda ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirish faoliyatidir.

«**Siyosat» to‘g‘risidagi konsepsiyalar.** Siyosat tushunchasini mukammal o‘rganish uchun uning yuqorida qayd etilgan umumiy ta’riflarigina yetarli emas. Bo‘ljak huquqshunos sifatida tinglovchilar siyosat, huquq va iqtisodiyot o‘rtasidagi aloqadorlikni chuqur anglashlari lozim. Buning uchun siyosat-

¹ Политология: Ўқув қўлланма / С.Отамуродов, И.Эргашев, Ш.Акрамов, А.Қодиров. — Т., 1997. — В. 42–43.

ning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini va vazifalarini ham ko'rib chiqish juda muhim. Shu bois siyosat to'g'risidagi totalitar, anarxistik, liberal va keynschilik qarashlari e'tiborga molik.

Siyosatning totalitar konsepsiyalari siyosatning jamiyatga ta'siri masalasida barcha cheklashlarni rad etadi, jamiyatning keng qamrovli total siyosiy lashuvidan, iqtisodiyot, madaniyat, fan va boshqa sohalarini boshqarishdan kelib chiqadi. Jamiyat hayotini bunday andozaga ko'ra boshqarish fuqarolik jamiyatini, shaxsiy hayotning mustaqilligini, erkinligini amalda yo'qqa chiqaradi.

Siyosatning anarxistik konsepsiyalari totalitar konsepsiyalarining aksi bo'lib, ular siyosatni, har qanday uyushgan hokimiyatni zo'ravonlik, shaxs huquqlarining poymol etilishi bilan bir narsadir, deb biladi va uni o'z-o'zini boshqarish assotsiatsiyasidan ajralib chiqishini ta'minlaydigan, erkin, suveren kishilarning pastdan yuqorigacha ko'ngilli birlashmalari bilan almashtirishga intiladi. XIX asrda keng tarqalgan anarxizm o'z g'oyalarini amalga oshirishni isbot qilolmasdan keyingi yillarda o'z ta'sirini yo'qotdi.

Siyosatning liberalistik konsepsiyalari ijtimoiy tizimni davlatga va davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan xususiy iqtisodiy, madaniy, oilaviy, diniy va boshqalarga, shu jumladan, siyosiy hayot – fuqarolik jamiyatiga bo'ladi. Ularda siyosatning jamiyatni qamrab olish doirasi cheklanadi. U fuqarolik jamiyati ishlarini qamrab olmaydi.

XVIII–XIX asrlarda G'arbda hukmronlik qilgan liberal qarashlar XX asrning 30-yillarida D. M. Keyns tomonidan qayta ko'rib chiqildi va uning qarashlari *keynschilik* deb nom oldi. Bu konsepsiya kapitalizmga o'z-o'zini tartibga soluvchi jamiyat sifatida baho beruvchi mumtoz liberal qarashlardan voz kechishni va butun ijtimoiy tizim farovonligi uchun mas'uliyatni hukumatning zimmasiga yuklash g'oyasini ilgari suradi. Bu, o'z navbatida, davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy ta'minot sohasi, ish bilan bandlik, mehnat va ijtimoiy munosabatlarga aralashishini taqozo etadi. Keynschilik qarashlari hozirgi kunda rivojlangan demokratik davlatlar siyosatining nazariy negizi bo'lib xizmat qiladi.

Xo'sh, siyosat ijtimoiy hayotda qanday o'rin tutadi? Uning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

Siyosat jamiyatning asosiy sohalaridan biri bo'lib, jamiyatning boshqa sohaları kabi xalqqa va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. U jamiyatning birligi va yaxlitligi, xavfsizligi va barqarorligi, tinch-totuvligi va osoyishtaligini ta'minlovchi sohadir.

Siyosat jamiyatni boshqarish, tartibga solish va mustahkamlash uchun uning barcha sohalariga: ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalariga chuqur kirib boradi va ta'sir o'tkazadi. Jamiyatning siyosat kirib bormaydigan va ta'sir o'tkazmaydigan bironta ham sohasi yo'q. Siyosatning iqtisodiy va ma'naviy sohalardan farq qiladigan xususiyatlaridan biri ana shundadir.

Siyosat iqtisodiyotdagi muammolarni hal etuvchi, uni tartibga soluvchi sohadir. U iqtisodiyotdagi muammolarning, adolatsizliklar, haqsizliklar, qonunbuzarliklarning qanchalik to'la va chuqur hal etilishiga erishsa uning ta'sirchanligi, samaradorligi, xalqchilligi shunchalik yuqori bo'ladi. Ijtimoiy, iqtisodiy sohalarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarning o'zigina kutilgan natijalarni bermaydi. Shuning uchun ham siyosat ma'naviy-ma'rifiy sohani izchillik bilan qayta qurishga va rivojlantirishga, oldingi davrdan meros bo'lib qolgan zararli urf-odatlar, noto'g'ri tasavvurlar, mutelik, qaramlik, beg'amlik, boqimandalik va boshqa illatlarni bartaraf etish, ilg'or, yangicha qarashlarni shakllantirishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Ammo siyosat jamiyatdagi har qanday iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalarni hal etmaydi va hal eta olmaydi deb o'ylash masalani ochiqdan-ochiq siyqalashtirishdan, siyosatning asl mohiyatini tushunmaslikdan, buzib ko'rsatishdan, uni bo'rttirish, mutlaqlashtirishdan boshqa narsa emas.

Siyosatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga ta'siri katta, ammo cheksiz emas. U jamiyatning boshqa sohalariga har doim ham aralashavermaydi. Faqat totalitar tuzumdagina siyosat har qanday paytda va har qanday joyda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalar faoliyatiga aralashadi. Siyosat demokratik jamiyatda boshqa sohalar faoliyatiga ular doirasida g'ayriqonuniy, mas'uliyatsiz xatti-harakatlar sodir etilganda, ijtimoiy adolat buzilganda aralashishi

mumkin. Qonunlarning bajarilmasligi, ijtimoiy adolat va ijtimoiy tartibning buzilishi, yovuzlik, zo‘ravonlik – siyosatning boshqa sohalar faoliyatiga aralashishi uchun obyektiv asos bo‘ladi.

Siyosat o‘zining barcha vositalariga tayanib adolatsizlikni, haqsizlikni, qonunbuzarlikni bartaraf etadi, ijtimoiy adolat va tartibni, uyg‘unlik va muvozanatni, tinch-totuvlik va osoyishtalikni o‘rnatadi. Shu tariqa siyosat jamiyatning tayanchi, xalqning posboni, himoyachisi sifatida, butun ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Siyosat tufayli jinoyatchilik ildizlari ijtimoiy hayotda qirqiladi, adolat va tartib, xavfsizlik va barqarorlik o‘rnatiladi.

Siyosatning bosh maqsadi – jamiyatning barcha sohalarini taraqqiy ettirish va mustahkam bir butunligini, xavfsizligini, barqarorligini, tinch-totuvligini, osoyishtaligini ta‘minlashdan iborat. Bu ulkan maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun qator nazariy va amaliy vazifalarni bajaradi.

Siyosatning **dastlabki va birinchi darajali vazifasi** ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va jamiyatning xavfsizligi, barqarorligini ta‘minlash va mustahkamlash yo‘llarini ko‘rsatib beradigan, ilmiy asoslangan, oqilona dasturlarni, qonunlarni, qarorlarni ishlab chiqishdir.

Ammo buyuk mutafakkir Gegel ta‘kidlaganidek, masalaning mohiyati o‘z maqsadi bilan emas, balki o‘zining amalga oshirilishi bilan nihoyasiga yetadi. Shuning uchun **siyosatning amaliy vazifasi** qabul qilingan dasturlar, qonunlar, qarorlarni hayotda izchillik, qat‘iyatlilik bilan amalga oshirish, butun jamiyatni turli-tuman illatlardan, xastaliklardan tozalashdir.

Xo‘sh, siyosat o‘z maqsad va vazifalarini amalga oshirishda qanday usullardan foydalanadi?

Siyosatning asosiy usullari: ijtimoiy hayotni tartibga solishda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid solmaslik, do‘q-po‘pisa qilmaslik, murosaimadora, xolisonalik, tenglik, manfaatdorlik, muntazamlilik, qat‘iylik, izchillik, oshkoralik, ishontirish, tarbiyalashdir.

Lekin tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yuqorida qayd etilgan oqilona usullar bilan ijtimoiy hayotni hamisha ham tartibga solib bo‘lmaydi. Shu bois, siyosat o‘z oldida turgan vazifalarni

hal etishda kuch ishlatish, majburlash usulidan ham foydalanadi. Bu siyosatning o'ziga xos xususiyatidir. Inson hayotiga, jamiyatning yaxlitligi, bir butunligi, tinch-totuvligi, xavfsizligi, barqarorligi, uyg'unligiga tahdid soladigan yovuzliklarni faqat tushuntirish, ishontirish yo'li bilan hal qilib bo'lmaydi. Bunday xatti-harakatlarni kuch ishlatish, majburlash yo'li bilan hal qilish mumkin. Siyosat qonunlarni qo'pol ravishda buzgan kishilarga nisbatan kuch ishlatish, majburlash usulidan foydalanish bilan buzilgan ijtimoiy adolat va tartib muvozanatini tiklaydi. Chunki qonunbuzarlar jazolanmasdan qolar ekan, mavjud ijtimoiy muammolar yanada kuchayadi. Odamlarning siyosatga bo'lgan ishonchi so'nadi.

Biroq siyosatning kuch ishlatish, majburlash usulidan oqilona va samarali foydalanish lozim. Kuch ishlatish, majburlash xalqning hayotiy manfaatlariga har jihatdan mos tushganda, uni tajovuzlardan himoya qilgandagina o'zini oqlaydi. Bu usulni mutlaqlashtirish esa siyosatni zo'ravonlikka, xalqning jismoniy va ruhiy ezilishiga, pirovardida davlat va jamiyatni halokatga olib keladi. Shu jihatdan qaraganda bir tomonlamalik, kuchga sig'inish, ko'r-ko'rona murosasizlik sobiq sovet totalitar siyosatining jiddiy zaifligi edi. Bu hol unga ijtimoiy muammolarni hal etishga imkon bermadi va yemirilishiga olib keldi.

Siyosatning asosiy omillari millatlar, xalqlar, sinflar, sivilizatsiyalar bo'lib, ular siyosiy tashkilotlar, institutlar, harakatlar va liderlarning manfaatlarini ifodalaydi.

Siyosatning obyektlari va subyektlari. Siyosatning obyektlari va subyekt munosabatlari mohiyatini bilmoq uchun, avvalo, «subyekt» va «obyekt» tushunchalari ustida to'xtalib o'tmoq lozim.

«Subyekt» — lotincha «subiectus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «amaliy faoliyat tashuvchisi» degan ma'noni anglatadi. Hozirgi zamonda «subyekt» tushunchasi «obyekt»ga, tashqi dunyoga qarama-qarshi turuvchi, intilishga, faoliyat ko'rsatishga, yo'naltirishga qodir bo'lgan va faol harakat qiluvchi insonni anglatadi. «Obyekt» tushunchasi esa subyektning faoliyati qaratilgan, undan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar va hodisalarni anglatadi. «Inson — siyosat subyekti» tushunchasi

inson siyosiy borliqning yaratuvchisi, bunyodkori, ijodkori, uning faol, ongli va maqsadli ishtirokchisi ekanligini bildiradi. Boshqacha aytganda, individning tor tasavvurlar doirasidan chiqishi, o'z ehtiyojlariga mos ravishda jamiyat siyosiy tizimiga, yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shakllanishiga faol va izchil ta'sir ko'rsatishini tushunamiz.

Inson siyosat subyekti o'laroq saylovchi sifatida ovoz beradi, askar sifatida Vatanni himoya qiladi, kurashchi sifatida turli siyosiy aksiyalarda ishtirok etadi, o'z e'tiqodini namoyish qiladi, zulmga, adolatsizlikka qarshi kurashadi, xalq vakili sifatida davlat organlari, jamoat tashkilotlarining ishida, boshqaruv qarorlari va siyosiy yo'lni ishlab chiqish hamda qabul qilishda qatnashadi, yetakchi sifatida ijtimoiy-siyosiy harakatga boshchilik qiladi, uni uyushtiradi va baxt-saodatga yo'naltiradi. Umuman, siyosatdan xoli bo'lgan inson bo'lmaydi. Har bir inson, biroz bo'lsa-da, siyosat bilan bog'langan bo'ladi.

Har qanday inson har doim ham siyosatning haqiqiy subyekti hisoblanadimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savolga yo'q, deb javob berishga to'g'ri keladi. Inson muayyan siyosiy sifatlarni egallaganda, o'zligini to'la va to'g'ri anglaganda, o'zini jamiyatning tarkibiy qismi deb bilganda, o'zgalarning manfaatlariga xolisona yondasha olganda, boshqalarga ta'sir ko'rsata olganda siyosatning haqiqiy subyekti hisoblanadi.

Insonlarning siyosat subyekti sifatidagi faoliyatlari muassasaviy, qonun tomonidan ruxsat etilgan va nomuassasaviy, huquqqa zid turlarga bo'linishi mumkin. Siyosiy faoliyatning birinchi turiga erkin, demokratik saylovlar, referendumlar, yig'ilishlar, muzokaralarda ishtirok etishlar misol bo'lsa, ikkinchi turiga esa siyosiy terrorizm misol bo'ladi.

Xullas, **siyosat subyektlari** — siyosiy hayotda ishtirok etish salohiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy va milliy uyushmalar, tashkilotlar, muassasalar, shaxslar bo'lib, ular o'z manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib siyosiy qarorlar qabul qiladilar va o'z qarorlarini amalga oshirish uchun harakat qiladilar. Demak, siyosat subyektlari muayyan maqsadga qaratilgan asosli harakatning faol ishtirokchilaridir.

Lekin inson siyosatda ishtirok etish shakllarini va usullarini

puxta va aniq egallamagan bo'lsa, ulardan samarali foydalana olmasa, uni siyosatning faol subyekti deb hisoblab bo'lmaydi. Ko'pincha bunday kishilarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan siyosiy indiferantlik — befarqlik, loqaydlik ustunlik qiladi. Bunday insonlar siyosatning haqiqiy, faol subyekti emas, balki obyekt bo'lib qoladilar. Insonning haqiqiy, faol subyekt sifatida shakllanishi mamlakatda demokratik siyosiy rejimning mavjudligiga, iqtisodiyotining taraqqiy etganlik darajasiga, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlanganlik sur'atlariga ham bevosita bog'liqdir. Masalan, jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada taraqqiy etishi fuqarolik xizmatining bilimdon, malakali boshqaruv kadrlari korpusining shakllanishi uchun zarur baza bo'lib xizmat qiladi. Yetishmovchilik, qashshoqlik sharoitida demokratiya negizida samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan umumta'lim va kasb tayyorgarligining yuqori darajasiga ommaviy miqyosda erishish qiyin. Bunday sharoitda kadrlarni shakllantirishda, ulardan foydalanishda bilimdonlik va kasbga bo'lgan talablar, boshqa tamoyillar: qon-qarindoshchilik, yurtdoshlik, oshna-og'aynigarchilik, boshliqqa sodiqlik va boshqalar bilan almashtiriladi. Davlat xizmati, siyosiy faoliyatga tezda boyib ketish maqsadida, shaxsiy, g'arazli manfaatlarning qondirilish vositasi sifatida qarash boshqarish tizim uchun og'ir oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Siyosat obyektlari deganda turli ijtimoiy uyushma, guruhlar, millatlar, elatlar, muassasalar va ularning birlashmalari, insonlar tushuniladi. Ularga siyosat muayyan maqsad yo'lida ta'sir ko'rsatadi. Demak, siyosat obyekti deb subyektini bilish va boshqa faoliyat yo'nalishiga aytiladi.

Siyosat subyektlarini ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Obyektiv ravishda mavjud bo'lgan ijtimoiy uyushma va birliklar: — xalq, sinf, millat, elat, ijtimoiy, professional va demografik guruhlar, individ. Ularning har biri o'zining spetsifik (alohida) manfaatiga egadir va aynan shu xususiyat ularning siyosatda ishtirok etishlariga sabab bo'ladi.

2. Siyosatda ishtirok etish uchun odamlar va ularning jamoalari tomonidan vujudga keltiriladigan ijtimoiy institutlar va tashkilotlar. Ularni siyosiy institut deyish maqsadga muvofiq-

dir. Siyosiy institutlarga davlat, uning turli muassasalari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari misol bo'la oladi.

Siyosatshunoslikda siyosat subyektlarining quyidagi klassifikatsiyasi (darajalari) bir-biridan farqlanadi:

– sotsial daraja – individlarni va turli ijtimoiy tabaqalar (jumladan, professional, etnik, demografik guruhlar);

– institutsional daraja – davlat, partiya, kasaba uyushmalari, siyosiy harakatlar;

– funksional daraja – asosan nosiyosiy vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy institutlar sifatida faoliyat yurituvchi, aslida esa siyosatga sezilarli, goho kuchli ta'sir ko'rsatuvchi (cherkov, universitetlar, sport tashkilotlari va h.k.) subyektlar.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy sohasi, insonning ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon, demokratik yo'l, ko'rsatmalar, xatti-harakatlarga moyil bo'ladi. Xususan, mukammal ta'lim insonning siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, sabr-toqatli, mehr-oqibatli bo'lishiga yordam beradi, ekstremistik g'oyalar ta'siriga berilishdan saqlaydi, saylov kampaniyalari davrida uning odil va oqilona yo'lni tanlash qobiliyatini oshiradi.

Shunday qilib, siyosat hozirgi zamon kishisi uchun ham zaruriyat, ham ehtiyojdir. Siyosatshunoslar o'rtasida agar hozirgi zamon kishisi siyosat bilan qiziqmasa, siyosat ham u bilan qiziqmaydi, degan fikr mavjud. Bugun o'zini siyosatdan chetda deb biluvchi insonni topish mumkin emas, agar u o'zini siyosatdan chetda deb bilsa ham, siyosiy hokimiyat qarorlarini tan olishga va hurmat qilishga majburdir.

Siyosat tuzilishiga ko'ra 3 turga – ichki, tashqi va xalqaro siyosatga bo'linadi. *Ichki siyosat* – siyosat subyektlarining mamlakat ichkarisida amalga oshiradigan faoliyatidir. Tashqi siyosatni ishlab chiqishda esa ko'p subyekt emas, balki bitta subyekt, ya'ni davlat tashkiloti asosiy rolni o'ynaydi.

Ichki siyosat quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, harbiy siyosat, demografik siyosat, yoshlar siyosati, talabalar siyosati, agrar siyosat, ta'lim siyosati, texnik siyosat, ilmiy siyosat, huquqiy siyosat, ekologik siyosat va h.k.

Shu o'ringa dunyo davlatlarining demografik siyosatlari to'g'risidagi qisqa bir tahlil e'tiborga molikdir. Hozir dunyoda 6 milliarddan ortiq aholi yashaydi. Taxminlarga ko'ra, Hindiston 2016-yilga borib aholi soni bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqadi. Har kuni bu mamlakatda 56 ming bola tug'ilmoqda. Hind hukumati o'z demografik siyosatida bu holatni hisobga olishga majburdir. Shu munosabat bilan butun dunyo davlatlari o'z demografik siyosatlarida quyidagi uch yo'lning birini tanlashga, masalan: Xitoy yoki Hindiston kabi tug'ilishni cheklashga; G'arb davlatlari, Rossiya kabi aholi sonini oshirishga; Markaziy Osiyo davlatlari singari tabiiy o'sishni normal deb bilib, uni mavjud o'sish darajasida saqlab turishga harakat qilishmoqda.

Ichki siyosat kabi *tashqi siyosat* ham siyosat subyektlarining faolligiga bog'liq. Bunda asosiy rolni davlat tashkiloti o'ynaydi. Tashqi siyosat mamlakatlarning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqadi va unga xizmat qiladi. Hech bir davlat o'zining tashqi siyosatida boshqa biror-bir davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ymaydi. Albatta, bunda boshqa mamlakatlarning manfaatlari kamsitilmasligi, ularning rivojlanishiga xalal beradigan g'arazli maqsadlar ko'zda tutilmasligi kerak.

Davlatlar tashqi siyosatiga xos bo'lgan umumiylikning amaldagi ifodasini O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari misolida aniq ko'rish mumkin. Ma'lumki, hozirgi kunda O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun kurash, o'zaro manfaatdorlik asosidagi teng huquqli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, milliy hudud yaxlitligini va mamlakat chegaralarini himoya qilish, keskin ekologik va boshqa muhim vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

Xalqaro siyosat esa dunyo hamjamiyati oldida turgan muammolarni o'zaro kelishilgan tarzda bartaraf etishga qaratilgan davlatlararo munosabatlarni anglatadi.

Siyosatshunoslikda siyosatni tasniflashning boshqa mezonlari ham qo'llaniladi. Jumladan, siyosat o'z ustuvorligi bo'yicha neytral, ochiq eshiklar, milliy yarash, kompromiss siyosatlarga;

o'z mazmuni va xarakteriga ko'ra progressiv yoki reaksiyon, ilmiy asoslangan yoki volyuntaristik¹ bo'lishi mumkin. Neytral davlatlarga Shvetsiya (1814-yildan), Shveysariya (1815-yildan), Avstriya (1955-yildan), Turkmaniston misol bo'la oladi.

Siyosiy munosabatlar aslida siyosat subyektlarining o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishidir. Ana shu o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayonida siyosatning u yoki bu shaklidan foydalaniladi. Shu ma'noda, *konflikt* (qarama-qarshi kuchlar, manfaatlar, qarashlar, fikrlar va boshqalarning to'qnashuvi), *konsensus* (qarorlarni, xalqaro shartnomalarni, hujjatlarni ovozga qo'ymasdan o'zaro kelishuv yo'li orqali ishlab chiqish va qabul qilish), *kompromiss* (o'zaro bir-biriga yon berishlar natijasida erishilgan kelishuv), *shirikchilik* (siyosat subyektlarining jamiyatdagi o'z manfaatlarini amalda ro'yobga chiqarish uchun birgalikdagi kelishilgan harakatlari), *konsolidatsiya* (siyosiy hayotda mushtarak maqsadlarga erishish yo'lida kurashni kuchaytirish uchun alohida shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning uyushuvi, birlashuvi) va boshqalar *siyosatning shakllaridir*.

Shunday qilib, «siyosat» ko'ppirrali tushuncha bo'lib:

- davlat ishlarida ishtirok etish;
- xalqlar, sinflar, ijtimoiy guruh va tabaqalarning munosabatlari;
- turli guruh va tabaqalar manfaatlarining, asosan, iqtisodiy manfaatlarining lo'nda ifodalangan ko'rinishi;
- fan va san'at;
- muayyan maqsadga erishish uchun harakat qilayotgan odamlar o'rtasidagi munosabatlarning ifodasidir.

Shuningdek, hozirgi zamonda siyosiy institutlar xilma-xilligining siyosiy jarayonlarga bo'lgan ta'sirining oshib borishi kuzatilmoqda. Bunday jarayonlarni sobiq Ittifoq o'rnida tashkil topgan mustaqil davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosiy hayotida ham yaqqol sezish mumkin. Zamonaviy demokratik siyosiy institutlar — ikki palatali parlament, ko'ppartiyaviylik, turli ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar

¹ *Izoh:* Voluntas (lot.) — iroda, shaxs irodasini jamiyat taraqqiyotining belgilovchi kuchi deb hisoblash. Siyosiy sohada volyuntarizm subyektivizm va subyektivistik o'zboshimchaliklardan iborat bo'ladi.

siyosiy hayotni demokratlashtirishga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Siyosatda integratsiya va differentsiatsiya jarayonlari. XXI asr shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'lmoqda. Shu munosabat bilan integratsiya – turli mamlakatlar iqtisodiy hayotining yagona iqtisodiy siyosat asosida o'zaro bog'langan holda rivojlanish shaklining ahamiyati ham ortib bormoqda. Biroq bugungi dunyoda integratsiya hayotning boshqa sohalarini ham qamrab olmoqda. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek, umuman butun sayyoramiz ko'lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur.

Hozir O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini jahonning 165 davlati tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 35 xorijiy mamlakatning elchixonasi faoliyat yuritmoqda. Biz jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlat qurishdek strategik vazifani bajarimoqdamiz.

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga, ya'ni bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka harakat qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir.

Mamlakat qanchalik integratsiya aloqalari bilan bog'langan bo'lsa, uning xavfsizligiga tahdid shuncha kam bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyati bilan integ-

ratsiyasi xususida e'tiborga molik misollar juda ko'p. Jumladan, BMT, YUNESKO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro moliyaviy tashkilotlar: Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki; Davlatlarning mintaqaviy birlashmalari: Yevropa Ittifoqi, YXHT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, EKO (iqtisodiy hamkorlik tashkiloti), Qo'shilmaslik harakati, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Markaziy Osiyo Hamdo'stligi, ASEAN (Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi), ATES (Osiyo-Tinch okeani mintaqasi) doirasidagi integratsiyalashuv buning isbotidir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston integratsion jarayonlarda turli darajalarda – global va regional darajalarda qatnashadi, bunda bir davlat bilan yaqinlashishda boshqasidan uzoqlashmaslik prinsipiga amal qiladi. Siyosatda integratsion jarayonlarning asosini manfaatlar birligi, mushtarakligi tashkil etadi.

Integratsiyaning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

Birinchidan, davlatlarga o'z iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlarini hayotga to'laroq tatbiq etishga.

Ikkinchidan, integratsion jarayonlarni chuqurlashtirishga – 10–15 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarni tuzishga va iqtisodiyotning turli sohalarida kuchli rivojlanishga.

Uchinchidan, davlatlarning kollektiv asosdagi harakatlari ularga ekologiya, mintaqalardagi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha turli dolzarb masalalarni osonroq yechishga imkon beradi.

O'zbekiston o'z iqtisodiy integratsiya siyosatida dunyoning yetakchi iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlari: Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro moliyaviy korporatsiya bilan qizg'in hamkorlik qilmoqda.

Siyosiy integratsiya sohasida esa O'zbekiston xalqaro tashkilotlar yordamida o'z fundamental manfaatlarini global va regional miqyosda himoya qilib, YXHT doirasida, shuningdek, Osiyo regionida Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida faol qatnashish orqali barqaror xavfsizlik tizimini shakllantirishga intilmoqda. Florensiyada 1996-yilda Yevropa Ittifoqi bilan

O‘zbekiston o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risidagi Kelishuvning imzolanishi, ayniqsa, 2005-yilning 14-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning¹ va 2006-yilning 4-sentabrida esa Qozog‘iston Respublikasi bilan 2006–2008-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik dasturlarining² imzolanishi mamlakatimizning siyosiy integratsiyasida muhim ahamiyatga molik ijobiy voqealiklar bo‘ldi.

Yevropada integratsion jarayonlar esa XX asrning 50-yillari o‘rtalarida Yevropa Iqtisodiy Ittifoqining tuzilishi bilan boshlangan edi. 1975-yilda Xelsinki Yakunlovchi Akti tuzilishi bilan G‘arbiy Yevropada integratsion jarayonlarning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu jarayonlar bugun yagona pul birligi – evroning 2001-yil 1-yanvarda muomalaga kiritilishiga olib keldi.

Siyosiy integratsiya BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, YXHT va boshqa tashkilotlar doirasida dunyoda tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan. Jahon siyosatida bu masalada O‘zbekiston ham o‘zining munosib o‘rniga ega. Dunyo hamjamiyati bilan keng ko‘lamli integratsiya O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida bundan keyin ham o‘zining muhim o‘rnini saqlab qoladi.

Differensiatsiya – differensiatsiyalash, farqlash, darajalash, tabaqalashtirish, farqlanish degan ma‘nolarni bildiradi. Siyosatda differension jarayonlar muayyan siyosiy kuchlarning separatizmida, milliy o‘zlikni anglash natijalarida, ayrim millat yoki xalqlarning o‘z milliy davlatchiligini yaratish uchun olib boradigan kurashida ifodalanadi. Differension jarayonlarda siyosiy ta‘sir ko‘rsatishning konflikt, to‘qnashuv, kelishuv, hamkorlik, konsensus kabi turli shakllaridan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, siyosat jamiyatning ijtimoiy muammolariga chuqur kirib boruvchi, ta‘sir o‘tkazuvchi va ularni hal qiluvchi sohadir.

¹ Ўзбекистон ва Россия – иттифоқчи давлатлар // Xalq so‘zi. – 2005. – 15-noya. – №224.

² Бобоев А. Дўстлик ва қардошлик ришталари мустаҳкам // Xalq so‘zi. – 2006. – 5-sent. – №174.

2. Siyosiy tizim va uning asosiy elementlari.

Siyosiy tizimlar tipologiyasi

Siyosiy tizim va uning asosiy elementlari, siyosiy tizimlar tipologiyasi masalalari siyosat hodisasi bilan mantiqan bog'liqdir. Chunki siyosiy tizim siyosiy faoliyatning barcha turlarini va sohalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Modomiki shunday ekan, «siyosiy tizim» deganda nimani tushunmoq lozim?

Siyosiy tizim jamiyatda siyosat, hokimiyat va boshqaruvni shakllantirish hamda amalda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar yig'indisidan iborat.

Siyosiy tizim jamiyatning boshqa tizimlaridan farq qiladi va bu farq quyidagilarda ifodalanadi:

1. Siyosiy tizim doirasida qabul qilinadigan qarorlar butun jamiyat uchun majburiydir.

2. Siyosiy tizim ijtimoiy muhit va avvalo jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liqdir.

3. Siyosiy tizim jamiyatning boshqa tizimlariga nisbatan mustaqildir.

Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlovchi, uning imkoniyatlarini amalga oshirishga safarbar qiluvchi mexanizmdir.

Demak, siyosiy tizim deganda siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi vositalari bo'lgan davlat tashkilotlari va munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Siyosiy tizim mohiyati quyidagi vazifalarda o'z ifodasini topadi:

– siyosiy tizim o'zida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va milliy tuzilmalarini, demografik jarayonlarni, aholining ma'lumot darajasini, ijtimoiy ong holatini, ma'naviy-ruhiy va ma'rifiy-mafkuraviy hayotni, xalqaro ahvolni aks ettiradi;

– siyosiy tizim orqali manfaatlarining asosiy guruhlarini aniqlanadi. Zero, hozirgi sharoitda jamiyatimiz siyosiy tizimi oldida, avvalo, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda turli manfaatlar muvozanatini to'g'ri aniqlab olish vazifasi turibdi.

Siyosiy tizim barqarorligini ta'minlash uchun siyosiy hayot ishtirokchilari manfaatlarini, ular o'rtasida vujudga keladigan

ziddiyatlarni hisobga olish zarur. Buning uchun esa jamiyatdagi mavjud ijtimoiy qatlamlar, guruhlar, kuchlar, shuningdek, tashkilotlar va harakatlarning manfaatlarini muvofiqlashtirish lozim. Bu vazifani O'zbekistondagi islohotlar sharoitida siyosiy tizimning asosiy elementi hamda bosh islohotchi bo'lmish davlat bajarmoqda.

Endi diqqatimizni siyosiy tizimni tashkil etuvchi asosiy elementlar nimalar ekanligiga qarataylik. Xo'sh, siyosiy tizimning asosiy tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

Siyosiy tizimni tashkil etuvchi elementlar (unsurlar) siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishdagi o'rniga qarab quyidagi to'rtta kichik tizimlar guruhiga ajratiladi:

1. Tashkiliy tizim (davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar).

2. Madaniy-mafkuraviy tizim (siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri).

3. Me'yoriy (normativ) tizim (siyosiy-huquqiy, tashkiliy, axloqiy, siyosiy va boshqa me'yorlar).

4. Axborot-kommunikatsiya tizimi (OAV va ularning kommunikatsiyalari, ilmiy infratuzilmalar).

Siyosiy tizimni tashkil etuvchi yuqorida qayd etilgan to'rtta kichik tizimlar siyosiy maqsadlarning amalga oshirilishida muayyan vazifalarni bajarishadi. Masalan, tashkiliy tizimga kiruvchi davlat va siyosiy partiyalar siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun tuziladi. Xususan, siyosiy hokimiyat, davlat — siyosiy tizimning o'zagi sifatida siyosat subyektlarining siyosatda ifodalangan irodasini turli yo'llar, usullar va vositalar yordamida amalga oshiradi. Boshqa tizimlar esa siyosiy maqsadlar uchun emas, balki ma'lum guruhlarining madaniy, jismoniy va malaka manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

Madaniy-mafkuraviy tizimning vazifasi siyosiy partiyalarning muayyan g'oyalar va qarashlarga tayanishlari bilan bog'liq. Siyosiy partiyalar jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlari, hokimiyat uchun kurash uslublari va konsepsiyalaridan kelib chiqib, turli g'oyalarni ilgari surishlari mumkin. Siyosiy partiyalar mamlakatda amal qilayotgan huquqiy normalarga to'la-to'kis rioya qilsalar jamiyat siyosiy tizimida o'zlarining munosib o'rinlariga ega bo'ladilar,

aks holda ularning faoliyati davlat tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Madaniy-mafkuraviy tizimning tarkibiga kiruvchi siyosiy va huquqiy ong ijtimoiy ongning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Siyosiy va huquqiy ong – bu siyosiy borliqning in'ikosidir. Kishilar mavjud siyosiy voqelik bilan qanoatlanib qolmaydilar. Ular hamisha bu voqelikni bilishga, anglashga va uni o'zgartirishga intiladilar. Demak, insonning siyosiy borliq haqidagi bilimlari, qarashlari uning siyosiy hamda huquqiy ongini tashkil etadi. Siyosiy va huquqiy ongning shakllanishi hamda rivojlanishida insonning oilaviy muhiti, keng ma'nodagi axborot, individning shaxsiy tajribasi katta o'rin egallaydi.

Siyosiy me'yor – bu davlat va siyosiy tuzilmalar darajasida tan olingan siyosiy axloq hisoblanadi. Uning asosiy hujjati konstitutsiya bo'lib, u jamiyat va davlat hayotining normalarini o'zida aks ettiradi.

Axborot-kommunikatsiya tizimining o'rni siyosiy jarayonlarni xalqqa xolisona yetkazish va baholash bilan belgilanadi.

Siyosiy tizimning yuqorida qayd etilgan kichik tizimlari bevosita mustaqil faoliyat ko'rsatsalar-da, bir-biriga bog'liqdir. Ularning o'zaro uyg'unlikdagi faoliyati siyosiy tizimning barcha mexanizmlari normal ishlashini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy tizimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- imkoniyatlarni safarbar qilish;
- jamiyat tizimi barcha elementlarini birlashtirish;
- legitimlikka, haqiqiy siyosiy hayotning zarur darajasiga rasmiy-siyosiy va huquqiy normalar orqali erishish.

Siyosiy rejim. Siyosiy tizim mohiyatini chuqurroq bilib olish uchun «siyosiy rejim» (siyosiy tartibot) tushunchasi mazmunini bilib olish juda muhim. Garchi, fransuz siyosatshunosi N. Dyuverje «siyosiy tizim» va «siyosiy rejim» tushunchalarini sinonimlar deb hisoblasa-da, bu ikki tushuncha o'rtasida muayyan farq mavjud. Chunki siyosiy tizim tushunchasi kengroq va siyosiy rejim uning ayrim jihatlarini ochib beradigan bir ko'rinishidir. «Siyosiy rejim» tushunchasi orqali hokimiyatga egalik qilish-

ning u yoki bu shakli, davlat va siyosiy tizimning amal qilishi anglashiladi.

Siyosiy rejim belgilari sifatida siyosiy yetakchilik uchun kurash tabiatini (ochiq, yopiq), xalqning siyosiy hayotga jalb etilganligini, xalqning siyosatdan chetlatilganligi yoki unga siyosatga ta'sir etish imkonining berilganligini, siyosiy rahbariyat qanday qadriyatlarga suyanishi (konservatizm, reformizm, revolyutsionizm va hokazolar)ni sanab o'tish mumkin. Yuqoridagi belgilarga ko'ra siyosiy rejimlar totalitar, avtoritar, demokratik rejimlarga bo'linadi.

Amalda birorta siyosiy rejim sof holda uchramaydi. Shuningdek, siyosiy rejimlar rivojlanish xususiyatiga ega bo'lib, demokratiya avtoritarizm yoki totalitarizmga, avtoritarizm demokratiyaga o'sib o'tishi mumkin. Quyida totalitar va avtoritar rejimlar to'g'risida qisqacha mulohaza yuritamiz.

Totalitarizm (lot. «totalitas» – to'liq, butunlik) – g'oyalar, fikrlar, nuqtayi nazar sifatida juda qadimiy ildizlarga ega. Platon, T. Mor, T. Kampanella, G. Babef, Sen-Simon, J. J. Russo davlatning totalitar modellarini ishlab chiqishgan. Fixte, Gegel, Marks, Nitsche, Lenin va boshqalar asarlarida bu g'oyalar rivojlantirilganligi ma'lum. Mazmunidagi farqlarga qaramay, totalitar konsepsiyalar umumiy mantiqqa egalar. Avvalo, ularning asosida utopiyalarni siyosiyashtirish yotadi. Utopiyalar tugal ishlab chiqilgan yopiq siyosiy tizim bo'lgani uchun ziddiyatlar, harakatlar, o'zgarishlarga o'rin qoldirmaydi. Shuning uchun ham utopiyalar doimo totalitar ruhdadir. Totalitar utopiya absolyut haqiqat bilan tenglashtiriladi va boshqa har qanday qarashlar, nazariyalar dushman yoki xato deb baholanadi. Pirovardida totalitarizm dogma sifatida o'zining inqirozini ham o'zi tayyorlaydi.

Avtoritarizm (lot. «auctoritas» to'la hokimiyat) – ustunlik va irodani ko'pchilikka o'tkazishga asoslangan har qanday ijtimoiy-siyosiy rejimdir. Avtoritarizmning shakllari absolyut monarxiya, diktatura, posttotalitar rejimlardir. Avtoritar rahbarlar qo'rqitish, qirg'in, zo'rlikni qurol qilib olishlari hamda ommaning ishonchini qozonishga, qonunga suyanishga va boshqa vositalarga ham murojaat qilishlari mumkin. Tarixdagi barcha avtori-

tar rejimlar hukmronlikning an'anaviy va xarizmatik turlariga asoslangandir. Totalitar rejim yemirilgandan keyin tashkil topgan davlatlarning ko'pchiligi avtoritar rejimlarga amal qiladi. Bir qator avtoritar davlatlar o'zining samaradorligini amalda ko'rsatdi. Avtoritar rejimning ijobiy tomoni sifatida ularda kuchli hokimiyat va erkin xo'jalik yuritish, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish uyg'unligiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Bu rejimning zaif tomonlarini esa siyosatning ayrim shaxs yoki guruh irodasiga to'laligicha bog'liqligi; fuqarolarning siyosiy hayotdan chetlanganligi; butun jamiyatning siyosiy o'yinlar, avantyuralar qurboni bo'lish potensial xavfining doimiy mavjudligi; o'rta asrlardagidek podsho, rahbar, yetakchining adolati, zakovatiga umid, bog'liqlik tashkil etadi.

Shu bilan birga avtoritar rejimlarning bir qator ijobiy tomonlari ham borki, bu xususiyat, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan jamiyatlarda o'z samaradorligini amalda ko'rsatadi. Avtoritar hokimiyat – kuchli hokimiyat, shuning uchun ham uning jamiyatda tartib, barqarorlikni ta'minlash qobiliyati bir muncha yuqoriroq. Bu hokimiyat turli kuchlar qarshiligini sindirib, jamiyatda tarkibiy o'zgarishlarni tez o'tkaza oladi va butun imkoniyatlarni eng dolzarb muammolarni hal qilishga yo'naltira oladi. Tub islohotlar va o'zgarishlar davrida ana shunday kuchli hokimiyatning mavjud bo'lishi, albatta, afzalroqdir. Avtoritar tuzumlarning aksariyati modernizatsiya yo'lidan boradi. Hozirgi vaqtda avtoritar rejimlar demokratiyaga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Bunday yo'naltirilgan siyosiy rejimlar jamiyatda bozor munosabatlarini qaror toptirish, o'rta qatlam nufuzini oshirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, jamiyatni siyosiy hamda har qanday plyuralizmga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ularning faoliyat davri unchalik uzoq bo'lmaydi. Jamiyatda shakllangan demokratik munosabatlar va shu yo'nalishdagi kuchlar uning asta-sekinlik bilan siyosiy rejimning boshqa turi – demokratiyaga o'tishini ta'minlaydi.

Siyosiy tizimlar tipologiyasi. Siyosatshunoslik fanida siyosiy tizimlarni turlarga bo'lish g'oyasi turli mamlakatlar siyosiy tizimlarini qiyosiy tahlil qilish zarurati tufayli paydo bo'ldi.

Jamiyatning siyosiy tizimi to'g'risidagi bilimlar u yoki bu mamlakatdagi siyosiy barqarorlikning darajasini aniqlashning eng qulay vositasidir. Bu, masalan, chet el investorining biror mamlakatda o'z mablag'larini joylashtirish to'g'risidagi qaroriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Hozir dunyoda 180 dan ortiq mamlakat mavjud, ularning siyosiy tizimlari ham turli-tumandir.

Turli jamiyatlardagi siyosiy hayot shakllarining rivojlanganligiga ko'ra quyidagi siyosiy tizimlar tiplari o'zaro farqlanadi:

1. Demokratik siyosiy tizim;
2. Avtoritar siyosiy tizim;
3. Totalitar siyosiy tizim.

Xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun real istiqboli ko'proq barqaror bo'lgan siyosiy tizim turi — demokratiyadir. Demokratik siyosiy tizimning asosiy xususiyatlari:

— fuqarolarning siyosatga keng jalb etilganligi, ular huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi, hayot darajasining yuqoriligi, rivojlangan o'rta tabaqaning muhim roli;

— hokimiyatni amalga oshirishda hokimiyat institutlari va shaxslarning keng ishtiroki, siyosiy qatnashuvning o'zaro musobaqa, rahbarlikning esa ko'ppartiyaviylik shaklida tashkil etilganligi;

— xalq xohish-irodasining parlament shaklida ifoda etilishi, qonun chiqaruvchi organlarning saylovlar asosida shakllantirilganligi;

— demokratik siyosiy madaniyat;

— davlatni boshqarishda qatnashishda fuqarolar huquqlarining tengligi;

— hukmron va muxolif siyosiy partiyalarning mavjudligi;

— partiyalarning legal kurashi sharoitida shakllanadigan umumdavlat vakillik organi — parlamentning mavjudligi;

— partiyalarning saylovlardagi legal kurashi natijasiga ko'ra hukumatning shakllanishi.

Avtoritar tipdagi siyosiy tizimlar esa siyosiy muxolifatga yo'l qo'ymaydigan, biroq shaxs va jamiyatning nosiyosiy sohalarda-

gi avtonomligini saqlab qoluvchi, bir shaxs yoki shaxslar guruhining cheklanmagan hokimiyati sifatida ajralib turadi. Bunday tizimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– hokimiyatning bir shaxs yoki kichik bir guruh qoʻlida toʻplanganligi;

– hokimiyatning cheklanmaganligi, fuqarolar tomonidan nazorat qilina olmasligi, hokimiyat qonunlar asosida ish koʻrishi mumkin, ammo bu qonunlar hokimiyat ehtiyojlariga koʻra qabul qilinadi;

– kuchga suyanish. Avtoritar tuzum xalq tomonidan quvvatlanishi, repressiyalar, zoʻrluk ishlatilmasligi mumkin. Ammo u yetarli kuchga ega boʻlib, istalgan vaqtda itoat va tartib oʻrnatish layoqatiga ega;

– hokimiyat va siyosat sohasida yakka hukmronlikning oʻrnatilishi, amalda muxolifat va raqobatga yoʻl qoʻymaslik. Avtoritarizm sharoitida bir qancha partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari mavjud boʻlishi mumkin. Lekin ular hokimiyat nazoratida boʻladilar. Baʼzan muxolifatning yoʻqligi jamiyatning bunga tayyor emasligi, ijtimoiy ehtiyojning yetilmaganligi bilan ham izohlanadi;

– jamiyatning siyosatdan boshqa sohalariga kam aralashish. Hokimiyat birinchi navbatda oʻz xavfsizligini taʼminlash, jamoat tartibini oʻrnatish, mudofaa, tashqi siyosat bilan shugʻullanadi. Shu bilan bir qatorda u bozorning oʻz-oʻzini tartibga solish mexanizmini buzmaganda iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga taʼsir etishi, kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi ham mumkin;

– siyosiy elitaning raqobatli saylovlar jarayonida emas, yuqoridan tayinlash yoʻli bilan shakllantirishi;

– muxolif matbuot, muxolif partiyalarning taqiqlanishi, fuqarolar demokratik huquq va erkinliklarining tugatilganligi yoki cheklanganligi;

– davlat organlarida saylovning cheklanishi va parlamentning ikkinchi darajali organga aylanib qolishi;

– hukmron partiyaning davlat apparati bilan qoʻshilib ketishi;

– avtoritar hokimiyat oʻzini cheklovchi mexanizmlarga ega.

Mulkchilikning turli shakllari mavjudligi, ijtimoiy sohada ijtimoiy bir xillikning yoʻqligi, sinf va qatlamlarning muxolifat

sifatida yo‘q qilinmasligi, mafkura sohasida turli qarashlar va nuqtayi nazarlarning cheklangan va yashirin holda mavjud bo‘lishi, an‘analar avtoritar siyosiy tizimning asosiy cheklovlaridir.

Totalitar turdagi siyosiy rejimlar davlatning jamiyat hayotining barcha sohalarida to‘la (total) nazorati o‘rnatilganligi bilan ajralib turadi yoki xarakterlanadi. Totalitar siyosiy rejimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

– butun jamiyat hayotining mafkuraga bo‘ysundirilishi, hukmron mafkuraga absolyut haqiqat maqomi berilishi. Mazmuniga ko‘ra totalitar mafkura inqilobiy bo‘lib, ishchilar sinfi yoki oriylar irqining ustunligi to‘g‘risidagi ijtimoiy afsonalarga tayanadi (kommunizm, fashizm, natsional-sotsializm);

– axborot manbalarining to‘laligicha hokimiyat qo‘lida to‘planishi. Ijtimoiy fikr yo‘qotilib, aholining siyosiy madaniyati siyosiy axborotlardan xabardorlik bilan almashinadi. Kishilar ongida yarashish mumkin bo‘lmagan dushman obrazini yaratish kuchaytiriladi, g‘oyaviy muxoliflar dushman sifatida baholanadi;

– davlat mavqeyining kuchayib, har qanday shaxsiy hayotni bartaraf etishga intilish. Totalitarizmning asl maqsadi – fuqarolik jamiyatining har qanday ko‘rinishlarini yo‘q qilishdir. Inson siyosatdan mutlaqo begonalashganligiga qaramay siyosat subyekti sifatida baholanaveradi;

– yagona hukmron partiyaning davlat apparati bilan qo‘shilib ketishi natijasida vujudga kelgan partiya nomenklaturasining jamiyatni boshqarishi;

– fuqarolar huquq va erkinliklarining maksimal darajada kamsitilishi;

– ijtimoiy nazorat va zo‘rlik apparatining kuchayishi, markazlashgan iqtisodiyot, mulkchilikda davlat mulkining ustunligi;

– hokimiyatning barcha darajalarda nomenklaturaning yopiq kanallari orqali shakllantirilishi;

– hokimiyat bo‘linishi prinsipining amalda bekor qilinganligi.

Jahon siyosiy tarixida totalitar siyosiy tizimning ko‘rinishlari sifatida kommunizm (1918-yilda Rossiyada umumiy belgilari shakllangan edi), fashizm (1922-yilda Mussolini tomonidan Italiyada o‘rnatilgan edi) va natsional-sotsializm (1933-yilda Germaniyada vujudga keldi) qayd etiladi.

Totalitarizm ijtimoiy turg'unlik va regressni, fuqarolar passivligini paydo qilishini, davlat va partiya apparatini degradatsiyaga, ma'naviy aynishga olib borishini yuqorida qayd etilgan mamlakatlar tarixi yaqqol isbotladi.

O'tish holatidagi jamiyatlarda (totalitarizm yoki avtoritarizmdan demokratiyaga yoki aksincha) o'tish davri siyosiy tizimlari shakllanadi. Bunday siyosiy tizimlar siyosiy institutlarning zaifligi bilan, oxlokратиya, ya'ni olomon hokimiyati xavfi namoyon bo'lishi bilan, siyosiy his-tuyg'ularning jilovlanmaganligi bilan, ijtimoiy guruhlarining o'z g'oyaviy-siyosiy yo'llarini yo'qotganliklari (yo'qotishlari) va boshqa holatlar bilan ajralib turadi.

Ayrim siyosatshunoslar siyosiy tizimlarni ulardagi markazlashuv darajasi, hurfikrlilik, plyuralizm va siyosiy hayotning demokratlashganligi darajasiga ko'ra sifatlab, quyidagi tiplarga ajratadilar:

1. Marksistik siyosiy tizimlar (siyosiy tizimlarni bir-biriga keskin qarama-qarshi qo'yadi).

2. Demokratik siyosiy tizimlar (fuqarolarning hokimiyat ustidan nazoratini ta'minlovchi mexanizm mavjud bo'ladi).

3. Modernizatsiyalashgan siyosiy tizimlar (rivojlangan fuqarolik jamiyati, hokimiyat asoslanganligining ratsional usuli mavjud bo'ladi).

4. An'anaviy siyosiy tizimlar (siyosiy an'analarga sodiqlik, hokimiyatning monarxiya shakli va h.k.).

5. O'tish davri siyosiy tizimlari (bunday tizim negizida rivojlanmagan fuqarolik jamiyati, siyosiy rollarning zaif tabaqalashtirilganligi, hokimiyatning xarizmatik usulda asoslanganligi, siyosiy institutlarning zaif rivojlanganligi yotadi).

Shunday qilib, jamiyatning siyosiy tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy sharti bo'lib, murakkab va ko'p qirrali bu mexanizmning samarali faoliyat ko'rsatishidan jamiyat, undagi har bir ijtimoiy guruh va individ manfaatdordir.

3. O'zbekistonda o'tish davri siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Jamiyatdagi ijtimoiy-sinfy kuchlar joylashuvidagi o'zgarishlar oqibatida jamiyatning siyosiy tizimi ham o'zgarishlarga yuz tutadi.

Eski siyosiy tizim o'rniga yangi siyosiy tizimning kelishini o'zida ifodalagan siyosiy hayot davri G'arb siyosatshunosligida «konstitutsiyaning qaytadan butunlay ko'rib chiqilishi, o'zgartirilishi», deb aytiladi. Davlatning konstitutsiyasi siyosiy hokimiyatni, uning institutlarini demokratik tarzda legitimlash usuli sifatida maydonga chiqadi. Yangi siyosiy tuzumning qay darajada hayotiy va mustahkam bo'lishi shakllantirilayotgan siyosiy institutlarning jamiyat ehtiyojlariga qanchalik muvofiq kelishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

O'tish davrining klassik yo'lini o'z boshidan kechirgan mamlakatlarning (AQSH, G'arbiy Yevropa) aksariyat qismi o'z mustaqilligiga to'la ega bo'lgan holda yangi jamiyatga o'tish jarayonini amalga oshirgan edilar. O'tishning inqilobiy yo'lidan borgan mamlakatlarda esa (sobiq sotsialistik tizimga kirgan Sharqiy Yevropaning ayrim mamlakatlari) demokratik tamoyillarning bir qator kurtaklari eski tizim sharoitida shakllangan edi.

O'zbekistonda, shuningdek, sovetlardan keyingi makonda tashkil topgan boshqa davlatlarda ham demokratik siyosiy tizimga, yangi jamiyatga o'tish bir qator xususiyatlarga ega ekanligini nazardan soqit qilmaslik lozim. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston amalda sobiq markazga qaram holatdan mustaqillikka erishish bilan o'tish davrini boshladi. Totalitarizm tizimi qudratli kuch sifatida o'z ta'sirini barcha sohalarga o'tkazgan, buning ustiga hali totalitarizm illatlaridan batamom qutula olmagan ijtimoiy ong sharoitida demokratik jamiyatga o'tishning eng maqbul yo'li sifatida o'tishning evolyutsion, ya'ni bosqichma-bosqich yo'li tanlandi.

Xo'sh, totalitarizmdan demokratiyaga o'tayotgan o'tish davri siyosiy tizimlari oldida qanday vazifalar ko'ndalang turadi?

O'tish davrida yangi jamiyatning mexanizmlari va asoslari vujudga keltiriladi. Xususan, siyosiy sohada bu davrda eski davlat hokimiyati va boshqaruv tizimi tugatiladi, yangi jamiyatning huquqiy bazalari vujudga keltiriladi va shu asosda davlat hokimiyati hamda boshqaruv tizimi shakllantiriladi. Iqtisodiy sohada eski iqtisodiy tizim tugatilib, inson manfaatlariga xizmat qiluvchi, uning qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi va erkin faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi bozor munosabatlariga o'tishning shart-sharoitlari,

huquqiy asoslari yaratiladi va asta-sekin ularni real hayotga tatbiq etish amalga oshiriladi. Ma'naviy-mafkuraviy sohada esa eski tuzumga xizmat qilgan, insonlar ongi va qalbiga zo'ravonlik bilan kiritilgan totalitar mafkura va dunyoqarashdan ozod bo'linadi hamda yangi demokratik jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy salohiyati vujudga keltiriladi. Jamiyatda fikrlar xilma-xilligi tamoyilining ustuvor bo'lishiga erishiladi.

Mustaqillikka erishilgach, yuqorida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekistonda totalitar siyosiy tizimdan mutlaqo farq qiluvchi demokratik siyosiy tizimning shakllanish jarayoni boshlandi.

Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek, O'zbekistonda o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991–2000-yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o'tish davri tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'ldi.

2001-yildan 2007-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi¹.

Yangi davlat va jamiyat qurishda: 1) iqtisodiyotning mafkura radan xoliligi va uning siyosatdan ustunligi; 2) eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi; 3) qonun ustuvorligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat; 5) islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat o'zini to'la oqlagan besh tamoyil asos qilib olindi.

Mamlakatni isloh qilish va milliy davlatchilik poydevorini yaratish uchun, *avvalo*, Asosiy qonun – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. *Ikkinchidan*, murakkab o'tish davrida qabul qilingan qonunlarning amalda bajarilishini ta'minlay oladigan, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т., 2007. – В. 5.*

qodir bo'lgan ijro hokimiyatining samarali tizimi yaratildi.

Siyosiy tizimni shakllantirishda milliy davlatchilik negizlariga tayanish va an'analarni hisobga olish natijasida hokimlik institutining tarixiy-siyosiy qadriyat sifatida tiklanishi, ko'ppartiyaviylikning shakllanishi, o'z-o'zini boshqaruv organi – mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilganligi, milliy parlament – Oliy Majlisning ikki palatali qilib shakllantirishi, saylov tizimiga ko'p mandatlik, muqobillik, ko'ppartiyaviylikning chuqur kirib borayotganligi, jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tuzilmalarining o'zni tobora oshib borayotganligi islohotlar jarayonining tarkibiy qismlaridir.

Uchinchidan, sudlarni jazolovchi va faqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi organdan qonun ustuvorligini va inson huquqlari himoyasini ta'minlovchi organga aylantirishga qaratilgan yaxlit sud hokimiyati tizimi shakllantirildi. Jumladan, sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq etilishi natijasida sudlar ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi. 2008-yil 1-yanvardan mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi, shuningdek, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi.

To'rtinchidan, mamlakat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, konstitutsiyaviy tuzumni ishonchli himoya qiladigan, jamoat tartibini ta'minlaydigan, xalqaro terrorchilik, ekstremizm va narkoagressiya kabi kuchayib borayotgan xavf-xatarlarga qarshi kurashadigan milliy xavfsizlik organlari tizimi yaratildi. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik Konsepsiyasi to'g'risida»gi qonunlar mamlakatimizda xavfsizlikni ta'minlashning yaxlit tizimi faoliyatini yo'lga qo'yishda huquqiy baza bo'ldi. Shuningdek, Qurolli Kuchlarni boshqarishning butun tizimi isloh qilinib, qo'shinlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, o'ta muhim jangovar topshiriqlarni bajarishga yo'naltirilgan Maxsus operatsiyalar bo'yicha kuchlarning

bo'linmalari, Mudofaa vazirligi huzuridagi Terrorizmga qarshi kurash korpusi tuzildi. Bu bo'linmalar ehtimol tutilayotgan dushmanning har qanday tajovuzkorona harakatlariga qarshi munosib zarba berishga qodir qudratli kuch ekani Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarining tog'li tumanlariga suqilib kirgan xalqaro terrorchilarning jangari to'dalarini yo'q qilish bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarda namoyon bo'ldi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bozor iqtisodiyotining asoslari, uning talablariga javob berdigan moliya va bank tizimi shakllantirilib, milliy valyuta muomalaga kiritildi.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlodni tayyorlash maqsadida 1997-yili 2009-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi hamda uzluksiz ta'limning 12 yillik yaxlit tizimiga o'tildi. Oliy ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi, bakalavr va magistrlar tayyorlashning Yevropa tizimiga o'tildi. Hozirgi davrda O'zbekistonning 65 ta oliy o'quv yurtida 850 yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha 300 mingga yaqin talaba bilim olmoqda¹.

Amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda. Bu davrda mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali qilib shakllantirildi. Quyi palata – Qonunchilik palatasi, yuqori palata – Senat deb ataldi. Bu ikki palataning shakllanish jarayoni, ya'ni ularni saylash tartibi har xil bo'lib, Qonunchilik palatasi deputatlari majoritar («majoritar» fransuzcha majoritaire – ko'pchilik) saylov tizimiga muvofiq hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyalilik asosida saylanadi. Bunday saylov, avvalo, fuqarolarimizning siyosiy faolligi oshishiga olib keladi, qolaversa, ko'ppartiyalilik tizimining yanada takomillashishiga sharoit yaratadi. Qonunchilik palatasi a'zolari

¹ Каримов И. А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т., 2007. – В. 26.

bevosita xalq tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Senat esa, aksincha, bilvosita, ikki pog'onali saylovlar asosida shakllanadi. Ya'ni, joylardagi davlat hokimiyati vakillik organlariga navbatdagi saylov o'tkazilganidan keyin kechi bilan bir oy ichida viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlarining qo'shma majlislarida yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan olti nafardan Senat a'zosi saylanadi.

Ana shu 84 senatoridan tashqari, Senatning yana 16 nafar a'zosi davlat rahbari — Prezident tomonidan tayinlanadi. Bu ham jahon amaliyotidan kelib chiqqan va xalqaro andozalarga to'g'ri keladigan qoidadir.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy — nima uchun ushbu senatorlarni Prezident tayinlaydi?

Buning sababi shuki, hududiy vakillik palatasi bo'lmish Senatning a'zolari o'zlari mansub hududlarning manfaatlarini himoya qilish jarayonida mahalliychilik, subyektivizmga yo'l qo'yishining oldini olish va umumdavlat manfaatlarini ta'minlash maqsadida fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli hamyurtlarimiz orasidan tayinlanadigan senatorlar Senat faoliyatida o'ziga xos balansni, ya'ni muvozanatni saqlab turishga xizmat qiladilar.

Qonunchilik palatasi deputatlari Oliy Majlisda doimiy ravishda ishlaydi. Senatorlar esa vaqti-vaqti bilan chaqiriladigan Senatning yalpi majlislarida, qo'mita va komissiyalar majlislarida ishtirok etish asnosida faoliyat yuritadi. Senat Qonunchilik palatasi tayyorlagan qonunni ko'rib chiqib ma'qullaydi yoki rad etadi. Qonunchilik palatasi a'zolari o'z saylovchilari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Senat a'zolari esa ko'proq mahalliy kengashlar bilan aloqadorlikda ish ko'radi, chunki ular aynan mahalliy kengashlarning qo'shma majlislarida saylanadilar.

Mamlakatimiz siyosiy tizimini yanada takomillashtirishda Prezident I. A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28–29-yanvardagi qo'shma majlisidagi ma'ruzasi ham nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega

bo'ldi. Ma'ruzada davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi asosiy vazifalar: parlament roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazish, nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirini kuchaytirish; sud — huquq tizimini isloh qilish va liberallashtirish, matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, senzurdan xalos bo'lish, axborot erkinligini ta'minlash, aholining ijtimoiy — siyosiy faolligini oshirish, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiyaga qarshi kurashda ichki ishlar idoralari xodimlarining vazifalari belgilab berildi¹.

Amalga oshirilayotgan demokratik siyosiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida siyosiy tizimning asosiy elementi — davlat markaziy o'rinni egallagani oqilona yo'l bo'lganligini tajriba tasdiqlamoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi mamlakatlarning ko'pchiligida (Rossiya, Gruziya, Tojikiston) mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy parokandalik ro'y bergani ma'lum. O'zbekistonda ham shunga o'xshash jarayonlarning dastlabki belgilari ko'rinishi bilanoq, aynan davlat to'g'ri va oqilona yo'ldan borib, noxush holatlarga o'z vaqtida barham berdi.

O'zbekistondagi siyosiy islohotlar jarayonida siyosiy tizim elementlari orasida davlatdan keyin siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari ham o'z o'rinlariga ega.

Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy qatlam va guruhlar manfaatlarini ifoda etib, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda ishtirok etadilar yoki hokimiyatga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Siyosiy partiyalar tizimi bir partiyaviylik, ikki partiyaviylik va ko'ppartiyaviylikdan iborat bo'lib, hozirgi zamonda ko'ppartiyaviylik tizimi demokratik rivojlanish talablariga ko'proq darajada mos kelishi qayd etilmoqda. Shu jihatdan 2007-yilda qabul qilingan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy

¹ *Каримов И.А.* Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир // *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — В. 174–222.

qonun huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish sari tashlangan yangi bir muhim qadam bo'ldi.¹

Jamoat tashkilotlariga kasaba uyushmalari, yoshlar, ijodiy, madaniy, ilmiy va boshqa tashkilotlar kiradi. Ularning davlat va siyosiy partiyalardan farqlari quyidagilarda ko'rinadi:

– davlat maqomiga ega emaslar, siyosiy hokimiyat uchun kurash olib bormaydilar;

– mamlakat aholisining barcha qismlarini o'zlarida birlashtiradilar;

– ularning qaror va hujjatlari barcha aholi uchun majburiy emas;

– ular siyosiy maqsadlarni emas, balki ma'lum guruhlarining moddiy, madaniy, ijodiy va ilmiy sohadagi manfaatlarini qondirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar.

O'tish davri vazifalarini hal etishda, jamiyat siyosiy hayotida demokratiyaning shakllanishi va real hayotga tatbiq qilinishida fuqarolarning siyosiy faolligi katta ahamiyatga ega. Chunki fuqarolarning siyosiy ishtiroki jamiyat hayotida siyosiy munosabatlarni yangi bosqichga ko'taradi va siyosiy tizimni takomillashtiradi. Shuning uchun O'zbekistondagi o'tish davri siyosiy tizimining istiqboli, avvalo, zamonaga moslashgan va unga xos milliy istiqbol mafkurasi jamiyat fuqarosining e'tiqodiga aylanib qolishini va uni hech qanday kuch yenga olmaydigan darajaga ko'tarishni talab qiladi. Bunda bizningcha, «Milliy vijdon» va «Vataniy axloq» millatning har bir vakilining, har bir fuqaroning shuuriga singishi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy vijdoni uyg'ongan va Vataniy axloqi yuksak bo'lgan millatni hech qanday ichki yoki tashqi dushman yenga olmaydi va bunday millat jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga, obro'siga ega bo'ladi.

Bugungi O'zbekistonning siyosiy tizimi oldida muhim vazifalardan yana biri jamoatchilik fikrini inobatga olish, uni amalga oshirish mexanizmini yaratishdir. Chunki, siyosiy tizimning normal faoliyati uchun «ko'zgu» kerak. Bu «ko'zgu» rolini jamoatchilik fikri o'ynaydi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги Конституциявий қонуни. // Xalq so'zi. – 2007. —12-apr. — №71.

Xullas, jamiyat siyosiy tizimining muntazam takomillashib borishi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy shartidir. Chunki kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari odimlashda jamiyat hayotida fuqarolar faol ishtirokining kuchayib borishi obyektiv zaruriyatga aylanadi.

Tayanch tushunchalar

Siyosat, siyosiy munosabatlar, formatsion, funksional, kommunikativ yondashuvlar, siyosatning totalitar, anarxistik, liberal, keynscha konsepsiyalari, siyosatning maqsad va vazifalari, subyekt, obyekt, sotsial daraja, institutsional daraja, funksional daraja, tashqi siyosat, ichki siyosat, xalqaro siyosat, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, harbiy siyosat, demografik siyosat, yoshlar siyosati, talabalar siyosati, agrar siyosat, ta'lim siyosati, texnik siyosat, ilmiy siyosat, huquqiy siyosat, ekologik siyosat, konflikt, konsensus, kompromiss, sherikchilik, konsolidatsiya, integratsiya, siyosiy tizim, tashkiliy tizim, madaniy-ma'quraviy tizim, me'yoriy (normativ) tizim, axborot-kommunikatsiya tizimi, siyosiy rejim, Qonunchilik palatasi, Senat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Siyosat» tushunchasining keng va tor ma'nolarini izohlang.
2. «Maqsadlar birligining paydo bo'lishi siyosat ibtidosining paydo bo'lishi demakdir» jumalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Siyosatning kelib chiqishiga oid yondashuvlar mohiyatini tushuntiring.
4. Siyosatning totalitar, anarxistik, liberal va keynschilik konsepsiyalari uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalarini qanday izohlaydi?
5. Siyosat ijtimoiy hayotda qanday o'rin tutadi? Uning mohiyati, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
6. Siyosat o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirishda qanday usullardan foydalanadi?
7. Siyosatning subyektlari va obyektlari mazmuni, ularning o'zaro munosabatlari mohiyatini tushuntiring.

8. Har qanday inson har doim ham siyosatning subyekti hisoblanadimi?
9. Siyosatshunoslikda siyosat subyektlarining qaysi darajalari o‘zaro farqlanadi?
10. Siyosat turlari, yo‘nalishlari va shakllari mohiyatini tushuntiring.
11. Siyosatda integratsiya va differentsiatsiya jarayonlari qanday natijalarga olib keladi?
12. Siyosiy tizimning mohiyati va vazifalari nimalardan iborat?
13. Siyosiy tizimning barqarorligi qanday omillarga bog‘liq?
14. Siyosiy tizimni tashkil etuvchi qaysi kichik tizimlarni bilasiz?
15. «Siyosiy rejim», «totalitarizm», «avtoritarizm» atamalarining ma’nolarini izohlab bering.
16. Demokratik, avtoritar va totalitar siyosiy tizimlar qaysi xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi?
17. Totalitarizmdan demokratiyaga o‘tishning klassik (mumtoz), inqilobiy va evolyutsion yo‘llari qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
18. O‘tish davri siyosiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
19. O‘zbekistonda demokratik siyosiy tizimni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan siyosiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntiring.

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2008. – Б. 15–36.

Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат ташкилотлари тўғрисида»ги 1991 йил 15 февраль қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – Т., 1991. – №4; 1992. №9. – 363-м.; 1997. – №4–5. 126-м.; 1998. – №3. – 38-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий принциплари тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. – Т., 1997. – №2.

Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш

тўғрисида»ги Конституциявий қонуни // Халқ сўзи. — 2007. — 12 апр. — №71.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. — Т., 1998. — Б. 31–261.

Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. — Т., 1996. — Б. 370–404.

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т.8. — Т., 2000. — Б. 479–488.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 156–173.

Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари — энг олий қадрият. Т. 14. — Т., 2006. — Б. 61–97.

Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш — барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. Т., 2007. — Б. 320.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. Т., 2008. — Б. 368.

Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Т., 2008. — Б. 176.

Бобоев А. Дўстлик ва қардошлик ришталари мустаҳкам // Халқ сўзи. — 2006. — 5 сент. — №174.

Исмоилов Н. Сайлов тизимини янада эркинлаштириш ва демократлаштириш йўлида // Халқ сўзи. 2008 й. 6 декабрь №237.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. — М., 2000. — С. 7–29, 201–219.

Қодиров А. Қ. Сиёсат фалсафаси: Монография. — Т., 1999. — Б. 30–43.

Политология: Ўқув қўлланма // *С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров* — Т., 1999.

Политология: Маърузалар магни /Тақризчилар: *В.С. Ким, Ж. Бахронов*. — Т., 2000. — Б. 41–62.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. — Т., 2004. — Б. 64–82, 184–201.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. — Т., 1997. — Б. 40 — 57, 76–91.

Темур тузуклари / Масъул муҳаррир *Б. Аҳмедов*. — Т., 1991. — Б. 3–16.

SIYOSIY HOKIMIYAT VA KO'PPARTIYAVIYLIK

1. Siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirish mexanizmi. Legitimlik tushunchasi

Siyosatshunoslik kategoriyalari orasida markaziy o'rinni egallovchi hokimiyat tushunchasi jamiyat va siyosatning negizlaridan biridir. Hokimiyat boy va xilma-xil shakllarda, darajalarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisa bo'lib, u odamlarning barqaror uyushmalari: oilada, ishlab chiqarishda, turli tashkilot va muassasalarda, shuningdek, davlatda mavjud.

Hokimiyatning eng asosiy va o'ziga xos ko'rinishlaridan biri – siyosiy hokimiyatdir. Siyosiy hokimiyat – siyosat subyektlarining siyosatda ifodalangan irodasini turli yo'llar, usullar va vositalar yordamida amalga oshirish faoliyatining o'ziga xos shaklidir. U jamiyat hayotida alohida o'rinni egallaydi. Bu shu bilan belgilanadiki, siyosiy hokimiyat jamiyat va davlat hayotini bir butunligicha va yaxlitligicha qamrab oladi, uni yo'naltiradi hamda tartibga soladi, hokimiyatning boshqa ko'rinishlarini birlashtiradi, ularni xalq manfaatlariga bo'ysundiradi.

Jamiyat hayotini siyosiy hokimiyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki usiz jamiyatda tartibsizlik, bosh-boshdoqlik, o'zbo-shimchalik boshlanadi. Shuning uchun ham siyosiy hokimiyatning asosiy maqsadi – jamiyat va davlat hayotini tartibga solish hamda boshqarishdir.

Demak, siyosiy hokimiyat u yoki bu vosita: obro', huquq, zo'rlik yordamida o'z irodasini amalga oshirish, jamiyat xulq-atvoriga belgilovchi ta'sir ko'rsatishning usul va imkoniyatlari-dir.

Siyosiy hokimiyat bir qator belgilarga ega bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

– *legalligi*, ya'ni davlat miqyosida oshkora, ochiq ravishda kuch ishlata olishi;

– qarorlarining har qanday boshqa hokimiyat uchun *majburiyligi*, istagan ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishi.

Siyosiy hokimiyatning qudratli korporatsiyalar, OAV va boshqa muassasalarning ta'sirini, agar bu ta'sir qonunga zid bo'lsa, cheklashi yoki ularni umuman tugatishi mumkinligi;

– *ommaviyligi*, ya'ni umumiyliги va shaxssizligi. Buning ma'nosi shuki, siyosiy hokimiyat kichik, kontakt guruhlarida bo'ladigan shaxsiy hokimiyatdan farqli o'laroq, huquq yordamida barcha fuqarolarga butun jamiyat nomidan murojaat qila oladi;

– *bir markazlilik*, ya'ni qarorlar qabul qilishda monotsentrik, yagona markazning mavjudligi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-axborot hokimiyatlari politsentrik, ya'ni ko'p markazlidir. Bunda ko'plab mustaqil mulkdorlar, OAV, ijtimoiy fondlar va boshqalar mavjud bo'ladi;

– siyosiy hokimiyat *imkoniyatlarining* (resurslari) *xilma-xiligi*. Keng ma'noda hokimiyat imkoniyatlari individ yoki guruh boshqalarga ta'sir etish uchun foydalanadigan barcha narsani anglatadi. Tor ma'noda esa subyektning hokimiyat obyektiga ta'sir etishini ta'minlashda qo'llaniladigan barcha vositalar tushuniladi. «Ijtimoiy ayirboshlash» nazariyasiga (P. Blou va boshqalar) ko'ra hokimiyat asosida noyob imkoniyatlarning tengsiz taqsimoti yotadi. Imkoniyatlarga ega bo'lmagan shaxslar ularni bunga ega bo'lgan kishilarning farmoyishlarini (buyruqlarini) bajarishga almashtirishdan oladilar. Bu bilan ayrimlar boshqalarga bog'liq holga tushib qoladilar, ularga bo'ysunadilar.

Siyosiy hokimiyat o'z faoliyatida nafaqat majburlovchi, balki iqtisodiy, madaniy-axborot imkoniyatlari kabi hokimiyat manbalaridan ham foydalanadi. Jumladan: *iqtisodiy imkoniyatlar* – ijtimoiy va shaxsiy ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar, ularning umumiy ekvivalenti bo'lgan pul, texnika, unumdor yerlar, foydali qazilmalar ustidan nazorat qilish, turli-tuman moddiy boyliklarga egalik qilishni anglatadi. Jamiyat taraqqiyotining nisbatan tinch davrlarida hokimiyatning bu imkoniyatlari uning boshqa imkoniyatlariga nisbatan ustuvorlik kasb etadi. Sababi, iqtisodiy nazorat – bu inson hayotining biror sohasini shunchaki nazorat qilish emas, balki jamiyatning barcha maqsadlariga erishish vositalari ustidan nazorat qilishdir.

Ijtimoiy imkoniyatlar – ijtimoiy zinapoyadagi o'rinlar,

vakolatlar, darajalar, lavozimlar, imtiyozlarni taqsimlash qobiliyatini anglatadi. Albatta, bu taqsimotda iqtisodiy imkoniyatlarning ham muayyan ta'siri bor. Masalan, daromad yoki boyluk iqtisodiy imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, ijtimoiy maqomni (status) ham tavsiflaydi. Biroq ijtimoiy imkoniyatlar amal, obro'e'tibor, ma'lumot, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minot kabi ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi.

Jamoatchilik fikri hokimiyati (ijtimoiy hokimiyat) demokratik siyosiy tizimda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun hozirgi zamon rivojlangan davlatlari kuchli ijtimoiy imkoniyatlarga egadirlar. Ular bunday imkoniyatlar yordamida aholi keng qatlamlarining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsata oladilar.

Madaniy axborot (informatsion) imkoniyatlari — bilim va axborotlar, ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, OAV va boshqalardir. Hozirgi kunda ilg'or mamlakatlarda ma'naviy ta'sir etishning barcha ko'rinishlari orasida ilmiy axborot imkoniyatlari birinchi o'ringa chiqmoqda. Bilimdan hokimiyat qarorlarini tayyorlashda, kishilarning onigiga bevosita ta'sir etishda keng foydalanilmoqda. Bunday ta'sir ijtimoiylashuv muassasalari (ta'lim, OAV) orqali amalga oshirilmoqda.

Majburlash (kuch ishlatish) imkoniyatlari — qurol, jismoniy majburlash va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilar institutlaridir. Davlatda uning negizini armiya, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ularning imkoniyatlari tashkil etadi. Shu narsa diqqatga sazovorki, hozirgi zamonga xos siyosatning demokratlashuvi jarayonida an'anaviy kuch va boyluk o'zining ilgarigi ta'sirini yo'qotmoqda.

Demografik imkoniyatlar — bu odamlar. Chunki ular orqali iqtisodiy, siyosiy, madaniy-axborot imkoniyatlari ishlab chiqiladi.

Hokimiyat turlari yuqorida qayd etilgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda turkumlanadi. Boshqacha aytganda, siyosiy hokimiyat jamiyatda yakka holda emas, balki hokimiyatning quyidagi turlariga tayangan holda harakat qiladi:

— *iqtisodiy hokimiyat* iqtisodiy imkoniyatlar ustidan nazoratni, turli moddiy ne'matlarga egalikni;

– *ijtimoiy hokimiyat* ijtimoiy zinapoyadagi mavqe (maqom, amal, imtiyozlar)ni;

– *madaniy axborot hokimiyati* bilimlar, axborotlar va ularni tarqatish vositalari yordamida kishilar ustidan hukmronlik qilishni;

– *majburlash hokimiyati* esa jismoniy kuch ishlatish yoki qo'llash tahdidi asosida odamlarni nazorat qilishni bildiradi.

Hokimiyat turlari yuqorida qayd etilganlar bilan cheklanmaydi. U subyektiga ko'ra – davlat, partiya, kasaba uyushmasi, armiya, oila va boshqalar hokimiyatiga; qanday funksiyalarni bajarishiga ko'ra – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga; hokimiyat subyektini va obyektini o'zaro harakatining uslubiga ko'ra – demokratik, avtoritar va totalitar hokimiyatlarga ham bo'linadi.

Shuningdek, hokimiyat tarqalish kengligi bo'yicha – xalqaro tashkilotlarga; makrodarajada – davlatning markaziy organlariga; mezodarajada (o'rta darajada) – viloyat, tuman tashkilotlariga; mikrodarajada – boshlang'ich tashkilotlar hokimiyatlariga ajraladi.

Siyosiy hokimiyat hokimiyatning boshqa turlaridan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi.

1. Suverenitet – hokimiyatning mustaqilligi va bo'linmasligidir. Masalan, mamlakatda koalitsion hukumat va ko'p partiyali parlament bo'lgan taqdirda ham siyosiy hokimiyat turli siyosiy kuchlarning kelishilgan siyosati orqali amalga oshiriladi.

2. Iroda – muayyan siyosiy maqsad va dasturning mavjudligi va uni amalga oshirishga qaratilgan tayyorgarlik.

3. Avtoritet – siyosiy hokimiyat subyektining ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi ta'sirining mamlakat va uning tashqarisidagi umum e'tirofi.

4. Majburlash – o'z irodasini jismoniy kuch ishlatib bo'lsa-da amalga oshirish. (Bu xususiyatni diktatura bilan aynanlashtirmaslik kerak.)

Siyosiy hokimiyat yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga to'la ega bo'lsagina, u siyosiy hokimiyat maqomiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, *siyosiy hokimiyatning maqsadi jamiyat va davlat hayotini tartibga solish hamda boshqarishdir*. Biroq siyosiy

hokimiyat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish va boshqarish fuqarolar erkinligini, qonun ustuvorligini ham ta'minlashi zarur. Shu bois, demokratik davlatda hokimiyatni tashkil etishning negizi, siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy prinsip sifatida *hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga* rioya qilinishi lozim. Zero, A. Gamilton aytganidek, «Odamlar hokimiyatni yaxshi ko'radilar, hokimiyatni ko'pchilikka bering, ular ozchilikni eza boshlaydilar, hokimiyatni ozchilikka bering, ular ko'pchilikni eza boshlaydilar. Shuning uchun ham hokimiyat ular o'rtasida teng bo'linishi va shunday bo'linishi kerakki, toki har ikki tomon o'zini boshqasidan himoya qila olsin». Hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini nazariy jihatdan asoslab bergan mutafakkirlar Jon Lokk va Sharl Lui Monteskyolar qayd etganidek, buning uchun davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi kerak. Hokimiyatni suiiste'mol qilish imkoniyati bo'lmasligi uchun shunday tartib o'rnatilishi kerakki, unda turli hokimiyatlar o'zaro bir-birini tutib turishlari kerak.

Hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining qoidalari 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasida, keyinchalik fransuzlar qabul qilgan «Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi»da, bugungi demokratik davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham aks etgan.

Siyosiy hokimiyat yaxlit va bir butun ijtimoiy hodisa bo'lib, **subyekt** va **obyekt** uning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Subyekt – hokimiyatning faol yo'naltiruvchi qismi. U alohida inson, ijtimoiy guruh, kishilarning birligi, masalan, xalq yoki hatto BMTga birlashgan jahon hamjamiyati, davlat institutlari va siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin.

Hokimiyat subyektlari ko'p pog'onalidir. Masalan: 1) individlar va ijtimoiy guruhlar – boshlang'ich pog'onadagi subyektlar; 2) siyosiy tashkilotlar – o'rta pog'onadagi subyektlar; 3) siyosiy elita va liderlar – yuqori pog'onadagi subyektlar.

Biroq har qanday inson hokimiyatning subyektini bo'lavermaydi. Avvalo, hokimlikka nisbatan xohish-istak zarur. Ko'pchilik kishilar hokimiyatga egalik qilishdan ruhiy qoniqish his etmaydilar. Agar hokimiyat turli imtiyozlarni olish uchun keng imkoniyatlar ochib bermaganida edi, umuman rahbarlik lavo-

zimlaridan va ular bilan bog‘liq bo‘lgan mas‘uliyatdan ko‘plar o‘zlarini olib qochgan bo‘lur edilar. Ular uchun hokimiyatga intilish instrumental xarakterga ega, ya’ni boshqa bir maqsadlarga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Obyekt – hokimiyatning ikkinchi muhim elementi. Chunki hokimiyat obyektning tobeligisiz mavjud bo‘la olmaydi. Agar bunday tobelik bo‘lmasa, subyekt hukmdorlik irodasiga va hatto majbur qilishning kuchli vositalariga ega bo‘lishiga qaramasdan, hokimiyat ham bo‘lmaydi. Shuning uchun ham obyekt hokimiyat subyekti qarorlarining bevosita bajaruvchisi bo‘lib, usiz hokimiyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Obyektga individ, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat kiradi. Nazardan soqit qilmaslik kerakki, jamiyatda, siyosiy hokimiyat tarkibida kishilarning subyekt va obyekt, boshliq va ijrochiga bo‘linishi nisbiy va o‘zgaruvchandir. Ayrim munosabatda shaxs boshliq bo‘lib, boshqasida ijrochi bo‘lib chiqishi, vaqti-vaqti bilan individlar rollarini almashtirishlari ham mumkin.

Xullas, hokimiyat obyektining sifati, faolligi jamiyatning siyosiy madaniyati bilan belgilanadi. Bu madaniyat qanchalik yuqori bo‘lsa mustabid tuzumga ehtiyoj shunchalik kam bo‘ladi.

Siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi murakkab jarayon bo‘lib, u to‘rt tarkibiy qism – rahbarlik, boshqarish, tashkilotchilik va nazoratni o‘z ichiga qamrab oladi.

Rahbarlik – jamiyat hayotidagi prinsipial ahamiyatli qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish, qarorlarning maqsadi, vazifalarini, natijalarini aniqlashdir.

Boshqarish – amaliy faoliyat bo‘lib, uni odatda, ma’muriy apparat bajaradi.

Tashkilotchilik – qabul qilingan qarorlarni amaliy faoliyatda bajarishda alohida odamlar, guruhlar, muassasa va tashkilotlarning kelishuvini, o‘zaro aloqasini tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Nazorat – odamlar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ijtimoiy normalarga rioya qilinishini amalga oshiradi.

Hokimiyatni o‘z vazifasini bajarishga qobiliyatli qilish uni muassasalashtirishni, siyosiy hukmronlik shakli sifatida mustahkamlashni taqozo etadi. Hukmronlik – bu siyosiy tartibot

bo'lib, bunda ayrimlar buyruq beradi, boshqalari esa bo'ysunadi, buyruq beruvchilar bo'ysunuvchilarning demokratik nazorati ostida ham bo'lishi mumkin. Siyosiy hukmronlikning muqobili — jamiyatni o'z-o'zini boshqarish asosida tashkil etish hisoblanadi. Lekin bunday boshqarishning yaqin kelajakda amalga oshishi gumondir.

Siyosiy hokimiyatning hukmronligi fuqarolar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Aholining hokimiyatga ijobiy baho berishi, uning qonunga muvofiqligini, boshqarish huquqini tan olishi va ixtiyoriy tarzda bo'ysunishga roziligi hokimiyatning legitimligini bildiradi. «Legitimlik» atamasi (lot. leg, legitimus — «qonun») «qonuniylik», «qonunlashtirilganlik» ko'rinishida tarjima qilingan. Bunday tarjima unchalik aniq emas. Chunki bunday tarjima ko'proq «legallik» atamasi mazmuniga mos keladi. Shuning uchun legitimlik va legallik aynan bir xil tushunchalar emas. Legallik hokimiyatning huquqiy asoslanishini, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini, qonunga mos ravishda faoliyat ko'rsatishini anglatadi. Shu ma'noda legallik nolegitim hokimiyatlarga ham xosdir. Legitimlik esa — bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qo'llab-quvvatlashdir. Fuqarolar tomonidan bunday tan olinishga hamma siyosiy hokimiyatlar ham erisha olmaydi.

Maks Veber fikricha¹, siyosiy hokimiyat, o'z legitimligiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. *An'anaviy legitimlik* azaldan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi va muqaddasligiga bo'lgan ishonchga, hokimiyatga bo'ysunishlik urf-odatlariga binoan qaror topadi. Uning negizini siyosiy an'analarga, urf-odatlariga ishonch tashkil etadi. Bunday hukmronlikning sof ko'rinishi patriarxal hukmronlikdir. Veber uni tuzilishiga ko'ra oilaga o'xshatadi. Hokimiyatning ushbu turida lavozimga tayinlashda intizom yoki o'z sohasidan yaxshi xabardorlikdan ko'ra shaxsiy sadoqat muhim xislat hisoblanadi. An'anaviy legitimlik monarxiyalarga xos xususiyatdir. Bunda ko'p asrlik an'analarga, hokimiyatning meros tariqasida o'tishiga,

¹ Вебер М. Избранные произведения. — М., 1990. — С. 645–646 // Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. — М., 2000. — С. 171–172.

fuqarolarning hukmdorlarga soʻzsiz boʻysunishlariga asoslaniladi.

2. *Xarizmatik legitimlik* (yunon tilida «charisma» – xudo tomonidan inʼom etilgan ilohiy qobiliyat) shaxsning haddan tashqari ilohiy qobiliyatiga, favqulodda isteʼdodiga, yaʼni xarizmasiga ishonishga asoslanadi. Uning negizini tarixiy anʼanalar emas, balki xalqning muayyan shaxsga nisbatan cheksiz ishonchi tashkil etadi. Xalq liderni oʻz dohiysi sifatida qabul qiladi. Dohiy esa gunohsiz va xatosiz deb his qilinadi.

Oʻtish davri siyosiy tizimlarida hokimiyatning xarizmatik legitimligi tez-tez kuzatiladi. Har bir tarixiy davr muayyan xarizmatik turdagi legitimlikni ilgari suradi. Bundan hozirgi davr ham istisno emas.

3. *Oqilona-huquqiy legitimlik* legitimlikning mustaqil turi. U fuqarolarning alohida shaxslarga emas, balki davlat tuzilishiga boʻlgan ishonchiga asoslanadi. Uning asosini oqilona anglangan manfaatlar tashkil etadi. Bu manfaat kishilarda umumjahon tomonidan eʼtirof etilgan qoidalar boʻyicha shakllangan hukumat qarorlariga ixtiyoriy boʻysunish hissini, istagini uygʻotadi. Legitimlikning bu turi liberal hokimiyat mavjud boʻlgan jamiyatlarda qaror topadi, chunki liberal hokimiyat ijtimoiy tashkilotlar va kuchlar oʻrtasida konsensusga sharoit yaratadi.

Oqilona huquqiy legitimlik ilgʻor, demokratik davlatlarga xos xususiyatdir. Bunday davlatlarda odamlar rahbar shaxsga emas, balki qonunlarga boʻysunadilar, hokimiyat vakillari demokratik prinsiplar asosida saylanadilar va faoliyat yuritadilar. Ularda konstitutsiya asosiy huquqiy hujjat hisoblanib, ijtimoiy xulq-atvorning muayyan qoidalarini belgilab beradi. Bu qoidalarga barcha fuqarolar, shu jumladan, siyosiy rahbarlar ham amal qilishlari urfga aylanadi. Ayrim hollarda, ayniqsa, shakllanayotgan demokratiyalarda hokimiyatning legitimligi saylanuvchi tashkilotlarga boʻlgan hurmat emas, balki davlatning aniq rahbar shaxsiga nisbatan boʻlgan hurmatga asoslanishi ham mumkin. Hozirgi zamon siyosiy amaliyotida oqilona-huquqiy legitimlikni sof, mukammal tarzda uchratish qiyin, uni koʻpincha boshqa turlar bilan bogʻlangan, oqilonalikning anʼanaviylik bilan toʻldirilgan va boyitilgan holida uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hokimiyat legitimligi aholining siyosiy madaniyatiga asoslanadi va tuzumning fuqarolarning qadriyatli tasavvurlariga mos kelishini anglatadi. Ammo legitimlikka, ya'ni fuqarolar ma'qullashi va quvvatlashiga ega bo'lmagan turib, hokimiyatning samaradorligiga erishish murakkabdir. Bu esa siyosiy hokimiyatdan jamiyatdagi o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechish qobiliyatini amalda namoyish etishni talab qiladi.

2. O'zbekistonda shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirish

Mustabid tuzum va ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sobiq siyosiy tizimning barham topishi, jamiyatning demokratiyaga tomon yuz tutishi mustaqil O'zbekistonda shaxs va siyosiy hokimiyat munosabatlarini ham demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Biroq demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim omil bo'lgan bu vazifani bajarish osonlikcha kechmaydi. Buning boisi — davlat qurilishi va, ayniqsa, boshqaruvida sobiq sovet tuzumidan voris bo'lib qolgan eskicha boshqaruv tafakkuri, usullari va vositalarining qoldiqlari chuqur ildiz otganligi, hamon saqlanib qolganligidir.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, o'tish davrida bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni hayotga tatbiq etishda ko'pgina ijobiy ishlar qilindi. Biroq tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, bu masalada hali yechimini kutayotgan muammolar to'la bartaraf etilgani yo'q. Jumladan, «Demokratiya boshqaruv tizimi bilan xalq o'rtasida vertikal emas, balki gorizontaal munosabatlar bo'lishini, ma'muriy shaxsning oddiy fuqaro bilan muloqoti konstitutsiyaviy asosda va maqomda bo'lishini taqozo etadi».¹

Boshqaruv tizimidagi byurokratiya, ma'muriy-buyruqbozlik o'z-o'zidan emas, balki muayyan ijtimoiy muhit zaminida shakllanadi. Shuning uchun byurokratiya, ma'muriy buyruqbozlikning saqlanib qolishida faqat boshqaruv tizimi xodimlarini — hokimlar, vazirlar va boshqa ijro hokimiyati namoyandalarinigina

¹ Қодиров А.Қ. Ўтиш даврида демократия ва бюрократия // Нуқуқ—Право—Law. — 2000. — №2. — В. 34.

qoralash insofdan bo'lmaydi. Fuqarolar siyosiy ongining nochorligi, huquqiy madaniyat va bilimdonlikning zaifligi ham bunda muayyan rol o'ynamoqda. Buning real sabablari mavjud.

Birinchidan, sobiq tuzum ko'pchilik ongida davlat xalqdan ustun turuvchi, xalq taqdirini belgilovchi benuqson kuch, degan tushunchani shakllantirgan edi. Ikkinchidan, davlat idoralarida ishlash moddiy va ma'naviy jihatdan imtiyozlarga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratgandi. Mansabparastlik mutasaddi qatlamlarda tarbiyaning o'zak prinsiplaridan biriga aylangan edi.¹

Mustaqillik O'zbekistonda kadrlar siyosatini qayta ko'rib chiqishni, davlat idoralari uchun ma'naviy sog'lom shaxslarni tarbiyalashni, eskicha andozalardan chiqishni taqozo etdi. Zero, shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirishda ozodlikka chiqqan xalq uchun uni yuksak maqsadlar sari yetaklovchi siyosiy elitani shakllantirish muhim vazifaga aylandi.

Mustaqillikni mustahkamlashga, shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirishga xavf soladigan salbiy jarayonlardan biri aynan ma'naviy nosog'lom ma'muriy apparat, jinoyatchilik va korrupsiya keltiradigan xavf bo'lganligi uchun ham Prezident I. A. Karimov «Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarning manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yadi. Bu esa mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'lga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi»², deb qayd etgan edi.

Shuning uchun, nazarimizda, jamiyatni xatosiz boshqarishning eng yuksak tartiblari va qoidalari yaratilganda ham bu tartib va qoidalarni hayotga tatbiq eta oladigan oqilona ma'muriy apparat (siyosiy elita) bo'lmas ekan, barcha harakatlar zoye ketishi mumkin.

Siyosiy elita o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda zarur siyosiy shart-sharoitlar vujudga kelgandagina yetakchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Uni shakllantiruvchi siyosiy kuch

¹ Қодиров А.Қ. Ўтиш даврида демократия ва бюрократия // Нуқуқ—Право—Law. — 2000. — №2. — В. 34.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Т., 1997. — В. 88.

sifatida mamlakatdagi siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy muxolifat kuchlar maydonga chiqadi.

«Agar demokratiyaga intilish qog‘ozda emas, amalda bo‘lsa, siyosiy elita jamiyatda hokimiyatning taqsimlanish prinsipiga rioya qiladi, mavjud siyosiy hokimiyatga nisbatan veto va impichment institutlarini qo‘llashni quvvatlaydi, OAVning chindan ham «to‘rtinchi hokimiyat» ekanligini tan oladi va bu maqomning jamiyatda qaror topishini ta‘minlashga o‘z hissasini qo‘shadi. Oshkoralik, siyosiy munosabat va raqobatda gorizontol holatni ta‘minlash – jamiyatning demokratlashuvi talablaridandir. Siyosiy elita OAV yordamida jamiyat siyosiy hayotini oshkora, hech qanday siyosiy cheklashlarsiz (senzurasiz) mas‘uliyat bilan ommaga yetkazadi, omma kayfiyatini o‘z faoliyati uchun omil deb biladi».¹

Shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirishda muhim omil bo‘lgan yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun Prezident huzurida Davlat qurilishi va boshqaruvi Akademiyasi (1995), Adliya vazirligi qoshida Huquqshunos kadrlarni qayta tayyorlash markazi barpo etildi. Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida olib borilayotgan milliy kadrlar tizimini yangilash siyosati bu borada kutilgan samarani berishidan umid qilinmoqda.

Demokratik davlat boshqaruvi talablari parlamentning roli va ta‘sirini kuchaytirishni, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishni, nodavlat tashkilotlari va uyushmalari mavqeyining oshib borishini, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya‘ni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Yuqorida zikr etilgan maqsad va yo‘nalishlarning barchasi, avvalo, mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko‘zlaydigan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni o‘zida ifoda etadi.

Xulosa shuki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirish taraqqiyotimizni

¹ Қодиров А.Қ. Жамятни демократлаштиришда сиёсий элитанинг роли // Нуқуқ—Право—Law. — 2001. — №1. — В. 23.

ta'minlashning asosiy omiliga aylandi. Bu vazifani bajarishni izchillik bilan davom ettirish esa fuqarolik jamiyatini qurish imkoniyatini yaratadi.

3. Siyosiy partiyalarning kelib chiqishi, vazifalari va turlari. Partiyaviy tizimlar

Hozirgi zamon jamiyatlarining siyosiy hayoti murakkab, ziddiyatli va serqirrali bo'lib, unda ko'p sonli ishtirokchilar, ya'ni siyosat subyektlari ishtirok etadi. Bu ishtirokchilar orasida eng ko'zga ko'rinarli o'rinlardan birini siyosiy partiyalar egallaydi. Bugungi rivojlangan dunyoda siyosiy partiya mavjud bo'lmagan davlat borligini tasavvur qilish mushkul, deyarli barcha davlatlarda ikki yoki ko'ppartiyaviy tizim mavjud. Sivilizatsiyaning eng muhim yutuqlaridan bo'lmish siyosiy partiya ijtimoiy hayotdagi demokratiya va barqarorlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'lib, u ijtimoiy tashkilotlar orasidagi eng siyosiy tashkilotdir.

Siyosiy partiya tushunchasining lug'aviy ma'nosi nima, uning paydo bo'lishi va keyingi tarixi qaysi zamonlarga borib taqaladi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

«Partiya» atamasi lotincha «pars» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «qism», «bo'lak» degan ma'nolarni anglatadi. Siyosiy partiya deganda fuqarolarning muayyan siyosiy maqsadlar atrofida birlashgan va muayyan siyosiy tashkilotlarga uyushgan qismi, bo'lagi tushuniladi.

Dastlabki partiyalar Qadimgi Gretsiyada eramizdan avvalgi zamonlarda vujudga kelgan edi. Hududiy bo'linish asosida tashkil topgan bunday partiyalar Platon, Aristotel va boshqalar tomonidan salbiy baholangan edi. Xususan, Aristotel Qadimgi Gretsiyadagi uch asosiy siyosiy partiya — dengiz sohilida, tekislikda va tog'li hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar o'rtasidagi mavjud kurash, o'zaro raqobat haqida yozib, bu partiyalar ijtimoiy yaxlitlik va davlat birligiga rahna solishi mumkin, deya qayd etgan edi.

Qadimgi Rimda «partiya» tushunchasi, asosan, u yoki bu imperator (masalan, Sesar yoki Sula) siyosatini qo'llab-quvvatlovchi guruhni ifodalash uchun ishlatilganligi tarixdan ma'lum.

O'rtasidagi siyosiy partiyalar jamiyatda ziddiyatlar kuchayganda, feodallar va boshqa sinflar o'rtasida yuzaga kelgan ijtimoiy kelishmovchiliklar sharoitida vujudga kelgan.

Zamonaviy ma'nodagi siyosiy partiyalar ma'lum bir ijtimoiy guruhning manfaatlarini uyushgan va izchil tarzda ifoda etadigan vakillik sifatida XVII–XVIII asrlardagi ingliz va fransuz burjua inqiloblari davrida shakllandi.

Sanoat inqilobi natijasi o'laroq, kapitalistik bozor munosabatlarning tezkor rivoji Yevropa jamiyatlarining kuchli tabaqalanishiga olib keldi. Ijtimoiy muammolarni siyosiy yo'l bilan, ya'ni hokimiyat orqali hal etish hayotiy masalaga aylandi. Shu tarzda siyosiy partiyalarning roli ham ortib bordi.

M. Veber taklif etgan siyosiy partiyalarning shakllanish tarixiga oid klassifikatsiyaga ko'ra siyosiy partiyalar dastlab zodagonlarning siyosiy to'garaklari tarzida paydo bo'lib, keyinchalik siyosiy klublarga, so'ngra esa ommaviy partiyalarga aylanganlar. (Biroq hamma partiyalar ham o'z tarixlarida bu uch bosqichni bosib o'tmaganlar. Odatda, ko'pincha siyosiy klub yoki ijtimoiy-siyosiy harakatlardan siyosiy partiyalar kelib chiqqan.) Masalan, Angliyada 1831-yilda tuzilgan «Charlton klub» konservatorlar partiyasiga, 1836-yilda tuzilgan «Reform klub» klubi esa liberal partiyaga asos bo'lgan.

Shakllanayotgan ayrim siyosiy klublar parlamentlar bilan uzviy bog'liq edi. Jumladan, Fransiya milliy majlisi deputatlarining bir qismi bo'lgan yakobinchilar¹ 1791-yilda butun Fransiya bo'yicha 448 ta provinsial guruhlariga ega edilar.

Shu tariqa Fransiyada XVIII asrga kelib siyosiy partiyalar uzil-kesil shakllandi. Bu paytda Fransiya ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan yakobinchilar, jirondistlar, eberistlar, anarxistlar hozirgi zamonda keng tarqalgan o'ng, so'l va markaz partiyalarga asos soldilar. Ular keyinchalik utopik (xayoliy) kommunistik va sotsialistik partiyalarga asos bo'lishdi. (Sh. Furs, Sen-Simon va boshqalar).

AQSHda siyosiy partiyalar XVIII asr oxiri XIX asr boshlari-

¹ I z o h: Ular muqaddas Yakov monastirida o'z klublari yig'ilishlarini o'tkazganliklari uchun «yakobinchilar» nomini olgan edilar.

da kongress (ya'ni, parlament) fraksiyalari (federalchilar va respublikachilar) shaklida paydo bo'lib, ikki partiyaviylik asosidagi partiyaviy tizimni vujudga keltirdi. Bu tizim keyinchalik AQSHda burjua demokratiyasining asosini tashkil qildi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, siyosiy partiyalarga birlashish jamiyatning faqat zodagon qatlamlarigagina xos xususiyat bo'lmay qoldi. Chunki bu davrda ko'p sonli oddiy fuqarolarni o'z saflariga birlashtira olgan ommaviy partiyalar ham tashkil topdiki, bunday ommaviy partiyalarning dastlabkilariga 1861-yilda tashkil topgan Angliya liberal partiyasini hamda 1863-yilda tuzilgan birinchi ommaviy ishchi partiyasi bo'lgan Umumgerman Ishchilar Soyuzini kiritishimiz mumkin. Paydo bo'layotgan siyosiy partiyalarning faoliyatida siyosiy hokimiyat bilan aloqadorlik, unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari kuchayib bordi.

Xo'sh, buning sabablari nimada edi?

Ommaviy siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va siyosiy mavqeyining kuchayib borishida XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa mamlakatlarida umumiy saylov huquqining fuqarolar tomonidan siyosiy huquq sifatida qo'lga kiritilishi siyosat subyektlari sonining keskin oshuvini ta'minladi.

Quyidagi dalillarga e'tibor beraylik: Angliyada 1830-yilda saylov huquqidan 200 ming, 1832-yilda 600 ming, 1883-yilga kelib esa 9 million fuqaro foydalanadigan bo'ldi.

XX asrda Xitoy kommunistik partiyasi eng ko'p a'zolari bo'lgan (50 milliondan ortiq) ommaviy siyosiy partiyaga aylandi.

Xullas, siyosiy partiyalar bugunga kelib, dunyoning rivojlangan davlatlarida xalq bilan hokimiyat o'rtasida asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lgan demokratik institutga aylandilar. Bundan xulosa shuki, siyosiy partiya jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, u muayyan guruh yoki qatlamning maqsad va manfaatlarini ifoda etuvchi, uni umumdavlat va umummillat manfaatlarini bilan uyg'unlashtirgan holda faoliyat ko'rsatadigan, rivojlanishning siyosiy yo'nalishlarini aniqlab beradigan siyosiy tashkilotdir.

Siyosiy partiya, odatda, muayyan siyosiy dastur asosida faoliyat ko'rsatadi. Buning boisi — siyosiy partiya atrofida jamiyat-

ning muayyan guruhlari, tabaqalari, sinflari ma'lum bir maslak, g'oya asosida birlashadilar.

Davlat hokimiyatini qo'lga kiritish maqsadi har bir siyosiy partiyaning g'oyaviy-siyosiy hujjatlarida, xususan, uning dasturida ifodalanadi. G'oyaviy-siyosiy dasturda partiya nima uchun va kim uchun siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritmoqchi ekanligi, qanday aniq maqsadlarni o'z oldiga qo'rganligi masalasi aks etgan bo'ladi. Biroq barcha siyosiy partiyalar ham bu maqsadlarini ochiq-ravshan ifoda etishmaydi. Ko'pincha partiyalar «barcha fuqarolarning» yoki «mehnatkashlarning manfaatlarini ifoda etamiz», degan shiorlarni ilgari surishadi. Aslida esa jamiyat a'zolari manfaatlarini turlicha bo'lib, hech qachon bir-biriga to'liq mos kelmaydi.

Siyosiy partiyalar, odatda, butun jamiyatning emas, balki jamiyatdagi muayyan bir ijtimoiy guruhning, gohida esa aholi qatlamlari katta bir qismining manfaatlarini ifoda etadilar. Buning uchun siyosiy partiyalar jamiyatdagi muayyan guruhlar manfaatlaridan kelib chiqib harakat qiladilar. Bu manfaatlar ular uchun ijtimoiy baza, manba bo'lib xizmat qiladi, partiyalar bu manfaatlarini himoya qiladilar va ularni qondirish uchun hokimiyatga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. Siyosiy partiyalar hamisha ham o'z tub maqsadlarini ochiq bayon etmasliklarining sababi jamoatchilik xayrixohligini yo'qotishni istamasliklaridadir. Chunki keng jamoatchilikning, butun jamiyatning xayrixohligiga, qo'llab-quvvatlashiga erishish yo'llarini qidirish — siyosiy partiyaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Siyosiy partiyaning vazifalari:

1. Muayyan siyosiy maqsadning ishlab chiqilish, o'z mafkurasi va dasturini yaratib, uni ma'qullovchi jamoatchilik fikrini shakllantirish.

2. Siyosiy faoliyatda ishtirok etish. Bunda muayyan manfaatlar himoya etiladi.

3. Fuqarolarning siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. Bunda fuqaro ruhiyati partiya maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltiriladi va jamoatchilikning fikrini shakllantirishda OAVdan foydalaniladi.

4. Partiyaning hukmron elitasini shakllantirish, hokimiyat-

ning vakillik organlari va jamiyat o'rtasidagi aloqani ta'minlash, boshqa siyosiy institutlar bilan birgalikda davlat va ijtimoiy boshqaruvning mexanizmini shakllantirish, hokimiyat tuzilmalari va mexanizmlarining barqarorligini ta'minlash.

5. Siyosiy madaniyatni oshirish.

6. Parlament va hukumat faoliyatiga ta'sir ko'rsatish.

7. Siyosiy yetakchilarni tarbiyalash.

8. Davlat oldida turgan maqsadlarning shakllanishi va amalga oshirilishida faol ishtirok etish.

Siyosiy partiya faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri — partiyaning dasturini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy strategiyasini ishlab chiqishdir. Bunda malakali mafkurashunos xodimlardan foydalaniladi.

Partiyalar o'z g'oyaviy funksiyalarini bajarishda bir tomondan g'oyalar ishlab chiqishga, ikkinchi tomondan, bu g'oyalar tarafdorlarining odamlar orasida ko'payishiga harakat qiladilar. Bunda ular umuman jamiyatni taraqqiy ettirishning modellari — jamoatchilik va davlat e'tiboriga havola etadilar, garchi bu modellar aslida muayyan ijtimoiy birliklarning manfaatlarini himoya etadigan modellar bo'lsa ham.

Xulosa qilib aytganda siyosiy partiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1) muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aniqlash va asoslash;

2) siyosiy doktrina va dasturlarni yaratish;

3) hokimiyat uchun kurashda ishtirok etish va davlat hokimiyatini amalga oshirishda davlat faoliyati dasturini yaratish;

4) jamiyatni yoki uning muayyan qismini siyosiy tarbiyalash, jamoatchilik fikrini shakllantirish;

5) davlat apparati uchun xodimlarni tayyorlash va tavsiya etish.

O'zbekiston sharoitida esa yuqoridagilardan tashqari siyosiy partiyalar yangi bir demokratik tuzum qurishda jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammolarni ilgari surishda, ularni hal etishning yo'llarini ko'rsatishda, davlat va jamiyat qurilishida amaliy takliflar bilan chiqishda tashabbuskor bo'lishlari zarur.

Siyosiy partiyalar turlari. Siyosatshunoslikda siyosiy parti-

yalarni turlarga ajratishda turli xil yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlarning har birida muayyan bir mezonga (kriteriyga), masalan, partiyaning sinfiy tabiati, siyosiy faoliyat vositalari, mavjud ijtimoiy tuzumga munosabati, tarkibiy tuzilishi, siyosiy tizimdagi o'rnini va roli, mafkuraga munosabatiga ko'ra partiyalar u yoki bu turlarga ajratiladi.

Siyosiy partiyalar sinfiy tabiatiga ko'ra:

- ishchi partiyalarga (sotsial-demokratik, kommunistik);
- burjua partiyalariga (mayda burjua partiyalari, milliy burjuaziya partiyalari);
- o'rta tabaqalar partiyalariga (demokratik partiyalar);
- sinflararo partiyalarga (ishchi-dehqon, ziyolilar, millatchilar partiyalari);
- dehqonlar partiyalariga bo'linadi.

Siyosiy faoliyat vositalariga ko'ra:

- parlament va noparlament partiyalarga.

Mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan munosabatlariga ko'ra:

- inqilobiy, reformistik, liberal, konservativ partiyalarga bo'linadi.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra:

- kadrlar partiyalariga va ommaviy partiyalarga.

Jamiyatning siyosiy tizimida egallagan o'rinlari va rollariga ko'ra:

- hukmron va kam ta'sirli partiyalarga, so'l, markaz, o'ng partiyalarga hamda muxolif partiyalarga bo'linadi.

Mafkuraga munosabatiga ko'ra esa siyosiy partiyalar:

- o'ta mafkuralashtirilgan partiyalarga va pragmatik partiyalarga bo'linadi.

Endi yuqorida qayd etilgan mezonlar bo'yicha partiyalarni turlarga ajratishni batafsilroq tahlil qilamiz.

Partiyalarni tarkibiy tuzilishiga ko'ra kadrlar partiyalari va ommaviy partiyalarga bo'lish 1950-yillarda mashhur fransuz siyosatshunosi va sotsiologi M. Dyuverje tomonidan ishlab chiqilgan. Kadrlar partiyalari XIX asrning o'rtalarida siyosatdagi elektoral qo'mita va parlament guruhlarining evolyutsion rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan.

Shuning uchun kadrlar partiyalari o'z a'zolarining oz sonli-

ligi, a'zolik majburiyatlarining oddiyligi bilan ajralib turadilar. Bunday partiyalar, avvalo, professional siyosatchilarga, moliya elitasiga suyanadilar. Chunki, professional siyosatchi va moliya elitasi partiyani moddiy jihatdan ta'minlay oladi. Kadrlar partiyalarida parlament a'zolari, ya'ni deputatlar hukmron mavqeni egallaydilar. O'z yuksak va hukmron mavqeyi bois bunday partiyalar siyosiy kuchlar maydonida markazdan o'ng qanotda turadilar hamda liberal va konservativ partiyalar sifatida faoliyat yuritadilar.

Saylovlarda g'alaba qilish uchun kadrlar partiyalari o'z saf-laridagi a'zolari ko'paytirishni emas, balki jamiyat elitasi va-killarini, faollarni jipslashtirishga harakat qiladilar.

«Nima uchun?» degan haqli savol tug'iladi. Chunki siyosiy elita birinchidan, saylovchilar orasida obro'-e'tiborga ega, ik-kinchidan, u saylov kampaniyasidagi xarajatlarni qoplashga yordam beradi. Demak, kadrlar partiyalarida a'zolar soniga emas, balki sifatiga asosiy e'tibor beriladi.

Ommaviy partiyalar esa a'zolari soni ko'pligi va a'zolikning doimiyligi bilan ajralib turadilar. Ular umumiy saylov huquqi joriy etilishi munosabati bilan, asosan, ishchilar harakati to'liqida paydo bo'lgan. Ommaviy partiyalarga kommunistik, sotsial-demokratik, populistik va XX asrda bir necha yillar ayrim davlatlarda hukmronlik qilgan fashistik partiyalar mansubdir.

Demokratik mamlakatlarda har bir siyosiy partiya imkoni boricha kengroq aholi qatlamlarini qamrab olishga harakat qiladi. Shu munosabat bilan so'nggi 20 yil ichida g'arb jamiyatida ara-lash sotsial bazaga ega bo'lgan, eklektik g'oyaga tayanuvchi partiyalar paydo bo'ldi. Eklektizm — yunonchada eklektikos — tanlab oluvchi degan ma'noni anglatadi. Bunday partiyalarda siyosiy qarashlarda hamisha ham birlik, yaxlitlik, tadrijiylik mavjud bo'lmaydi. Eklektik partiyalarda turli qarash, g'oya, prinsip va nazariyalarning o'zaro chatishib, birlashib ketganligi kuzatiladi. Eklektizmga moyil partiyalar o'z a'zolaridan ko'ra saylovchilarga ko'proq e'tibor beradilar, ular unchalik mafku-ralashtirilmaganlar, tez-tez zo'rlikdan xoli ommaviy aksiyalar (tadbirlar) tashkil etadilar, keng auditoriyaga murojaat etadilar va saylov kampaniyasiga katta e'tibor bilan yondashadilar.

Parlament partiyalari XVI–XIX asrlarda hali mehnatkashlar saylov huquqi va parlamentda o‘z vakillariga ega bo‘lmagan davrlarda burjua partiyalari sifatida paydo bo‘lgan.

Noparlament yoki avangard partiyalar esa parlament va saylovlarsiz ishchi partiyalari sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan edi. Biroq hozirgi zamonda har qanday partiya, jumladan, noparlament partiyalar ham o‘z kelib chiqishidan qat’i nazar parlament partiyasiga aylanishga harakat qilmoqda, ya’ni hokimiyatga parlament orqali kelishga intilmoqda.

Siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy tizimida tutgan o‘rniga ko‘ra «so‘l», «markaz» va «o‘ng» partiyalarga bo‘linishi Buyuk Fransuz inqilobi davrida ro‘y berdi. 1789-yilda Fransiyada Ta’sis majlisi deputatlari majlisida zalda qirol hokimiyatini tiklash tarafdorlari — o‘ngda, respublikachi-inqilobchilar esa — majlis raisining chap tomonida o‘rin egalladilar. Shundan buyon «so‘l» qarash tarafdorlari aholining kambag‘al qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi qat’iyatli, inqilobiy, radikal kayfiyatli kuchlar hisoblanadi. Jamiyatning o‘ziga ancha to‘q qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi reformistik, konservativ qarash va faoliyat tarafdorlari esa «o‘ng» kuchlar yoki «o‘ng partiyalar»ga kiritiladi. Masalan:

- kommunistik va sotsialistik partiyalar — «so‘l» partiyalar;
- sotsial-demokratik partiyalar — «so‘l-markaz» partiyalar;
- dehqonlar, mayda burjua, ekologik partiyalar — «markaz» partiyalar;
- o‘rta burjuaziya va milliy burjuaziyaning partiyalari — «o‘ng-markaz» partiyalar;

– konservativ partiyalar esa «o‘ng» partiyalar deb hisoblanadi.

Shuningdek, millatchi, fashistik, ekstremistik partiya va tashkilotlar «ultra o‘ng» partiyalarga mansubdirlar.

Tabiiyki, siyosiy partiyalar turlariga oid har qanday mezonlar shartlidir, biroq bu mezonlar jamiyatning siyosiy va partiyaviy hayotidagi murakkab va ko‘p qirrali jarayonlarni o‘rganishga yordam beradi.

Partiyalarni turlarga bo‘lishning eng ommabop, oddiyroq mezonlari ham bor. Bu mezonlarga ko‘ra ular avtoritar, demokratik, konservativ, liberal, klerikal, neofashistik va hokazo partiyalarga bo‘linadilar.

Partiyaviy tizimlarni turlarga bo'lishda ularni uch guruhga ajratish keng tarqalgan. Bunday tasniflashga ko'ra *bir partiyali, ikki partiyali va ko'p partiyali tizimlar* o'zaro farqlanadi.

Bir qutbli yoki *bir partiyali* tizimda yakka partiya hukmronligi amal qiladi. Muxolif va yo'ldosh partiyalarning mavjud emasligi bu partiyaning mutlaqlashuviga va ijtimoiy hayotning mafkuralashuviga sabab bo'ladi. Bu esa mamlakat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining turg'unlashuviga va hatto tahlika ostida qolishiga ham olib keladi. Sobiq totalitar tuzumda hukmronlik qilgan kommunistik partiya taqdiri bunga yaqqol misoldir.

Mamlakat siyosiy hayotida ustuvor rol o'ynaydigan *ikki partiyali* tizimga Buyuk Britaniya va AQSHni misol tariqasida qayd etish mumkin. Buyuk Britaniyada hokimiyat amalda konservatorlar (an'anaviy qarashlar tarafdorlari) va leyboristlar (mehnat) partiyalari, AQSHda esa respublikachilar va demokratlar partiyalari orasida kechadi. U qadar katta ta'sirga ega bo'lmagan kichik partiyalar shu ikki partiya atrofida birlashishlari mumkin. Ikki partiyali tizim muayyan darajada hukumat barqarorligini ta'minlaydi.

Prezidentlik boshqaruvidagi respublikalarda, masalan, AQSHda prezidentning bevosita rahbarligidagi hukumat faoliyati parlamentdagi prezident partiyasining mavqeyi va ta'siri bilan belgilanadi. Bundan tashqari, modifikatsiya qilingan ikki partiyali tizim ham mavjudki, uni «Ikki yarim partiyali tizim» deyi-shadi. Saylovlarda ikki asosiy partiyadan biri yutib chiqishi imkoniyatini kuchaytirish uchun shu ikki partiyaning har biri maqsad jihatdan o'ziga yaqin, lekin mavqeyi pastroq bo'lgan partiya bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi.

Ko'p qutbli yoki ko'p partiyali tizimning o'zagini ko'ppartiyalilik tamoyili asosida faoliyat yuritadigan uch yoki undan ortiq partiyalar orasidagi raqobat tashkil etadi. Bunday partiyaviy tizimning shakllanishiga turli omillar: tarixiy, milliy, ijtimoiy, g'oyaviy omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ko'p sinfli, ko'p tabaqali, mulkchilikning turli shakllari, barqaror demokratik an'analar mavjud jamiyatlarga ikki partiyali yoki ko'p partiyali tizim mos keladi.

Biroq ko'ppartiyali tizim ustuvor afzalliklarga (masalan,

plyuralizm) qaramay, muayyan kamchiliklarga ham ega. Ma'lumki, ikki partiyali tizimda ikki raqib partiya o'z elektoratini (saylovchilarini) maksimal darajada kengaytirishga harakat qiladi. Natijada, siyosiy tizim effektivligi kuchayadi. Ko'ppartiyaviylik tizimida ko'p sonli mayda partiyalar mavjudligi va ularning har biri nisbatan ko'p sonli bo'lmagan saylovchilar manfaatlarini ifoda etishi bois hokimiyat siyosat subyektlarining ko'plab ziddiyatli harakatlariga duch kelishi mumkin. Nihoyat, ko'ppartiyaviylik tizimi ayrim hollarda parlamentda barqaror ko'pchilikni ta'minlash imkoniyatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Natijada, vujudga kelishi mumkin bo'lgan koalitsion hukumat esa barqarorlikni ta'minlay olmasligi mumkin.

Biroq ko'ppartiyaviy tizimning bunday ehtimolli kamchiliklarini partiya koalitsiyalarini tuzish orqali bartaraf etish mumkin. Chunki, bunday yo'l tufayli siyosiy partiyalar fraksiyalaridan iborat partiyaviy koalitsiyalar hech bo'lmaganda parlamentda o'z siyosiy harakat va yo'llarini o'zaro muvofiq- lashtirib oladilar.

4. O'zbekistondagi siyosiy partiyalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Shuni e'tirof etish kerakki, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik sodir bo'lgan voqelikdir. Sobiq sho'ro hukumatining qurolli istilosi natijasida Turkistonda XX asrning 20-yillarida ta'qibga olinib, tugatilgan «Turon», «Ittihodi taraqqiy», «Birlik», «Sharq ozodligi», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» kabi ko'plab partiya va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Bugun esa erishilgan milliy mustaqillik tufayli O'zbekistonda siyosiy partiyalar yana jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tarkibiga, demokratik parlamentning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Siyosiy partiyalar o'zlarining jamiyat siyosiy tizimida egallagan mavqelaridan kelib chiqib dasturlar ishlab chiqadilar, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'llarini belgilab beradilar. Shu orqali jamiyat va davlat rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar. Aynan siyosiy partiyalar siyosiy jarayonlarning jamoatchilik nazorati ostida kechishini ta'minlashga yordam berish bilan birga davlatni jamiyatning turli

ijtimoiy guruh va qatlamlari bilan bog'lab, ular o'rtasidagi mushtaraklikni yanada kuchaytiradilar.

Hozirda mamlakatimizda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, ya'ni to'rt siyosiy partiya faoliyat ko'rsatmoqda.

Jumladan, ularning birinchisi O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi bo'lib, unga 1991-yilning 1-noyabrida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solingan. XDPning asosiy dasturiy maqsadi, bosh siyosati, kundalik faoliyatining asosiy qismi sifatida xalqimiz mehnat ahli, har bir oilaning moddiy va ma'naviy, barkamol bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, dini, mazhabi, millatidan qat'i nazar, barcha insonlarning sha'ni, qadr-qimmatini, tinch hayotini ishonchli himoya qilish belgilangan¹. «O'zbekiston ovozi» (o'zbek tilida) va «Голос Узбекистана» (rus tilida) gazetalari partiyaning markaziy nashrlaridir.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar o'rtasida tashkil etilishining xronologik ketma-ketligi jihatidan ikkinchi o'rinda turgani bu — O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidir (O'zASDP). Ushbu partiya 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. Partiya ijtimoiy tarkibini, asosan, ziyolilar, yoshlar, ishchilar va aholining boshqa qatlamlari tashkil etadi.

O'zASDP o'z dasturida O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashni siyosat sohasidagi asosiy vazifa deb biladi. Partiya-ning boshqa partiyalardan ajralib turadigan asosiy xususiyati shundaki, u mamlakatimizda mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikni o'zining muhim vazifalaridan biri qilib belgilagan. Partiya dasturida jamiyatda adolat mezonining buzilishiga qarshi kurash olib borish vazifasi qayd etilgan bo'lib, bu vazifa jamiyatda adolatni, haqiqatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, demokratik yuksak ongliklik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga amal qiluvchi fuqarolarni tarbiyalashdek tadbirlar bilan

¹ Qarang: Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг низоми ва дастури // Xalq so'zi. 1995-yil 25 mart.

hamohang tarzda amalga oshiriladi. Partiyaning markaziy nashri — «Adolat» ijtimoiy-siyosiy gazetasi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalardan yana biri O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O‘zMTDP) hisoblanadi. U ilk bor 1995-yilning 3-iyunidagi ta’sis qurultoyida tashkil topgan edi.

Jamiyat taraqqiyoti va siyosiy partiyalar amaliyoti borasida to‘plangan tajriba partiyalarning birlashuviga sabab bo‘lmoqda. Buning natijasi o‘laroq 2008-yilning 20-iyunida «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi qarori asosida yangi O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tuzildi¹. O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi 2008-yil 11-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan. Bunday birlashish mazkur partiyalar tomonidan so‘nggi yillardagi o‘z faoliyatini chuqur tahlil qilish, shuningdek, ikkala partiyaning asosiy maqsadlari va vazifalari, mafkurasining yaqinligini anglash natijasida sodir bo‘ldi.

“Yangilangan O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an’analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. Partiya huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, fan-texnika taraqqiyotini va O‘zbekistonning globallashib borayotgan dunyoda munosib o‘rin egallashini ta’minlashni yoqlaydi. Partiyaning markaziy nashri — «Milliy tiklanish» gazetasi.

Shu o‘rinda hozir amalda mavjud bo‘lmasa-da, lekin «Milliy tiklanish» partiyasi tarkibiga kirgan sobiq «Fidokorlar» partiyasiga ham to‘xtalishni lozim topdik. Partiyaning vujudga kelishi va faoliyat ko‘rsatishidan maqsad mamlakatda yangi shakllanayotgan kichik va o‘rta mulkdorlar ijtimoiy tabaqasining siyosiy manfaatlarini ifoda etish edi. 2000-yilning 14-aprelida O‘zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi va O‘zbekiston «Vatan taraqqiyoti» partiyalari birlashib, partiyaning nomi «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi deb atalgan edi. Bu

¹ Qarang: «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi va «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi birlashuv qurultoyining qarori. —T. 2008.

birlashishda har ikkala partiyaning dasturiy maqsadlari mushtarakligi, tayanadigan ijtimoiy tabaqalari tadbirkorlar va ishbiarmonlar ekanligi muhim rol o'ynadi.

«Fidokorlar» partiyasi ilk bor tashkil topib, yangi ish boshlaganida mamlakatimiz ravnaqi, fuqarolarimizning farovon hayotini ta'minlash borasida bir qator samarali tadbirlarni amalga oshira boshlagan edi. Lekin ayrim obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra ushbu partiya o'rtahol partiya darajasiga tushib qoldi.

Bu vaqtda o'ziga xos zamonaviy partiya – Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi mamlakat siyosiy maydoniga chiqdi. 2003-yilning 15-noyabrida tashkil topgan O'zLiDeP mulkdorlar sinfi, kichik biznes, fermer xo'jaliklari, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi yuqori malakali mutaxassislar hamda ishbiarmon kishilar manfaatini ifoda etadi, himoya qiladi.

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining maqsad va vazifalariga oid fikrlar 2003-yil 7-oktabrda Prezident Islom Karimovning yangi tuzilayotgan siyosiy partiya tashabbus guruhi a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida bayon etildi. Jumladan, yangi tashkil etilayotgan partiya o'z e'tiborini dunyodagi taraqqiy topgan davlatlarning erkinlashtirish va demokratlashtirish borasidagi tajribalarini inobatga olib, liberal-demokratik g'oyalarni oldinga surgan holda fuqarolarning turmush darajasini o'stirish, yo'limizdagi g'ov-to'siqlarni olib tashlash, Vatanimizning taraqqiyotini jadal sur'atlar bilan rivojlantirishga qaratishi lozim edi¹.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zLiDeP quyidagilarni o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgiladi:

– siyosiy kuchga aylanib, tadbirkorlarning yo'lini yanada ochib, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy sohalarda isbotlab berish, manfaatini himoyalash, ertangi kunini ta'minlash.

¹ Qatag: *Каримов И. А.* Тadbirkorлар ва ишбилармонлар ижтимоий қатлами Ўзбекистон сиёсий майдонида ўз ўрнини эгаллаши лозим / Янги тузилаётган сиёсий партия ташаббус гуруҳи аъзолари билан учрашувдаги нутқ. // *Xalq so'zi.* – 2003-yil 8-okt.

Shu ijtimoiy toifa nomidan O‘zbekistonning siyosiy sahnasiga chiqish va o‘zining munosib o‘rnini egallash;

– O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan, uning strategik istiqbollari dasturini Konstitutsiya prinsiplariga suyanib, boshqa siyosiy partiya va harakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq qilish uchun partiyaning kuch-imkoniyatlarini safarbar etish;

– O‘zbekiston tanlagan ochiq demokratik, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojiga keng yo‘l ochib berish va demokratik qadriyatlarni xalqimiz, avvalo, yoshlar ongi va hayotiga singdirish;

– davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta‘sir o‘tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, hayotimizdagi muammolarni hal etishda ko‘maklashish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, asrab-avaylashda, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashish;

– o‘zi uchun siyosiy platforma deb tanlab olgan liberal-demokratik g‘oyalar va maqsadlarni o‘z faoliyati bilan keng omma ongiga singdirish, bu borada har tomonlama chuqur o‘ylangan tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib borish, o‘z safini kengaytirish.¹

O‘zLiDeP yuqorida qayd etilgan vazifalarni o‘z ustavida mustahkamlab, amaliy faoliyatida ro‘yobga chiqarmoqda. Matbuot nashri «XXI asr» gazetasi bo‘lib, partiya faoliyatini keng yoritish, o‘z maqsad va vazifalarini amalga oshirishga, aholini siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Mavjud partiyalar o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oliy Majlisning «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi (1996-yil 26-dekabr), «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi (2004-yil 29-avgust), «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni (2007-yil 11-aprel)

¹ “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi” Ustavi. –T., 2006. – B. 4–5.

asosida amalga oshiradilar. Siyosiy partiya tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashaydigan hamda partiyaga birlashish istagida bo‘lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo‘lish talab etiladi¹.

Partiya O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingach, yuridik shaxs maqomini oladi. Mintaqaviy partiyalar tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Chunki turli mintaqaviy partiyalarning mavjud bo‘lishi yagona mamlakatning bo‘linib ketish xavfini tug‘diradi. O‘zbekistonda:

– konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi;

– O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;

– urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi;

– xalqning sog‘ligi va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi;

– milliy va diniy ruhdagi partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi.²

Shuningdek, ushbu qonunning 4-moddasiga ko‘ra sudyalalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xodimlari, harbiy xizmatchilar siyosiy partiya-larga a‘zo bo‘la olmaydilar.³ Chunki, yuqoridagi sohalar xodimlari partiya a‘zolari qo‘llab-quvvatlovchi muayayn g‘oyalar, mafkuralar asosida emas, balki Konstitutsiya va u asosida ishlab chiqiladigan qonunlar asosida o‘z vazifalarini bajaradilar. Ularning u yoki bu partiyaga a‘zo bo‘lishlari esa qonunchilikni adolatli va xolis amalga oshirishga to‘sqinlik qilgan bo‘lur edi. Bundan tashqari, demokratik davlatda biror bir mafkura davlat

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Сийсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистонда сийсий партиялар. Т., 2007. – В. 226.

² Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрдаги «Сийсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. — 1997. № 2. — 3-м.

³ О‘sha қонун. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. 1997. — №2. — 4-м.

mafkurasi sifatida tan olinmasligi ham bu moddaning mantiqan to'g'ri qabul qilinganligini ko'rsatadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining siyosiy partiyalar ichki ishlariga aralashishlari yoxud, agar faoliyat qonunga hamda o'z ustavlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa, ular faoliyatiga u yoki bu tarzda to'sqinlik qilishlari man etiladi.

Noekstremistik partiyalar o'rtasidagi madaniyatli raqobatga asoslangan partiyaviy tizim biz qurish yo'lida bo'lgan demokratik jamiyat taqdirida ulkan rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan Prezident I. A. Karimov «Modomiki, biz demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, jamiyatimizda albatta ko'ppartiyaviylik tizimi bo'lishi kerak... Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlamlar va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirishi kerak. Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil etish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy yo'llar bilan o'z maqsadiga erishishga intiladi... Shuning uchun ham har qaysi partiya — xalqning ma'lum qatlami manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch, desak ayni haqiqat bo'ladi»¹, deb ta'kidlaydi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida uchta partiya — O'zLiDeP, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyalarining Demokratik bloki tuzilgan va samarali ishlab turibdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi timsolida parlament muxolifati faoliyat ko'rsatmoqda.

2004-yilning dekabrda O'zbekistonda parlamentchilikning ikki palatali andozasiga, ya'ni bikameralizmga o'tildi. Chunki,

¹ *Каримов И.А.* Парламент — жамият ҳаётининг кўзгуси // *Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т. 13. — Т., 2005. — В. 161—162.

hozirgi sharoitda quyi palatani real hokimiyat kuchiga ega bo'lgan siyosiy partiya vakillari bilan mustahkamlash va eng muhimi, har bir siyosiy partiyaning ijtimoiy obro'yini oshirishga imkon yaratish, sog'lom, yaratuvchi siyosiy oppozitsiyaga keng yo'l berish orqali siyosiy hayotda demokratiya prinsipini mustahkamlash zarur. Aks holda quyi palata o'zining siyosiy vazifasini samarali bajara olmaydi. Xususan, qayd etilgan so'nggi masala to'g'risida Prezident I. A. Karimovning «Bizning zaif tomonimiz – haqiqiy oppozitsiya yo'q. Hukmronlik qilayotgan kuchga nisbatan oppozitsiya yo'q. Biz oppozitsiya deganda rasmiy siyosatga qarshi kuchni tushunamiz. Qonunchilik palatasida haqiqiy oppozitsiya paydo bo'lishi lozim. Bu yerda tortishuvlar bo'lishi kerak. Bo'lmasa, haqiqatni yuzaga chiqarib bo'lmaydi. Haqiqat bahslarda tug'iladi, deb bejiz aytilmagan»¹, degan so'zlari diqqatga sazovor.

Shu jihatdan 2007-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantirishda yangi qadam bo'ldi. Chunki, demokratik davlatlarda mamlakat parlamentiga saylovlarda ishtirok etayotgan u yoki bu partiya o'zining dasturiy maqsadlarini yangitdan shakllantirgan hukumatning qanday yo'lni (kursni) tanlashi, uning o'z oldiga qo'ygan mo'ljali va maqsadli vazifalariga o'z munosabatini bildirgan holda belgilaydi. Yangitdan saylangan parlamentda mutlaqo ko'pchilik o'rinni egallagan partiya hukumatni shakllantiradi, uning yetakchisi yoki vakili esa Bosh vazir lavozimiga da'vogarlik qilish huquqini qo'lga kiritadi. Parlamentda ko'pchilik o'rinni egallashga muvaffaq bo'la olmagan partiya esa «norasmiy hukumat»ini saqlab qolaveradi va u zarur bo'lgan paytda mamlakat kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi mumkin.

Ushbu qonunning e'tiborga molik jihati shundaki, «yangit-

¹ *Каримов И.А.* Парламент – жамият ҳаётининг кўзгуси. // Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – В. 170.

dan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo‘li (kursi) va dasturi yoki uning ayrim yo‘nalishlariga qo‘shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari o‘zlarini muxolifat deb e‘lon qilishlari mumkin. Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlament ko‘pchiligi tomonidan kamsitilishi mumkin emas».¹

Rivojlangan demokratik davlatlarda ko‘pgina partiyalar parlamentdan joy olishga muvaffaq bo‘lishdan ancha ilgari vujudga kelgan bo‘lib, ayni o‘sha davrda ularning tashkiliy va ichki tuzilishi shakl hamda sayqal topgan. Partiyaning shakllanishi uchun uzoq vaqt talab etiladi, saylov kampaniyasi jarayonida uning dasturi hamda tashkiliy tuzilishi ko‘p marotaba sinovdan o‘tishi, o‘z safiga yangi a‘zolari jalb etish yuzasidan ko‘p yil ish olib borishi, fuqarolar siyosiy madaniyati va siyosiy faolligini ancha yuqori darajaga ko‘tarishi taqozo etiladi.

Mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish zarurati bois Oliy Majlis Senatining 2008-yil 4-dekabrdagi o‘n oltinchi yalpi majlisida ma‘qullangan «Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi 1-qismiga Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida deputatlik o‘rinlari sonini 120 tadan 150 taga ko‘paytirishni nazarda tutuvchi o‘zgartishlar kiritildi. Bunda 135 deputat hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadi. Shu asnodan siyosiy partiyalarning parlament quyi palatasidagi vakilligi kengayadi. O‘n beshta deputatlik o‘rni (bu miqdor mamlakatimizning ma‘muriy-hududiy bo‘linishi hisobga olingan holda belgilangan) o‘z safiga keng jamoatchilikni, mutaxassislar, olimlar, shuningdek, shu sohada faoliyat yuritayotgan ommaviy jamoat tashkiloti — *O‘zbekiston ekologik harakatiga* berildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga O‘zbekiston eko-

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги Конституциявий қонуни // Халқ со‘зи. — 2007. 12-апр. — №71.

logik harakatidan deputatlar ushbu ommaviy harakatning respublika konferensiyasida yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Shu tariqa, saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga yangi institut – deputatlik o‘rinlarini kvotalash instituti kiritildi¹.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekiston ekologik harakati siyosiy tashkilot ham emas, siyosiy partiya ham emas. Uning faoliyati siyosiy qarashlardan qat’i nazar, aholining deyarli barcha qatlamlari manfaatlariga daxldor bo‘lgan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishning aniq muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan qonunning O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimini yanada rivojlantirishdagi yana bir muhim ahamiyati shundaki, unga ko‘ra saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridan hokimiyat vakillik organlariga fuqarolarning tashabbuskor guruhlaridan nomzodlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi qoida chiqarib tashlandi. Eslatib o‘tish joizki, saylov to‘g‘risidagi avvalgi qonun hujjatlariga muvofiq siyosiy partiyalar bilan bir qatorda bevosita fuqarolar ham tashabbuskor guruhlar tuzish va o‘z nomzodini qo‘llab-quvvatlovchi muayyan miqdordagi imzolar to‘plash orqali deputatlikka nomzod ko‘rsatishlari mumkin edi. Bunda tashabbuskor guruh tomonidan ko‘rsatilgan nomzod qandaydir harakat dasturiga ega bo‘lishi shart emas edi, uning o‘zini nomzod qilib ko‘rsatgan tashabbuskor guruh oldida biror-bir majburiyati ham bo‘lmagan, chunki nomzod ko‘rsatganidan va nomzodi hokimiyat vakillik organiga saylanganidan keyin tashabbuskor guruhning faoliyati tugaydi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, saylov jarayonlarida yuqorida tilga olingani kabi shakllarda (o‘z-o‘zining nomzodini ko‘rsatish va boshqalar) ishtirok etish demokratik jamiyat rivojlanishining, ularning saylov tizimlari qaror topishining dastlabki bosqichlariga xosdir. Bizning mamlakatimizda ham tashabbuskor guruh tomonidan nomzod ko‘rsatish instituti ayni siyosiy tizim, siyosiy partiyalar endigina oyoqqa turayotgan, aholining aksariyat ko‘pchiligi siyosiy partiyalarning faoliyati

¹ *Исмоилов Н. Сайлов тизимини янада эркинлаштириш ва демократлаштириш йўлида // Халқ сўзи. – 2008. 6-дек. – №237.*

bilan qamrab olinmagan bir davrda rivoj topdi. O'zbekistonda samarali ko'ppartiyaviylik tizimi shakllangan va jo'shqin rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda fuqarolarning tashabbuskor guruhi tomonidan nomzod ko'rsatish instituti kabi saylovning bunday nomukammal shaklidan foydalanishga zarurat qolmadi.

Siyosiy plyuralizmning qaror topishi butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, u faqatgina jamiyat hayotidagi shart-sharoitlarga bog'liq bo'lmay, balki jamoaning hamda har bir shaxsning ongidagi o'zgarishlarga, shaxsning ijtimoiy-madaniy va axloqiy ma'naviy fazilatlarini kamolotiga ham bog'liqdir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 10-moddasiga ko'ra O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mutlaqo to'g'ridir. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

Prezidentlikka turli jamoat uyushmalari bilan bir qatorda siyosiy partiyalarning o'z partiyasidan nomzod ko'rsatish huquqining mavjudligi va g'alabadan so'ng u yoki bu yetakchi partiya nomidan Prezidentning davlatni boshqarishi dunyodagi ayrim yetakchi davlatlar (masalan, AQSH) tajribasidan ma'lum. O'zbekistonda ham Prezidentlikka nomzod ko'rsatishda mavjud barcha siyosiy partiyalar teng asosda ishtirok etadilar. Ammo Prezident saylovdan keyin u g'alaba qilgan partiya nomidan emas, balki butun xalq nomidan ish ko'radiki, bu dunyoda davlat va jamiyat qurilishi tajribasini yanada boyitadi. (Germaniya, Gretsiya, Ruminiyada ham Prezident o'z vakolati davrida biron-bir partiya a'zosi bo'lib turishi mumkin emas.) Buning ayrim obyektiv va subyektiv sabablari mavjud:

1. Avvalo, Konstitutsiyamizning 10-moddasi buni taqozo etadi.

2. Bizdagi ko'ppartiyaviylikka asoslangan siyosiy tizim har bir partiya uchun qonun doirasida o'z faoliyatini erkin amalga oshirishda zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

3. Partiyaviylik biron-bir partiyaga mansublikni bildirsa,

Prezidentlik o'ziga xos maqomga ega. U ayrim guruh, qatlam qarashlarini, manfaatlarini ko'zlab emas, balki davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo'lgan xalq nomidan ish ko'radi. U siyosiy institutlar o'rtasida hakamdir.

Bugun O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning rivojlangan tizimini rivojlantirish davr talabidir. Buning uchun:

– har bir siyosiy partiyaning o'z elektorati – uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy qatlami bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lmasa, bu partiya haqiqiy siyosiy kuch bo'la olmaydi;

– siyosiy partiyalar o'z g'oya, maqsad va vazifalari bilan bir-biridan farq qilishi zarur. Shundagina ular jamiyatdagi xilma-xil qarash va manfaatlarini to'laqonli aks ettirgan bo'ladi;

– partiyalar o'z g'oyaviy-siyosiy platformalarini himoya qila olishlari, shu bilan birga boshqa partiyalarning g'oyaviy-siyosiy platformalaridagi kamchiliklarni aniqlay olishlari lozim;

– har qanday partiya umummilliy partiya sifatida faoliyat yuritishi, faqat Markazda qolib ketmasligi va joylarda albatta o'z a'zolari, faollari va tarafdorlariga ega bo'lishi lozim. Aks holda har qanday partiya siyosat sahnasidan tushib ketadi;

– partiyalar mamlakatimiz ijtimoiy hayotining va davlat turmushining u yoki bu voqealariga nisbatan o'zlarining qat'iy munosabatlarini jamoatchilik e'tiboriga yetkazishga harakat qilishlari lozim. Aynan shu hol partiyalarning g'oyaviy-siyosiy platformalariga yanada sayqal berish, xalqqa o'zini tanitish imkonini beradi;

– siyosiy partiyalardagi ichki demokratiyani shakllantirish lozim. Chunki, unda yangi-yangi g'oyalar, yangi qarashlar, yangi tendensiyalar vujudga keladi va ayni vaqtda ular mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi uchun xizmat qiladi;

– siyosiy partiyalarning keng omma bilan yaqinlashuvining mavjud mexanizmlaridan samarali foydalanishga erishish va uning zamonaviy usullarini ishlab chiqish lozim.

Bular siyosiy partiyalarning yangi bosqichdagi vazifalari hisoblanadi va o'z navbatida ularning siyosiy kuchiga kuch qo'shadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalarning hal etilishi partiyalarga o'z qiyofasi, o'z uslubiga ega bo'lish, o'z saflarini anchagina

to'ldirish imkonini beradi va O'zbekistonning ko'ppartiyaviylik tizimini yanada rivojlantirish imkonini yaratadi.

Xulosa shuki, O'zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatlaridagi yuqorida qayd etilgan subyektiv omillarga bog'liq kamchiliklarni tuzatish ularning xalqdan ajralib qolmasliklariga, uning qalbiga yo'l topa olishlariga yordam beradi. Dunyo xalqlari, millatlari sahnasida o'z munosib o'rnimizni bizga hech bir boshqa xalq, mamlakat yoki davlat yaratib bermaydi. Albatta, bu vazifani o'zimiz bajarmog'imiz lozim. Shuning uchun bugungi siyosiy jarayonlarda umummilliy ehtiyojdan kelib chiqqan holda partiyalar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda amaliy muqobil takliflar bilan chiqishlari, turli ijtimoiy guruhlarining demokratik jarayonlardagi ishtirokini ta'minlashlari, o'z vakolatlari darajasida xalqni o'z orqalaridan ergashtirib, uni mustaqillikni mustahkamlashga safarbar etishni amalga oshirishlari zarurdir.

Tayanch tushunchalar

Siyosiy hokimiyat, siyosiy hokimiyat belgilari, siyosiy hokimiyat imkoniyatlari, siyosiy hokimiyat turlari, siyosiy hokimiyatning xususiyatlari, subyekt, obyekt, rahbarlik, boshqarish, tashkilotchilik, nazorat, legitimlik, legallik, xarizma, siyosiy elita, partiya, siyosiy partiya, siyosiy partiyalar turlari, «so'l», «markaz» va «o'ng» partiyalar, partiyaviy tizimlar, oppozitsiya, fraksiya, parlament.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Siyosiy hokimiyatning mohiyati va asosiy belgilarini tushuntiring.
2. Siyosiy hokimiyat qanday imkoniyatlarga (resurslarga) ega?
3. Hokimiyatni imkoniyatlari, funksiyalari, subyektlari va obyektlarining o'zaro munosabati uslubiga ko'ra qanday turlarga bo'lish mumkin?
4. Siyosiy hokimiyatning asosiy xususiyatlarini tahlil qiling.
5. Siyosiy hokimiyatni amalga oshirish mexanizmi qaysi tarkibiy qismlarni qamrab oladi?
6. M. Veber tasnifi bo'yicha siyosiy hokimiyat legitimligi turlarini o'zaro taqqoslang.

7. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda shaxs va hokimiyat munosabatlarini demokratlashtirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
8. Siyosiy partiyalar, ularning turlari, maqsad va vazifalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
9. O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning jamiyat siyosiy tizimidagi roli to‘g‘risidagi bilimlaringizni dalillar asosida bayon qiling.
10. I. A. Karimovning «O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi» (T. 13) asaridagi ma‘ruza va nutqlar asosida O‘zbekiston Respublikasidagi siyosiy hokimiyat va ko‘ppartiyaviylikka oid mulohazalarni o‘rganib chiqing va konspektlashtiring.

ADABIYOTLAR

- Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. — Т., 2008.
- Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. — 1997. — №2.
- Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистонда сиёсий партиялар. Т. 2007. — Б. 234–242.
- Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги Конституциявий қонуни // Халқ сўзи. — 2007. — 12 апр. — №71.
- Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. — Т., 1998. — Б. 31–261.
- Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. — Т., 1996. — Б. 370–404.
- Каримов И. А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз Т. 8. — Т., 2000. — Б. 330–351.
- Каримов И. А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. — Т., 1996. — Б. 227–239.
- Каримов И. А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 161–162, 179–181.
- Каримов И. А.* Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохот-

ларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007. – Б. 320.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. Т., 2008. – Б. 368.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 176.

Ислом Каримов демократия ва сиёсий партиялар тўғрисида /Тузувчилар: Ш. О. Мамадалиев, Ш. Р. Қобилов, Б. У. Таджиханов. – Т., 2004.

Исмоилов Н. Сайлов тизимини янада эркинлаштириш ва демократлаштириш йўлида // Халқ сўзи. – 2008. – 6 дек. – №237.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. – М., 2000. – С. 166–182, 258–279.

Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б. 5–26.

Қодиров А. Қ. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизимини шакллантиришнинг концептуал муаммолари // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2002. – №4.

Мамадалиев Ш. О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003. – Б. 3–90.

Мамадалиев Ш. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истиқболлари. – Т., 2004. – Б. 3–20.

Политология: Ўқув қўлланма / *С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров.* – Т., 1999. – Б. 92–124.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – Б. 102–120.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. – Т., 2001. – Б. 591.

Ўзбекистонда сиёсий партиялар. – Т. 2007. – В. 249.

SIYOSIY YETAKCHILIK

1. Hokimiyat tarkibida siyosiy yetakchilik

Etakchilik. Dunyoning turli mintaqalaridagi davlatlar va xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi zamonda siyosiy yetakchilik fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatni qayta qurish va hokimiyat tarkibining asosiy elementlaridan biri bo'lgan siyosiy yetakchi rolini bilib olish faqatgina u yoki bu siyosiy arbobga xos shaxsiy sifatlarni, uning ijtimoiy hayotga ta'sirini aniqlash uchungina emas, balki avvalo, siyosatning chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tushunib olish uchun ham muhimdir.

Turli partiyalar, jamoat tashkilotlari faoliyati muayyan siyosiy yetakchilarning siyosiy faoliyatida aks etadi. Chunki siyosiy hokimiyat muayyan shaxsiy sifatlarga, fe'l-atvorlarga, muayyan ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va yetakchiga xos bo'lgan individual xususiyatlar ularning hokimiyatni qanday amalga oshirishlariga ham ta'sir etadi.

O'zbekiston Respublikasida davlatning asosiy maqsadi — huquqiy demokratik jamiyat qurishdir. Bu maqsadning amalga oshishi ko'p jihatdan barcha darajalardagi rahbarlarning dunyoqarashi, bilimi, qobiliyatlariga bog'liq. Demokratik jamiyatlarda hokimiyatning personifikatsiyalashuvi (ijtimoiy ongda hokimiyatning shaxs timsolida tasavvur etilishi) kuchayadi, chunki aholi saylovlarda dasturiy va'dalarga emas, balki partiyalarning ishonchga sazovor, halol rahbarlariga ko'proq ishonch bilan qaraydi. Shu jihatdan qaraganda siyosiy jarayonlar tahlilidan ma'lum bo'lmoqdaki, zudlik bilan qarorlar qabul qilish, muayyan vazifani to'g'ri tushunish qobiliyati talab etiladigan ijtimoiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida siyosiy yetakchilik roli juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Hokimiyat va tashkilot mavjud bo'lgan barcha joyda yetakchilarning bo'lishi tabiiy, chunki «etakchi» so'zining ingliz tilidan tarjimai (leader) «boshlovchi», «rahbarlik qiluvchi» ma'nolarini anglatadi.

Siyosiy ta'limot va qarashlarda yetakchi to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishi. Yetakchilikdek murakkab va muhim ijtimoiy noyob hodisani o'rganish hamda tahlil etishning ibtidosi uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi zamon tarixchilari Gerodot, Plutarx, Konfutsiy va boshqalar o'z davri yetakchilari – monarxlar, lashkarboshilarni tarix ijodkorlari deb hisoblaganlar.

Siyosiy yetakchilik hodisasini tahlil etishda Sharqda Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiyning xizmatlari, G'arbda esa N. Makiavellining ilmiy merosi diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, siyosiy yetakchi – butun jamiyatni jiplashtiruvchi, ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har qanday vositalarni qo'llovchi hukmdordir.

Sharq Uyg'onish davrining buyuk vakili Forobiy «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida davlatni yetuk shaxs (ma'rifatli shoh), yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida samarali boshqarish mumkinligini, davlat boshlig'i va davlat xizmatchilari boshqaruv san'atini yaxshi bilishlari shartligini qayd etadi. Nizomulmulk esa «Siyosatnoma» («Siyar ul-muluk») asarida shohning jasur, dono, tadbirkor va qat'iyatli bo'lishi g'oyasini ilgari surgan. Davlatni idora qilishda amaldorlar (mas'ul xodimlar) katta o'rin tutishgan, ularni tanlash va joy-joyiga qo'yishga o'ziga xos talab darajasida qaralgan.

Siyosiy yetakchilik hodisasini o'rganishda o'z davri va o'z xalqi talab-ehtiyojlarini to'g'ri anglagan pragmatik hukmdor – Amir Temurning nazariy qarashlari va amaliy siyosiy faoliyati ham diqqatni jalb etadi.

Podshohsiz raiyat va davlatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas, deb hisoblagan Alisher Navoiy jamiyat bo'lishi uchun davlat bo'lishi zarurligini, turli manfaatlar kishilarni bir-biridan ajratishini va ayni paytda birlashtirishini, bu – jamiyat qonuni ekanligini, shu qonunni nazorat qilish – odil podsho va boshqaruv tizimining vazifasi, deb uqtiradi.

Umuman, siyosiy yetakchilikning sharqona tahlilida yetakchiga nasihatgo'ylik yondashuvi ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra

davlat arbobi siyosati har qanday vaziyatda ham axloqiy tamoyillar: rostgo'ylik, halollik, odamlarga xayrixohlik va hokazolarga zid bo'lmashligi kerak. Ta'kidlab o'tish lozimki, yetakchini axloqiy tamoyillarga rioya qilishga chorlovchi bunday sharqona qarashlar hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida siyosatning insoniylashuvida, uning inson huquqlari kafolati sifatida tanilishida o'z ifodasini topmoqda.

Siyosiy yetakchilikni o'rganishda G'arbda siyosiy bilimlar rivojiga buyuk italyan gumanisti N. Makiavelli katta hissa qo'shgan. Uning fikricha, siyosiy yetakchi — jamiyatni jipslashtiruvchi hamda ijtimoiy tartib va o'z hukmronligini saqlash uchun har qanday vositalardan foydalanuvchi podshoh. Masalan, «Milliy davlatni qurish va mustahkamlashda davlat boshlig'i sherdek dovyurak, tulkidek ayyor bo'lishi, agar pirovard maqsadga foydali bo'lsa, o'z va'dalarini bajarmasligi ham mumkin, chunki yuksak natijalar xuddi shunday yo'l tutgan knyazlarga nasib etgan»¹ kabi Makiavelli tomonidan ishlab chiqilgan, ayyorlik va kuchni mohirona birlashtirishni taqozo etuvchi g'arbona mentalitet aks etgan amaliy maslahatlar Kromvel, Napoleon va boshqa ko'plab yevropalik siyosatchilar tomonidan yuqori baholangan.

XIX asrga kelib shaxs irodasini jamiyat taraqqiyotining belgilovchi kuchi, deb hisoblovchi volyuntaristik nazariyalar paydo bo'lgan. Yetakchilik to'g'risidagi bu nazariya vakillari Tomas Karleyl (1795–1881) va Ralf Uoldo Emersonlar (1803–1882) fikricha, odamlarning ko'pchiligi barcha munosabatlarda yetakchilarning yo'naltiruvchi ta'sirisiz normal hayot kechira olmaydilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Fridrix Nitsshe (1844–1900) tomonidan ishlab chiqilgan yetakchilik tamoyili o'z davri siyosiy fikri va amaliy siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Nitsshening qarashlariga biologik turlarning evolyutsion rivojlanishi to'g'risidagi Ch. Darvin nazariyasi kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, Nitsshening nazariy qarashlarida oliy biologik tip — yetakchi-inson, o'ta qudratli odam shakllanishining zarurligini asoslashga qaratilgan urinishni ko'ramiz. «Insoniyatning maqsadi, —

¹ *Макиавелли Н. Государь.* — М., 1990. — С. 28.

deb yozadi Nitsshe, – uning oliy vakillarida mujassam bo‘ladi... Insoniyat buyuk odamlarni yaratish uchun tinimsiz mehnat qilishi zarur – uning vazifasi faqat shunda va boshqa hech narsada emas»¹.

Uning fikricha, o‘ta qudratli bunday buyuk odam yaxshilik va yomonlikning narigi tomonida turadi. U axloq me‘yorlari bilan cheklanmagan bo‘lib, oddiy odamlarga nisbatan shafqatsiz, o‘ziga teng, o‘ta qudratli yetakchi insonlar bilan esa iltifotli va muloyim bo‘lishi mumkin. Agar odam maymundan qanday ustunlikka ega bo‘lsa Nitsshe nazariyasidagi yetakchi ham odamlar ustidan shunday ustunlikka ko‘tarilgan shaxsdir. U yuksak hayotiy quvvatga egaligi va hokimiyatga bo‘lgan irodasi bilan boshqa kishilardan ajralib turadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, keyinchalik o‘z irqiy iddaolarini «asoslash» uchun fashizm nazariyotchilari Nitsshe ta‘limotidan o‘z yovuz maqsadlari yo‘lida foydalanishga uringanlar.

Yetakchilar to‘g‘risidagi zamonaviy nazariyalarga Gabriyel Tard (1843–1904) ijodi sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatgan. U ijtimoiylashuv to‘g‘risidagi nazariya asoschilaridan biri bo‘lib, hayotning asosiy qonunlaridan biri – yetakchilarga ular izdoshlarining taqlid qilishidir, degan g‘oyani asoslashga harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy manbalaridan biri Tardning fikricha, tashabbuskor va noyob shaxslar tomonidan qilingan yangiliklar, kashfiyotlardir.

Yetakchilikning ta‘riflari. Zamonaviy siyosatshunoslikda yetakchilikning bir necha ta‘riflari mavjud:

1. Yetakchi – yo‘l ko‘rsatuvchi ma‘nosini anglatadi. Yetakchi boshqalarga ta‘sir eta olish, muayyan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikdagi faoliyatlarini tashkil eta olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Yetakchi va uning izdoshlari o‘rtasidagi munosabatlarda tengsizlik mavjud bo‘lib, u yetakchidan guruh a‘zolariga qarab doimo bir tomonlama yo‘nalgan bo‘ladi.

2. Yetakchilik – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy pozitsiyadir.

¹ Iqtibos manbayi: *Ницше Ф.* Так говорил Заратустра. – М., 1990. – С. 286. Qarang: *Пугачев В.П., Соловьев А.И.* Сиёсатшunoslikka кириш. – Т., 2004. – В. 165.

3. Siyosiy yetakchilik — bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunda siyosiy tadbirkor, ya'ni yetakchilikka da'vogar shaxs raqobat kurashida ijtimoiy vazifalarni hal etishga oid dasturini rahbarlik amaliga almashtiradi. Bu yerda siyosiy tadbirkorlikning mohiyati shundaki, «siyosiy tovar» potensial yetakchi shaxsi bilan bir narsa deb qaraladi hamda ushbu tovarni «umumiy boylik», baxt-saodat sifatida reklama qilish ro'y beradi.

4. Siyosiy yetakchilik siyosiy faoliyat turi bo'lib, u ikki tomonning o'zaro aloqalarini anglatadi: birinchi tomon — yetakchilar o'z izdoshlarining manfaatlarini va ehtiyojlarini biladilar va bayon etadilar, ikkinchi tomon esa shu manfaatlarini ifodalash va amalga oshirish uchun o'z vakolatlarining bir qismini yetakchiga ixtiyoriy ravishda topshiradilar.

Yetakchilik fenomenining negizi aslida inson va jamiyat tabiatining o'zidir. Hatto yetakchilikka o'xshash bo'lgan «ilk yetakchilik» hayvonot dunyosida uchraydi. Bu yerda biologik o'zaro munosabatlar taqozo etuvchi yozilmagan qonunlarga binoan podani boshqaruvchi yetakchi ajralib chiqadi.

Jamiyatda ham yetakchilik ehtiyoj mahsuli sifatida maydonga chiqadi, chunki o'z-o'zini tashkil etish, hayotiy va funksional qobiliyatlarni ta'minlash uchun odamlarning xulq-atvorini tartibga solish zarurati paydo bo'ladi. Bunday tartibga solish vazifalar va rollarning vertikal (boshqarish — bo'ysunish) va gorizontal taqsimlanishi hamda boshqaruvni amalga oshiruvchi tuzilmalarning ajralib chiqishi orqali yuzaga chiqariladi. Natijada, yetakchilik muassasaviylashadi, ya'ni u rasmiy yetakchilikka aylanadi. Rasmiyga teskari bo'lgan norasmiy yetakchilik esa subyektiv qobiliyatni, yetakchilik rolini bajarishga tayyorlik hamda layoqatni, shuningdek, muayyan guruh yoki jamiyat tomonidan uning rahbarlik huquqlari tan olinishini xarakterlaydi.

Yuqoridagi ta'riflar va tahlildan kelib chiqib, siyosiy yetakchilik hukmdorlik darajasini egallagan bir yoki bir necha shaxslarning butun jamiyatga, tashkilotga yoki guruhga doimiy ustuvor va qonuniy ta'sirini ifodalaydi, deyish mumkin. Yetakchilik tuzilmasidagi uch asosiy tarkibiy qism: yetakchining individual belgilari; uning imkoniyat va vositalari; unga ta'sir ko'rsatadi-

gan vaziyat yetakchilik samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy yetakchi siyosiy jarayonlar bilan birga, butun jamiyat, siyosiy tashkilot yoki harakatni ham boshqaradi. U voqealarning borishi va siyosiy jarayonlar yo'nalishini o'zgartira oladi. Siyosiy yetakchilar jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni jonlantiradilar, jamiyatning tarixiy rivojlanishini belgilovchi dasturlarni, g'oyalarni ilgari suradilar.

2. Siyosiy yetakchilik tabiati va turlari

Xislatlar nazariyasi. Yetakchilik tabiatini tushuntirishga bo'lgan intilishlar ko'pgina nazariyalarni paydo qildi. Ulardan eng qadimiyrog'i va ahamiyatini hozirga qadar yo'qotmagani xislatlar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asoschilaridan biri E. Bogardus fikricha, a'lo darajali intellektual iste'dodlar shaxsga ertami-kechmi yetakchilikka olib keluvchi ko'zga ko'ringan mavqeni beradi¹.

Yetakchilik hodisasini yetakchining yuksak fazilatlari asosida tushuntirish ushbu nazariyaning mohiyatini tashkil etadi. Yetakchining yuksak fazilatlari o'tkir zakovat, fahm-farosat, temir iroda, qaynoq energiya, yuksak tashkilotchilik, kishilarga yoqa bilish, bilimdonlik, mas'uliyatni o'ziga ola bilish kiritiladi. Hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy yetakchilarning zaruriy sifatlariga xushsuratlik, notiqlik xususiyatlari ham asosiy talablar sifatida qo'yilmoqda.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning yetakchilik qilishi uchun unga xos muayyan xususiyatlar yig'indisi katta ahamiyat kasb etadi. Raqobat muhitida yetakchilik o'rinlarini egallash uchun haqiqatan ham muayyan shaxsiy xislatlar kerak. Lekin bu zaruriy xislatlarni mutlaqlashtirish darajasida emas. Bu xislatlar to'plami tarixiy davr, ayrim davlatlar va aniq vaziyatga bog'liq holda o'zgarib boradi. Masalan, hozirgi zamonda ham siyosiy muvaffaqiyatlarga imkon beruvchi shaxsiy xislatlar Shvetsiya, Afg'oniston, Koreya va Somalida tubdan

¹ Iqtibos manbayi: *Bogardus E. Leadership*. — New York, 1934. — P. 138. Qarang: *Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сיעатшуносликка кириш*. — Т., 2004. — В. 171.

farqlanadi. Buning ustiga ko'pchilik, asosan, nodemokratik davlatlarda o'rtamiyona, g'o'r, yorqin xislatlarga ega bo'lmagan shaxslarning tez-tez siyosiy yetakchilar sifatida siyosat maydoniga kelishlari kuzatilgan.

Bularni hisobga olish xislatlar nazariyasining rivojiga — uning omiliy-tahliliy tamoyili yaratilishiga olib keldi. Bu tamoyil yetakchilarning sof individual xususiyatlarini va muayyan siyosiy maqsadlarini amalga oshirish jarayonida namoyon bo'lgan xulq-atvorlarini taqqoslaydi. Masalan, Leninning yaqinlari bilan munosabatida namoyon bo'luvchi individual xislatlari hech ham zo'ravonlikka chanqoq va odamlarning kulfatlariga befarq, rahmsiz va zolimligidan darak bermasdi. Biroq uning o'jarligi va utopik maqsadga intilishlari uni hokimiyatni saqlab qolish uchun jinoyatlar oldida to'xtamaydigan, umuminsoniy axloq me'yorlarini inkor etuvchi diktatorga aylantirgan.

Xullas, yetakchi shaxsiga xos xususiyatlar yig'indisi tarixiy davr va dunyodagi turli davlatlar sharoitlariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Vaziyatlar nazariyasi. Yetakchilikning muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liqligini vaziyatlar ta'limoti yanada rivojlantirdi va asoslab berdi. V. Dall, T. Xilton, A. Gardner, R. Stogdill va boshqalar yetakchilik hodisasining nisbiyligidan, ko'p xilliligidan kelib chiqadilar. Ularning fikrlaricha, «Yetakchi — muayyan vaziyat mahsulidir. Aynan vujudga kelgan muayyan vaziyatlar siyosiy yetakchilarni tanlab oladi va ularning xulq-atvorini belgilaydi.

Shu ma'noda tarixda tasodifiy yetakchilar bo'lmaydi, har bir yetakchi o'z davrining, o'z davri tarixiy vaziyatining mahsulidir. Iskandar Zulqarnayn, Oliver Kromvel, Chingizxon, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur ham o'z davrining yo'l boshchilari edilar.

R. Stogdill yozishicha, yetakchilik qandaydir ijtimoiy vaziyatlarda kishilar o'rtasida mavjud bo'ladigan aloqalardir, bir vaziyatda yetakchi bo'lgan kishilar boshqa vaziyatlarda ham albatta shunday bo'la olmaydi»¹. Masalan, «namunali, qudratli va ilg'or

¹ Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сийәсәтшуносликка кириш. — Т., 2004. — В. 173.

islom jamiyati» qurish maqsad qilib belgilangan Erondagi vaziyat muqarrar ravishda yetakchilarning yevropacha yoki amerikacha tipini rad etadi. Xuddi shuningdek, Eron tipidagi yetakchi (garchi 2005-yilning 24-iyunida Eron prezidentligiga saylangan texnika fanlari doktori Mahmud Ahmadinajot mamlakatning soʻnggi 24-yillik tarixida ilk dunyoviy boshqaruvchi boʻlsa-da) Gʻarb siyosiy maydonida oʻzini namoyon etishi mumkin emas. Neft va gaz zaxirasiga egalik qilish borasida dunyoda Saudiya Arabistoni va Rossiyadan keyingi oʻrinda turuvchi Eronda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan milliy daromad 320 dollar ekani (qiyos: Saudiyada bu koʻrsatkich 19 ming dollardan ortiq) Osiyoning bu yirik mamlakati jiddiy iqtisodiy islohotlarga muhtojligini koʻrsatadi¹ hamda uning siyosiy yetakchisiga murakkab vazifalarni uddalash masʼuliyatini yuklaydi.

Bundan tashqari, davlatning inqiroz holatidaligi yoki barqaror rivojlanishdiligiga bogʻliq ravishda yetakchiga qoʻyiladigan talablar ham bir-biridan farqlanadi. Misol uchun, XX asrning 80-yillari oxirlarida sovet tuzumining inqirozi B. Yelsin, I. Karimov, N. Nazarboyev va boshqa yetakchilarni ilgari surdi. Ular eski totalitar tuzumni yemirish va demokratik jamiyatni barpo etish sari xalqni yetakladilar.

Taʼkidlash joizki, vaziyatlar nazariyasi siyosiy yetakchining individual xususiyatlarini rad etmaydi, lekin ularni mutlaqlashtirishni ham nooʻrin hisoblaydi va siyosiy yetakchining tabiatini tushuntirishda mamlakatdagi shart-sharoitlarga ustuvorlik beradi.

Vaziyatlar taʼlimotiga aniqlik kiritish, rivojlantirish va sifat jihatdan boyitish natijasida siyosiy yetakchilikni uning izdoshlari va tarafdorlari (konstituyentlari) yordamida tushuntirish taʼlimoti vujudga keldi. Zamonaviy siyosatshunoslikda «tarafdorlar» tushunchasi keng qamrovli boʻlib, siyosiy faollardan tashqari yetakchining saylovchilari, shuningdek, u bilan munosabatda boʻluvchilar ham bu tushuncha mazmuni tarkibiga kiritiladi. Ularni tahlil qilish siyosiy yetakchining xulq-atvorini, qabul qiladigan qarorlarini oldindan bilish imkoniyatini beradi.

¹ Дунё нигоҳидаги етакчи // Hurriyat. — 2006. 21-iyun. — №23.

Yetakchi bilan munosabatlarning shakllanishi va amal qilishida siyosiy faollarning roli kattadir. Aynan tarafdorlar, ya'ni konstituyentlar o'z yetakchilarining shaxsiy sifatlarini va imkoniyatlarini baholay oladilar, uni qo'llab-quvvatlash kampaniyasini tashkil etadilar, bir so'z bilan aytganda yetakchini «yaratadilar».

Biroq ancha afzalliklariga qaramay vaziyatlar nazariyasi kabi konstituyentlar nazariyasi ham siyosiy yetakchining hokimiyatni egallagandan keyin nima sababdan o'zini hokimiyatga keltirgan qatlam va tarafdorlarning manfaatlariga zid harakatlar qilishi sabablarini tushuntirib bera olmaydi. Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, ko'pgina siyosiy yetakchilar hokimiyatga kelgach, uni hokimiyat tepasiga keltirgan qatlamlar va guruhlar manfaatlariga qarshi faoliyat yuritganlar. Bunga yorqin misol A. Gitlarning siyosiy faoliyati bo'lib, u hokimiyatga chiqqandan keyingi yillar davomida uni hokimiyatga keltirgan tarafdorlarining bir qismini yo'q qildi. Bunga o'xshash misollarni Sharqda shayboniylardan Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, yetakchi va konstituyentlar o'zaro ta'sirini ikki tomonlama yo'naltirilgan harakat sifatida qarash lozim. Buning ustiga yetakchilar o'z ijtimoiy tayanchlarini muayyan darajada o'zgartirishlari mumkin. Bunday hol, ayniqsa, avtoritar va totalitar siyosiy tuzumlarda fojiali tus olishi mumkin. Buning sabablari siyosiy tizimning xarakteriga, rahbar qo'lida hokimiyatning jamlanishi darajasiga va umuman jamiyatning siyosiy madaniyatiga borib taqaladi.

Siyosiy yetakchilik tabiatini, uning subyektiv mexanizmlarini tushuntirish va uni bir xilda izohlash murakkab. Bu jarayonni o'rganishda psixoanalitika nazariyasi ancha yutuqlarga erishgan. Ushbu nazariya asoschisi Z. Freyddir. Bu nazariyaga ko'ra, siyosiy yetakchilik negizida sensual xarakterdagi, ya'ni sezgi, hissiyotlarga asoslangan mayllar yotadi. Sublimatsiya, ya'ni boshqa holatga o'tish jarayonida u ijodiy faoliyatga, jumladan, siyosiy yetakchilikka ham intilish sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pgina kishilarda rahbarlik lavozimlarini egallash subyektiv kompensatorlik vazifasini bajaradi. Turli kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik, nomukammallik, qadrsizlik hissiyotini yengishga yordam beradi.

Siyosiy yetakchilikning psixoanalitik nazariyasiga hissa qo'shgan Frankfurt maktabi vakillari E. Fromm va T. Adorno- lar avtoritarizmga moyil va hokimiyatga intiluvchi shaxs tipini aniqladilar. Bunday shaxs ommaviy ishonchsizlik, asabiylik hukmron bo'lgan nosog'lom ijtimoiy muhit, oilaviy nevroz holatini keltirib chiqaruvchi sharoitlarda shakllanadi. Kishi bunday sharoitda bularning hammasidan qutulish uchun hukmronlik yoki bo'ysunish munosabatlaridan qochishga intiladi.

Yetakchilik – avtoritar shaxs uchun o'zining o'zgaruvchan kayfiyatlaridan xoli bo'lishga va o'z irodasiga boshqalarni bo'ysundirishga imkon beradigan psixologik ehtiyoj. Boshqalar ustidan cheksiz hukmronlik qilish bunday kishiga o'ziga xos sarxushlik baxsh etadi. U o'ziga xos sadizm, zo'rvonlik shaklidir. Boshqalarning kuchsizligi avtoritar tipdagi individlarda nazorat va ularni kamsitish istagini uyg'otadi. Shu bilan birga, avtoritar shaxs mazoxistik xususiyatga ham egadir, o'zidan zo'rroq kuch bilan to'qnashganda unga sajda qiladi. Boshqalarning kuchsizligi unda g'azablanish, ularni tahqirlash kayfiyatlarini tug'diradi.

Bunday xulq-atvor shakli psixologik ma'noda kuchlilikning emas, kuchsizlikning namoyon bo'lishidir. Avtoritar shaxs haqqoniy kuchga ega bo'lmasdan, boshqa kishilar ustidan humronlik qilish yordamida shu kuchga egaligiga o'zini ishontirishga harakat qiladi. Bunday shaxs irratsionaldir, ular johillikka, mistikaga moyil bo'lib, birinchi navbatda hissiyotlar asosida ish yuritadi, tenglik va demokratiyaga toqat qila olmaydi. Boshqa barcha kishilarni «kuchli – kuchsiz» munosabatlari vositasida idrok etadi. Umuman, psixoanalitika nazariyasi siyosiy yetakchilikka intilishning barcha sabablarini qamrab ololmasa-da, uning asosiy ichki sabablari haqidagi tasavvurlarni ancha kengaytirdi.

Interfaol tahlil. Yetakchilik to'g'risida yuqorida ko'rsatib o'tilgan nazariyalar uning turli tomonlarini ko'rishga imkon beradi, biroq uning bir butun ko'rinishini bera olmaydi. Yetakchilikni kompleks tadqiq etishni amalga oshirishni interfaol tahlil bajaradi. U yetakchilikning to'rt asosiy jihati: yetakchining xususiyatlari; u bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, uning izdoshlari va konstituyentlari; yetakchi va uning konstituyentlarining o'zaro munosabatlari mexanizmini hisobga oladi.

Biroq yetakchilikning yagona, universal tamoyilini yaratishning imkoni yo'q. Chunki yetakchilik hodisasi namoyon bo'lishi va vazifalariga ko'ra turli-tuman bo'lib, tarixiy davr, siyosiy tizim turi, yetakchi va uning konstituyentlari xususiyatlari kabi qator omillarga bog'liqdir.

Siyosiy yetakchilik turlari. Hozirgi zamon siyosatshunosligida siyosiy yetakchilar u yoki bu mezonlarga ko'ra xilma-xil turlarga ajratiladi.

Rahbar qo'l ostidagilariga munosabatiga ko'ra avtoritar va demokrat yo'lboshchilarga ajratiladi.

1. Avtoritar yetakchilik — tanho yo'naltirilgan ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, taqiqlovchi choralar, kuch ishlatishni nazarda tutadi.

2. Demokratik yetakchilik — rahbar tomonidan guruh yoki tashkilot barcha a'zolarining fikrlari, manfaatlarini hisobga olishda, ularni boshqaruvga jalb etishda ifodalanadi.

Siyosatshunoslikda siyosiy yetakchilikni turlarga ajratishning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri M. Veberning hokimiyatni legitimlashtirish usullari haqidagi ta'limotiga borib taqaladi.

Unga muvofiq yetakchilar an'anaviy, xarizmatik va ratsional-legal yetakchilarga bo'linadi. Birinchi turdagi yetakchilik asosida odatlar, ikkinchisida e'tiqod va hissiyotlar, uchinchisida esa tafakkur yotadi.

An'anaviy yetakchilik. Yetakchilikning bu turi an'analar, marosimlar, odat kuchi kabi mexanizmlarga tayanadi. Itoat qilish odati an'analarning muqaddasligiga va hokimiyatning meros tariqasida o'tishiga asoslangan. Urf-odat va an'analar jamiyatda nafaqat yo'naltiruvchilik vazifasini, balki avlodlararo vorisilikni, tarixiy taraqqiyotning uzviyligini ham ta'minlaydi. Bizning zamonamizda monarxiyani goho o'z tarixiy rolini bajarib bo'lgan, o'tmishga xos hokimiyat boshqaruvi deb hisoblashadi. Lekin bu fikr unchalik to'g'ri emasga o'xshaydi. Aks holda hozirgi Ispaniyada aynan monarx boshqaruvi jamiyatni general Frankoning diktatorlik rejimidan demokratiyaga tomon nisbatan muvaffaqiyat bilan olib o'tganligini qanday izohlash mumkin? Umuman olganda, yetakchilikning bu turi dohiylar, oqsoqollar, shohlar boshqaruvi uchun xosdir.

Xarizmatik yetakchilik. Yetakchilikning bu turiga M. Veber inqiroz davrida jamiyatni inqilobiy tarzda yangilashning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraydi. Chunki yetakchilikning bu turi hukmdor — yetakchining qudratiga nisbatan xalqning cheksiz ishonchiga asoslangandir. Ommaning fikricha, rahbarlik uchun alohida xislatlar, buyuk sifatlar, g'ayrioddiy qobiliyatlarga ega bo'lgan xarizmatik yetakchilar xalqni ijtimoiy yangilanish vazifalarini yechishga safarbar eta oladilar. Aslida esa yetakchining individual sifatleri uning xarizmasi shakllanishida ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Masalan, Lenin, Stalin, Gitler, Mao Szedun, Kim Ir Sen, Fidel Kastrolar xarizmatik yetakchilar bo'lishgan.

Ratsional-legal yetakchilik yetakchini saylash tartibi, unga berilgan hokimlik vakolatlarining oqilligi, qonuniyligi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi. Chunki, jamiyat taraqqiyotidagi nisbatan tinch davrlarda tarixiy an'analarni asrab-avaylovchi va zaruriy islohotlarni amalga oshiruvchi ratsional-legal yetakchilarga ijtimoiy ehtiyoj, zarurat yuzaga keladi.

Umuman esa ko'pchilik davlatlarning tarixida siyosiy yetakchilik turlarining almashinuvida ma'lum bir ketma-ketlik kuzatiladi. Masalan, xarizmatik yetakchi an'anaviy yetakchiga, u esa, o'z navbatida, islohotchi-qonunchiga (ratsional-legal yetakchiga) o'z o'rnini beradi.

Yetakchilarni turlarga ajratishning yana bir ko'rinishi haqida AQSHning Prinston universiteti professori Robert Taker taklif kiritgan. U 1987-yilda nashr etilgan «Политическая культура и лидерство в Советской России. От Ленина до Горбачева» («Sovet Rossiyasida siyosiy madaniyat va yetakchilik. Lenindan Gorbachevga qadar») nomli asarida yetakchilarni uch turga bo'ladi:

1. *Konservatorlar* — jamiyatni o'z holatida saqlab qolishga qaratilgan faoliyat olib boruvchilar.

2. *Reformatorlar* — hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohotlar vositasida tubdan o'zgartirishga intiluvchilar.

3. *Inqilobchilar* — odatda, qurol kuchi bilan boshqa ijtimoiy tuzumga tez, sakrash orqali o'tishni rejalashtiruvchilar.

Hozirgi zamon siyosatshunosligida yetakchilarning 4 ta yig'ma timsoli aytib o'tiladi:

- 1) bayroqdor yoki buyuk inson;
- 2) xizmatchi;
- 3) savdogar;
- 4) o't o'chiruvchi.

Bayroqdor yetakchi voqelikni o'zicha ko'ra bilish, jozibali ideal, ommani qiziqтира olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Lenin, Gitler, Martin Lyuter King, Humayniylar bunday yetakchilarning tipik vakillari bo'lishgan.

Xizmatchi yetakchi ham o'z tarafdorlari va saylovchilarining manfaatlarini ifoda etishga intiladi va ular nomidan ish ko'radi.

Savdogar yetakchi uchun o'z g'oya va rejalarini chiroyli qilib ko'rsatish, ularning afzalligiga fuqarolarni ishontira olish hamda bu g'oyalarni «sotib olishga» majbur qilish va shuningdek, ularni amalga oshirishga ommani jalb etish xosdir.

O't o'chiruvchi yetakchi dolzarb ijtimoiy muammolarga yechim topib, davrning muhim talablarini mo'ljalga oladi. Uning xatti-harakati aniq vaziyatga ko'ra aniqlanadi.

Real hayotda yetakchilikning bu to'rt ideal timsoli, odatda, sof holda emas, balki aralash holda uchraydi.

Yetakchilarning vazifalari ular faoliyatining bosh yo'nalishidir. Vazifalar doirasi siyosiy tartibot, fuqarolik jamiyatining yetukligi, aholi turmush darajasi kabi omillarga bog'liq bo'lib, birinchidan, jamiyatdagi vaziyatni tahlil etish va baholashni mo'ljallovchi tashxisni; ikkinchidan, ijtimoiy muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi faoliyat yo'nalishi va dasturini aniqlashni; uchinchidan, maqsadlarni amalga oshirish uchun ijrochilarni (amaldor shaxslar, omma) safarbar etishni qamrab oladi.

Yetakchining vazifalarini yanada aniqroq tavsiflash ham mumkin. Bu aniq jihatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *Jamiyatni jipslashtirish va birlashtirish.* Yetakchi boshqa davlatlar bilan munosabatlarda milliy birlikni o'zida namoyon qilishi, umumiy maqsadlar va qadriyatlar yo'lida fuqarolarni birlashtirishi, Vatanga, davlatga, xalqqa xizmat qilishda o'rnak bo'lishi lozim.

2. *Eng maqbul siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish.* Yetakchi xato qilishdan kafolatlanmagan bo'lsa ham ijtimoiy vazifalarni hal qilishning eng maqbul yo'lini topa olishlik qobi-

liyati, odatda, uning rahbarlik lavozimini egallashini oqlaydi.

3. *Ijtimoiy hakamlilik, qo'riqchilik, ommani qonunsizlikdan, turli darajadagi amaldorlarning o'zboshimchaligidan himoya qilish, tartibot va qonunchilikni nazorat, rag'batlantirish va jazolash choralari orqali saqlab turish.*

4. *Hokimiyat va ommaning muloqotini, siyosiy va hissiy aloqa kanallarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning hokimiyatdan begonalashuvining oldini olish.* Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideniye, shuningdek, saylovchilar bilan o'zaro uchrashuvlar va boshqa tadbirlar orqali siyosiy yetakchilar omma bilan bevosita aloqada bo'lishning keng imkoniyatlariga ega bo'lalilar.

5. *Yangilanish tashabbuskori bo'lish, optimizm va ijtimoiy energiyani to'plash, ommani siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga safarbar qilish.* Yetakchi xalq an'analarini avaylab saqlashi, o'z vaqtida yangiliklarni ilg'ay olishi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashi, xalqda ijtimoiy ideallar va g'oyalarga nisbatan ishonch uyg'otishi lozim.

6. *Siyosiy tizimni legitimlashtirish.* Bu vazifa, asosan, totalitar davlatlar yetakchilariga xosdir. Siyosiy rejim o'zini o'zi oqlay olmaganida u buni xarizmatik yetakchining alohida xususiyatlaridan izlashga urinadi. Masalan, bolsheviklar hokimiyatning ko'p asrlik an'analarini shafqatsiz vayron etganda Marks, Lenin, Stalin shaxsini ilohiylashtirish orqali totalitar tizimni legitimlashtirishga uringan edilar. Lekin bu urinish butun tarixda bo'lganidek, siyosiy tizim legitimligini emas, balki faqatgina uning legalligini ta'minlagan edi, xolos.

Ma'lumki, sobiq Ittifoqning inqirozi va parchalanib ketishi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan respublikalarda «milliy miqyos»dagi o'tish davri yetakchilarini jamiyat va davlat rahbarligiga olib keldi. Bu yetakchilar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirish, demokratik o'zgarishlar ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda siyosiy yetakchi va rahbarlar jiddiy muammolarga duch keldilar. Bunday sharoitlarda siyosiy yetakchidan katta mas'uliyat, o'tkir zehn, har qanday muammoning tub mohiyatini ko'ra

olish, jasurlik va dadillik, odamlarning tabiatini yaxshi his qilish, ularga ishonish, ulardagi yashirin kuch va imkoniyatlarni kashf eta olish, yangicha siyosiy tafakkur talab etilardi. Bunday xususiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning puxta o'ylangan dasturini ishlab chiqdi hamda O'zbekistonning salohiyati buyukligiga, uning o'tmishda jahon tamadduniga katta hissa qo'shganiga asoslanib, kelajagi ham buyuk bo'lishi to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi. Turli sessiya va boshqa anjumanlarda nafaqat yutuqlarimiz, balki hali hal qilinmagan muammolar, iqtisodiy murakkabliklar, islohotimiz nimalarda oqsab qolayotgani haqida so'zlab, jamoatchilikni, rahbarlarni bu muammolarni bartaraf etishga chorlamoqda. Shu munosabat bilan Prezident I. A. Karimovning «Qachonki rahbarning yuragi ham, qo'li ham toza bo'lsa, tamadan, g'arazdan yiroq bo'lsa, uning tabiatida qat'iylik bilan vazminlik, talabchanlik bilan aql-zakovat uyg'un bo'lsa, faqat shundagina u odamlarning g'am-tashvishini o'z qalbidan o'tkazishga qodir bo'ladi»¹, deb ta'kidlashi bejiz emas, albatta.

Prezident tomonidan turli muassasa va tashkilotlar rahbarlari oldiga qo'yilgan talablar sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga ham taalluqli bo'lib, ularning mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgandir. Chunki «Bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi, hech mubolag'asiz, butun hokimiyatning obro'si va kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi»².

O'zbekistondagi hozirgi siyosiy yetakchilikning o'ziga xos jihatlari xususida xorijlik mutaxassislarning ham fikr-mulohazalari e'tiborga loyiq. O'zbekistondagi siyosiy tizim va boshqaruvdagi xususiyatlarni tahlil qilish, ularning fikrlaricha, bu yerdagi yetakchilikda ijtimoiy-siyosiy vaziyat taqozo etayotgan o'ziga xos avtoritarizmni ham, sharqona demokratiya bilan uyg'unlashgan xarizmatizmni ham, islohotchilikni ham, demokratizm

¹ *Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т. 13. — Т., 2005. — В. 31.

² *O'sha manba.* — 189.

tomon intilgan ratsional-legal yetakchilikni ham o‘zaro bog‘liq holda ko‘zga tashlanayotganidan dalolat beradi.

Taniqli huquqshunos L. Levitinning yozishicha «Hozir O‘zbekistonda Prezident I. A. Karimov tomonidan qat’iy siyosat yuritilmoqda. Biroq bu siyosat, birinchidan, aksariyat aholining kuchli yagona hokimiyatga bo‘lgan an’anaviy ehtiyojlariga javob beradi, ikkinchidan, barqarorlikni ta’minlayapti, uchinchidan, islom aqidaparastligiga qat’iyat bilan qarshi turmoqda va to‘rtinchidan, unda tashqaridan kelayotgan demokratlashtirish talablariga moslashish tamoyili mavjud»¹.

Yevroosiyo mintaqasida avtoritar an’analar, rahbardan najot kutish, unga umid va ishonchni o‘zida mujassam etuvchi tasavvurlar uzoq tarixga borib taqaladi. Asosiy masala esa siyosiy yetakchi shaxsining buyuk o‘zgarish — davlat mustaqilligiga erishgan jamiyat talablariga qanchalik darajada muvofiq kelishidadir. Taniqli rus faylasufi Ivan Ilin XX asrning 50-yillaridayoq «kommunistik rejim qulaganidan keyin Rossiyada ikkita imkoniyat bo‘ladi — yo qattiq va oqilona avtoritar rejim uni parchalanishidan saqlab qoladi yoki boshidan-oyoq anarxiya yuz beradi», deb bashorat qilgan edi. Shu sababli uning «O‘tish davrida avtoritarizm Rossiya uchun najot yo‘lidir»² degan nuqtayi nazari muayyan ma’noda mintaqadagi boshqa mamlakatlarga ham tegishlidir. Buning ustiga Markaziy Osiyo xalqlari qariyb 130 yil davomida mustamlakachilik zulmi ostida ezilganligini, bir necha avlodlar umrguzaronligi totalitar yetakchilik hukmronligi ostida kechganligini inobatga oladigan bo‘lsak, bu yerdagi avtoritar boshqaruv jarayonlariga unchalik hayratlanmay qarash mumkin, albatta.

3. Siyosiy yetakchilikning shakllanish tartibi. Demokratik jamiyatda siyosiy yetakchi va siyosiy elitaning o‘rni

Zamonaviy siyosatshunoslik siyosiy yetakchilikning shakllanish tartibida ikki xil yo‘nalish, prinsip mavjudligini qayd etadi.

¹ *Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Президент Ислон Каримов тарафдорининг танқидий мулоҳазалари. — Т., 2001. — В. 24.*

² O‘sha manba. — В. 20.

1. Nomenklatura prinsipi (biror yuqori tashkilot hisobida turadigan va shu tashkilot tomonidan belgilanadigan, tayinlanadigan xodim) totalitar tizimlarda amal qiladi va bunda yetakchilikka tanlash jamoatchilik ishtirokisiz, hukmron, oz sonli odamlar guruhi orasida amalga oshiriladi.

2. Demokratik prinsip liberal-demokratik tizimlarda amal qiladi. Ularda siyosiy yetakchi ochiq siyosiy kurash natijasida siyosat maydoniga kirib keladi, hokimiyat zinapoyalarida uning quyidan yuqoriga ko'tarilishini jamiyatning muayyan ijtimoiy guruhlar ommaviy tarzda qo'llab-quvvatlaydi.

Nomenklatura (apparatga oid) prinsipi asosan totalitar va avtoritar rejimlarga xos bo'lib, unda siyosiy yetakchilik aslida qo'lga kiritilmaydi, balki shaxs yetakchilikka tayinlanadi yoki qo'yiladi. Bu masalani siyosatdagi oz sonli hukmron guruh hal etadi. Yetakchilar, rahbar kadrlarni tanlashning bunday ma'muriy-buyruqbozlik prinsipiga sobiq Ittifoqda amal qilinar edi.

Siyosiy yetakchilikni shakllantirishda nomenklatura prinsipi hech qanday siyosiy muxolifning aralashuviga imkon bermaydi, yetakchining axloqiy va siyosiy jihatdan buzilishiga olib boradi. Vaqt o'tishi bilan nomenklaturaga xos yetakchilik o'z effektivligini yo'qota boradi. Brejnev, Chernenko kabi sobiq sovet yetakchilarining siyosiy faoliyati bu fikrning isbotidir. Goho vaziyat taqozosi bilan ushbu prinsipni buzishga harakat qiluvchi, hukmron guruhga «begona» bo'lgan shaxslarning hokimiyat tepasiga kelishi ehtimoli ham ro'y beradi. M.S. Gorbachyovning 1985-yilda hokimiyat tepasiga kelishini shu bilan izohlash mumkin.

Demokratik prinsipning xarakterli tomoni shundaki, siyosiy yetakchi «birinchi shaxs» o'rnini egallash uchun siyosiy elitalar o'rtasida kechadigan ochiq siyosiy kurash jarayonida o'z avtoriteti (obro'-e'tibori), muayyan ijtimoiy guruhdagi, jamiyatdagi umum e'tirof etgan obro'-e'tibori orqali yetakchilikka keladi. Yetakchining hokimiyatda yuqoriga ko'tarilishi muayyan ijtimoiy guruhlar, xususan, siyosiy elita madadi, qo'llab-quvvatlashi bilan oshkora tarzda kechadi.

Xo'sh, **siyosiy elita** nima va u siyosiy yetakchilikning demokratik prinsiplar asosida shakllanishida qanday ahamiyat kasb etadi?

«*Elita*» atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, «*saralangan, saylangan*» degan ma‘noni bildiradi. Siyosiy elita esa alohida ijtimoiy sifatlarga, siyosiy ta‘sir etishning muayyan darajasiga ega bo‘lgan va u yoki bu davlatning hokimiyat institutlari uchun rahbar kadrlarning asosiy manbasi hisoblangan katta ijtimoiy guruhlariga mansublikni anglatadi. Siyosat subyektlari orasida muhim o‘rinni egallovchi siyosiy elitalar tarkibiga oliy rahbar kadrlar, boshqaruvchilar, katta obro‘ga ega bo‘lgan g‘oyaviy ish bilan shug‘ullanuvchilar, shuningdek, iqtisodiy va ma‘muriy doiralar, ommaviy axborot vositalari, ta‘lim-tarbiya muassasalarining ko‘zga ko‘ringan vakillari kiradi.

Siyosiy elitalar doimo o‘zgarib boradi. Ularning taraqqiyotida aristokratik va demokratik yo‘nalishlar qayd etiladi. Aristokratik yo‘nalishning ustunlik qilishi siyosiy elitaning «yopiqligiga va kristallashuviga», ya‘ni sifat jihatdan o‘zgarib, turg‘unlashuviga olib keladi. Odatda, hukmron elita o‘z imtiyozlari va ijtimoiy mavqelarini meros tariqasida o‘zining noelitar avlodlariga berishga harakat qiladi. Natijada, elita tarkibi sifat jihatdan buzilib, jamiyatda hukmronlik uchun intiluvchi yangi ijtimoiy kuchlar — kontrelita guruhlarining kurashi faollashuvi ro‘y beradi. Hukmronlik va imtiyozli mavqeni egallash uchun yuksak psixologik va ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lgan ko‘pgina kishilar intiladilar. Lekin hech kim o‘z mavqeyi va lavozimini ko‘ngilli ravishda bo‘shatib bermaydi, shuning uchun elitalar orasida ochiq va yashirin holda hukmronlik uchun kurash borishi tabiiydir.

Demokratik yo‘nalishdagi taraqqiyotda siyosiy elitalar qatlamlarining yetakchilikka oid qobiliyatlari odamlar hisobiga yangilanib boradi. Bu esa siyosiy elitaning degenaratsiya jarayonlarini oldini oladi va uning jamiyatni boshqarishdagi samaradorligini ta‘minlaydi.

Hozirgi davrda demokratik jamiyatlar uchun dolzarb vazifalardan biri elitar guruhlariga qarshi kurash emas, balki jamiyat uchun foydali siyosiy elitalar guruhini shakllantirish, unda ijtimoiy vakolatlilik yangilanib turishining yuqori sifatini ta‘minlash, oligarxiyalashuvi, xalqdan begonalashuvi va yopiq hukmron, imtiyozli tabaqaga aylanishining oldini olishdir.

Siyosiy yetakchilarni tanlashning demokratik prinsipi ikki xil usul bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. *Stixiyali tanlash* (quyidan ko'tarilish). Bunda ijtimoiy fikr shkalasi yo'nalishiga tayaniladi. Bunday tanlash usuli siyosiy yo'lning tub burilish davrida yangi yetakchilarni paydo qiladi.

2. *Yetakchi* – rahbarlarni maqsadga muvofiq shakllantirish – siyosiy ta'lim va amaliyotni o'z ichiga qamrab oluvchi yaxlit bir tizimni taqozo etadi.

O'zbekistonda siyosiy kadrlarni tayyorlashda aynan ikkinchi yondashuvga tayanilmoqda. Shu maqsadda 1995-yilda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ish boshladi. Unda davlat boshqarish tuzilmalarining rahbarlik bo'g'ini uchun sifat jihatdan yangi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. Chunki siyosiy mehnat tobora ko'proq shifokor, konstruktor yoki advokatlik kasblari kabi kasb-korga aylanmoqda. Yangi parlament – Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligi O'zbekistondagi yangi bir siyosiy kasbga aylanib ulgurdi. Shuning uchun ham siyosatchi amalda aholi talablarini aniq ifodalashni ta'minlashni, kollektiv qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan parlament va hukumat organlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va alohida kishilar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yuvchi, mojarolarni hal etish va kelishuv yo'llarini topuvchi, ijtimoiy aloqalar sohasidagi mutaxassisga aylanib bormoqda. Shak-shubha yo'qki, yetakchilarni, siyosiy elitani maqsadga muvofiq ravishda shakllantirish yetakchilik haqidagi an'anaviy, asosan, xarizmatik tasavvurlarni ko'p darajada o'zgartiradi.

O'zbekistonda davlat apparatini takomillashtirishning o'ta murakkab muammolari yechimini izlashda avlodlar almashuvi yo'lidan borilmoqda. I. A. Karimov bu masalada o'z nuqtayi nazarini ta'riflab: «Mening eng katta ishonchim yosh avloddir. Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmli, ko'rsang havasing keladigan, barkamol va shijoatli farzandlarimizdir. Men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz

¹ *Каримов И.А.* Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. – Т., 1999. – В. 222.

taqdirini ham ana shularning qiyofasida ko‘raman»,¹ degan edi.

1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan va 1998-yilning 1-mayida o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan «Davlat yoshlar siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi qonun ham, 2008-yilning “Yoshlar yili” deb e‘lon qilinganligi ham ana shunga qaratilgan. O‘zbekiston hozirning o‘zidayoq rahbarlik lavozimlariga ko‘tarish uchun mustaqillik davrida shakllangan yangicha, demokratik tafakkurga ega bo‘lgan kadrlar vakillari zahirasiga ega. Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish vazifalari mana shu yangi, sog‘lom avloddan samaraliroq foydalanishni taqozo etadi. Chunki, mamlakatni yanada rivojlantirishning istiqbollari ko‘p jihatdan barkamol yosh avlodga bog‘liqdir.

Tahlil etilgan masalalar yuzasidan xulosa qilinganda, hozirgi dunyoda siyosiy yetakchilik rivojlanishining quyidagi beshta tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda:

1. Milliy yetakchilar global muammolarni endilikda chetlab o‘ta olmaydilar. Ular o‘z ichki siyosatlariga umumjahon, global jarayonning bir qismi sifatida qaramoqdalar.

2. Norasmiy yetakchilarning roli va ta‘siri ortib bormoqda.

3. Yetakchilar faoliyati iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko‘proq qaratilyapti. Bu yetakchi faoliyati bilan bog‘liq ravishda u yoki bu millatning turmush darajasining o‘shishida namoyon bo‘lmoqda.

4. Demokratik nazoratning rivojlanishi bois yetakchi-qahramon va yetakchi-antiqahramon kabi siyosatchilarning paydo bo‘lishi ehtimoli kamaymoqda, ya‘ni Napoleon, Gitler, Lenin, Stalin kabilar paydo bo‘lmayapti.

5. Hokimiyatlar bo‘linishi va fuqarolik jamiyati chegaralarining kengayishi hisobiga siyosiy yetakchi hokimiyati ham cheklanyapti.

Xullas, siyosiy yetakchilik ikki xil usulda, ya‘ni nomenklatura yoki demokratik yo‘l bilan shakllanadi. Siyosiy yetakchilikning ijtimoiy ahamiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri siyosiy madaniyat darajasi va ommaning faolligi bilan bog‘liq. Faol siyosiy madaniyatning, barqaror demokratik an‘analarning mavjudligi, davlat

tomonidan nazorat qilinmaydigan fuqarolik jamiyati va siyosiy muxolifatning borligi zaif yetakchilar uchun imkoniyatlarni keskin kamaytiradi. Turli xil o'zboshimchalik va hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini oladi, shu bilan birga, siyosatda individual qobiliyatlar hamda talantlarni namoyon qilishga keng yo'l ochib beradi.

Tayanch tushunchalar

Yetakchilik, siyosiy yetakchilik, xislatlar nazariyasi, vaziyatlar nazariyasi, konstituyent, psixoanalitika nazariyasi, siyosiy yetakchilik turlari, an'anaviy yetakchilik, xarizmatik yetakchilik, ratsional-legal yetakchilik, konservator, reformator, inqilobchi, yetakchining vazifalari, nomenklatura prinsipi, demokratik prinsip, elita, siyosiy elita, siyosiy yetakchilik rivojlanishining yangi tendensiyalari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Siyosiy yetakchilik» tushunchasi va uni izohlovchi yondashuvlar to'g'risida gapiring.
2. Markaziy Osiyo mutafakkirlari va davlat arboblarning yetakchilik to'g'risidagi qarashlarini tahlil qiling.
3. Hozirgi zamon siyosatshunosligida siyosiy yetakchilar qanday turlarga ajratiladi?
4. Yetakchilarning vazifalari nimalardan iborat?
5. Siyosiy yetakchilik qanday prinsiplar asosida shakllantiriladi?
6. Demokratik jamiyatni barpo etishda siyosiy yetakchi va siyosiy elitaning mas'uliyati nimalardan iborat?
7. Kadrlar tayyorlashning liberal-demokratik, totalitar va teokratik tizimlarining o'zaro tafovutlarini aniqlang.
8. O'rgangan bilimlaringiz asosida muayyan siyosiy yetakchining siyosiy qiyofasini tahlil qilib bering. Tanlagan qahramoningizning shaxsiy fazilatlarini, siyosiy dasturi va faoliyatiga e'tibor bering.

ADABIYOTLAR

Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. — Т., 1996. — Б. 348.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 9–37, 174–222.

Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш — барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. — Т., 2007. — Б. 320.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодийтимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. Т., 2008. — Б. 368.

Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Т., 2008. — Б. 176.

Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. 1-китоб. — Т., 2003. — Б. 320.

Бозорбоев Б. Сиёсий лидерлик феномени. — Т., 1993.

Бурлацкий Ф. Ислам Каримов — лидер, оказавшийся на высоте в период становления государственной независимости Узбекистана // Правда Востока. — №18. — 12 сент. — 2001.

Джавакова К.В. Политическое лидерство: Учебное пособие. — Т., 1999.

Карлайн Д., Левитин Л. Ислам Каримов — Президент нового Узбекистана. — Австрия, 1995. — Т., 1996. — С. 3–24.

Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Президент Ислам Каримов тарафдорининг танқидий мулоҳазалари. — Т., 2001. — Б. 3–45.

Қодиров А.Қ. Жамиятни демократлаштиришда сиёсий элитанинг роли // Ҳуқуқ—Право— Law. — 2001. — №1.

Макиавелли Н. Ҳукмдор // Жаҳон адабиёти. — 2002. — № 9.

Низомулмулк. Сиёсатнома ёки Сияр ул-мулк. — Т., 1997. — Б.12–24.

О них говорят. Политические портреты зарубежных деятелей /А.Красиков, С.Воловец, Б. Шестаков и др.— М., 1989. — С. 30–54.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. — Т., 2004. — Б. 164–183.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. — Т., 1997. — Б. 181–198.

Темур тузуклари /Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир Муҳаммад Али, форсчадан тарж. А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов. Т., 2005.

Шарафиддинов О. Мустақиллик меъмори // Тафаккур. — 2003. —№ 1. — Б. 4–23.

JAMIYAT SIYOSIY HAYOTINING DEMOKRATIK ASOSLARI

1. «Demokratiya» tushunchasi, uning mohiyati va amal qilish mexanizmlari

«Barcha odamlar respublika shaklidagi davlatlarda ham, mustabid davlatlarda ham tengdirlar; birinchi holatda ular hamma narsani hal qiluvchi bo'lganliklari uchun, ikkinchi holatda esa «hech narsa» ekanliklari uchun tengdirlar... Erkinlik – qonun ruxsat etgan barcha ishni qilishdir».

Sh. Monteskyo.

«Demokratiya» tushunchasi. «Demokratiya» bugun dunyo xalqlari va siyosatchilari tomonidan keng qo'llaniladigan so'zga aylanib qoldi. Xo'sh, demokratiyaning o'zi nima, belgilari, asosiy shartlari nimalardan iborat? Demokratiyada erkinlik, tenglik, ma'naviyat, qadr-qimmat qanday bo'ladi? Va, biz demokratiyani qanday tushunamiz?

Odatiy mushohadalarga zid o'laroq, demokratiya kecha paydo bo'lgani yo'q, qolaversa, u G'arbning mahsuli ham emas, aksincha, demokratiya qadim-qadimda Sharqda shakllanganidir. Garchand biz ko'p yillik sivilizatsiya tarixini yunonlardan, rimliklardan boshlab o'rgangan bo'lsak-da, qadim madaniy taraqqiyot aslida hindlardan, ulardan ham avvalroq xitoyliklardan-u turkiy ajdodlarimiz bo'lgan xunlardan boshlangani bugun biz uchun sir emas. O'tmishda Konfutsiydan bu o'tkinchi dunyoda odamday yashash uchun kerak bo'ladigan yo'lni, hayot tarzini birgina so'z bilan ifodalaganda u qanday so'z bo'lardi deb so'rashganida u: «Kenglik, bolalarim, kenglik!» degan ekan.

Aslida demokratiya shu – bag'rikenglik, murosa, birovni chidab eshitish, kengashish, mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal qilmoq, qanchalik noqulay bo'lmasin, o'zgacha fikrni ham eshit-

moq, hamma ijtimoiy tabaqalar bilan, xalq bilan hisoblashmoqdir. Insoniy munosabatlardagi ana shu bag'rikenglikni davlat siyosatiga aylantirib, uni «demokratiya» deb ataydilar¹.

Demokratiyaning etimologik ta'riflari. Hozirgi davrda «demokratiya»ning bir necha ma'nolari mavjud. «Demokratiya»ning *birinchi ma'nosi* uning etimologiyasi, ya'ni atama sifatida kelib chiqishi bilan bog'liq. Chunki, Qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan «demokratiya» atamasi demos — «xalq», kratos — «hokimiyat»dan iborat bo'lib, «xalq hokimiyati» deb tarjima qilinadi. AQSHning sobiq prezidenti A. Linkoln ushbu ta'rifni yanada tushunarliroq qilib, «Demokratiya — xalq uchun xalq saylagan xalq boshqaruvidir», deb izohlaydi. (government of the people, by the people, for the people.) Yuqoridagi ta'riflarga ko'ra, demokratiya xalqning o'zidan kelib chiqadi («of»), xalq tomonidan amalga oshiriladi («bu»), xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi («for»).

Biroq ayrim mualliflar «demokratiya» so'zining tom ma'nosi, ko'pchilik o'ylaganidek, «xalq hokimiyati» emas, balki «yo'qsillar hokimiyati» («demos» — mulksiz, yo'qsil, mansabsiz) deb hisoblaydilar². Bu fikrni rad etish shuning uchun ham mushkulki, miloddan avvalgi Qadimgi Gretsiyadagi Afina davlatida 400 ming aholi bo'lib, uning faqatgina 40 mingigina teng huquqli fuqarolar bo'lishgan³. Mana shu o'n foiz aholi butun «demos» nomidan hokimiyatga da'vogarlik qilgan. Buning ustiga ayollar, ko'chib kelganlar, qullar siyosiy huquqlarga ega bo'lmaganlar.

Demokratiyaning etimologik ta'rifiga nisbatan kengroq tushunish uning *ikkinchi ma'nosini* keltirib chiqaradi. Unga ko'ra demokratiya — «boshqaruv va qarorlar qabul qilinishida a'zolarining teng ishtirokiga asoslanuvchi har qanday tashkilotning tuzilish shakli», deya e'tirof etadi.

Uchinchi ma'noda demokratiya qadriyatlarining ma'lum bir tizimiga asoslanuvchi ijtimoiy tuzum ideali sifatida tushuniladi va uning qadriyatlariga erkinlik, tenglik, inson huquqi, xalq suvereniteti va boshqalar kiritiladi.

¹ Демократия ва инсон ҳуқуқлари. «Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари» туркумидан 10-рисола. — Т., 1997. — В. 33.

² O'sha manba. — В. 55.

³ Ирхин В.Д., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология. — М., 2000. — С. 241.

To'rtinchi ma'nosida demokratiya xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun ijtimoiy va siyosiy harakatlar sifatida qaraladi.

Hozirgi tushunishda demokratiya kamchilik huquqini himoya qilgan holda ko'pchilikning hokimiyatini, asosiy davlat organlarining saylanishini, fuqarolar huquqlari va siyosiy erkinliklarining mavjudligini, ularning teng huquqliligini, qonunning ustunligini, konstitutsionalizm va hokimiyatning bo'linishini bildiradi¹.

Demokratiya ichki ziddiyatining mohiyati. Demokratiya tushunchasi jamiyat siyosiy hayotini tashkil etishning demokratik shakllari kabi uzoq tarixga ega. Bunday shakllarni mukammallashtirish hozirgacha ham tugagani yo'q, balki davom etmoqda. Hatto rivojlangan davlatlarda ham demokratiya sohasida yaqqol yutuqlarga erishilganiga qaramay, aholi o'rtasida mavjud demokratiyadan bir qadar darajada qoniqmaslik kayfiyati mavjud. Shu munosabat bilan U. Cherchilning demokratiya dahshatli narsa, lekin insoniyat hali undan afzalroq narsani o'ylab topgani yo'q, degan so'zlarini eslash diqqatga sazovordir. Demokratiya o'z lug'aviy ma'nosiga ko'ra xalq hokimiyatini anglatadi. Demokratiyani bunday tushunish me'yoriy hisoblanadi, chunki bunda u insoniy ideallar, qadriyatlar va istaklardan kelib chiquvchi kategoriyani anglatadi. Demokratiya o'zining mana shunday qadriyatli mazmuniga ko'ra hozirgi dunyoda shu qadar mashhurlikka ega bo'ldi. Lekin demokratiyani bunday me'yoriy tushunish uni jozibador qilib ko'rsatishiga qaramay, voqelikdan uzib, ideallashtiradi. Real demokratiya hech qayerda va hech qachon xalq hokimiyati bo'lgan emas, chunki bunday holda u nodavlat, ijtimoiy o'z-o'zini boshqarishni bildiradi. Aslida «demokratiya» tushunchasi o'zi paydo bo'lgan zamonlardan boshlab davlat bilan, demak, majburlash bilan bog'langan. Shu sababli, demokratiya eng yaxshi ma'noda ko'pchilikning kamchilik ustidan hokimiyati hisoblanadi, ko'pincha esa ko'p yoki kamroq darajada xalq nazoratida bo'luvchi, yaxshi tashkil etilgan ozchilikning boshqaruv shaklidir.

¹ Юридик энциклопедия / Юридик фанлар доктори, профессор У. Таджихановнинг умумий таҳририда. — Т., 2001. — В. 113.

Shu ma'noda hozirgi zamonaviy demokratik jamiyatlar xalq hokimiyatchiligi idealiga nisbatan yaqinroq jamiyatlardir. Jamiyat hayotini boshqarishning ko'pgina vazifalarini hamon va-killik organlari, ya'ni davlat amalga oshirmoqda. Demak, demokratiya hozirgi ko'rinishida davlat boshqaruvining bir shaklidir. Ikkinchi tomondan, demokratiya xalqning o'z hayotini boshqarishda rolining oshib borishi va shunga mos ravishda davlatning ijtimoiy funksiyalarining kamayib, zaiflashib borishidir.

To'liq demokratiya esa ijtimoiy hayotni boshqarishda davlat rolining butunlay to'xtashi va bu jamiyatning nosiyosiy, nodavlat ko'rinishidir. Paradoksni qarangi, u holda — ya'ni davlat yo'qolganda, barham topganda «demokratiya» tushunchasi hozirgi ma'nosini yo'qotadi. Bundan xulosa shuki, modomiki davlat mavjud ekan, demokratik jamiyatda ham demokratiya ideal demokratiya bo'la olmaydi va ijtimoiy ong buni to'g'ri, tabiiy bir reallik sifatida qabul qilmog'i lozim. Shunday qilib, jamiyatda davlat mavjud bo'lganda demokratiya to'liq bo'lmaydi, to'liq demokratiyada esa davlatga — ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning hokimiyat ko'rinishidagi shakliga ehtiyoj qolmaydi.

Demokratiya — siyosiy tizimni tashkil etishning usuli. Yuqoridagilarga ko'ra, hokimiyat — odamlar bir guruhining ikkinchi bir guruh ustidan hokimiyatini bildiradi. Shu bois «demokratiya» xalqni hokimiyat subyekti sifatida qaraydi, lekin hokimiyatga ta'sir etuvchi obyekt sifatida qayd etmaydi. Tabiiyki, demokratiya termini o'z etimologik ahamiyatiga qaraganda bizning zamonda ancha keng mazmun — mohiyat kasb etadi. Bugungi kunda demokratiyaga jamiyatning davlat-siyosiy qurilishi shakli sifatida qarash keng tarqalgan va bunday demokratiya hokimiyat subyekti va manbasi sifatida xalqni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda demokratiya xalqni hokimiyat manbasi deb e'tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarini himoyalovchi, davlatning asosiy organlari — saylovlar natijasida shakllanuvchi hokimiyat tizimi, shakli sifatida tushuniladi.

Mustaqil o'zbek davlatchiligi va ozodlikka erishgan O'zbekiston xalqlari uchun bugungi demokratlashtirish, demokratiya jarayoni G'arb dunyosida keyingi asrlarda shakllangan siyosiy

tamoyillarga ko‘r-ko‘rona ergashish emas, balki ajdodlarimizdan qolgan milliy, insoniy qadriyatlar asosida jahon xalqlari safidan o‘z o‘rnini topishdir. *Demokratiya – o‘zini anglamoqqa, o‘z hayotini o‘z aql-u istagiga monand qurmoqqa va bu harakatning oqibati uchun mas’uliyatni o‘ziga olmoqqa, o‘z-o‘zini boshqarmoqqa, o‘z qadrini bilmoqqa, o‘zini hurmat qilmoqqa asoslangan tuzumdur.*

Ma’lumki, har qanday hokimiyat xalqning ustidan o‘rnatiladi. Demak, «demokratiya» – xalqning xalq ustidan hokimiyati! Insonning o‘z ustidan hokimiyati! O‘zini o‘zi boshqarish! Demokratiyaning siri ham shundadir. Demokratiyada faqat hokimiyat subyekti – hukmdorgina o‘zgaraydi, balki hokimiyat subyekti – xalq ham o‘zgaradi. Xalq esa insonlardan tashkil topgan. Demokratiya – xalqning xalq ustidan hokimiyati sifatida, insonning boshqa bir inson ustidan emas, eng avvalo, o‘z hayoti ustidan hokimiyati. Darhaqiqat, demokratiyaning mazmun-mohiyati ham shundan iboratdir.

Shunday qilib, demokratiyaning asl mohiyati o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z hayotini o‘z qobiliyati, o‘z tafakkuri va o‘z vijdoniga ko‘ra qurish va buning oqibati uchun mas’uliyatni ham o‘ziga olishdir.

Demokratiyaning amal qilish mexanizmlari (prinsiplari). Bu mexanizm rivojlangan mamlakatlarning asrlar davomidagi siyosiy tajribalari natijasida shakllangan bo‘lib, u prinsiplarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ular quyidagilardir:

1. Insonning asosiy iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlarining qonun bilan mustahkamlanishi.

2. Hokimiyat organlarining erkin, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanishi.

3. Ozchilik huquqlarini mustahkam kafolatlagan holda masalaning ko‘pchilik tomonidan hal etilishi, o‘z nuqtayi nazarini ochiq-oydin himoya qila olish huquqi.

4. Bevosita va vakillik demokratiyasining mavjudligi.

5. Siyosiy plyuralizm – kamida ikkita siyosiy partiyaning mavjudligi.

6. Konstruktiv muxolifatning mavjudligi.

7. Belgilab qo‘yilgan vakolatlar doirasida nisbiy mustaqil bo‘l-

gan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bo'linganligi.

8. Sudning mustaqilligi.

9. Alternativ, ya'ni muqobil axborot manbalarining mavjudligi.

Bu talablar u yoki bu mamlakatda boshqaruvning demokratik shakli borligi haqida gapirishga imkon beruvchi minimal sharoitlar hisoblanadi.

Demokratlashtirishning shart-sharoitlari. XXI asrga kelib demokratiya g'oyasi keng tarqalgan g'oya bo'lishiga qaramay, hanuzgacha dunyo aholisining juda oz qismi boshqaruvning bu shakli sharoitlarida hayot kechirmoqda. Modomiki real vaziyat shunday ekan, jamiyat va davlat demokratiyaga o'tishi uchun qanday shart-sharoitlar taqozo etiladi? Darhaqiqat, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, demokratiyani barpo etish bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy va tashqi siyosiy shart-sharoitlarni talab qiladi.

Demokratiyaning iqtisodiy shart-sharoitlari.

1. Mulkchilik shakllari plyuralizmi, rivojlangan bozor va tovar ishlab chiqaruvchilar raqobati mavjudligi, industrial va umuman iqtisodiy rivojlanishning nisbatan yuqori darajasi. Odatda, demokratik mamlakatlar iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha avtoritar va totalitar davlatlardan ilgarilab ketishgan. Ammo iqtisodiy rivojlanish darajasi va demokratiya o'rtasida to'g'ri-dan-to'g'ri bog'lanish yo'q. Sanoati nisbatan yuqori rivojlangan mamlakatda ham avtoritar yoki totalitar tartibot bo'lishi mumkin.

2. Urbanizatsiyaning yuqori darajasi. Yirik shaharlar aholisi boshqaruvning an'anaviy shakllariga moyil bo'lgan qishloq aholisiga qaraganda demokratiyaga ko'proq tayyor bo'ladi.

3. Ommaviy kommunikatsiyaning rivojlanganligi.

4. Raqobatli bozor iqtisodiyoti.

Demokratiyaning ijtimoiy shart-sharoitlari. O'rta sinfga mansub aholi sonining ko'pligi va ijtimoiy plyuralizmning mavjudligi. Kambag'allar va boylarga nisbatan o'rta tabaqaga mansub fuqarolarning ko'pchilikni tashkil etishi hokimiyatni monopollashtiruvchi kuchlarga qarshi posangi bo'lib chiqadi

hamda hokimiyat ustidan samarali nazorat o'rnatishga imkon beradi. Rivojlangan ichki bozor va raqobatbardosh mulkdorlar mavjud bo'lgan mamlakatlarda demokratiyaning shakllanishi muvaffaqiyatli kechadi. Biryoqlama, eksportga mo'ljallangan iqtisodiyot va davlat bilan qo'shib ketgan monopolistik burjuaziyaga ega davlatlar esa ko'proq avtoritarizmga moyil bo'ladi.

Demokratiyaning madaniy shart-sharoitlari. Aholining yuqori savodxonlik darajasi va faol siyosiy madaniyatning mavjudligi. Bilimsiz odamlar, odatda, siyosat va demokratiya bilan qiziqmaydilar, natijada, turli siyosiy kuchlar nayranglari obyektiga aylanib qoladilar. Ma'rifatlilik va faol siyosiy madaniyat demokratiya uchun zarur bo'lgan siyosatda faol qatnashishni, ayni paytda qonunga, ko'pchilikning qarorlariga bo'ysunish qobiliyatini aks ettiradi.

Demokratiya va din. Din demokratiyaga o'tishni sekinlashtirishi ham, tezlashtirishi ham mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda G'arbning ayrim siyosatdonlari va siyosatshunoslari nutqlari, asarlarida «Islom demokratiyani inkor etadi» qabilidagi nuqtayi nazarlar, bayonotlar tez-tez uchramoqda. Bu islomning mohiyatini bilmaslik natijasida kelib chiqqan yangilash fikrlashning natijasidir. Aksincha «Aynan Allohning yak-toligini e'tirof etaroq Islomda demokratiya barhaqdir, chunki Yaratuvchining betakrorligini tan olmoq zamindagi diktatura va diktatorlardan, shaxsga sig'inishlardan asraydi. Islomda faqat Allohning e'tirof etilishi zamindan bandalarning barini uning qoshida teng sharoitga qo'yadi, e'tiqod taqvodorni o'zini «Tang-rining soyasi», «vakili» atayotganlar qoshida qaltiramaslikka o'rgatadi. «Beayb Parvardigor», demak, bandalar gunohdan xoli emaslar, demak, ularga sig'inish ham joiz emas, demak, bu gunohlar haqida so'zlamog' mumkin. Bu Islom plyuralizmidir»¹.

Saylov — davlat hokimiyatini demokratik asosda shakllantirish vositasi. Demokratiyaning amal qilish mexanizmidagi hokimiyat organlarining erkin, teng, to'g'ridan-to'g'ri, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi tamoyili «demokratiya» va «saylov» tushunchalarining bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligidan dalolat

¹ Демократия ва инсон ҳуқуқлари. «Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари» туркумидан 10-рисола. — Т., 1997. — В. 46.

beradi. Demokratik saylovlar uchun sharoit bo'lgandagina mumkin: birinchidan, muqobillik, ikkinchidan, saylov kampaniyasini o'tkazishda erkinlik, uchinchidan esa, saylovchilar xohish va irodalarining erkin ifodalanishi. Saylovlar doimo ovoz berish bilan bog'liq bo'lib, ular umumiylik, tenglik, ovoz berishning yashirinligi, to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ovoz berish kabi demokratik tamoyillarni o'z ichiga qamrab oladi. Hozirgi zamonda saylov tizimining majoritar (muqobillik asosidagi), proporsional (vakolat asosidagi) va unitar turlari mavjud.

Majoritar saylov tizimi («majoritar» fransuzcha majoritaire — ko'pchilik) demokratik tipdagi davlatlarga xos bo'lib, unda «50 foiz plus 1 saylovchi ovozi» tamoyiliga amal qilinadi, ya'ni saylovchilarning yarmidan ko'pi ovozini olishga muvaffaq bo'lgan nomzod g'olib hisoblanadi. Nomzodlarning hech biri ovozlarning yarmidan ko'pini ololmagan taqdirda ikkinchi bosqich saylovlar o'tkaziladi va unda eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod ishtirok etadi. Bu tizimning afzalligi hokimiyatning nisbatan oson shakllanishida va barqarorligida namoyon bo'ladi. Majoritar saylov tizimiga hozirda AQSH, Kanada va Buyuk Britaniya kabi bir qator mamlakatlarda amal qilinadi.

Proporsional saylov tizimining mohiyati — parlamentdagi deputatlik o'rinlarining partiyalar yoki saylov ittifoqlari (koalitsiyalari) olgan ovozlarga muvofiq taqsimlanishida namoyon bo'ladi. Bunda saylovchilar alohida nomzod uchun emas, balki o'z nomzodlari ro'yxatini taqdim etgan partiyalar uchun ovoz beradilar. Bu tizimning afzal tomoni shundaki, vakolatli organlarda partiyalarning saylovchilar o'rtasida ega bo'lgan mavqeyiga ko'ra deputatlik o'rinlarini egallashi jamiyatdagi barcha guruhlarining manfaatlarini ifodalashga, fuqarolarning saylovlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlashga imkon beradi. Saylovning bu tizimiga Yevropa mamlakatlarida keng amal qilinadi.

Unitar saylov tizimi. Ba'zi mutaxassislar fikricha, unitar (fransuzchadan «birlik» demakdir) saylov tizimi hokimiyatning xarizmatik tipiga xos bo'lganligi uchun demokratiyaning antipodi yoki muqobili hisoblanadi¹. Unitar davlat barcha davlat

¹ Қодиров А.Қ. Сиёсат фалсафаси. — Т., 1999. — В. 45.

ma'muriy idoralarning faoliyati o'ta markazlashgan davlatdir. Bunday davlatda, odatda, milliy va iqtisodiy jihatdan bir xillik kuzatiladi, iqtisodiy hududlar siyosiy va huquqiy jihatdan mustaqil bo'lmaydi. Chunki ular yagona konstitutsiya va ular uchun umumiy bo'lgan qonunlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatadi. Unitar saylov tizimi nomzodlarni xalq emas, balki hukmron davlat hokimiyati yoki hukmron partiya tavsiya etadigan saylov tizimidir. Bu tizimning salbiy jihati shundaki, u yoki bu davlat organiga nomzod markazdan tavsiya etiladi. Bu holda mahalliy hudud xohishi inobatga olinmaydi.

Unitar saylov tizimining ijobiy tomoni shundaki, u mamlakatda siyosiy boshboshdoqlik, anarxiya bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, markazdan boshqarib va nazorat etib turiluvchi ijtimoiy tartib, osoyishtalik va tinch-totuvlikni ta'minlaydi. Unitar saylov tizimidan oqilona foydalanish mahalliy hududlarda anarxiya, bosh-boshdoqchilikning oldini oladi. Masalan, Yaponiya va Fransiyada mahalliy boshqaruv organlari bilan bir qatorda markazdan belgilanuvchi vakillar ham faoliyat ko'rsatadi. Natijada, markaz va mahalliy hudud o'rtasida uyg'unlik holati vujudga kelib, mahalliy davlat vakilining hushyorligi ortadi, suiiste'molchilikka, korrupsiyaga yo'l qo'yilmaydi. Biroq unitar saylov tizimi mutlaq afzal saylov tizimi emas. Bu usulda shakllangan hokimiyat muayyan ma'naviy va madaniy shart-sharoitlar doirasidagina ijobiy natijalarni berishi, aks holda esa totalitarizmga, korrupsiyaga yo'l ochishi mumkin.

Bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi. Hokimiyat organlarining tuzilishi va shakllanish tartibiga bog'liq holda demokratik davlatlar parlament, prezidentlik, aralash (yoki yarim prezidentlik) respublikalariga, parlamentli monarxiyalarga bo'linadi. Xalqning boshqaruvda ishtirok etish darajasi, hokimiyat funksiyalarini kimlar bajarishiga bog'liq holda demokratiya bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi kabi turlarga ajratiladi. «Bevosita demokratiya»ni «plebissitar demokratiya», «vakillik demokratiyasi»ni esa «reprezentativ demokratiya» deb atash ayrim ilmiy adabiyotlarda ham uchraydi.

Bevosita demokratiyada xalqning o'zi muhim siyosiy qarorlarni qabul qiladi, hokimiyatning vakillik organlari esa fuqaro-

lar nazorati ostida bo'лади. Masalan, Shveytsariyada fuqarolarning o'zlari tomonidan masalalar ko'rib chiqiladi va o'zlari tomonidan hal qilinadi. Bunga muhim qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, muhim siyosiy va mahalliy ahamiyatga molik qarorlar qabul qilish kabilar kiradi.

Bevosita demokratiya fuqarolarning siyosiy faolligini oshiradi, hokimiyat legitimligini mustahkamlashni ta'minlaydi, davlat instituti va mansabdor shaxslar faoliyatini samarali nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada, hokimiyatni suiiste'mol qilish, deputatning xalqdan uzilib qolishi, amaldorlar byurokratlashuvining oldi olinadi. Lekin bevosita demokratiyada ham fuqarolarning siyosatga ta'sir etish imkoniyatlarini mutlaqlashtirish kerak emas. Chunki bevosita demokratiya fuqarolarga ovoz berish vositasida, odatda, prezident, hukumat, partiya yoki tashabbuskor guruh tomonidan tayyorlangan muayyan qonun loyihasini, qarorlarni ma'qullash yoki rad etish huquqini beradi, xolos. Lekin fuqarolarning bevosita o'zlariga qonunlarni tayyorlash, ularni qonunchilik organlariga yoki umumxalq ovozigiga qo'yish huquqi berilgan taqdirda ham aholining asosiy qismi bunday ishlarda juda sust ishtirok etadi.

Vakillik demokratiyasida esa xalq xohish-irodasi uning o'zi tomonidan emas, balki uning hokimiyat organlaridagi vakillari orqali amalga oshiriladi. Bu — fuqarolarning boshqaruvdagi bilvosita ishtiroki bo'lib, ular qonunlarni qabul qilish va farmoyishlar berish vakolati berilgan o'z vakillarini hokimiyat organlariga saylaydilar. Bunday demokratiyaning aniq ta'rifini nemis siyosatshunosi Ralf Darendorf o'zining tom ma'nosiga qarama-qarshi o'laroq demokratiya «xalq hokimiyati» emas, bunaqasi umuman bo'lmaydi. Demokratiya xalq tomonidan saylanadigan, kerak bo'lsa uning o'zi chaqirib oladigan hukumat, bundan tashqari, o'z yo'nalishiga ega bo'lgan hukumatdir, deb ta'riflaydi. Bunday hukumat vakillik demokratiyalarida ikki usul: parlament va prezident boshqaruvi orqali shakllantiriladi. Masalan, Buyuk Britaniya parlament shaklidagi boshqaruvning vatani hisoblanadi. Boshqaruvning bu shaklini Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Germaniya, Avstriya, Shveytsariya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya kabi mamlakatlarda kuzatsak,

AQSH, Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston davlatlarida esa boshqaruvning prezidentlik shakli hukmronlik qiladi.

Vakillik demokratiyasining asosida doimiy o'tkaziladigan, haqqoniy, halol va muqobil saylovlar yotadi. Hatto bir nomzod qo'yilganda ham xalq uchun saylovda hamisha tanlov mavjud. Bor-yo'g'i bir nomzod qo'yilganda ham saylovchining oldida kamida uchta yo'l ochiladi: birinchidan, shu nomzod uchun ovoz berishi mumkin; ikkinchidan, shu nomzodga qarshi ovoz berishi mumkin; uchinchidan, saylovlarga kelmasligi va bu bilan uni inkor etishi mumkinki, natijada yana yangi saylov o'tkazishga asos yaratiladi. Shu tariqa fuqarolar o'zlarining ustlaridan hokimiyat saylab, uning faoliyatidan hisobdor va xabardor bo'lishga haqli bo'ladilar.

Demokratik shart-sharoitlarda fuqaroning erkinlik, mas'uliyat to'g'risidagi tushunchalari hamda huquqiy savodxonlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, tabiiy holatda inson o'z shaxsi va mol-mulkinging mutlaq hokimi, boshqalar bilan teng, hech kimga qaram bo'lmagan mavjudot ekan, nega u bu erkinligidan ixtiyoriy ravishda voz kechib, o'zini boshqaning hokimiyati va rahbarligiga bo'ysundiradi? Lokkning ta'biri bilan aytganda, «tabiiy holatda inson shunday huquqqa ega, ammo hayotda bunday huquqdan foydalanishi amri mahol, doimiy ravishda boshqalarning bu huquqqa tajovuz qilish xavfi mavjud. Axir, hamma ham uning darajasida hukmbardor, chunki har bir odam unga teng, qolaversa, odamlarning kattagina qismi tenglik va adolatga rioya qilavermaydi, shuning uchun inson tabiiy holatda ega bo'lgan mol-mulkidan foydalana olishi anchayin xavfli, anchayin ishonchsiz». Bu insonni xavotir va qo'rquvlarga to'la erkinligidan voz kechishga undaydi va u «o'z hayotini, erkinliklari va mol-mulkini asrab qolish uchun birlashgan yoki birlashishga tayyorlanayotganlar jamiyatiga qo'shiladi. Shuning uchun insonlar davlatga birlashuvi va o'zini hukumat hokimiyatiga topshirishining ulug' va bosh maqsadi hayotini, haq-huquqlarini va mol-mulkini himoya qilishdir»¹.

¹ Локк Джон. Сочинения, 3-том. — Москва: Мысль, 1988. — С. 334. Қаранг: Демократия ва инсон ҳуқуқлари. «Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари» туркумидан 10-рисола. — Т., 1997. — В. 62–63.

Bunda parlamentariylar, ya'ni deputatlar alohida saylov okruglarining vakillari kabi emas, balki o'z qarorlarida vijdonlari oldidagina mas'ul bo'luvchi, birinchi navbatda butun xalq manfaatlarining ifodalovchilari sifatida qaraladilar. Shu munosabat bilan mashhur siyosatshunos va qonunchi Edmund Byork 1774-yilda Bristoldagi (Angliya) o'z saylovchilari huzuridagi nutqida shunday degan edi: «Janoblar, o'z saylovchilari bilan muayyan ittifoqda, uzviy bog'liqda va sira chegaralanmagan muloqotda yashash, albatta, har qanday xalq vakili uchun baxt va shon-sharafdir. Ularning xohishi deputatga katta mas'uliyat yuklaydi; u saylovchilarning fikrini hurmat qilishi lozim; ularning ishlariga doim e'tibor berishi kerak... Ammo o'zining xolis nazarini, yetuk azmu qarorini, ma'rifatparvar vijdonini u na Siz uchun, na boshqa birov uchun qurbon qilmasligi kerak.

...Parlament — turfa va bir-biriga zid manfaatlarni yo'l boshchi va himoyachi sifatida boshqa yo'l boshchi va himoyachilar bilan kurashda qo'llab-quvvatlashi kerak bo'lgan elchilar majlisi emas, parlament — umumiy manfaati bir bo'lgan butun xalqning masalalarini muhokama etadigan majlisdir. Mahalliy intilishlar ham, mahalliy tafovutlar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmasligi kerak. Hal qiluvchi narsa o'zaro fikr yuritib erishiladigan umummilliy farovonlik manfaatlari bo'lishi lozim. Albatta, parlament a'zosini Siz saylaysiz, ammo Siz uni saylaganingiz zahoti u Bristol fuqarosi emas, endi mamlakat parlamentining a'zosi»¹.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, vakillik demokratiyasi xalqning roziligi bilan amalga oshiriluvchi elita boshqaruvidir. Bunda demokratiyaning rivojlanishi ommaning boshqaruvda to'g'ridan-to'g'ri ishtirokini kengaytirish bilan emas, balki xalq tomonidan nazorat qilinuvchi ratsional elitani shakllantirishning samarali mexanizmini yaratishga borib taqaladi. Shu bilan bir qatorda vakillik demokratiyasining tanqidchilari fikricha, demokratiyaning bu ko'rinishi bir qancha zaifliklarga ham ega: saylovlar orasidagi oraliqda xalqning amalda hokimiyatdan uzoq-

¹ Демократия ва инсон ҳуқуқлари. «Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари» туркумидан 10-рисола. — Т., 1997. — В. 82–83.

lashib qolishi, hokimiyatning byurokratlashuvi hamda oligarxiyalashuvi, ijroiya hokimiyati tomonidan qonun chiqaruvchilarning asta-sekin siqib borilishi oqibatida davlatda avtoritar tendensiyalarning kuchayib borishi, hokimiyat legitimlashuvining sustligi shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari jamiyat siyosiy hayotini demokratik tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Agar demokratiyaning amal qilish mexanizmlari, demokratlashtirishning shart-sharoitlari, saylov va undan ko'zlangan asosiy maqsadlar kabi yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar zamiriga chuqurroq e'tibor bersak, oxir-oqibatda ularning barchasi inson huquqlarini ta'min etishga borib taqalishini ko'ramiz. Demak, insonning jamiyatdagi yuridik va ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini kafolatlamasdan turib jamiyatda demokratik siyosiy jarayonlarni amalga oshirish mumkin bo'lmaydi. Yana shuni e'tiborga olish kerakki, demokratiyani amalga oshirish mexanizmlari qotib qolgan aqida emas. Bu mexanizmlar demokratiya rivojlanishi jarayonida rivojlanib boradi.

2. Demokratik siyosiy tizimning asosiy shakllari va prinsiplari

Siyosat ilmidagi zamonaviy demokratiyaning uch asosiy shakli (modeli) – mumtoz-liberal demokratiya, jamoaviy demokratiya, plyuralistik demokratiya ajratib ko'rsatiladi.

1. Mumtoz-liberal demokratiya. Mumtoz-liberal demokratiya inson huquqlarining davlat huquqlaridan ustuvorligida namoyon bo'ladi. Chunki liberalizm ijtimoiy fikr tarixida birinchi bor individni jamiyat va davlatdan, ikki muxtor sohani – davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan ajratdi, davlatning fuqarolik jamiyati va shaxs bilan munosabatlarini qonun va vazifalar jihatidan chekladi, ozchilikning ko'pchilikka nisbatan muxtoriyati va huquqlarini himoya qildi, barcha fuqarolarning siyosiy teng huquqliligini bayon etdi, shaxsni siyosiy tizimning bosh elementi sifatida fundamental, begonalashmaydigan huquqlar bilan ta'minladi. Demokratiyaning bu shakli AQSHda namoyon bo'lmoqda. Davlat faoliyati bu yerda, asosan, jamoat tartibini saqlashga, fuqarolar huquqlarini yuridik himoyalashga qaratil-

gan. Biroq bu yerda ham individual, guruhlararo manfaatlar bilan umumiy manfaatlar o'rtasida ziddiyatlar mavjud.

Mumtoz-liberal demokratiyaning asosiy xususiyatlari:

1. Individuallik, hokimiyatning birlamchi va bosh manbai deb shaxsning tan olinishi, davlat qonunlari ustidan individ huquqining ustuvorligi.

2. Erkinlikning siyosatda faol va teng huquqli qatnashish imkoniyati emas, balki davlat va boshqa kishilar tomonidan aralashuvlardan saqlangan bo'lishning passiv individual huquqi sifatida talqin etilishi.

3. Parlamentarizmning ustunlik qilishi.

4. Davlat boshqaruvi va vakolati, asosan, jamoat tartibini, fuqarolar xavfsizligi va huquqini, ijtimoiy tinchlikni saqlash bilan chegaralanib, uning fuqarolik jamiyati ishlariga, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlarga aralashmasligi.

5. Hokimiyat taqsimlanishi tamoyiliga amal qilish.

6. Ozchilik ustidan ko'pchilikning hokimiyatini cheklash, individual, guruhiy mustaqillikni hamda erkinlikni ta'minlash. Ozchilik qat'iy belgilangan masalalardagina ko'pchilikka bo'ysunishga majburdir, boshqa hollarda esa to'liq mustaqildir.

Lekin aholining quyi tabaqalari, avvalo, yollanma ishchilar va ayollar XX asr boshlariga qadar saylov huquqlariga ega bo'lishmagan. Saqlanib qolgan mulkiy va boshqa senzlar tufayli kishilar ovoz berish huquqiga ega bo'lmas edilar. Masalan, AQSHning ayrim shtatlarida o'ziga xos mulk senzi — saylov solig'i 1961-yilda bekor qilingan edi. Nazardan soqit qilmaslik kerakki, mumtoz liberalizm ommaga ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. Jumladan, ilk liberalizm mafkurachilari — Jon Lokk, Sharl Lui Monteskyolarni fuqarolarning teng siyosiy huquqlar bilan ta'minlanishi, ularning davlat boshqaruviga jalb etilishidan ko'ra yangi mulkdorlar sinfini monarxlar zo'ravonligi va feodal cheklashlardan himoyalash ko'proq tashvishlantirgan.

Shu bilan bir qatorda aholining kambag'al qatlamlari, ayollarning amalda teng huquqli emasligi oqibatida kelib chiquvchi o'ta cheklangan siyosiy ishtirokchilik, uning oqibatlari bo'lgan siyosiy loqaydlik, fuqarolarning hokimiyatdan begonlashuvi demokratiyaning bu modeli kamchiliklaridir. Chunki bunday

sharoitlarda yuzaga chiquvchi ijtimoiy muhit davlat va jamiyatning asoslarini yemiruvchi manmanlikni va o'taketgan xudbinlikni rag'batlantiradi.

Lekin xalq hokimiyatchiligi idealidan ancha uzoq ekanligiga qaramay demokratiyaning bu modeli inson erki, qadr-qimmatini va eng asosiy huquqlari hurmat qilinishi yo'lidagi katta qadam bo'ldi.

2. Jamoaviy demokratiya. Kollektivistik yoki jamoa demokratiyasi xalq (millat, sinf) yaxlitligidan, birligidan kelib chiqadi, deb talqin etilsa-da, aslida unda yagona iroda u bayon etilgunga qadar mavjud bo'ladi va bu iroda bilan vakolatli hokimiyat faoliyatining aynanligi, o'xshashligi ko'zga tashlanadi. Lo'nda qilib aytganda, jamoa demokratiyasida individ, guruhlar emas, balki xalq qonun va hukumat faoliyatini belgilovchi kuch hisoblanadi. Bunday demokratiya xalqni ijtimoiy subyekt sifatida tan olishdan kelib chiqadi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunish tamoyilini mutlaqlashtiradi, shaxs avtonomiyasini inkor etadi. Jamoaviy demokratiyani amalga oshirishga urinish «xalq» nomidan hokimiyatdagi ozchilik hukmronligiga, siyosiy huquqlar va fuqarolar erkinligini bostirishga, qatag'onlarga olib keladi.

Jamoaviy demokratiya nazariyasining taniqli vakillari — Russo, Marks va Leninlardir. Jamiyatni liberallarcha «ommiy» va «shaxsiy»ga bo'lishni tanqid qilgan Russo fikricha, demokratik davlat fuqarosi shaxsiy hayotga berilib ketgan individualist emas, balki yagona «ijtimoiy tana»ning faol a'zosidir. Ko'p o'tmay, 1789—1791-yildagi fransuz inqilobi yetakchilaridan biri bo'lgan Robesper Russoning xalq irodasining birligi va ziddiyatsizligi to'g'risidagi g'oyalaridan o'z shafqatsiz terrorini g'oyaviy oqlash maqsadida foydalangan edi.

Russoning demokratiya to'g'risidagi ta'limotining totalitar tabiati keyinchalik demokratiyaning lenincha va stalincha nazariyalarida hamda ayni paytga qadar ayrim kommunistik davlatlarda saqlanib kelayotgan «sotsialistik demokratiya» modellarida amaliyotga tatbiq etildi. Jumladan, «sotsialistik demokratiya» konsepsiyasi xususiy mulkchilikning, shaxsning har qanday mustaqilligining to'liq inkor etilishida, xalqni ishchilar sinfi, mehnatkashlar bilan aynan tushunilishida, kommunistik

partiyaning yetakchilik roli to'g'risidagi vayronkor g'oyalarda namoyon bo'ladi.

Jamoaviy demokratiya nazariyalarining umumiy belgilari:

1. Xalqni kollektivistik talqin qilish, uni yagona, bir turdagi obyektiv mavjud bo'lgan umumiy manfaat va irodaga ega butunlik sifatida tan olish.

2. Xalq ichida go'yo qarama-qarshilik yo'qligi, siyosiy muxolifatni dushman yoki yot kuch sifatida baholash va uni kuch vositasida yo'q qilish.

3. Erkinlikni jamoaviy (qadimgi davrdagiga yaqin), ya'ni fuqaroning o'z davlati va jamiyati ishida faol, teng huquqli ishtiroki sifatida tushunish.

4. Hokimiyatning amalda o'zini xalq bilan uyg'unlikda ko'rsatishi, ya'ni uning totalitar, barcha sohaga kirib boruvchi mutlaq tabiatga ega ekanligi, alohida shaxslarning himoyasizligi.

5. Davlat bir butunlik sifatida o'z tarkibiy qismlarining tinchligidan manfaatdor bo'lganligi sababli inson huquqlari masalasining umuman yo'q qilinishi.

6. Umumiy siyosiy safarbarlik, fuqarolarning asosiy organlar va mansabdor shaxslarni qonun doirasida mustaqil va qabul qilingan qarorlar uchun mas'ul rahbarlar sifatida emas, balki xalq irodasini amalga oshiruvchilar, uning xizmatkorlari sifatida qarashlari.

7. Ijtimoiy demokratiyani targ'ib etish, asosiy e'tiborni siyosiy huquqlarni yuridik jihatdan e'tirof etishdan fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etishlari uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratishga ko'chirish.

Jamoaviy demokratiya tarixda o'z noqobilligini va asossizligini ko'rsatdi. Uni qo'llashga intilish sobiq sotsializm mamlakatlari tajribasida yangi hukmron guruh — nomenklaturaning paydo bo'lishiga, har qanday individual erkinlikning bostirishiga, o'zgacha fikrlovchilarga qarshi davlat terrorizmiga, umuman aytganda totalitarizmga olib keldi. Shu bilan birga, bu nazariy va amaliy tajriba siyosiy fikr rivojlanishi hamda demokratik boshqaruv shakllari taraqqiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Insonning shaxsiy erkinligi va boshqa huquqlarini kafolatlamasdan, uning hokimiyatning birlamchi manbayi sifa-

tidagi rolini tan olmasdan hamda muassasaviy mustahkamlamasdan turib, xalq hokimiyati haqiqiy bo'la olmasligi achchiq tajriba natijasida ma'lum bo'ldi. Shu ma'noda jamoaviy demokratiyani amalga oshirishga oid ijtimoiy eksperimentdan olingan saboqlar sovetlardan keyingi makondagi siyosiy fikrlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

3. Plyuralistik demokratiya. Plyuralistik demokratiya G'arbiy Yevropadagi postindustrial mamlakatlariga xos demokratiya yadir. Demokratiyaning ushbu shakli «plyuralistik» deb nomlanishiga sabab, u avvallari mavjud bo'lmagan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, guruhiy, hududiy manfaatlar va ularni ifodalash shakllarining turli-tumanligiga asoslanadi. Bu manfaatlarni siyosiy partiyalar, turli uyushma va birlashmalar, jamoatchilik harakatlari, fuqarolarning tashabbuskor guruhlarini siyosat sahnasiga olib chiqadilar. Ya'ni, demokratiyaning bu shakli xalqni tushunishda individualistik (mumtoz-liberal) va jamoaviy demokratiyalar o'rtasidagi oraliq mavqeni egallab, siyosatning bosh subyektlari sifatida individlar ham emas, xalq ham emas, balki kishilarning turli guruhlarini tushunadi. Chunki, har bir odam muayyan oilaviy, kasbiy, etnik, diniy, mintaqaviy, demografik va boshqa guruhning vakili o'laroq shaxs sifatida shakllanadi. Guruhlar yordamidagina shaxs o'zining siyosiy qarashlarini ifoda etadi va o'z manfaatlarini himoya qiladi. Xalq esa murakkab va ziddiyatli bo'lgan qism sifatida talqin etiladi. Ko'plab guruhlar – partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar hokimiyatga, hukmron guruhlar faoliyatiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Bunday modeldagi demokratiyaning vazifasi – jamiyatdagi, plyuralizmni rag'batlantirish, barcha fuqarolarga o'z qiziqishlarini ochiq ifodalash uchun birlashishlariga imkon berish, o'zaro kelishuvlar yordamida ularning siyosiy qarorlarda ifodalanuvchi muvozanatini topishdir.

Shu hol e'tiborga molikki, zamonaviy G'arb jamiyatlarida biror bir guruh boshqa ijtimoiy uyushmalarning qo'llab-quvvatlashisiz hokimiyatni monopollashtirishga va qarorlar qabul qilishga qodir emas. Aynan norozi guruhlar hokimiyatning monopollashtirish jarayonlarini to'xtatib qoluvchi ijtimoiy posangi vazifasini bajaradilar. Siyosiy qarorlar qabul qilinishi jarayonida

muayyan guruh manfaatlarining kamsitilishi kamsitilgan guruh a'zolarining siyosatga tortilishini va keyingi siyosatga ta'sirini kuchaytiradi. Shu tariqa plyuralistik demokratiya turli ijtimoiy guruhlarga o'z manfaatlarini erkin ifoda etish va raqobatli kurashda kelishuvga asoslangan qarorlarni qabul qilishga imkon beradi.

Bu — zamonaviy G'arb demokratiyasidir, u liberal (AQSH) siyosiy tizimdan o'sib chiqqan va uning asosiy tashkiliy prinsiplarini meros qilib olgan. Ularga konstitutsionalizm, hokimiyatning bo'linishi, shaxsiy erkinliklar, inson huquqlari, ozchilikning mustaqilligi kabi qadriyatlar kiradi.

Plyuralistik demokratiya dunyoning ko'plab mamlakatlarida e'tirof etildi va amalda qo'llana boshlandi. Biroq demokratiyaning bu shaklida aholining guruhlarga mansubligi masalasi idealashtirilgandir. Chunki G'arbda aholining uchdan bir qismi manfaat guruhlari birlashgan bo'lsa, aholining qolgan qismi esa siyosatda passivdir. Buning ustiga ziddiyatlarga layoqatlilik, masalan, siyosiy imkoniyatlar: pul, bilim, ommaviy axborot vositalari va boshqalar jamiyatda tengsiz taqsimlanganki, pensionerlar, nogironlar, malakasiz ishchilar bunday keng imkoniyatlarga deyarli ega bo'lmagan holda, yirik kapital egalarida bu imkoniyatlar keragidan ham ko'proq ekanligi amaliy siyosatshunoslik tadqiqotlari orqali aniqlangan. Shuning uchun plyuralistik demokratiya ko'pchilik hokimiyati bo'la olmaydi. Biroq bugungi kunda xalq hokimiyatchiligiga bundanda yaqinroq demokratiya shakli mavjud emas. Chunki u har holda xalqni hokimiyatga ko'proq yaqinlashtiruvchi, barcha xohlovchilarning qarorlar qabul qilishda qatnashishlariga imkoniyat beruvchi demokratiya shaklidir.

Xullas, muayyan davlat «demokratik davlat», u yoki bu jamiyat «demokratik jamiyat» deya atalmog'i uchun qator talablarga javob bermog'i lozim. Zamonaviy siyosatshunoslikda bu talablar quyidagicha qayd etiladi:

1) imkon qadar ko'proq katta yoshli aholining fuqarolik huquqlariga egaligi;

2) siyosiy hayotda ishtirok etishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatga egaligi;

- 3) masalalarning ovoz berish yo'li bilan hal etilishi;
- 4) ko'rilayotgan masala bo'yicha har bir fuqaroning to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun imkoniyatga egaligi;
- 5) har bir fuqaro, fuqarolar guruhi yoki ommaviy tashkilotlarning hokimiyat faoliyatini to'siqsiz nazorat qilish huquqi;
- 6) hokimiyat barcha darajalari ishida oshkoralik mavjudligi.

Demokratik siyosiy tizimning asosiy shakllari to'g'risidagi yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, ularning har biri o'z afzalliklariga va kamchiliklariga ega. Zamonaviy demokratiya xilma-xil ijtimoiy guruhlarga o'z manfaatlarini bayon etish imkoniyatlarini beruvchi va raqobatli kurashda ularning muvozanatini aks ettiruvchi, murosai-madoraga asoslangan boshqaruv shaklidir.

Demokratiya va Sharq. O'zbekiston Respublikasida demokratlashtirish jarayonining xususiyatlari. G'arbda demokratiya individning guruhdan ustunligiga asoslansa, Sharqda ko'pincha guruh, jamoa manfaati va huquqlari ustun qo'yiladi. Masalan, yapon modeli «shaxsni o'z-o'zini cheklashi», uni jilovlash, uni jamiyat va davlat manfaatlarini tizimiga uyg'un kirishini ta'minlash vazifasini qo'yadi. Albatta, bunda an'ana va zamonaviylikning o'ziga xos sinteziga erishilgan. Modernizatsiya jarayoni ijtimoiy-madaniy va siyosiy madaniy sohalaridagi eng muhim an'analarni saqlagan holda amalga oshirilgan. Bu yerda monarxiya, burch, kelishuv, jamoaga sodiqlik, shaxs manfaatlarining guruh manfaatlariga bo'ysundirilishi kabi qadriyatlar saqlangan. Ziddiyatlarni hal qilishda paternalizm ruhidagi norasmiy mexanizmlar qo'llaniladi, yosh, jinsdagi farqlar va ijtimoiy, kasbiy farqlardagi tengsizlik saqlanadi va bunday o'ziga xosliklar juda ko'p. Demak, demokratiyani mutlaqo individual erkinlikka bog'lash, shuningdek, bugungi kunda aholisi musulmon bo'lgan davlatlarda demokratik tartibotlarni o'rnatishda eng katta to'siq deb hisoblash ham xatodir. Chunki bu borada Turkiya, Misr, Marokash, Malayziya kabi davlatlarning ijobiy tajribalari mavjud. Islomda fitna – birlikni yemirish xavfi va umma – jamoa roli bilan birga bidoat – yangilanish ham muhim o'rin tutadi.

Jamiyat zamini, xalq mentalitetida demokratiya qadriyatla-

ri, qoidalari, shartlarini qabul qilish uchun tayyor elementlar bo'lishi kerak. Yaponiya, Turkiya va boshqa davlatlarning tajribasiga ko'ra, modernizatsiya jarayoni avtoritar tartibotlar sharoitida kechgan va iqtisodiy o'sishni kuchli markazlashgan davlat ta'minlagan.

Shu ma'noda Yaponiya «yopiq guruhlar ochiq jamiyati» deb baholanadi. Ya'ni, siyosiy makrostruktura parlament demokratiyasi, konstitutsionalizm, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik va demokratiyaning boshqa belgilari ko'rinishida jamoa, kollektivizm asoslariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham demokratiyaga o'tishda o'ziga xos yo'ldan borilmoqda. Unda milliy an'analar, urf-odatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, milliy davlatchilik an'analarini asrab-avaylab saqlash va rivojlantirish yo'lidan shoshilmasdan, izchil, bosqichma-bosqich borilmoqda.

Ayrim siyosatshunos olimlar fikricha, demokratiya nafaqat ichki rivojlanishning natijasi, balki tashqi ta'sirning oqibati ham bo'lishi mumkin. Bunga ular ba'zi sobiq mustamlakalarda demokratik muassasalar metropoliyalarning (mustamlakaga ega davlatning) to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ostida shakllanganligini yoki demokratik davlatlar bilan qo'shni bo'lish ham muayyan ahamiyat kasb etganligini misol keltiradilar¹. Biroq demokratiya tashqaridan keltirilgan hollarda mamlakatda ichki shart-sharoitlar yetilmagan bo'lsa kutilgan natijani bermaydi. Shu o'rinda bu masala xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning fikrlari muhim ahamiyatga ega. «Hozirgi paytda, — deb yozadi u, — ma'lum tarixiy sabab va sharoitlarga ko'ra demokratik andozalardan hali uzoq bo'lgan mamlakatlarda demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish, demokratiya g'oyalarini zo'rma-zo'raki qaror toptirish uchun urinishlar teskari natija berishi — bundan uchinchi bir kuch foydalanib qolishi muqarrar bo'lgan vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Bu uchinchi kuch — radikal islomdir.

Bunday vaziyat qariyb 80 foiz aholisi islom diniga e'tiqod qiladigan Markaziy Osiyo hududida islom dinini niqob qilib

¹ Bu to'g'rida qarang: *Пугачев В.П., Соловьев А.И. Сиёсатшуносликка кириш.* — Т., 2004. — В. 249–250.

olgan turli toifadagi ekstremist va aqidaparastlarga juda qo‘l kelishi mumkin. Albatta, biz ham G‘arb dunyosi, demokratiya rivojlangan davlatlar harakat qilayotgan maqsadlarga yetish uchun intilishimiz kerak. Lekin ijozatingiz bilan aytishim mumkin, hozirda demokratiyaning butun dunyoda tan olingan tarafdori bo‘lmish Zbignev Bzejinskiy ham demokratiyani eksport yoki import qilib bo‘lmasligini e‘tirof etmoqda. Chunki bu boradagi shoshqaloqlik jiddiy fojiaiy oqibatlariga olib kelishi mumkin»¹. Ushbu fikrlardan xulosa shuki, demokratiya ichkaridan ham, tashqaridan turib ham o‘rnatilmaydi, balki har bir xalq demokratiyani o‘z mentaliteti, o‘z ko‘nikmalari, qadriyatlariga munosib tarzda u yoki bu darajada hayotga joriy qiladi, yaratadi.

Dunyo xalqlari tarixiy tajribasidan ma‘lumki, kolonial tuzumni boshdan kechirgan mamlakatlar demokratik ochiq jamiyat qurish yo‘lida bir qator to‘siqlarni yengib o‘tishga majbur bo‘ladilar. Chunki, totalitarizm sharoitida ijtimoiy ongda hokimiyatdan kuchli qo‘rqish hissi shakllanadi. Natijada, o‘z-o‘zidan an‘anaviy jamoaviy ruhiyat kuchayadi. Individualistik ruhiyat esa jamiyatning iqtisodiy boyligi ortib borishi bilan shakllanib boradi va bunday ruhiyat ochiq demokratik jamiyat hamda bozor iqtisodiyotining taraqqiyoti uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillikka erishilgach, O‘zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan siyosiy-iqtisodiy, huquqiy islohotlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olishi va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy jihatlarni nazarda tutib, ularning oldini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan alohida yaxlit, shu bilan birga bir-birini taqozo etuvchi tizimni tashkil etishi lozim edi. Shuning uchun ham islohotlarning barcha yo‘nalishlarida ikki tamoyilga asosan ish olib borildi.

Birinchisi, mamlakatning taraqqiyotiga vosita bo‘la oladigan milliy urf-odat, an‘analar, milliy va diniy bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, tadbirkorlik kabi milliy xususiyatlardan kelib chiqadigan sifatlarga e‘tibor berish, taraqqiyotning ichki motivatsion asosi sifatida ularga yondashish edi.

¹ *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — В. 339—340.

Ikkinchisi esa, umuminsoniy taraqqiyotning qonuniyatlari va qadriyatlari tamoyillarini o'zlashtirib, milliy taraqqiyot modeliga tatbiq etishdan iborat bo'ldi. Islohot yo'lidagi dastlabki qadamlar, eng avvalo, inson omilini barcha o'zgarishlarning markaziga qo'yib, insonning erk, yashash, qadr-qimmatini tiklashdan boshlandi. Bu boradagi birinchi qadam 1992-yil 8-dekabrda Respublika Konstitutsiyasining qabul qilingani bo'ldi. 1997–1998-yillarda sud-huquq islohotlarining ikkinchi bosqichi amalga oshirilib, xo'jalik, fuqarolik-protsessual kodekslari qaytadan ko'rib chiqildi va yangi qonunlar qabul qilindi. 2001-yildan bu islohotlarning uchinchi bosqichi boshlanib, «Sudlar to'g'risida»gi, «Prokuratura to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, umuminsoniy huquq tamoyillarining gumanistik xususiyati milliy huquq tizimiga joriy etilmoqda. Shu o'rinda 2008-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «O'zbekistonda o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmonni alohida qayd etish lozim. Chunki, mamlakatda amalga oshirilayotgan jamiyat va davlat hayotini demokratik jihatdan yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlarning mohiyati va mazmuni, sud-huquq tizimini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijalari jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishini hamda uni umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilishi zarurligini kun tartibiga qo'ydi.

Olib borilayotgan islohotlar jarayonida ichki ishlar idoralari tizimining, bu tizimda xizmat qilayotgan xodimlarning ham o'ziga xos o'rni bor. Mamlakatimiz porloq kelajagini yaratish yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan zahmatkash xalqimizning tinch, osoyishta va xotirjam turmush tarzini ta'minlash, fuqarolarning haq-huquqlarini turli tajovuzlardan himoya qilish, jinoyatchilarga nisbatan ayovsiz kurashni yanada kuchaytirish orqali davlat hamda jamiyat hayotidagi demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishga yordam berish inson huquqlari va erkinliklarining himoyachilari bo'lmish ichki ishlar idoralari har bir xodimining asosiy vazifasidir. Zero «bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi, hech mubo-

lag'asiz, butun hokimiyatning obro'si va kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi»¹.

Yurtimizda fuqarolarning kayfiyati va siyosiy islohotlarni qabul qilish ko'nikmalari asosida huquq tizimi yildan yilga takomilla-shib, ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qonun chiqaruvchi hokimiyat — Oliy Majlisning saylovlar jarayonida bikameralizm (ikki palatali tizim) tamoyili asosida shakllantirilishi, sud hokimiyatining liberallasuvi, fuqarolarning davlatdan begonalashuv kayfiyatini oldini olish maqsadida milliy o'z-o'zini boshqaruv tizimi bo'lmish mahalla bilan huquq-tartibot organlari hamkorligining kengaytirilishi huquq tizimining tobora demokratlashib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Masalan, agar chet el parlamentlariga nazar tashlasak, 2000-yilda Yevropaning 29 mamlakatida ikki palatali parlament faoliyat ko'rsatganiga amin bo'lamiz. O'zbekistonda ikki palatali parlamentdan ko'zlangan asosiy maqsad qonunchilik sohasida mukammallikka va professionalizmga erishish, adolat, oshkoralikni hamda hurfiylikni yanada rivojlantirishdir. Ikki palatali parlamentning ustunligi shundaki, qonun har tomonlama ko'rib chiqilishi uchun turli manfaatlar va qarashlar hisobga olinadi va eng ilg'or, to'g'ri fikrga to'xtaladi. Ikkinchi ustunligi, bunday tizimda jamoatchilik manfaatlari birmuncha keng va rang-barang bo'ladi. Uchinchisi esa, professionalizm asosida yaratiladi. To'rtinchi ustunligi, bu jarayonda parlament va ijroiya hokimiyat vazifalari aralashib ketishining oldi olinadi².

Shu tariqa «parlament jamiyat hayotini oynadek yaqqol aks ettiradigan ko'zgu»ga³ aylanadi. Binobarin, jamiyatda qanday intilish, fikr va qarashlar mavjud bo'lsa, ular parlamentdagi partiyalar fraksiyalari majlislari muhokama va munozaralarida o'z ifodasini topishi kerak.

Prezident tashabbusi bilan o'tkazilayotgan islohotlar natijasi o'laroq 2006-yilda Prezident vakolatlarning bir qismi Senatga o'tkazildi va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — В. 189.

² Икки палатали парламент истиқболлари // Хуррият. — 2004. — 28-йул. — №30.

³ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — В. 171.

o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga muvofiq Konstitutsiyaning 80-moddasida o'z aksini topdi.

Ushbu moddada Senat raisi va uning o'rinbosarlarini saylash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudini saylash; respublika Bosh prokurori va uning o'rinbosalarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi Prezident Farmonlarini tasdiqlash; Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to'g'risidagi Prezident Farmonlarini tasdiqlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan davlatimizning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini, Markaziy bank boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish; amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish; siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish belgilangan¹. Shuningdek, Konstitutsiyaning «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir» deb qayd etilgan 89-moddasining tahriri prinsipial ravishda o'zgardi. Bu moddaning «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» deyilgan ikkinchi qismi olib tashlandi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 28-fevralda qabul qilinib, Senat tomonidan 2007-yil 29-martda ma'qullangan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining qabul qilinishi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning davomi, mamlakatning davlat-huquqiy va siyosiy tizimini bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlantirishning natijasi, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari tashlangan muhim qadam bo'ldi².

Ma'lumki, jamiyat siyosiy hayotini demokratlashtirishda in-

¹ Раҳимов А. Миллат тимсоли // Хуррият. — 2005. — 7-дек. — №47–48.

² Bu to'g'rida qarang: Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги Конституциявий қонуни // Халқ сўзи. — 2007. — 12 април — №71.

son huquqlarining ta'minlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan 1948-yilning 10-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hozirgi zamonda inson erkinliklari kafolatining buyuk xartiyasi hisoblanadi. Jami 30 ta moddadan iborat bo'lgan bu deklaratsiya shaxsning ham fuqarolik va siyosiy, ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy erkinliklari ko'lamini o'zida ilk bor to'la mujassam etgan xalqaro-huquqiy hujjatdir¹. Shuning uchun milliy qonunchiligimizni inson huquq va erkinliklariga oid xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashtirish jarayoni izchil davom ettirilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 170 dan ziyod xalqaro Konvensiya, Pakt, Bitim, Deklaratsiyalar ratifikatsiya qilingan bo'lsa, ularning 60 dan ortig'i inson huquqlarini himoya qilish masalalariga bag'ishlangan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, uning qoidalari O'zbekiston Konstitutsiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik normalarida o'z ifodasini topgan. Mazkur hujjatning muhim ahamiyat kasb etishi e'tirofi sifatida 2008-yilning 1-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi Farmoni² qabul qilindi. Mazkur Farmon Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 60 yilligi munosabati bilan O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini yanada samaraliroq rag'batlantirish va muhofaza etishga qaratilgan aniq tadbirlar dasturini belgilab berdi. Tadbirlarda davlat tashkilotlari va muassasalari, jamoat birlashmalari, ommaviy axbort vositalarining faol ishtirokidan ko'zlangan maqsad, avvalo, insonning asosiy huquqlarini tushunishni yaxshilashga ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalari milliy qonunchilikda mustahkamlash bo'yicha

¹ Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. /Декларациянинг 60 йиллигига бағишланган нашр. — Т., 2008. — В. 12.

² Qarag: Xalq s'uzi. — 2008. — 2-may. — №87.

huquqiy yoʻnalishdagi faoliyati haqida keng xabardorlikni yoʻlga qoʻyishdan iboratdir. Masalan, inson huquqlari taʼminlanishini yanada takomillashtirish maqsadida 2008-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik taʼminlash boshqarmasi tashkil etildi. Yuqoridagilardan demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini himoyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi etib belgilanganligi koʻrinib turibdi.

Mamlakatimizda demokratiyani barpo etish, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich va izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Demokratiyani barpo etish borasidagi turli nazariyalar va xorijiy mamlakatlar amaliyotidan maʼlum boʻlmoqdaki, demokratiya barcha muammolarni hal qiluvchi sirli kalit yoki «orzudagi jamiyat» emas. Demokratiyaning totalitarizm va avtoritarizmdan muhim farqi shundaki, u jamiyatni tashkil etuvchi ozod va erkin fuqarolarning irodasi, manfaatlari, ehtiyojlarining koʻpligi va bir-biriga oʻxshamasligini eʼtirof etgani va bu xilma-xillikni qadrlagani holda fuqarolarga kelishuv, yon bosish, muhokama, munozaralar uchun rasmiy, ochiq, qonuniy yoʻllarni ochib beradi hamda koʻpchilikka maʼqul qarorlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Demokratik jamiyatda inson yakka hokim yoki guruh irodasiga emas, oʻz irodasi va imkoniyatlariga koʻra oʻz hayotini quradi va farzandlari hamda oʻzining baxti uchun eng avvalo oʻzi zamin yaratadi.

3. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni demokratlashtirishdagi roli

«Jamiyatimizning bugungi hayoti, uning barcha quvonchli, shu bilan birga, mashaqqatli, ogʻir tomonlari matbuot va ommaviy axborot vositalarida oʻzining qanchalik xolisona aksini topsa, jamiyatimizda shunchalik adolat va toʻgʻrisoʻzlik muhiti hukmron boʻladi».

Islom KARIMOV.

Siyosiy kommunikatsiyaning mohiyati va vazifalari. Siyosat inson faoliyatisiz, ijtimoiy-siyosiy hayotni oʻzaro bogʻlovchi,

yo'naltiruvchi turli xil ommaviy muloqotlarsiz, kommunikatsion jarayonlarsiz mavjud bo'la olmaydi. O'tmishning an'anaviy jamiyatlarida ommaviy muloqot vositalariga ehtiyoj katta bo'lmaganligi uchun bunday vositalar rolini choparlar, elchilar, xabarchilar bajarishgan. Biroq XIX–XX asrlardagi ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli zamonaviy aloqa vositalari vujudga keldi va gurkirab rivojlandi.

«Kommunikatsiya» atamasi lotin tilidagi «communico» – ya'ni «birgalikda bajaraman», «bog'layman», «muloqotda bo'laman» so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, insondan insonga, bir avloddan ikkinchi avlodga muayyan axborot, fikr, his-tuyg'uning uzatilishini anglatadi. Siyosiy kommunikatsiya esa siyosiy ma'lumot, axborotlarni ishlab chiqish, uzatish va o'zaro almashuv jarayoni bo'lib, u siyosiy faoliyat tizimini shakllantiradi, shu tariqa siyosiy faoliyatga alohida bir mazmun baxsh etadi. Shuning uchun ham siyosiy kommunikatsiya siyosat olamidagi o'ziga xos ijtimoiy-informatsion maydondir. «Kommunikatsiya» atamasining to'laqonli ta'rifini mashhur fransuz sotsiologi R. J. Shvarsenberg «Kommunikatsiya siyosiy ma'lumotlarni uzatish jarayoni bo'lib, bu jarayon natijasida ma'lumotlar siyosiy tizimning turli elementlari o'rtasida, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasida aylanadi», deya ifodaladi.

Umuman, siyosiy kommunikatsiya siyosiy voqea-hodisalar, jarayonlar to'g'risidagi bilim, ma'lumot va xabarlarining yig'indisidir. Uning yordamida siyosiy tajribalar, bilimlar uzatiladi, insonlar faoliyati yo'naltiriladi, ularning siyosiy adaptatsiyasi ro'y beradi, siyosiy hayot tashkil etiladi.

Siyosatshunoslikda kommunikatsiyaning uch turi: **norasmiy kommunikatsiya, ijtimoiy-siyosiy institutlar kommunikatsiyasi va ommaviy axborot vositalari kommunikatsiyasi** bir-biridan ajratib qayd etiladi. Bularga saylov, referendum va boshqalarni ham (sotsiologik so'rov, anketa) qo'shimcha sifatida kiritish mumkin.

Siyosiy kommunikatsiyaning adolatli, ideal modeli demokratik jamiyatda shakllanadi.

Xo'sh, qanday qilib bunga erishish mumkin? Bu jarayon jamiyatdagi asosiy siyosiy guruhlar – boshqaruvchilar va bosh-

qariluvchilar o'rtasida o'zaro teng, gorizontal muloqot jarayonida shakllanadi. Jamiyatda siyosiy barqarorlik va o'zaro kelishuvning vujudga kelishi bir lahzada amalga oshadigan jarayon bo'lmay, u ma'lum bir vaqt va makonni taqozo etadi. Davlat o'z kommunikatsion siyosatida ma'lumot erkinligiga oid qonunchilikni yaratish, ta'minlash bilan birga uni xususiy tashkilotlar, ularning egalariga qarashli xalqaro va milliy mustaqil matbuot hamda televideniye kabi ommaviy kommunikatsiya manbalarining g'arazli harakatlaridan, suiiste'molchiliklaridan (masalan, insonni ma'naviy-axloqiy tubanlashuvga olib kelishi mumkin bo'lgan pornografik axborotlar yoki shunday materiallarni tarqatuvchi saytlar) himoya ham qiladi.

Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni demokratlash-tirishdagi roli. Ommaviy axborot vositalari kommunikatsiya tarkibidagi asosiy bo'g'in bo'lib, har qanday shaxslarga ochiq, ommaviy tarzda, maxsus texnik vositalar yordamida turli ma'lumotlarni uzatish uchun tuzilgan muassasalardir. Ommaviy axborot vositalariga vaqtli matbuot, radio, televideniye, ovoz yozish, suratga olish, video yozuv, kompyuter ma'lumotlari, ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, uzatish va ko'paytirishning individual vositalari (kassetalar, disketalar, printerlar), internet tizimi va hokazolar kiradi. Demokratik jamiyat barpo etishda ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi o'rin tutadi, nafaqat muayyan mamlakatlar, balki global miqyosda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy jamiyatlarda ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- g'oyaviy-siyosiy qadriyatlarni, siyosat to'g'risidagi bilimlarni, siyosiy ma'lumotlarni tarqatish;
- siyosiy munosabatlarni integratsiyalash va yo'naltirish;
- jamoatchilik siyosiy fikrini shakllantirish;
- siyosiy madaniyatni tarqatish;
- siyosiy-madaniy tajriba almashinuvini ta'minlash;
- jamoatchilikni siyosatda qatnashishga tayyorlash.

Ommaviy axborot vositalari tizimi demokratik bo'lmog'i uchun u nafaqat zamonaviy texnika bilan jihozlanmog'i, balki plyuralistik va demokratik talablarga ham javob bermog'i lozim. Bu

nimani anglatadi? Bu avvalo, ommaviy axborot vositalari ustidan jamiyatning huquqiy va axloqiy nazorati, ma'lumotni uzatuvchi va qabul qiluvchining o'zaro to'g'ridan-to'g'ri aloqasi hamda so'z erkinligini hurmat qilishdir. Intellektual erkinlik, ma'rifatparvarlik bilan yo'g'rilgan jamoatchilik fikri, yuksak siyosiy madaniyat, ommaviy axborot vositalarining hokimiyat tizimidan mustaqilligi demokratiyani rivojlantirishning muhim shartlaridandir. Jamoatchilik fikri shakllanishida ommaviy axborot vositalarining o'zni kattadir. Shu paytgacha jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rasman va bir tomonlama aholiga ma'lumot uzatishi asosiy e'tiborga olinar edi. Biroq keyingi davrlarda aholiga uzatilgan ma'lumotlarga nisbatan uning reaksiyasi, ya'ni munosabatini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Bu mantiqan to'g'ri hamdir, chunki ommaviy kommunikatsiya rasmiy subyektning (ommaviy axborot vositalari) ma'lumoti norasmiy subyekt (oddiy fuqaro) tomonidan ijobiy qabul qilinsa va qo'llab-quvvatlansagina u odamlar tomonidan muvaffaqiyatli tarzda o'zlashtiriladi. Har qanday muhim xabar, ma'lumot, odatda, oilada, mehnat jamoasida, norasmiy guruhda muhokama qilinadi va o'z bahosini oladi. Shu baho u yoki bu rasmiy axborot manbasiga nisbatan u yoki bu munosabatni shakllantiradi. Agar ommaviy axborot vositalari ayrim bir fakt yoki muammo xususida sukut saqlar ekan, ularning obro'-e'tibori darajasi albatta past bo'ladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli ommaviy axborot vositalari bugun jamiyatning har bir a'zosiga ta'sir ko'rsatmoqda. O'z ahamiyati va ta'sir kuchi bois ommaviy axborot vositalari «to'rtinchi hokimiyat» sifatida ta'riflanadi. Bu «hokimiyat» jamoatchilik fikrini, hokimiyat tizimlari legitimligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, muxolif siyosiy faoliyat atributi (belgisi) sifatida maydonga chiqadi, jamiyatda barqarorlik yoki beqarorlik manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda axborot kanallarini demokratlashtirish davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylanmoqda. Eng muhimi, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikri va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan

minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida soʻz yuritib boʻlmaydi, degan tushuncha fuqarolar ongida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda.

Buning uchun ommaviy axborot vositalari tom maʼnoda «toʻrtinchi hokimiyat» darajasiga koʻtarilmogʻi zarur. Biroq mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari uzoq vaqt davomida totalitar tuzumning mafkuraviy va maʼmuriy nazorati ostida faoliyat yuritgani tufayli ularning bu holatdan chiqishi, avvalo, psixologik jihatdan oʻzini erkin his etishi qiyin kechmoqda. Shu sababdan ularning faoliyatida hozirga qadar yuqoridan koʻrsatma kutish hollari yaqqol koʻrinadi. Holbuki «xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir boʻlayotgan voqealar toʻgʻrisida xolis va tezkor axborotlar olishni, birinchi navbatda, hokimiyat organlari va boshqaruv tuzilmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yoʻlidan ilgari borishimizga toʻsiq boʻlib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar xususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kutadi»¹.

Buning uchun oʻz oʻquvchilariga ega boʻlishni koʻzlovchi demokratik matbuot koʻrsatma kutmasdan ishlashni oʻrganmogʻi kerak. Balki erkin matbuot muayyan maʼnoda siyosat uchun noqulay boʻlishi mumkin. Chunki haqiqatni hokimiyatga ham, xalqqa ham yoqishga intilmagan holda yozish vakolatini jurnalistning vijdoni va iymoni taqozo etadi. Ammo uning ana shu noqulayligi, kutilmaganda rostini yozib turishi siyosatga boʻlgan buyuk xizmatidir. Chunki demokratik jamiyatda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bir-biriga nazoratchidir, ayni paytda ular «toʻrtinchi hokimiyat»ga — ommaviy axborot vositalari hokimiyatiga, yaʼni haqiqatning hokimiyatiga muhtojdir. Ommaviy axborot vositalari ilgari suruvchi haqiqat yoʻq yerda ish ham, demokratiya ham, qonun ham boʻlmaydi. Erkin matbuot real vaziyat sharoitida faoliyat koʻrsatishi, ijtimoiy-

¹ *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — В. 190–191.

iqtisodiy va siyosiy hayotning dolzarb muammolarini dadil ko'tarib chiqishi kerak. Barcha ommaviy axborot vositalariga mulk shakli, tiraji, qamrovi hamda mavzu yo'nalishidan qat'i nazar, ularning mamlakatimiz axborot maydonida halol raqobat asosida faoliyat olib borishi uchun davlat zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Aytish mumkinki, bu — jamiyatni tom ma'noda demokratlashtirish garovidir.

Ommaviy axborot vositalari va huquq. Ommaviy axborot vositalari jamiyatning ayrim guruhiga emas, balki butun jamiyat a'zolarining manfaatlari yo'lida xizmat qilmog'i kerak. Buning uchun esa u jamoatchilik nazorati ostida barcha ijtimoiy tabaqalar ehtiyojlarini himoya qilmog'i lozim. Jamiyat qanchalik katta va turli guruhlardan iborat bo'lsa, televideniye dasturlarini tuzishda ham shunchalik katta e'tibor va mas'uliyat zarur. Aholining hech bir tabaqasi bu masalada kamsitilmasligi, har bir kishi o'zini ham o'zi mansub guruh vakili, ham dunyo hamjamiyati a'zosi sifatida his qilmog'i uchun odamlardagi diniy, milliy, ruhiy, yosh va boshqa tafovutlarni albatta inobatga olmoq kerak. Bugungi ilmiy-texnik taraqqiyot yer yuzining istalgan bir nuqtasidagi voqelikni efirga uzatish imkonini berayotgan hozirgi davrda bir sivilizatsiyani ikkinchi bir sivilizatsiyaga qarshi qo'yuvchi g'oyalarning ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilishi dunyo barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirishini unutmazlik kerak va buni kommunikatsion siyosatda e'tiborga olish zarur.

Terrorizm va milliy ozodlik harakatlarini aynan bir narsa sifatida talqin etmaslik, din va din niqobidagi ekstremizm va terrorizm tafovutini anglash lozim. Albatta, bu borada jurnalistik malaka va siyosiy mahorat keskin oshirilmog'i kerak. Ommaviy axborot vositalari, jumladan, televideniye umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga insoniyat taraqqiyotiga xavf solayotgan jarayonlarga aholi e'tiborini qaratmog'i zarur. Ayniqsa, bunda xalqaro teleko'priklar televideniye faoliyatida muhim o'rin tutadi. Xususan, xalqaro munosabatlarda, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishda bu nihoyatda ahamiyatlidir.

Jamiyatda xolis va haqqoniy axborot tarqatishda mustaqil matbuotning o'zini beqiyos. Mustaqillik tufayli senzuraning bekor qilinganligi hamda ommaviy axborot vositalari sohasidagi tub o'zgarishlar bois bugun mamlakatimizda yuzlab gazeta-jurnal, o'nlab nashriyot, bir nechta axborot agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. OAV faoliyatining huquqiy asoslari, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, shuningdek, «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi, «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi kabi qonunlarda belgilab qo'yilgan. Ularda ommaviy axborot vositalari xodimlarining huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topgan. Jumladan, jurnalistlar o'zlariga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning obyektivligi uchun mas'ul ekanliklari, ijtimoiy ahamiyatga molik axborotlarning to'g'riligi hamda soxtalashtirilmasligi uchun javobgar ekanliklari qayd etilgan.

Xullas, bir tomondan ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonun siyosiy muloqotlar jarayonlarini demokratlashtirishga, ikkinchi tomondan esa ommaviy axborot vositalariga davlatning huquqiy jihatdan ta'sir ko'rsatish imkoniyatini bermoqda. Bu imkoniyat ommaviy axborot vositalari xodimlari, siyosatchilar, davlat arboblari va rasmiy shaxslar erkinlik va oshkoralik sharoitida o'zaro munosabatlarning mushkul va nozik san'atini chuqur egallashlariga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar

Demokratiya, demokratiyaning amal qilish mexanizmlari (prinsiplari), majoritar, proporsional va unitar saylov, bevosita demokratiya, vakillik demokratiyasi, mumtoz-liberal demokratiya, jamoa demokratiyasi, plyuralistik demokratiya, individualizm, paternalizm, bikameralizm, qonunchilik palatasi, senat, kommuni-katsiya, ommaviy axborot vositalari, «to'rtinchi hokimiyat».

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Demokratiya» atamasi va undagi ichki ziddiyatning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Demokratiyaning amal qilish mexanizmlari (prinsiplari)ga nimalar kiradi?

3. Demokratlashtirishning shart-sharoitlarini izohlang.
4. Davlat hokimiyatini demokratik asosda shakllantirishda saylovlar qanday ahamiyatga ega?
5. Bevosita demokratiya va vakillik demokratiyasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Mumtoz-liberal demokratiyaning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Jamoaviy demokratiyaning ijobiy va salbiy jihatlari to‘g‘risida bilimlaringizni dalillar orqali isbotlang.
8. Plyuralistik demokratiya qanday prinsiplarga asoslanadi?
9. Muayyan davlat «demokratik davlat», u yoki bu jamiyat «demokratik jamiyat», deya atalmog‘i uchun qanday talablarga javob bermog‘i lozim?
10. O‘zbekiston Respublikasida demokratlashtirish jarayonining xususiyatlarini tushuntiring.
11. Mamlakatimizda kechayotgan demokratik islohotlarda ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati nimalardan iborat?
12. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni demokratlashtirishdagi roli va ahamiyatini matbuotda nashr etilgan muayyan maqola asosida isbotlang.

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т., 2008.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинганлигининг 60 йиллигига бағишланган тадбирлар Дастури тўғрисида»ги фармони. // Халқ сўзи. — 2008. — 2 май. — №87.

Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. — Т., 1996. — Б. 370–404.

Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т.5. — Т., 1997. — Б. 104–131.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 174–222.

Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари — энг олий қадрият. Т. 14. — Т., 2006. — Б. 61–97, 266–270.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқти-

содиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б. 368.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008. – Б. 176.

Ислом Каримов демократия ва сиёсий партиялар тўғрисида / Тузувчилар: Ш. О. Мамадалиев, Ш. Р. Қобилов, Б. У. Таджиханов. – Т., 2004. – Б. 4–27.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси / Декларациянинг 60 йиллигига бағишланган нашр. – Т., 2008. – Б. 12.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. – М., 2000. – С. 240–257.

Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: Сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б. 3–31.

Қодиров А. Қ. Ўтиш даврида демократия ва бюрократия // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2000. – №2.

Қодиров А. Қ. Шарқ демократияси: маънавий зиддиятлар муаммоси // Ҳуқуқ–Право–Law. – 1999. – №2.

Қодиров А. Қ. Сиёсат фалсафаси. – Т., 1999. – Б. 45.

Мамадалиев Ш. О. Халқ ҳокимияти: назария ва амалиёт. – Т., 2003.

Ўзбекистонда миллий-давлатчилик назариясининг тарихий-фалсафий ва ҳуқуқий асослари (Илмий-назарий мақолалар тўплами) / Масъул муҳаррир юридик фанлар доктори, профессор Р.Ж. Рўзиев. – Т., 2005. – Б. 98.

Одилқориев Х. Т., Фойибназаров Ш. Ф. Сиёсий маданият. – Т., 2004. – Б. 22–54.

Политология: Ўқув қўлланма / С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров. – Т., 1999.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – Б. 202–255.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997. – Б. 83–91.

SIYOSAT, DIN VA MAFKURANING O'ZARO ALOQASI

1. Hozirgi jamiyatda siyosat va din

Hozirgi jamiyatda dinning o'rni. Diniy e'tiqod insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ma'naviy-madaniy hayotning muhim bo'lagi sifatida barcha mamlakatlar va jamiyatlarning ma'naviy-madaniy va hatto iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita yoki bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois insonning dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqini e'tirof etgan holda siyosat, din va mafkuraning o'zaro aloqadorligini, hozirgi jamiyatda dinning o'rni va rolini, dinning siyosiylashuvi va siyosatning diniylashuvidagi asosiy tendensiyalarni, siyosiy mafkura mohiyati va hozirgi zamonning asosiy mafkuraviy oqimlarini hamda O'zbekistonning milliy mafkurasida din va siyosatning o'zaro munosabati masalalari tahlili o'ta dolzarbdir.

Din o'z tabiatiga ko'ra o'ta murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligiga nisbatan ishonchning hosilasidir. «Din» atamasi arab tilidan tarjimada «ishonch», «ishonmoq» degan ma'nolarni anglatadi.

Din insoniyatning dunyoni bilish shakli, orzu-istaklari, his-tuyg'ulari, e'tiqodi va g'ayritabiiy kuchlarga ishonchining ifodasi sifatida qadimgi davrlarda vujudga kelgan. Diniy ongning ibtidosida insoniyat tafakkurida yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik kabi axloqiy kategoriyalarning ilk tarixiy elementlari shakllangan. Ijtimoiy taraqqiyot davomida din insonlarning yashash va fikrlash tarzi, qadimiy madaniyat va ma'naviyat shakllaridan biriga aylangan. Shu bilan birga ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida din jamiyat siyosiy tizimining faoliyatida muhim o'rinni ham egallagan.

Jahon dinlarining paydo bo'lishi insoniyat tarixida ro'y bergan muhim voqelik bo'lib, buddaviylik, xristianlik va islom ularning asosiylaridir.

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Hindistonning shimolida

vujudga kelgan buddaviylik (qadimgi sanskrit tilida «Buddha» – «osoyishtalikka va buyuk haqiqatga erishgan» degan ma'no-larni bildiradi), asosan, Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, uning markazida boshqa jahon dinlarida bo'lgani singari axloqiy normalar yotadi. Siddixartxa Gautama bu dinning payg'ambari hisoblanadi¹. Bu dinning asosiy xususiyatlaridan biri tirik mavjudotga nisbatan mehr-muhabbatli va rahm-shafqatli bo'lishdir.

Hozirgi paytda buddaviylik Hindixitoy mamlakatlari – Birma, Kambodja, Tailandda davlat dinidir. Bu dinga mansub xalqaro tashkilotlar ham mavjud bo'lib, jumladan, «Buddaviylarning umumiy birodarligi», «Osiyo buddaviylarining tinchlik uchun konferensiyasi» xalqaro siyosatda, tinchlik uchun kurashda faol ishtirok etmoqda.

Xristianlik yana bir jahon dini bo'lib, milodning I asrida Qadimgi Rim imperiyasining sharqiy qismi – Falastinda Iisus Xristos (Iso Masih)ning da'vati ostida vujudga kelib, keyinchalik Yevropa, Janubiy va Shimoliy Amerika, Afrikaning ayrim mamlakatlarida keng tarqalgan. Katolik, pravoslav va protestant yo'nalishlariga bo'linib ketgan xristian dini ko'pgina mamlakatlarning siyosiy hayotiga faol ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida Italiya xristian demokratik partiyasi, Gollandiyadagi xristian demokratik ittifoqi partiyasi hukmron siyosiy partiya darajasigacha ko'tarildi.

Jahon dinlari qatoriga kiruvchi eng yosh din islom bo'lib, milodning VII asrida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Bu dinning asoschisi – Muhammad payg'ambar tarixiy shaxs bo'lib, 570–632-yillarda yashab o'tgan. Hozirgi paytda islomga e'tiqod qiluvchi 1,2 milliard aholi dunyoning 120 mamlakatida istiqomat qiladi. Osiyo va Afrikaning 52 mamlakatida islom dini davlatning mafkuraviy asosi deb e'lon qilingan.

Islomda uch yo'nalish – sunniylik, xorijiylik va shialik shakllangan bo'lib, 92 foizni tashkil etuvchi sunniylar to'rt mazhabga bo'lingandir. Jumladan, hanafiylar 47 foiz bo'lib, Indoneziyadan, janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan to Turkiya-

¹Izoh: «Gautama» – urug'ning nomi, «Siddixartxa» –har qanday ishda mukammallikka erishgan degan ma'noni anglatadi.

gacha; shofeiylar 27 foiz bo'lib, shimoli-sharqiy Afrikada; molikiylar 17 foiz bo'lib, shimoli-g'arbiy Afrikada; hanbaliylar 1,5 foiz bo'lib, Saudiya Arabistonida istiqomat qilishadi.

Islom dinida shariat muhim o'rin tutadi. Shariat axloqiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy qonun-qoidalar majmui bo'lib, uning asosiy manbai Qur'ondir.

Siyosatning diniylashuv va dinning siyosiylashuvi mohiyati. Hozirgi jamiyatda siyosat va din o'rtasidagi munosabatlar mohiyatini tushunib olmoq uchun, avvalo, dunyoviy taraqqiyot yo'li va din bir-biriga qanchalik muvofiq kelishini tarixga qisqacha bir nazar tashlash orqali ko'rib chiqish zarur.

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi davomida siyosat va din o'rtasida murakkab, lekin barqaror aloqadorlik vujudga kelgan. Siyosat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning uzoq yillik tarixi siyosatning diniylashuv yoki aksincha, dinning siyosiylashuv davrlari ko'p marta ro'y berganligidan dalolat beradi. Bunday jarayonlar muayyan ma'noda hozirgi zamonda, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarda ham ko'zga tashlanmoqda.

Aslida, tarixga murojaat qilinsa, antik zamonlardayoq siyosatchilar Yevropada ommaga ta'sir ko'rsatishning eng faol vositasi sifatida xristianlik aqidalaridan foydalanib, cherkovni siyosat quroliga aylantirganliklari ma'lum bo'ladi. Insoniyat sivilizatsiyasining keyingi bosqichi — o'rta asrlarda jahonning ikki yirik dini — islom va xristianlik siyosat va siyosatchilarga shu darajada kuchli ta'sir etdiki, natijada bu dinlar G'arbda va Sharqda barcha davlatlar ustidagi «davlat»ga aylandilar. Biroq Yevropadagi reformatsiya, monarxiya rejimlari siyosiy ehtiyojlarini qondirish borasida cherkov mavqeyining asta-sekin so'nib borishi mutlaq siyosiy hokimiyatning mustahkamlanishiga, oxir-oqibatda esa xristian cherkovining siyosatga nisbatan ta'sirining sinishiga olib keldi. Feodal tartiblarga qarshi inqiloblar va undan keyingi siyosiy jarayonlarda diniy aqidalar yakka hukmronligidan uzoqlashgan Yevropa tafakkuri bozor munosabatlari erkinligi, dunyoviy ta'lim va texnik taraqqiyot sari jadal yuzlandi. Jamiyat mutlaq hukmronlik boshqaruvini rad etib, antik demokratiyaning ayrim shakllaridan ijodiy ravishda foydalanishga kirishdi. Yangi

davr Yevropasida hokimiyatning cherkovdan uzoqlashuvi indidning insoniy qadr-qimmatini haqidagi masalani kun tartibiga qo'ydi. Bu esa hukmdor suverenitetidan xalq suverenitetiga o'tishni tezlashtirib, turli dunyoviy mafkuralar, jumladan, liberalizm hamda liberal siyosiy tizimlarni yaratdi.

Yevropada to'plangan tajriba, dini dunyoviy, davlatga oid ishlardan ajratish dahriy davlat va axloqsiz jamiyat qurishga olib keladi, degan da'volarning mutlaqo asossiz va tuturuqsiz ekanligiga zarracha shubha qoldirmaydi. Mazkur qit'aning dunyoviy, demokratik davlatlari o'z fuqarolariga to'laqonli vijdon erkinligini, birinchi navbatda inson huquqlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan e'tiqod erkinligini namunalilik tarzda ta'minlagani e'tiroz bildirilmaydigan hayotiy voqelikka aylandi. Ammo bu jarayonlar Yevropadagi davlat va din munosabatlari tarixiga oid ekanligini nazardan soqit qilmasligimiz kerak.

Sharqda esa IX–XII asrlarda o'z mavqeyini yanada mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan islom dini siyosatni o'ziga tobe etibgina qolmay, u bilan uyg'unlashib ham ketdiki, bu hol bu yerdagi siyosiy rejimlarni zaiflashtirish u yoqda tursin, aksincha, ularning sezilarli darajada mustahkamlanishiga, jamiyatning jipslashuviga, fan va madaniyatning gullab-yashnashiga yordam berdi va shu bilan birga Sharq Uyg'unonishining tamal toshi qo'yilishiga imkon tug'dirdi. Islom vujudga kelgan davrda din siyosatdan, huquqdan, falsafadan ajralmagan holda edi. Ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida siyosat bilan din o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik davom etaverdi. Ba'zan bu aloqadorlik kuchaydi, ba'zan bir qadar susaydi. Ammo dinning siyosatga ta'siri hech qachon batamom yo'qolmadi. Islom faqatgina din bo'lib qolmasdan, balki yaratuvchilik harakati, taraqqiyot ta'limoti, shuningdek, jamiyatni jipslashtirish vositasi bo'lib keldi.

Biroq adolat nuqtayi nazaridan tan olish kerakki, islomning musulmon Sharqi siyosiy hayotida keyinchalik ham yakkahokimlikni saqlab qolishga intilishi bu yerda ilmiy-texnik taraqqiyotga to'siq bo'lib qoldi, uning jamiyat siyosiy va ma'naviy hayotidagi bosimi davom etdi. (Masalan, Imom G'azzoliyning Forobiy va Ibn Sinolar dunyoviy falsafasini keskin rad etishi

yoki mutaassib ulamolar fatvosi bilan Ulug‘bekning o‘z o‘g‘li Abdullatif tomonidan qatl etilishi va h.k.)

Lekin ba‘zi mualliflar mintaqamiz tarixida islom va davlat o‘rtasida kechgan munosabatlarni bir qadar boshqacha tahlil etish tarafdoridir. Ularning fikricha, Markaziy Osiyo jamiyati hayotini tashkil etishda dinning, aynan esa – islomning roli doimo muhim bo‘lib qolganiga qaramay, u hech qachon hukmron bo‘lmagan. Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri va undan keyingi zamonlarda jamiyatni boshqarish masalalarida dunyoviylikka moyil siyosiy kuchlarning o‘rni va ahamiyati muntazam mustahkamlanib borgan hamda diniy doiralar ta’sir faoliyati sohasi sof ma’naviy-axloqiy tabiatga ega masalalargacha torayib borgan¹.

Demak, davlat va jamiyat hayotida taraqqiyot talablariga to‘la javob bera olmayotgan islomiy mafkuraga muqobil dunyoviy mafkuraga ehtiyoj asta-sekinlik bilan shakllana boshlagan. Bunday dunyoviy mafkura sifatida keyinroq jadidchilikning maydonga chiqqani fikrimizni isbotlaydi. Xuddi shu davrda Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan zabt etilishi islomning o‘rni va rolining jiddiy o‘zgarishiga ham olib keldi: istilochilar islomni ijtimoiy-siyosiy hayotdan imkon qadar ehtiyotkorlik bilan siqib chiqarishga harakat qildilar. Bunda birinchidan, musulmon ruhoniylarni inkor etib, ularni ijtimoiy hayotdan asta-sekin siqib chiqarish, ikkinchidan, ularning moddiy-iqtisodiy zaminini yemirishni ko‘zlagan vaqf mulklarini qisqartirishga qaratilgan tadbirlardan iborat usullardan foydalanildi.

Ma’rifat va milliy mustaqillik bayrog‘i ostida XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik mafkurasi esa «ilmiy sotsializm» tug‘dirgan lenincha fundamentalizm va uning bevosita natijasi bo‘lgan Stalin rejimi zug‘umlari ostida o‘z takomiliga yetmagan holda qolib ketdi. Jamiyat hayotida dinning har qanday rolini kamaytirishga intilish sho‘rolar davrining dinga nisbatan davlat siyosatidagi asosiy xususiyat bo‘lib qoldi. Bu siyosat jangari ateistik usullar ishlatish, ruhoniylar va diniy muassasalarga qarshi keng ko‘lamli hujumlar uyushtirish, dinning ijobiy salohiyatini

¹ Ислам ва дунёвий-маърифий давлат / Мунавваров З. ва В.Шнайдер-Детерснинг умумий таҳрири остида. – Т., 2003. – В. 136.

butunlay inkor etish yo‘li bilan amalga oshirildi. Islomning tarbiyaviy salohiyatidan foydalanishga da‘vat etgan turkistonlik jadidlarning urinishlari ham rad etildi. Ruhoniylar va diniy muassasalarga tazyiq o‘tkazish uzluksiz oshib bordi: ateistik jamiyat qurish bilan bog‘liq xomxayol tobora qat‘iylik bilan hayotiy voqelik sifatida taqdim etila boshlandi. Ammo tabiiyki, bunday siyosat asrlar osha shakllangan musulmon jamiyati hayotidan dinni tag-tomiri bilan uzib tashlashni ta‘minlay olmadi. Shunga qaramasdan ulamolarning mutlaq ko‘pchiligi jismonan mahv etildi va musulmon diniy muassasalarining anchagina qismi vayron etildi. Lekin bundan islom omili jamiyat hayotidan yo‘qolib ketmadi, balki uning o‘rni o‘zgardi, xolos — u nihoyatda o‘ziga xos shakl kasb eta boshladi. Jumladan, dinning yashirin faoliyat olib borishga o‘tishi bunday siyosatning mahsuli bo‘ldiki, natijada u hokimiyatga qarshi muxolif kuchga aylandi. 1980-yillarning oxirlaridan boshlab, sobiq Ittifoqning parchalanish jarayoni batamom ravshan bo‘lgach, radikal kayfiyatdagi ba‘zi arboblar millatning ma‘naviy rahnamoligiga oshkora da‘vo qilib chiqdilar. Masalan, 1990-yilda Tojikistondagi Islom uyg‘onish partiyasi shu mamlakatdagi diniy boshqarma rahbariyati bilan til birlashtirib, demokratiya niqobi ostida hokimiyat uchun kurashga otlandi. Natijada, respublikada fuqarolar urushi boshlanib, o‘n minglab begunoh odamlarning qoni to‘kildi, bir millat ikki qarama-qarshi qismga ajralib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasida esa davlatning dinga nisbatan oqilona ravishda ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan siyosati bois, qo‘shni davlatdagi singari fojialarga yo‘l qo‘yilmadi. Milliy va diniy totuvlik ta‘minlandi. Biz barpo etayotgan dunyoviy, demokratik jamiyat, huquqiy davlatdagi davlat va din munosabatlari mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ochiq-oydin ifoda etilgan. Respublikamizda din davlatdan rasman ajratilgan. Biroq dinning davlatdan ajratilganligi uning jamiyatdan ajratilganligini bildirmaydi. Bas, shunday ekan, bu nozik va murakkab masalada munosabatlarning o‘zaro hurmat va ishonch asosida qurilishi yagona maqbul yo‘ldir. Davlatni idora qilish, jamiyatni boshqarish — siyosiy rahbarlarning vazifasi. Diniy rahbarlar esa kishilarni islom qadriyatlarini asosida tarbiyalab,

jamiyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda, hayotiy masalalarni hal etishda hukumat rahbarlariga yordam berishlari, davlat qonunlari va siyosatini hurmat qilishlari lozim. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va haq-huquqlarini qanchalik hurmat-ehtirom qilsa, dindorlar ham davlat qonunlari va siyosatini shunchalik hurmat-ehtirom qilishlari shart»¹. Shundagina jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayoti mutanosib rivojlanadi.

Diniy fundamentalizmning siyosiy ta'limoti. Ma'lumki, barcha jahon dinlarida dinni zamonaviylashtirish jarayonlari uzoq tarixga ega. Bu xususiyatdan bizning davr va islom dini ham mustasno emas. Ayni vaqtda islomni zamonaviylashtirish jarayoniga qarama-qarshi ravishda uni ilk asoslariga qaytarishga intilish ham kuzatilmoqda. Bu fundamentalizmdir, uning vakillari esa aqidaparastlardir. Ular fundamentalizmni, asosan, ikki yo'l bilan: birinchidan, tinch yo'l bilan — ya'ni, masalan, islomning fundamental asoslarini keng targ'ib qilish, uni hozirgi ijtimoiy hayotga, insonning ruhiy, diniy qarashlariga singdirish, dinning fundamental asoslariga qaytishning afzalliklarini isbot qilish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qilishmoqda; ikkinchidan, fundamentalizm tarafdorlarining bir qismi kuch ishlatish yo'li, ya'ni zo'ravonlik, qon to'kish, hatto qurolli janglar yo'li bilan o'z maqsadlarini amalga oshirishga urinmoqdalar. Bu urinishlar yordamida ba'zan ular vaqtincha bo'lsa-da, o'z siyosiy maqsadlariga — hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'lmoqdalar. («Tolibon» terrorchi tashkilotining Afg'onistonda 1997–2002-yillarda siyosiy hokimiyat tepasida bo'lganligi bunga dalil bo'la oladi.)

Arab Sharqi mamlakatlarida, masalan, Jazoir, Misr va Sundanda faoliyat ko'rsatayotgan «Ixvoni muslimin», Janubiy Livandagi «Hizbulloh», Falastindagi «Xamas» aksilisroil guruhi, «Hizb-ut-tahrir al-Islomiy» kabi ekstremistik tashkilotlar shariat normalarini jamiyatning barcha sohadagi hayotini tartibga soluvchi vosita sifatida tan olinishiga, qolaversa, barcha

¹ *Каримов И.А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. — Т., 1994. — В. 291.

musulmon mamlakatlarini birlashtirgan yagona teokratik davlat – xalifalikni tashkil etishga harakat qilishmoqda. Qisqa qilib aytganda diniy aqidaparastlarning talabiga ko‘ra diniy arboblarning davlatni boshqarishlari va siyosat bilan shug‘ullanishlari kerak.

Shu o‘rinda musulmon mamlakatlarida diniy aqidaparastlikning kuchayishiga sababchi bo‘layotgan omillar haqida to‘xtal-sak: *birinchidan*, G‘arbning musulmon mamlakatlariga tazyiq ko‘rsatishga asoslangan siyosatining kuchayishi; *ikkinchidan*, ko‘pgina musulmon mamlakatlarida siyosiy vaziyatning keskinlashuvi va iqtisodiy ahvoldan og‘irlashuvi; *uchinchidan*, mavjud taraqqiyot darajasidan qoniqmaslik natijasida o‘zining tarixiy, madaniy-diniy ildizlariga qaytishga intilish; *to‘rtinchidan*, Arab dunyosi, musulmon mamlakatlarida uzoq vaqtdan beri hal bo‘lmayotgan turli mintaqaviy, diniy, hududiy muammolarning hal etilishiga ishonchsizlikning kuchayishi.

Aslida, fundamentalizm faqat islomgagina emas, balki boshqa dinlarga ham xos xususiyatdir. Shu bois, ayrim mutaxassislar ta’kidlaganidek, «islom fundamentalizmi» islom dinining tobora siyosiylashib borayotganini ko‘rsatish maqsadida siyosatchilar, G‘arb islomshunoslari tomonidan o‘ylab topilgan atamadir. «Islom fundamentalizmi» degan siyosiy tushuncha Amerika islomshunoslari tomonidan 1979-yilda, ya’ni Eron islom inqilobining g‘alabasi natijasida AQSHning Erondagi siyosiy va iqtisodiy mavqeyi keskin pasaygandan keyin kiritildi.

Biroq ayrim aqidaparast kuchlarning o‘z siyosiy muddaolariga erishish uchun ko‘proq ekstremizm va terrorizmdan vosita sifatida foydalanayotganligi tashvishli holdir.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, bir qancha islomiy xalqaro tashkilotlar xalqaro hayotga, undagi iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal etishga jiddiy ijobiy ta’sir ham ko‘rsatmoqda. Masalan, 1969-yilda tashkil topgan «Islom konferensiyasi tashkiloti»ga 50 dan ziyod davlat a’zo bo‘lib, uning asosiy maqsadi musulmon davlatlari o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy birdamlikni mustahkamlash, davlatlarning mustaqilligi, milliy huquqlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashdan iborat. Islom taraqqiyot banki bu tashkilotning yordamchi idorasidir.

Shuningdek, 1926-yilda tashkil topgan, qarorgohi esa Pokistonning Karochi shahrida joylashgan «Umumjahon islom kongressi», 1962-yilda Saudiya Arabistonining Makka shahrida tashkil topgan «Umumjahon islom ligasi» kabi tashkilotlar xalqaro hayotning barcha muhim masalalarini tinch yo'l bilan hal etish tarafdoridir.

Dunyoviy davlatda siyosat va din munosabatining huquqiy me'yorlari. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'ldan borayotgan davlatimizning dinga bo'lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi, degan savolga javob berishdan avval «dunyoviylik» degan tushunchaning o'zi nimani anglatishini aniqlash-tirish lozim.

Dunyoviylik diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayot va qolaversa, umummilliy taraqqiyotdagi ahamiyatini inkor etadimi? Agar inkor etmasa, dinning hayotiy voqeelikdagi rolini u qanday tushunadi? Ana shu savollarga oydinlik kiritsakkina mustaqil O'zbekistonda dunyoviy jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning, shuningdek, siyosat, din va mafkura o'rtasidagi aloqaning, munosabatlarning tub mohiyati ravshanlashadi. Fikrimizcha, taraqqiyotning dunyoviy yo'li sobiq kommunistik mafkura «qoliplari»ga tushmasligi, ya'ni uning dahriylik hamda diniylik emasligiga bog'liq. Bundan dunyoviylik mohiyatan, zikr etilgan ikki qarama-qarshi qutbning, ya'ni diniylik va dahriylikning oralig'ida joylashgan ma'naviy-madaniy holat degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, u diniylikni ham, dahriylikni ham inkor etmaydi, ularning har ikkalasini obyektiv ijtimoiy hodisa deb e'tirof etadi. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, dunyoviylik tushunchasi plyuralizm, ya'ni hurfikrlilikka asoslanadi. Dunyoviy taraqqiyot yo'ldan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo'lgan munosabat demokratik plyuralizm, ya'ni hurfikrlilik tamoyiliga asoslangani tufayli ularda din hayotdagi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ruhiiy muhit rang-barangligini ta'minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng huquqli bo'g'in sifatida qabul qilingan. Shu o'rinda din demokratiya va hurfikrlilikka asoslangan dunyoviylik bilan murosqa qila oladimi, degan savol tug'ildi. O'zbekiston tub aholisining e'tiqodi bo'lgan islomchi?

Dunyoning ko'pchilik davlatlari, xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, din dunyoviy davlat tuzumi bilan nafaqat murosa qilishi, balki umummilliy yuksalish yo'lida u bilan samarali hamkorlik qilishi mumkin.

Dinning jamiyatimizdagi o'rni, eng avvalo, uning konstitutsiyaviy maqomi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq barcha fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlangan. Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan va ularning qonun oldida tengligi belgilab qo'yilgan. Ayni paytda milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiya va jamoat birlashmalarining tuzilishi hamda faoliyati taqiqlangan¹. O'zbekiston Respublikasida davlatning din bilan munosabatlari mazmun-mohiyatini belgilovchi qator tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi yuqoridagi mezon va tamoyillardan ikki asosiy xulosani chiqarish mumkin.

Birinchidan, O'zbekistonda din madaniy-mafkuraviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olinadi.

Ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqari har qanday g'arazli maqsadga erishish yo'lida diniy omillardan foydalanish qat'iy man etiladi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2008. – 18, 31, 57, 61-моддалар.

Ekstremizm va fundamentalizmga qarshi kurashning asosiy yo'nalishi islom diniga emas, balki islomning muqaddas aqidalarini niqob qilib olgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilishi lozim. Biroq ayrim xorijiy mamlakatlar matbuotidagi maqolalarda islom dini, siyosiy islom, terrorizm va diniy ekstremizm bir biri bilan qorishtirib yuborilmoqda. Hatto G'arbda ayrim davlat arboblari terrorizm bilan bevosita bog'liq bo'lgan siyosiy islomga ham beixtiyor islom dinining tarkibiy qismi, deb qarashmoqda. Vaholanki, terrorizm va islom ekstremizmi islom dini bilan faqat konfessional jihatdan bog'liqdir.

Islom dinini agressivlikda, terrorchilikda ayblash jahon miqyosida islom nufuzining, islom mavqeyining oshib borishidan talvasaga tushish, global iqtisodiy, siyosiy madaniy va demografik jarayonlarda gegemonligini tarixan yo'qotayotgan postindustrial jamiyatlarning siyosiy kuchlari uchun xosdir.

Xullas, umume'tirof etilgan demokratiya va plyuralizm tamoyillariga asoslangan davlat va din o'rtasidagi yangicha munosabatlarni fuqarolarimiz ongiga singdirib borish, har qanday diniy-ekstremistik harakatlarning oldini olish eng muhim vazifalardan biridir.

2. «Siyosiy mafkura» tushunchasi. Hozirgi zamonning asosiy mafkuraviy oqimlari

Siyosiy mafkura. Siyosiy mafkura siyosatshunoslikning eng murakkab kategoriyalaridan biridir. Chunki jamiyatni boshqarish zarurati muayyan g'oyaviy dasturni va nazariyani taqozo etadi. Bu vazifani mafkura bajaradi. Mafkurasiz siyosiy hokimiyat bo'lmaganligi kabi davlat va uning siyosiy institutlarisiz mafkura ham bo'lmaydi. Shu bois mafkura ijtimoiy hayotni tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi va muayyan maqsad sari yo'naltiruvchi dastur, ta'limot bo'lib xizmat qiladi. Mafkura asos e'tiboriga ko'ra siyosat bilan uzviy bog'liqdir. Siyosatning o'zgarishi mafkuraga ham ta'sir ko'rsatadi.

«Mafkura» arabcha so'zdan olingan bo'lib, tor ma'noda qarashlar va e'tiqodlar tizimi, majmui degan ma'noni anglatadi. Keng ma'noda mafkura – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy,

axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuidir. G'arb mamlakatlari tillarida mafkura «ideologiya» atamasi vositasida qo'llaniladi¹.

Mafkura, xususan, siyosiy mafkura masalalari tahlili XIX asr oxiri XX asr boshlarida taniqli nemis olimi M. Veber tadqiqotlarida yanada yuqori bosqichga ko'tarildi.

Shuni ta'kidlash zarurki, mafkura masalasi sobiq SSSRda o'ta mutlaqlashtirildi. Mafkura va siyosat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi oqibatida sinfiy dushmanga qarshi kurash niqobi ostida nafaqat kommunistik mafkuraga zid g'oyaviy unsurlar, balki har qanday hurfikrlilik ta'qib ostiga olindi. Trotskizmga qarshi kurash, kollektivlashtirish, madaniy inqilob, stalincha qatag'onlar o'z qamroviga ko'ra fashizm mafkurasidan qolishmadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin NATO va Varshava Shartnomasi davlatlari o'rtasida vujudga kelgan «sovuq urush» siyosati ham asos e'tibori bilan mafkuraviy tabiatga ega edi. Har qanday ilmiy va madaniy hurfikrlilikka, agar u kommunistik mafkura qoliplariga to'g'ri kelmasa, g'ayriinsoniy, zararli deb qaraldi. Bundan ilm-fan va madaniyat ravnaqi katta zarar ko'rdi. Sovet mafkurasining tub xususiyatlaridan biri shunda ediki, u xalqlarning milliy o'zligini, madaniyati, axloqi va ma'naviyatining betakror jihatlarini inkor etar, «sovet xalqi» degan mavhum tushuncha ostida barcha millatlarni birlashtirishga urinardi. Natijada, ayrim kam sonli xalqlar o'z tili, milliy madaniyatini yo'qotishgacha yetib bordilar.

Aslida mafkura siyosatga oqilona yo'nalish berishi, uni jamiyat hayotining turli jabhalaridagi real holat bilan tanishtirishi lozim. Siyosatning mafkuraga tayanishining sababi — mafkuraning jamiyat ma'naviy kayfiyatini, orzu-umidlarini, maqsad va manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy dastur ekanligidadir. Bu borada siyosiy mafkura alohida o'rin tutadi. Chunki u huquqiy mafkura kabi demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Siyosiy

¹ *Izoh:* «Ideologiya» yunoncha «ideya» va «logos» so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, g'oyalar haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. Bu atama ilk bor 1797-yilda fransuz inqilobi davrida Destut de Tressi tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

mafurasiz biror-bir siyosiy harakat bo'lmaydi. Siyosiy mafkura o'z tarkibiga ko'ra mavjud ijtimoiy voqelik, uning kelajagi to'g'ri-sidagi siyosiy tasavvur va tushunchalardan tashkil topadi. Siyosiy mafkurada mavjud ijtimoiy voqelikning kelajagi haqidagi fikr-mulohazalar muayyan dastur qiyofasiga kiradi. Shuning uchun siyosiy mafkura siyosiy amaliyot uchun dasturiy ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy mafkuraning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati shundan iboratki, u kishilarning his-tuyg'ulariga, kayfiyatlariga ma'naviy, g'oyaviy jihatdan ta'sir qiladi, ularni g'oyaviy jihatdan qurollantiradi va real xatti-harakatga undaydi. Ya'ni, siyosiy mafkura ijtimoiy voqelikni taraqqiy ettirishga yordam beradi. Siyosiy mafkuraning ijtimoiy voqelikni o'zgartirishga qaratilishining sababi shuki – u jamiyatdagi ijtimoiy guruh va tabaqalar-ni ehtiyoj hamda manfaatlari bilan bog'langandir. Shu bois siyosiy mafkura mavjud voqelikni emas, balki ko'proq bo'lishi lozim bo'lgan ijtimoiy voqelikni yaratishga bo'ysundirilgan bo'ladi. Chunki ijtimoiy voqelikda, siyosiy jarayonlarda doimo manfaatlar va ehtiyojlar kurashi ro'y beradi. Siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh, sinf, tabaqaning g'oyaviy dasturi, siyosiy ideali hisoblanadi. Ular o'z mafkuralarini yoki siyosiy dasturlarini jamiyatning boshqa tabaqalari ongiga singdirishga va yetakchi mafkura darajasiga ko'tarishga harakat qiladilar. Dunyoda turli-tuman mafkuralarning shakllanganligini shu omil bilan izoh-lash mumkin.

Mafkura jamiyatning ilgarilanma taraqqiyotida g'oyaviy «kompas» vazifasini bajaradi. Mafkura va siyosatning subyektii insondir. Aynan kishilar o'zlari uchun qaysi mafkura ma'qul ekanligini tanlashadi. Demokratik jamiyatdagina mavjud bo'la-digan bunday tanlovda turli siyosiy guruhlar, qatlamlar, uyush-malar va tabaqalar ishtirok etadilar. Demak, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi hamda ko'proq miqdordagi kishilarning individual o'y-fikrlari va xatti-harakatlarini hokimiyatdan foydalanishning muayyan maqsadlari va vazifalariga bo'ysundirishni talab qiluv-chi tizimlashgan (sistemalashgan) g'oyalar, qarashlarning yi-g'indisidir.

Xullas, siyosiy mafkura — bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy harakatning u yoki bu strategiyasini ko'zda tutuvchi g'oyaviy tizimdir.

Agar fanning vazifasi haqiqatni izlash bo'lsa, mafkuraning vazifasi aholining ommaviy siyosiy ongini egallashdir. Aholini real birlashtirish qobiliyati muayyan mafkuradagi g'oya va qoidalar kishilarning yaxshi turmush tarzi haqidagi kundalik qarashlari va tasavvurlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq.

Siyosiy mafkura zamon va makondan tashqarida bo'lgan mavhum ruhiy hodisa emas. U muayyan tarixiy sharoit bilan bog'liq — aniq ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan ma'naviy hodisadir. Har bir tarixiy davr o'ziga xos va o'ziga mos mafkuraviy oqimlarni ilgari suradi. Bundan hozirgi zamon ham mustasno emas.

Hozirgi zamonning eng yirik mafkuraviy oqimlari liberalizm, konservativizm va sotsial-demokratiyadir.

Liberalizm — lotincha «liberalis» so'zidan olingan bo'lib, «erkin» degan ma'noni anglatadi. U XVII—XVIII asrlarda ma'rifatparvarlik g'oyalari negizida burjua sinfi mafkurasini sifatida shakllandi. Bu mafkuraning asosiy qoidalari J. Lokk, T. Gobbs, Sh. Monteskyo, A. Smit, T. Jefferson asarlarida ishlab chiqildi va asoslandi.

Liberalizm poydevorini shaxs erkinligi, uning jamiyatdagi barcha institutlarga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'ulligi, barcha kishilarning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi prinsiplar tashkil etadi. Bu mafkura parlament tuzumining, muhim siyosiy muammolarni hal etishda murosai-madora, kelishuvning tarafdoridir.

U davlatning ko'payib ketgan iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalariga salbiy munosabatdadir. Liberalizm hokimiyatning taqsimlanishi, siyosiy plyuralizm, elitalar raqobati, qonunning ustuvorligini e'tirof etadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi deb biladi. Boshqa kishilarning qarashlari va e'tiqodlariga sabr-toqatli bo'lishlik himoya qilinadi. Erkinlik prinsipi liberalizm tarafdorlari tomonidan davlat cheklashlaridan erkin bo'lishlik sifatida talqin

etiladi. Bu g'oyani Lokk inson o'ziga nima kerakligini har qanday hukumatdan ko'ra yaxshi biladi, deb talqin etgan edi.

Liberalizm hokimiyatni meros qilib qoldirishning barcha shakllariga va tabaqaviy imtiyozlarga qarshi chiqadi. «Davlat — tungi qorovul» mazmunidagi g'oyani ilgari suradi. Bu g'oyaning mazmuni shuki, davlat faqat ijtimoiy tartibni qo'riqlash va mamlakatni tashqi tahdiddan himoya qilishni ta'minlaydigan, kamroq, lekin kerakli vazifalar bilan ta'minlanishi kerak. Shuning uchun aynan liberalizmda fuqarolik jamiyatining davlat ustidan ustuvorligi g'oyasi qaror topdi va amalga oshirilmoqda.

Lokk fuqarolik jamiyati — bu doimiy kattalik, davlat esa undan kelib chiquvchi, deb yozgan edi.

Liberalizm erkinlikning bozor talqinini tadbirkorlik erkinligi sifatida baholaydi. Ya'ni, bu mafkura erkinlik va xususiy mulkning o'xshashligiga asoslanadi. Unda xususiy mulk inson erkinligining kafolati va o'lchovi sifatida qaraladi. Iqtisodiy erkinlikdan siyosiy va fuqarolik erkinligi keltirib chiqariladi. Klassik liberalizm g'oyalari anglo-sakon mamlakatlarida, avvalo, AQSHning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotida o'zining bir qadar to'laroq ifodasini topdi. AQSHda individualizm jamiyat tuzilishining bosh prinsipi sifatida qaraladi. Mustaqillik va o'zining kuchiga tayanish, raqobat erkinligi amerikacha turmush tarzining asosiy g'oyaviy ustunlaridir.

Neoliberalizm. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida XX asrning 30-yillarida liberalizm neoliberalizmga o'sib o'tdi. Unda AQSH prezidenti T. Ruzveltning «Yangi yo'li» katta o'rin tutdi. Ruzvelt davlatning iqtisodiy va ijtimoiy roli masalasini qaytadan ko'rib chiqdi. Neoliberallar davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishi, faol ijtimoiy siyosat olib borishi zarurligini tan oladilar. Ular ijtimoiy adolatni o'rnatishni, monopoliyalarning hokimiyatini cheklashni, moddiy boyliklarni soliq tizimi va davlatning ijtimoiy dasturlari orqali jamiyatning quyi qatlamlari foydasiga qayta taqsimlashni yoqlab chiqadilar. Shuningdek, liberalizm boshqaruvchi va boshqariluvchilarning o'zaro kelishuvi, siyosiy jarayonda ommaning ishtirok etishi zarurligi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratlashtirish muhim xarakterli xususiyatdir.

Umuman, liberalizm G'arb demokratiyasining g'oyaviy asosi, AQSHda esa AQSH demokratik partiyasining g'oyaviy-nazariy mafkurasidir.

Hozirgi zamonning yana bir mafkuraviy oqimi konservatizm bo'lib, u lotincha «konservare» so'zidan kelib chiqqan hamda «saqlash», «qo'riqlash», «buzilib ketishdan saqlab qolmoq» degan ma'nolarni anglatadi.

Konservatizm. XVIII asrda liberalizmning raqibi o'laroq xudo tomonidan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi g'oyasining ilgari suruvchisi sifatida paydo bo'ldi. Uning asosiy qoidalari angliyalik mutafakkir va siyosatchi E. Berk, fransiyalik jamoat arboblari de Mester va de Bonald tomonidan asoslab berildi.

Bu qoidalarning negizida tabiiy ravishda qaror topgan narsalar tabiatining buzilmasligi, oila, millat, din, tabaqaviy bo'linish bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish g'oyasi yotadi.

Ana shundan kelib chiqib, konservatorlar ijtimoiy taraqqiyotda yangiliklarga nisbatan vorislikning ustuvorligini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha, siyosiy prinsiplarni urf-odatlariga, milliy an'analarga, qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlarga moslashtirish lozim. Zinapoya tarzidagi ijtimoiy tuzilishning yuqoridan o'rnatilganligiga hech qanday shubha yo'q va shuning uchun uni inson tomonidan o'zboshimchalik bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, tenglik prinsipi inson tabiatiga zid keladi va uni jamiyat tuzilishining negiziga qo'yib bo'lmaydi.

Neokonservatizm. Tarixiy taraqqiyot konservatizmida ham o'zgarishlar yasadi. U bugun liberalizm singari bozor, raqobat erkinligini ta'minlashni, iqtisodiyotga davlatning aralashuvini cheklashni talab qilmoqda. XX asrning 70-yillarida konservatizm tarixida yangi tarixiy davr – neokonservatizm (D. Bell, Z. Bzejnskiy, N. Podgorets, N. Kristoll, A. Xayek) boshlandi. Bu yangi oqimning paydo bo'lishini tadqiqotchilar AQSHda Ronald Reygan boshchiligida respublikachilar partiyasining, Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher boshchiligida konservatorlar partiyasining, Germaniyada (o'sha davrda – GFR) Gelmut Kol bosh-

chiligida XDS-XSS¹ blokining hokimiyatga kelishi bilan bog'laydilar.

Neokonservatizm neoliberalizm va sotsializmga qarshi turish maqsadida shakllandi. Neoliberalizm davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashishi zarurligini tan oladi va davlat ijtimoiy dasturlarining rivojlantirilishini qo'llab-quvvatlaydi. Neokonservatizm esa aksincha, davlatning iqtisodiyotga aralashishini cheklashni talab qiladi. Antietatizm², davlatning ijtimoiy vazifalarini cheklash neokonservatizm g'oviy-siyosiy ko'rsatmalarining belgilovchi alomatidir.

Neokonservatorlar qarashlariga ko'ra «eng yaxshi hukumat shuki, u kamroq boshqaradi». Ular aholining kam ta'minlangan qatlamlari foydasiga resurslarni qayta taqsimlash maqsadida yirik kapitalga solinayotgan soliqlarga qarshi chiqadilar. Ular teng taqsimlashning ashaddiy dushmanlari sifatida davlatning ijtimoiy dasturlarini qisqartirishni talab etadilar. Neokonservatorlar fikricha, hozirgi davlat kishilar uchun natijalar tengligini emas, balki imkoniyatlar tengligini yaratib berishi kerak. Davlatning «sog'iladigan sigir»ga aylanishi insonni buzadi, ishdan chiqaradi. Har bir kishi o'z faoliyatida davlatga emas, balki o'zining kuchiga hamda o'z yaqinlari va hamyurtlariga tayanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, konservatizm mafkurasida oila, din, axloq, ayrim guruhlarining imtiyozli o'rni haqidagi eski davrning qadriyatlari yangi, burjua munosabatlari davrining individualizm, bozor erkinligi kabi qadriyatlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Sotsial-demokratiya. Bu mafkura XIX asrning oxirida nemis mutafakkirlari va jamoat arboblari K. Kautskiy va E. Bernshteyn tomonidan asoslab berilgan. Unga ko'ra yangi jamiyatga sinfiy kurash yoki inqilobiy yo'l bilan emas, balki tinch, evolyutsion yo'l bilan burjua jamiyatini asta-sekin isloh qilish orqali o'tiladi.

¹ *Izoh:* XDS-XSS—Germaniyadagi xristian-demokratik va xristian-sotsialistik partiyalar ittifoqi.

² *Izoh:* Etatizm — (etat — davlat) jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida davlat rolining kuchayishini ko'rsatish uchun asosan G'arb adabiyotida keng qo'llanilgan termin. Qarang: Фалсафа: қомусий луғат. — Т., 2004. — В. 467.

Sotsial-demokratlar bu maqsadlarini amalga oshirishni davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga faol aralashishini, daromadlarni yo'qsillar foydasiga qayta taqsimlash, iqtisodiyotning davlat sektorini va ko'plab davlat ijtimoiy dasturlarini rivojlantirish bilan bog'laydilar.

Jahonda sotsial-demokratiya mafkurasi negizida turli-tuman «sotsializm modellari» shakllandi. Bular ichida shved va german modeli eng katta obro' qozondi. Germaniya va Shvetsiyada sotsial-demokratik partiyalar boshqaruvi davrida hayotning yuqori darajasi va sifatiga erishildi. Ammo bu mamlakatlar iqtisodiyotida XX asrning 80-yillarida davlat monopoliyasi va byurokratiizm bilan bog'liq salbiy jarayonlar kuchaydi. Natijada, hokimiyat konservatorlar qo'liga o'tdi. XX asrning 90-yillari oxirlariga kelibgina sotsial-demokratlar saylovlarda g'alaba qozonib, konservatorlardan hokimiyatni yana qaytarib oldilar. Shunday qilib, sotsial-demokratiya ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish yo'li bilan jamiyatni rivojlantirishni va xalq farovonligiga erishishni ko'zda tutadi.

Milliy mafkuralar. Hozirgi zamon mafkuralari qatorida milliy mafkuralar ham muhim o'rinni egallaydi. Ular boshqa mafkuralardan farq qiluvchi bir qator xususiyatlarga ega. Jumladan:

– Milliy mafkuralar dunyo mustamlakachilik sistemasining yemirilishi, yosh mustaqil milliy davlatlarning tashkil topish zaruriyati bilan bog'liq. Hozir bu jarayon sobiq SSSR va boshqa sobiq sotsialistik mamlakatlar o'rnida tashkil topgan davlatlarda yuz bermoqda.

– Milliy mafkuralar faqat ayrim ijtimoiy, irqiy, etnik guruhning, xalqning manfaatigina emas, balki mustaqillik uchun, milliy hayotni rivojlantirish uchun kurash olib borayotgan xalqlarning dunyoda tutgan o'rnini, turmush tarzini, orzu-umidlarini, intilish va manfaatlarini aks ettiradi.

– Milliy mafkuralar u yoki bu xalqlar qaramligining obyektiv negizlarini, ularni bartaraf etish va haqiqiy mustaqillikka erishish yo'llarini ochib beradi.

– Milliy mafkuralar yosh, mustaqil davlatlar xalqlarining o'zligini anglashiga, qaramlik doirasidan chiqishiga, ularning chinakamiga erkin bo'lishiga, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va milliy mafkuraga ehtiyoj. 1991-yilda sovet imperiyasi parchalangach, o‘z-o‘zidan uning mafkurasi ham yo‘qoldi. Natijada, ijtimoiy hayotda bo‘shliq hosil bo‘ldi. Bu bo‘shliqqa bir vaqtning o‘zida dunyoviy, mustaqil, demokratik davlatni barpo etishga kirishgan milliy mafkuramiz bilan birga O‘zbekistonni o‘zi tanlagan yo‘ldan toydirmoqchi bo‘lgan, diniy davlat qurish istagidagi siyosiy kuchlarning mafkurasi ham kirib kela boshladi. Jumladan, vahho-biylik, hizb ut-tahrir, akromiylik kabi diniy-ekstremistik kuchlar siyosiy mafkurasidagi asosiy xususiyat mavjud hokimiyat kam-chiliklariga nisbatan ayrim ijtimoiy qatlamlar ruhiyatida salbiy his-tuyg‘u uyg‘otib, uni e‘tiqod darajasiga ko‘tarishga asosiy e‘tibor qaratilishida ko‘zga tashlandi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, biror-bir davlat mafku-rasiz bexavotir rivojlana olmas ekan. Shuning uchun ham mustaqil taraqqiyot sari odimlayotgan O‘zbekiston Respublika-sida mafkura masalasiga yangicha yondashish muammosi vu-jdga keldi. Mustabid sovet tuzumining inqirozga yuz tutishi jamiyatning barcha sohalarini tubdan isloh qilish va yangi jamiyat qurish masalalarini ishlab chiqishni taqozo qildi. Bu masalalar I. A. Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» kabi ko‘plab asarlarida asoslab berilgan konsepsiyada o‘z yechimini topdi. Ayni paytda bu konsepsiya milliy istiqlol g‘oyasini yaratishga katta hissa bo‘lib qo‘shildi, uni yangi, fundamental-nazariy qoidalar, xulosalar bilan boyitdi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy mafkuraning ijtimoiy-si-yosiy hayotga tatbiq etilishida quyidagi uch bosqich e‘tiborga molik.

Birinchi bosqich Prezident I. A. Karimov belgilab bergan besh tamoyil va uning talqini bilan bog‘liq. Lekin islohotlar jarayonida ilgari surilgan «Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas», degan tamoyil sovet mafkurasidan bezgan, umuman «mafkura» so‘zidan hadiksirab qolgan fuqarolar tafakkurida mafkurani hayotimizdan umuman chiqarib yuborish

lozim, degan noto'g'ri xulosalarni ham shakllantirdi. Bu bosqich taxminan 1991–1993-yillarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy islohotlar, ayniqsa, yangi siyosiy tizimni yaratish, demokratik institutlarni shakllantirish muammolari mafkuraga, xususan, milliy mafkuraga e'tibor berishni taqozo eta boshladi. Natijada, mafkura muammosini yangicha talqin etishda yangi bosqich boshlandi. Ya'ni **ikkinchi bosqich** 1993–1999-yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda mafkura har qanday davlat siyosatining, jamiyat hayotining ajralmas qismi, g'oyaviy tayanchi ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar mamlakatimiz ziyolilari tomonidan turli OAV orqali jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi.

Uchinchi bosqich Prezident I. A. Karimovning 2000-yil 6-aprelda mamlakatimiz ziyolilari bilan Oqsaroy qarorgohida o'tkazgan uchrashuvidan boshlandi desak, xato bo'lmas. Chunki bu uchrashuvda milliy mafkuraning negizi – milliy g'oya muammosi o'rta tashlandi. Milliy g'oya milliy mafkuraning umumlashgan ifodasi sifatida vatanparvarlik, milliy g'urur va milliy sha'n kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Milliy mafkura o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir. Ushbu mafkura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Masalan, mafkura tushunchasini Prezident Islom Karimov shunday ta'riflaydi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga (xalqning ruhiyatiga) asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman»¹.

Milliy mafkuramiz O'zbekiston davlati, millati uzoq ming yillik tarixga ega ekanligini, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan buyuk hissasini, o'tmishini aniq manbalar asosida ifodalovchi

¹ *Каримов И.А. Адолатли жамият сари. – Т., 1998. – В. 11.*

hamda xalqimizning bugungi kundagi asosiy vazifasi erkinlik, mustaqillik, ozodlikning qadriga yetish, har bir shaxsning o'z mehnati, bilimi, aql-idroki, kerak bo'lsa jon-u tani bilan mustaqillikni mustahkamlash, avaylab-asrash va Vatanimizning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi hamda kelajak avlodga ozod va obod Vatan qoldirish barchamizning maqsadimiz ekanligini ko'rsatuvchi ta'limotdir. Shuning uchun barchamiz milliy mafkuraning mazmun-mohiyatini bilishimiz lozim, zero milliy mafkura xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bir bayroqdir.

Milliy mafkura haqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to'liq ta'minlaydi. Asosiy Qonunimizning 12-moddasida bu qoida quyidagicha ifodalangan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas». Ya'ni, mamlakatimizda mafkuraviy yakkahokimlikka yo'l qo'yilmaydi. Chunki mafkuraviy plyuralizm haqiqiy demokratik davlat shakllanishining debochasidir.

Bu qoida faoliyat ko'rsatayotgan partiyalar, harakat va ijtimoiy-siyosiy guruhlardan birortasining dasturiy g'oyalari yagona davlat mafkurasi bo'la olmasligini anglatadi.

Milliy mafkura turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi¹. Milliy mafkura o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning – butun xalqimizning manfaatlarini ifodalaydi.

Milliy g'oya va mafkura – taraqqiyot tayanchi. Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqi-

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., 2001. – В. 45.

miz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 2006-yil 25-avgustda qabul qilgan qarori e'tiborga molikdir. Chunki xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli xil mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi ishlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Ushbu qarorga ko'ra Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashida «Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi» tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari sifatida:

– milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

– xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning ongini zaharlab, ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish kabi bir qator masalalar belgilandi¹.

Milliy g'oya va mafkura, yuksak ma'naviyat taraqqiyotimizning tayanchi ekanligi to'g'risidagi konsepsiya I. A. Karimov-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори. // O'zbekiston ovozi. — 2006. — 25-avg. — №99–100.

ning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch»¹ asarida yanada rivojlantirildi. Unda odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etib berildi. Ayni paytda istiqlol yillarida milliy ma'naviyatni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ekosiyosiy va diniy-siyosiy mafkuralar. Ekosiyosiy mafkuralar II jahon urushidan keyingi yillarda vujudga keldi va XX asrning 70–80-yillarida rivojlana boshladi. Bunga rivojlangan mamlakatlardagi og'ir ekologik vaziyat sabab bo'ldi.

Diniy-siyosiy mafkuralar bugun paydo bo'lgan emas, balki azaldan mavjuddir. Ular diniy aqidalarga tayanadilar. Diniy mafkuraning bosh maqsadi diniy-siyosiy hokimiyatni o'rnatishdir. Buni Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Vatikan misolida ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, sovetlardan keyingi makonga turli ekstremistik mafkuralarning (vahhobiylik, hizb ut-tahrir hamda uning bevosita bir shahobchasi bo'lmish akromiylik va h.k.) ta'siri sezildi va kuchaydi. O'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy jihatdan ta'minlanayotgan aqidaparast mafkuralar bugungi kunda mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi. 2005-yilning 13 mayida Andijon shahrida diniy-mutaassiblar tomonidan amalga oshirilgan xunrezliklar jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug'diradigan mafkuraviy hamda jinoyatkorona

¹ *Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т., 2008. — В. 176.*

tahdidlar hamon mavjud ekanligidan dalolat beradi va barchamizni ogoh bo'lishga undaydi. Bu tahdidlar, eng avvalo, oddiy insonlar qalbi va ongini zabt etishga, ularni o'z milliy qadriyatlaridan, umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum qilishga, pirovard natijada yurtimizni o'ziga qaram qilib olishga qaratilgan zamonaviy tajovuzkorlikning bir shaklidir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamonning asosiy mafkuraviy oqimlari liberalizm, konservatizm, sotsial-demokratiya va milliy mafkuralardir. Ular turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etadi va jamiyatni taraqqiy ettirishning turli-tuman yo'llarini ilgari suradi.

3. O'zbekiston milliy mafkurasida din va siyosatning o'rni

O'zbek davlatchiligi tarixiga nazar solinsa, diniy bag'rikenglik, vijdon va e'tiqod erkinligi asosiy prinsip va davlat siyosati darajasiga ko'tarib kelinganiga ishonch hosil qilamiz. Masalan, Toshkent Islom universiteti islom huquqi kafedراسi mudiri Abdulhakim Juzjoniyning yozishicha, kushonlar davrida zarb qilingan tangalarning bir tomonida budda dini — davlat rasmiy dinining ramzi bo'lsa, ikkinchi tomonida boshqa bir dinning ramzi aks etgan. Islom dini kirib kelganda Buxoroda turli din tarafdorlari bo'lgan: budda, zardushtiylik, nasroniylik, moniy va shamanizm kabi. Barcha din tarafdorlari bir-birlari bilan ahil, inoq yashaganlar¹.

Xorazmshohlar davlatida bundan 1000 yil avval faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasida yirik siymolar — Ibn Sino, Beruniy, Ibn Iroqlar qatorida ikkita mashhur xristian olimlari — Abu Sahl Masihiy, Abul Xayr Hammor ijod qilishgan. Masihiy — bu xristian degani. U Beruniyning Ibn Iroqdan keyingi ikkinchi ustози bo'ladi. Ular bir akademianing a'zosi sifatida ko'p yillar birga ishlashgan. Yoki Sultoniya cherkovi (Ozarbayjon) ruhoniysining Amir Temur elchisi sifatida Yevropaga yuborilganligi diniy bag'rikenglik o'zbek xalqi mentalitetida chuqur ildizga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

¹ O'zbekiston ovozi. — 2006. — 2-dek. — №143.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoning tub xalqlari, xususan, o'zbek xalqi mentaliteti negizida asosan, islom dini yotgani inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Lekin o'rta asrlarda umuman Markaziy Osiyo, xususan, o'lkamiz musulmonlari uchun diniy firqachilik yot hodisa bo'lgan. Buning sababini mintaqamizda o'ziga xos Movarounnahr musulmon qonunchiligi – fiqh maktabining (jumladan, hanafiylik mazhabining) yuksak rivojlangani, uning boshqa maktablar ta'sirida emas, aksincha, u musulmon qonunshunosligining boshqa maktablariga o'z ta'sirini ko'rsatib turgani bilan bog'liq edi deyish mumkin. Shuning uchun ham musulmon dunyosi Markaziy Osiyoga nisbatan ta'sir o'tkazish mintaqasi emas, aksincha, diniy masalalarda ham undan o'rganishga munosib sarchashma sifatida qaragan.

Biroq Rossiya istilosidan so'ng, xususan, sho'ro davrida islom diniga nisbatan o'tkazilgan tazyiq natijasida eng salohiyatli ilohiyotchi olimlar qirib tashlandi. Mahalliy hayot darajasida saqlangan mahalliy islomga, asosan, diniy bilimlari sayoz, uzluksiz ta'qib ta'sirida o'ta radikallashgan shaxslar «rahnamolik» qila boshladilar.

Islomning Markaziy Osiyo ijtimoiy hayotidagi maqomining zaiflashib borishi bilan unga tashqi musulmon dunyosining munosabati ham o'zgarib bordi. Uzoq yillar davomida tashqi olam, xususan, musulmon dunyosi uchun «yopiq» bo'lib qolgan Markaziy Osiyoga diniy taassubga va zo'ravonlikka (ekstremizmga) moyil ajnabiy diniy tashkilotlarning qiziqishi ortib bordi. O'zbekiston rahbariyati tomonidan mustaqillikning ilk bosqichida mazkur sohaga oid qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi diniy ekstremizm va fundamentalizm yoyilishi dinamikasini pasaytirishni ta'minladi. Ayni paytda hayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, unga butunlay barham berishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasi, ko'rilayotgan ma'muriy jazo choralari bilan bir qatorda, din haqida chuqur bilimlarga ega bo'lgan salohiyatli mutaxassislarning mafkuraviy hayotdagi faolligi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur omil bizning anchagina zaif nuqtalarimizdan ekanligi dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston oldida qator qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Ushbu muammoni hal etishga – diniy bilimlarni chuqur egallagan muta-

xassislarni tayyorlash ishiga samarali hissa qo‘shayotgan O‘zbekistondagi mavjud madrasalar tizimiga Imom al-Buxoriy nomidagi Mir Arab madrasasi va shu nomdagi Toshkent Islom mahadi boshchilik qilmoqda. Ular Qohira shahridagi Al-Azhar dorilfununi va Iordaniya qirolligining Islom dorilfununi kabi yirik islomiy ilm markazlari bilan aloqa bog‘laganlar.

O‘zbekiston – dunyoviy davlat. Demak, dunyoviy davlatlarda amal qiladigan davlat va din munosabatlari prinsiplari O‘zbekistonda ham amal qiladi. Bu prinsiplar mohiyatini yanada teranroq tushunish uchun BMTning «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi», mamlakatimiz Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998-yilning 1-mayida yangi tahrirda qabul qilingan 23 moddadan iborat «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun bilan batafsil tanishib chiqmoq lozim.

Vijdon erkinligi demokratiyaning tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham BMTning 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi»ning 18-moddasida «Har bir inson... vijdon va din erkinligi huquqiga egadir», deb yozilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», deb belgilangan.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g‘oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag‘rikenglikka da’vat etadi. Hozirgi zamonda bu g‘oya ezgulik yo‘lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a’zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi – xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan

bog'liq. Hozirda O'zbekistonda 18 ta diniy konfessiyaga mansub 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar mavjud (Toshkent shahrida 114 ta jome masjidi, mamlakat bo'yicha esa 2 mingga yaqin masjid faoliyat ko'rsatmoqda)¹.

Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan.

Dunyoviy, demokratik davlatning dinga nisbatan siyosati prinsiplariga ko'ra dindorlar va diniy tashkilotlar quyidagi talablarga rioya qilishlari lozim:

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish;

– dindan davlatga va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi targ'ibot olib borish, millatlararo adovat uyg'otish va fuqarolararo totuvlikni buzish vositasi sifatida foydalanmaslik;

– diniy tashkilotlarning davlat ro'yxatidan o'tishi;

– diniy o'quv yurtlarida diniy fanlardan dars beruvchi shaxslarning diniy ta'lim olgan bo'lishlari va diniy tashkilot rahbariyati ruxsati bilangina o'qitish ishlarini olib borishlari;

– dindorlardan majburiy pul yig'imi yig'maslik va to'lovlar undirmaslik;

– taqiqlangan g'oyalarni, adabiyotlarni, kino, foto va video mahsulotlarni tarqatmaslik hamda ishlab chiqarmaslik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko'ra diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakatlarini tuzish taqiqlanadi.

Shuningdek:

– dindorlar va diniy tashkilotlarning davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyiq o'tkazishi;

– yashirin diniy faoliyat bilan shug'ullanishi;

– davlat ro'yxatidan o'tmagan diniy tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishi;

– diniy tashkilotlar xizmatchilarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodining ro'yxatga olinishi;

¹ O'zbekiston ovozi. – 2006. – 2-dek. – №143.

– diniy tashkilotlar xizmatchilarining hokimiyat vakillik organlari deputatligiga nomzod etib ro‘yxatga olinishi taqiqlanadi¹.

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasiga ko‘ra «Fuqaro o‘zining dinga e‘tiqod qilishga yoki e‘tiqod qilmaslikka, ibodat qilishda diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi».

Bu Qonun talabiga muvofiq rasmiy hujjatlarda (masalan, fuqaro pasportida) fuqaroning dinga munosabati ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Fuqarolarning dinga bo‘lgan munosabatiga qarab huquqlari cheklanmaydi yoki ularga hech qanday imtiyozlar berilmaydi.

Ushbu Qonunning 7-moddasiga ko‘ra O‘zbekistonda ta‘lim tizimi dindan ajratilgandir. Ta‘lim tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Voyaga yetmagan bolalarni ularning ota-onalari roziligisiz diniy tashkilotga jalb etish, diniy ta‘lim berishga yo‘l qo‘yilmaydi. Umumiy majburiy o‘rta ta‘lim olgandan keyingina oliy va o‘rta diniy o‘quv yurtiga ta‘lim olish uchun kirish mumkin. Xususiyl tartibda diniy ta‘lim berish man etiladi².

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining (diniy tashkilotlar xizmatchilari bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo‘l qo‘yilmaydi³.

Davlatimiz va milliy istiqloq mafkuramizning dinni madaniy-ma‘naviy omillar silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida tan olganligining yorqin misoli tariqasida quyidagi ma‘lumotlarni keltiramiz:

– XX asrning 80-yillarida sobiq SSSR bo‘yicha har yili 25-30 kishi haj ziyoratiga borgan bo‘lsa, 1991-yilda O‘zbekiston-

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги қонуни (янги таҳрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси — 1998. — №5–6.

² O‘sha qonun. 7-m.

³ O‘sha qonun. 14-m.

dan 1500 fuqaro, 2000-yilda esa 4 mingga yaqin fuqaro haj ziyoratiga borib keldi.

– 1990 yilda Hakim at-Termiziyning 1200 yilligi keng nishonlandi.

– 1992 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Saudiya Arabistoniga rasmiy vizit bilan tashrif buyurishi mamlakatimiz va musulmon dunyosi o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi.

– 1993-yilda Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi nishonlandi.

– 1993-yilda Imom Ismoil Buxoriyning 1220 yilligi nishonlandi va bu ulug‘ muhaddisning to‘rt jildlik «Al-Jome’ as-sahih» (Ishonarli to‘plam) hamda «Al-adab al-mufrad» (Odob durdonalari) asarlari o‘zbek tilida chop etildi.

– 1996-yilda rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo Yeparxiasining 125 yilligi nishonlandi.

– 1998-yilda Imom Ismoil Buxoriyning 1225 yilligi nishonlanib, uning Chelak tumani Xartang qishlog‘idagi qabri ustida mahobatli maqbara qurildi.

– 1999-yilda Toshkent Islom universiteti ochildi.

– 2000-yilda Imom Abu Mansur Moturidiyning 1130 yilligi, Burhoniddin Marg‘inoniyning esa 910 yilligi nishonlandi.

– 2003-yilda ulug‘ mutasavvuf Abduxoliq G‘ijduvoniyning 900 yilligi nishonlandi.

– 2007-yilda Xalqaro Islom Konferensiyasi Tashkiloti – AYSESKO tomonidan Toshkent shahri «Islom madaniyati markazi» deb e‘lon qilindi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda adolatli demokratik jamiyat qurishda siyosat, din va mafkuraning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning o‘zaro munosabati masalalarini chuqur idrok eta olish ichki ishlar idoralarining har bir xodimi uchun muhim ahamiyatga ega. Barcha zamonlarda milliy g‘oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg‘un rivojlanganligiga insoniyat tarixi ham guvohdir. Din o‘z mohiyatiga ko‘ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg‘ular orqali milliy mafkuramiz g‘oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi.

Tayanch tushunchalar

Din, buddaviylik, xristianlik, islom, shariat, siyosatning diniylashuvi, dinning siyosiylashuvi, vijdon erkinligi, fundamentalizm, diniy fundamentalizm, aqidaparastlik, teokratik davlat, xalifalik, diniy ekstremizm, diniy terrorizm, dunyoviy davlat, diniy davlat, plyuralizm, mafkura, siyosiy mafkura, siyosat va mafkura o'rtasidagi muvozanat, liberalizm, konservatizm, sotsial-demokratiya, milliy mafkura, ekosiyosiy va diniy mafkuralar, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik).

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jahon dinlarining hozirgi jamiyatlar ijtimoiy-siyosiy hayotida egallagan maqomini dalillar asosida taqqoslang.
2. Siyosatning diniylashuv va dinning siyosiylashuvi mohiyatini izohlang.
3. Demokratik davlatlarda dinning siyosatga ta'siri batamom yo'qolishi mumkinmi?
4. Dunyoviy davlatda dinning davlatdan ajratilganligi uning jamiyatdan ajratilganligini anglatadimi?
5. Diniy fundamentalizmning siyosiy ta'limoti qanday maqsadga qaratilgan?
6. Musulmon mamlakatlarida diniy aqidaparastlikning kuchayishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda?
7. Diniy fundamentalizmning hurfikrlilik va vijdon erkinligi prinsipiga zid ekanligini misollar asosida tushuntirib bering.
8. Dunyoviy davlatda siyosat va din munosabatining huquqiy me'yorlari mazmunini tushuntiring.
9. «Mafkura», «siyosiy mafkura» atamaları mohiyatini izohlang.
10. Mafkuraning mutlaqlashtirilishi qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin?
11. «Siyosat va mafkurada o'zaro munosabatlar ma'rifiyligi» deganda nimani tushunasiz?
12. Siyosiy mafkuraning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
13. Dunyoda turli mafkuralarning mavjudligini qanday omillar taqozo etgan?

14. Hozirgi zamonning eng asosiy mafkuraviy oqimlari va ularning asosiy prinsiplarini tushuntirib bering.
15. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy mafkuraga ehtiyojning kuchayishini qanday omillar orqali izohlash mumkin?
16. «Mafkuraviy bo'shliq»ning xavfi nimalarda namoyon bo'lishi mumkin?
17. Diniy-siyosiy mafkuralar bilan ekstremizm va terrorizm o'rtasida qanday aloqadorlik bo'lishi mumkin?
18. O'zbekiston milliy mafkurasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
19. O'zbekiston milliy mafkurasida din va siyosat qanday nisbatga ega?
20. «Diniy bag'rikenglik» atamasi mazmunini tushuntiring.
21. Demokratik davlatlarda dinga nisbatan munosabatda qanday tamoyillarga amal qilinadi?
22. Demokratik davlatda dindorlar va diniy tashkilotlar qanday talablarga rioya qilishlari lozim?

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т., 2008.

Ўзбекистон Республикасининг «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги қонуни (янги таҳрирда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 1998. — №5—6.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августдаги «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори // Ўзбекистон овози. —2006. —26 авг. —№99—100.

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. Т. 8. — Т., 2000. — Б. 462—474.

Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қура-миз. Т. 7. — Т., 1999. — Б. 193—206.

Каримов И. А. Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. — Т., 2005. — Б. 3—33.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 133—155.

Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. – Т., 2007. – Б. 320.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 176.

Диний экстремизм ва фундаментализм: тарихи, моҳияти ва бугунги хавфи /Тузувчилар: Ф. Ҳотамов, М. Лафасов, А. Умаров. – Т., 1999. – Б. 4–34.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. – М., 2000. – С. 348–369.

Ислом Каримов терроризм хавфи тўғрисида / Тузувчи-муаллифлар: Ш. Р. Қобилов, Б. У. Таджиханов. Т., 2001. – Б. 152–187.

Ислом ва дунёвий-маърифий давлат / З. И. Мунавваров ва В. Шнайдер-Детерснинг умумий таҳрири остида. – Т., 2003. – Б. 80–87.

Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Президент Ислом Каримов тарафдорининг танқидий мулоҳазалари. – Т., 2001. – Б. 22–45.

Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: Сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б. 33–45.

Мамашокиров С. Эркин ва фаровон ҳаёт қуришнинг гоявий-мафкуравий масалалари. – Т., 2007. – Б. 80.

Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат (фалсафий-сиёсий таҳлил). – Т., 2008. – Б. 202.

Политология: Ўқув қўлланма / С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров – Т., 1999.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. – Т., 2004. – Б. 297–317.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997. – Б. 199–217.

XALQARO SIYOSAT VA XALQARO MUNOSABATLAR

1. Xalqaro siyosat: asosiy prinsiplari va yo'nalishlari

Bugun dunyoda xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda murakkab va ziddiyatli jarayonlar kechmoqda. Shu munosabat bilan xalqaro siyosatning asosiy prinsiplari, yo'nalishlari, xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlarning dunyo hamjamiyatidagi o'rnini, O'zbekiston Respublikasining tashqi-siyosiy konsepsiyasini va hozirgi xalqaro munosabatlardagi murakkab muammolar yechimini topishga qaratilgan turli yondashuvlarni siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etish muhimdir.

Xalqaro siyosat va munosabatlar ikki yoki undan ortiq mamlakatlar, turli xil siyosiy va nodavlat tashkilotlar bilan bog'liq bo'lgan aloqalarni ifoda etadi. Uning faoliyati xalqlarning talab va ehtiyojlari, davlat manfaatlari xalqaro normalar va qadriyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Xalqaro munosabatlar raqobat yoki o'zaro hamkorlik asosida qurilishi mumkin. Bugun xalqaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar bu munosabatlarni belgilab beruvchi asosiy mezonga aylanib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Chunki siyosat tarixi va uning o'ziga xos oqibatlari davlatlararo munosabatlarni tartibga solish, bunda ularning manfaatlariga mos tushuvchi tamoyillariga asoslanish zarurligini taqozo etmoqda. Shuningdek, yadroviy va kimyoviy qurollarning mavjudligi, ularni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlarning davom etayotganligi hamda xalqaro munosabatlarda ayrim davlat rahbarlari, siyosiy partiyalar va shaxslarning bir tomonlama qarashlarining hamon saqlanib qolayotganligi, xalqaro siyosatda davlatlarga nisbatan munosabatda «zo'ravonlik», «kuchga tayanish», tazyiq ko'rsatishning turli usullaridan foydalanish, «xalqaro terrorizm» va boshqa holatlar xalqaro siyosatda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni,

ixtiloflar paydo bo'lgan taqdirda esa ularni ma'rifiy yo'llar bilan yechish zarurligini kun tartibiga qo'yimoqda¹.

Tarixning guvohlik berishicha, davlatlararo munosabatlarni «kuchga tayangan holda» hal etish qonli urushlarga olib kelgan, so'nggi besh yarim ming yilning atigi 300 yiliga tinch va osoyishta o'tgan. Qolgan vaqtlarda 15 mingdan ko'proq har xil urushlar bo'lib o'tgan. Hozir ham dunyoning turli burchaklarida turli xil ixtiloflar saqlanib qolmoqda. Checheniston, Afg'oniston, Falastin – Isroil mojarosi, sobiq Yugoslaviyada bo'lib o'tgan xunrezliklar va so'nggi yillarda Iroqda bo'layotgan voqealar fikrimiz dalilidir. XX asr oxiri XXI asr boshlarida kuchaygan xalqaro terrorizm ham insoniyatning yashab qolishini ta'minlash barcha tinchliksevar kuchlar oldida turgan asosiy vazifaga aylanib qolganligini tasdiqlamoqda.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Agar 1990-yillarga qadar ikki qutb – sobiq SSSR va AQSH jahon siyosati xususiyatlarini belgilagan bo'lishsa, hozirgi dunyo ko'pqutblilik asosida rivojlanmoqda.

Yaponiya, Xitoy, Hindiston va boshqa Osiyo mamlakatlari-ning xalqaro maydondagi mavqeyi tobora kuchayib bormoqda. 1990-yilda Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning birlashishi Yevropaning markazida 80 millionli aholiga, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lgan kuchli bir davlatni shakllantirdi. Sovetlardan keyingi makonda vujudga kelgan mustaqil davlatlar esa dunyo hamjamiyatining teng huquqli a'zolari maqomiga erishdilar. Natijada, dunyo siyosatini shakllantirishda ishtirok etuvchi davlatlar doirasi ancha kengaydi. Bundan tashqari, xalqaro siyosatga faol ta'sir ko'rsatayotgan ko'plab transmilliy iqtisodiy, siyosiy gumanitar tashkilotlar, xalqaro nodavlat muassasalarning soni ortib bormoqda. Ma'rifiy xalqaro siyosatni ta'minlash, davlatlararo hamkorlikdan xalqaro hamkorlikka o'tish masalalariga e'tibor kuchaymoqda.

¹ Просурин О.А. Баланс интересов государств – основы прогресса цивилизации // Социально-политические науки. — 1991. — №4. — С. 65. Qarang: Политология: Ўқув қўлланма / С.Отамуродов, И.Эргашев, Ш.Акроров, А.Қодиров. — Т., 1999. — В. 179.

Xalqaro siyosat subyektlari. Xalqaro siyosat (munosabatlar)ning asosiy subyektlari, avvalo, davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Davlatlar xalqaro hayotga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalarini o'zida jamlagan muassasaviy subyektlar bo'lib, aynan ular orqali xalqlar va millatlar jahon siyosat maydonida o'z maqsad va manfaatlarini uyushgan tarzda ifoda etadilar. Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi zamon jamiyatlari ham davlatsiz hayot kechira olmaydi. Chunki davlatsiz ichki va xalqaro hayotni tashkillashtirish imkonsizdir.

Xalqaro siyosatning asosiy subyektlariga davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro-siyosiy yoki harbiy-siyosiy tashkilotlar ham kiradi. Ular qatoriga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Yevropa Ittifoqi, Arab mamlakatlari ligasi (AML), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Afrika birligi tashkiloti (ABT), Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (EvrAzES), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) va boshqa subyektlarni kiritish mumkin.

Xalqaro siyosatning muhim subyektlari sirasiga esa obro'li xalqaro ijtimoiy va kasbiy tashkilotlar ham kiradi. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon kasaba uyushmalari federatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi va hokazo.

O'z mustaqil davlatchiligini barpo etish maqsadida kurash olib borayotgan xalq yoki millatni ham xalqaro siyosat subyekti deb hisoblash mumkin. Shuningdek, hozirgi tezkor zamonda xalqaro munosabatlar qatnashchilarining soni ko'payib, xususan, konkret shaxsning siyosat subyekti sifatida nufuzi ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Individdning xalqaro huquq subyekti sifatidagi roli taniqli milliy yetakchilar yoki jamoat arboblarning jahon siyosatiga muayyan darajada ta'sir ko'rsata olishlarida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi xalqaro munosabatlarni ma'rifiylashtirishda har bir davlatning o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xalqaro huquq normalarini hurmat qilishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati muhim o'rin tutadi.

Agar **tashqi siyosat** — davlatning mamlakat tashqarisida, davlatlararo munosabatlarda o‘z milliy va umumbashariy maqsadlarini, xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan faoliyatidan iborat bo‘lsa, **xalqaro siyosat** — xalqaro munosabatlarda ishtirok etayotgan davlatlar, subyektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro me‘yorlar, qadriyatlar asosida o‘zaro munosabatlarini saqlab turishga qaratilgan faoliyatlaridir.

Demak, «tashqi siyosat» bu bir davlatning o‘z milliy hududidan tashqarida ikkinchi davlat bilan bo‘lgan munosabatida o‘z ifodasini topsa, xalqaro siyosat alohida shaxslar yoki davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarnigina emas, balki muayyan guruh yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish bo‘yicha aloqalarni, faoliyat sohalarini ham o‘z ichiga oladi.¹ Masalan, Yevropa Ittifoqi (EI) va unga a‘zo bo‘lgan davlatlar bugungi kunda ekologik siyosiy manfaatlar va ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish, xalqaro huquq normalariga rioya etishni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Jahon maydonida xalqaro xavfsizlik bilan bog‘liq yangi tendensiya va yangi tahdidlarning paydo bo‘lishi. Kuzatishlarga ko‘ra xalqaro munosabatlar muammosining qo‘yilishi, amaliyoti, amalga oshirilishi hamda ma’rifiy xalqaro siyosatdan kutilayotgan samaralar bilan ayrim davlatlarning xatti-harakati, xulq-atvori o‘rtasida ulkan jarlik vujudga kelayotgani ko‘zga tashlanmoqda.

Masalan, Markaziy Osiyoning ayrim mamlakatlaridagi mavjud ahvolning tez o‘zgarib turishi hamda vaziyatni izdan chiqaradigan tahdidlarning saqlanib qolayotgani, bunday xavf-xatarlar ortida turgan kuchlarning imkoniyat va resurslari ayni mintaqada yashayotgan xalqlar taqdirini o‘ylab qayg‘uradigan barcha davlatlar va odamlarda tashvish va xavotir uyg‘otmoqda.

Prezident I. A. Karimovning 2005-yilning 5-iyulida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitida so‘zlagan nutqida ta’kidlanganidek, keyingi paytlarda ro‘y bergan voqealarda (2005-yil may oyida Andijon shahrida ro‘y bergan terrorchilik hara-

¹ Политология: Ўқув қўлланма / С.Отамуродов, И.Эргашев, Ш.Акромов, А.Қодиров. — Т., 1999. — В. 180–181.

katlari nazarda tutilmoqda.) pirovard maqsadi mintaqadagi kuchlarning siyosiy va iqtisodiy muvozanatini o'z foydasiga o'zgartirish va mintaqada o'z hukmronligini o'rnatishga qaratilgan, uzoqni ko'zlaydigan katta strategik pinhona rejaning faqat ayrim qirralarigina namoyon bo'ldi.

Ikkinchidan, xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan yangi tahdidlarning ko'lamigina emas, balki qo'yilgan geopolitik maqsadlarga erishishning ma'no-mazmuni, vosita va uslublari ham har bir mamlakatning o'ziga xosligi va undagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda tubdan o'zgarib bormoqda. Bu kuchlarning turli ekstremistik va ayirmachi tuzilmalar bilan qo'shib borayotgani, shuningdek, ashaddiy diniy tashkilotlardan, garchi o'zlari boshqa vaziyatda ularni terroristik tashkilotlar ro'yxatiga kiritgan bo'lsa-da, o'z maqsadlari yo'lida foydalanishdan ham toymayotgani bilan bog'liq bo'lgan faktlar ham jiddiy xavotir uyg'otmasdan qolmaydi.

Bu urinishlardan ko'zda tutilgan pirovard maqsad mintaqada «boshqariladigan beqarorlik» vaziyatini keltirib chiqarish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni buzish va o'zlari xohlagan taraqqiyot modelini zo'rlab tiqishtirishdan iborat.

O'zbekiston rahbarining qayd etishicha, Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan saqlanib qolayotgan tahdidlardan biri narkotrafik hodisasi bilan bog'liqdir. Narkotik moddalar ishlab chiqarish va tashish regiondagi vaziyatni izdan chiqaruvchi tajovuzkor kuchga, xalqaro terrorizmning moddiy tayanchiga aylanib bormoqda¹.

Ayrim davlatlar va guruhdosh davlatlar tizimida o'z siyosiy amaliyotida kuchga tayanishni hokimiyatga erishish, manfaatlarni ro'yobga chiqarishning birdan-bir eng ustuvor va qulay vositasi deb qarash hukmronlik qilib kelmoqda. Xalqaro hayotda bugun ko'zga tashlanayotgan adolatsizlik, mensimaslik, imperiyaviy tafakkur, siyosiy mutaassiblik, ya'ni o'z hayot tarzini so'nggi va eng maqbul namuna deb e'lon qilish va aksincha, ko'pgina davlatlar tomonidan yuritilayotgan biqizlik, hadiksirash, sarosimaga tushish, shubha bilan qarash, ishonchsizlikka

¹ Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. — Т., 2005. — В. 441—442.

asoslangan amaliyotni bir-biriga o'xshamaydigan o'zaro qarama-qarshi reaksiyaning natijasi deyish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan obyektiv va subyektiv tendensiyalar bois xalqaro tartibot bir-biriga qarama-qarshi ikki jarayon ostida shakllanadi. Ulardan biri parchalovchi, ikkinchisi yaratuvchilik rolini bajaradi.

Parchalovchi omillar:

– ayrim siyosiy guruhlar, kuchlar va davlatlar tomonidan xalqaro tartibot taqdiriga, uning bag'rida sodir bo'layotgan turli-tuman salbiy siljish jarayonlariga nisbatan befarqlik, mensimaslikning hamda o'z xavfsizligini xalqaro xavfsizlik manfaatlariga qarshi qo'yish kayfiyatining kuchayib borishi;

– xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, millatchilik, separatizm va uyushgan jinoyatchilik singari xavfli jarayonlarning kuchayishi, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarining talab darajasida emasligi;

– xalqaro siyosiy institutlarning voqea-hodisalarga zudlik bilan e'tibor qaratish nuqtayi nazari davr talabidan orqada qolib ketayotganligi;

– xalqaro tartibotda noqonuniy, nopok yo'l bilan hukmronlikni yakka-yolg'iz qo'lga kiritishga intilish;

– uzoq yillar mobaynida dunyoda tinchlikni saqlash ishiga samarali hissa qo'shib kelayotgan xalqaro tashkilotlarni ayrim qudratli davlatlar tomonidan o'z izmiga bo'ysundirishga bo'lgan moyillikning zo'rayishi;

– turli-tuman xalqaro, mintaqaviy muammolarni ro'kach qilgan holda, o'z harbiy salohiyatini butun dunyo oldida namoyish qilishga bo'lgan intilish ko'lamining kengayib borishi.

Yuqorida qayd etilgan salbiy jarayonlarga qarama-qarshi ravishda muqobil, ya'ni umrbaxsh jarayonlar ham chuqurlashib bormoqda. Jumladan, quyidagi **yaratuvchi omillar** ko'zga tashlanmoqda:

– nufuzli siyosiy va ilmiy-amaliy doiralarda hamda xalqaro jamoatchilikda dunyo barqarorligi va xavfsizligiga zid bo'lgan jarayonlarning tahdidli tus olayotganligidan tashvishlanish, ya'ni ular to'g'risida haq so'zni aytishga bo'lgan azmu-qarorlarining mustahkamlanishi;

– xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm bilan kurashning dolzarb siyosiy va amaliy vazifa ekanligining dunyodagi deyarli barcha davlatlar tomonidan anglab yetilayotganligi;

– mintaqaviy xavfsizlikdan xalqaro xavfsizlik sari o'tish zarurligini anglab yetish va h.k. kuchayib bormoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro siyosatda bo'lgan o'zgarishlarning markazida ikki ijtimoiy-siyosiy tizimning paydo bo'lishi qanchalik o'z o'rniga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ana shu tizimlardan birining (ya'ni, sotsialistik tizimning) tanazzulga uchrashi, sobiq SSSRning tarqalib ketishi, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida bo'lgan o'zgarishlar xalqaro siyosatning borishiga, uning maqsadi hamda davlatlararo munosabatlarning qurilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu XX asr oxirgi choragida sodir bo'lgan xalqaro siyosatning muhim voqeasidir.

Bu hol xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarda o'ziga xos qonuniyatlarni keltirib chiqarmoqda:

1) jahon taraqqiyotiga «ikki qutbli» qarash o'rnida ko'p qutbli yondashuv paydo bo'ldi;

2) xalqaro siyosatda davlatlarning bir tomonlama «kuchga tayanib» siyosat olib borishi, «zo'rvon»likka asoslanish yangicha tarzda «o'zaro teng manfaatdorlik» asosida munosabatda bo'lish jarayonlari kuzatilmoqda.

Xalqaro siyosatni umuminsoniy tamoyillarga bo'ysundirish, u yoki bu davlatning yetakchiligidan voz kechish, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy muammolarni birgalikda hal etish xalqaro siyosatda kuchlar nisbatini barqarorlashtirishga, o'zaro ishonchining qaror topishiga olib keladi. Xalqaro siyosatda amal qiladigan umumiy qonuniyatlar har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bu xalqaro siyosatda o'z aksini topadi, chunki mustaqil har bir davlat xalqaro munosabatlar bilan qanchalik bog'liq bo'lmasin, o'z milliy, mintaqaviy, hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda siyosat olib boradi. Zotan, milliy xususiyatlarni inkor etmaslik xalqaro siyosatning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Umuman, **xalqaro siyosatning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:**

- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
- davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- o‘zaro foydali hamkorlik;
- chegaralarning daxlsizligi;
- tortishuvni tinch yo‘l bilan bartaraf etish;
- insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish;
- teng huquqlilik va xalqlarning o‘zi tanlash huquqini hurmat qilish;
- xalqlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- yalpi xavfsizlik va o‘zaro ishonch;
- xalqaro huquq normalariga rioya qilish.

Xalqaro siyosatning dolzarb yo‘nalishlari esa iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy, harbiy, ilmiy-texnik va boshqa sohalarni qamrab oladi. Bugun davlatlar o‘rtasidagi munosabatning yangi, demokratik turi yaratilmoqda. Jahon jamoatchiligining fikri ayrim siyosatdonlar fikridan ustunligini ko‘rsatmoqda. Xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlarni demokratlashtirish jarayoni uning muhim xususiyatidir. Xalqaro siyosatda umuminsoniy qadriyatlar asta-sekin ustuvorlashib, siyosiy jarayonlar insoniylashmoqda. Chunki zo‘ravonlik asosida kuchga tayanib, insoniyatni baxtli qilish mumkin emas.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Dunyo hamjamiyati miqyosida inson huquqlarini ta‘minlash, xalqaro munosabatlarni insonparvarlik va axloqiy asoslarda o‘rnatish tinchlikni saqlash va mustahkamlashning eng muhim kafolati bo‘ladi. Alohida mamlakat doirasida ham, xalqaro maydonda ham ularga rioya qilinishi sog‘lom iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, siyosatda odilona fikr tantanasining, shuningdek, agressiv ichki va tashqi siyosatning oldini olishning zarur shartidir. Shu ma‘noda bundan bir necha asrlar avval – 1789-yildayoq inson va fuqaro huquqlari Fransiya deklaratsiyasining preambulasida inson huquqlarini bilmaslik, unutish va hurmat qilmaslik hukumatining korrumpiyalashgani va ijtimoiy baxtsizliklarning yagona sababi deyilgan edi. Shaxs huquqlarini hurmat qilish esa mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Odamlarning o‘zaro turli xil muloqotlari va hamkorligi uchun qulay

sharoit yaratadi, xalqaro munosabatlarga axloqiylikni olib kiradi. Shu bois inson huquqlarini hurmat qilish tufayli vujudga keladigan umumiy gumanistik qadriyatlar va huquqiy zaminni yaratmay turib, ma'rifiy xalqaro siyosatni ta'minlash mumkin emas.

«Inson huquqlari» tor ma'noda berilmaydigan, faqatgina davlat tomonidan kafolatlanadigan huquqlar bo'lib, ular konstitutsiyada mustahkamlangan yoki mustahkamlanmaganidan va davlat chegaralaridan qat'i nazar amal qilaveradi. Ular jumlasiga barcha odamlarning qonun oldida tengligi, yashash va tan daxlsizligi huquqi, inson sha'nini hurmat qilish, noqonuniy hibsga olish va tutib turishdan saqlanish erkinligi, vijdon va e'tiqod erkinligi, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash huquqi, ezuvchilarga qarshilik ko'rsatish huquqi va boshqalar kiradi. Keng ma'noda inson huquqlari o'z ichiga shaxsning juda keng miqyosdagi erkinlik va huquqlari majmuini, ularning turli ko'rinishlarini qamrab oladi.

1948-yilda inson huquqlarining eng muhimlari: mehnat qilish, dam olish, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, inson sha'niga munosib turmush tarzi va boshqalarga bo'lgan huquqlar BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlarining umumjahon deklaratsiyasi»ga kiritildi. Bu xalqaro hujjatning ahamiyati esa unda belgilangan ijtimoiy huquqlarning bir qator davlatlar konstitutsiyalari va qonunlarida mustahkamlab qo'yilishida o'z ifodasini topdi. Xalqaro siyosatning asosiy prinsiplarini hayotga tatbiq etishda 1966-yilda qabul qilingan «Insonlarning fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt» ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda davlat tomonidan inson huquqlari kafolatlanganligining asosiy manbasi Konstitutsiyadir. Asosiy qomusimizning II bo'limida bu masalaga ustuvor ahamiyat berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktabrdagi Farmoniga muvofiq inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda BMTning inson huquqlari va boshqaruv

tizimini demokratlashtirishni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi» tuzildi. Bu markazning asosiy vazifalaridan biri inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirishdir¹.

2008-yildan «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining kuchga kirganligi, 2008-yilning 1-mayida esa Prezident I. A. Karimovning «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi farmoni doirasida keng ko'lamli tadbirlarning amalga oshirilayotganligi mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini puxta hamda ishonchli himoya qiluvchi samarali huquqiy mexanizm yaratilganligidan dalolat beradi.

2. Xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar va ularning dunyo hamjamiyatidagi o'rni. Birlashgan Millatlar Tashkilotini modernizatsiyalash va isloh qilishning zarurligi

Xalqaro tashkilotlar — muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan, tegishli organlarga hamda a'zo davlatlarning huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan, xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilgan davlatlararo uyushmalardir. Xalqaro tashkilotlarning davlatlararo munosabatlarda o'ziga xos o'rni mavjud. Ular siyosiy, iqtisodiy hayotimizni qayta qurishda, milliy xavfsizligimiz, butun jahonda va mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu davlatlar ichki va tashqi siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar, davlatlararo munosabatlar mavjud siyosiy institutlar faoliyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Dastlabki xalqaro tashkilotlardan biri I jahon urushi (1914–1918) oxirlarida tashkil topgan Millatlar Ligasi edi. XX asrning

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий марказини тузиш тўғрисида»ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 1996. — №10. — В. 11–13.

90-yillariga kelib turli xil xalqaro tashkilotlarning soni 3 mingdan oshib ketdi. Ular o'z maqsadlari, vazifalari, xalqaro siyosat va xalqaro munosabatlardagi mavqelariga ko'ra ixtisoslashgan, mintaqaviy, jahon miqyosidagi tashkilotlarga bo'linadi. Turkumlash nuqtayi nazaridan esa ularni siyosiy-iqtisodiy, harbiy, madaniy va ijtimoiy tashkilotlarga ajratish mumkin.

Xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar. Olam beqarorligiga sababchi bo'layotgan turli-tuman nizoli muammolarning yechimini topishda siyosiy muzokaralar yo'li eng xayrli yo'ldir. Bu muzokaralarni tashkil etish, manfaatlar balansiga kelish va shu orqali keng qamrovli xavfsizlikka o'tishda BMT (AQSH, SSSR, Xitoy, Angliya, Fransiya) yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi. BMT Ustavi II jahon urushi yillarida Gitlarga qarshi koalitsiyaning yetakchi mamlakatlari (SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy) tomonidan ishlab chiqilgan va 1945-yilda San-Fransisko (AQSH)dagi konferensiyada batamom kelishib olingan. 51 ta davlat imzolagan (1945-yil 26-iyunda, dastlabki a'zolari tomonidan) va 1945-yil 24-oktabrda kuchga kirgan bu ustavga ko'ra BMTning asosiy maqsadi «kelajak avlodlarni hayotimiz davomida insoniyatning boshiga ikki marta milsiz qayg'u solgan urush falokatlaridan xalos etish»dir. Ustavda davlatlarning xalqaro maydondagi harakatlarining asosiy prinsip va normalari, davlatlarning kuch ishlatish va kuch bilan tahdid qilishni taqiqlash prinsipiga qat'iy amal qilishlari zarurligi, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik, davlatlarning suveren tengligi, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish va boshqalar majburiy qoidalar shaklida belgilangan¹.

BMTning asosiy organlari: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Tayanch Kengashi, Xalqaro Sud va Kotibiyatidan iborat bo'lib, ularning har birida 3–5 tadan ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyat yuritadi.

Xavfsizlik Kengashi zimmasiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish bo'yicha asosiy javobgarlik yuklangan bo'lib,

¹ Юридик энциклопедия/Юридик фанлар доктори, профессор У.Таджихановнинг умумий тахририда. — Т., 2001. — В. 45–46.

15 nafar (5 nafar doimiy, 10 nafar vaqtinchalik) a'zolarga ega. AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolaridir. BMT Ustaviga ko'ra faqat Xavfsizlik Kengashi BMTning qurolli kuchlaridan foydalanib operatsiyalar o'tkazish yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqiga ega. BMTning boshqa hech qaysi organi bunday vakolatlarga ega emas.

Bosh Assambleya esa BMTga a'zo bo'lgan teng huquqli barcha davlatlardan iborat. Bosh Assambleya har qanday davlat yoki Xavfsizlik Kengashi qo'ygan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashga doir har qanday masalalarni muhokama qilishga va bunday masalalarni manfaatdor davlatga yoki davlatlarga yoxud Xavfsizlik Kengashiga tavsiyalar berish, shuningdek, BMT Bosh kotibini tayinlash, BMTga yangi a'zolarini qabul qilish, a'zolikdan chiqarish vakolatiga ega. Bugungi kunda 189 davlat BMT a'zoligiga qabul qilingan bo'lib, bu xalqaro tashkilotning turli muassasalarida qariyb 50 ming xodim faoliyat yuritmoqda. (O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martdan buyon BMT a'zosidir.)

Birlashgan Millatlar Tashkilotini modernizatsiyalash va isloh qilishning zarurligi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlarda ro'y bergan o'zgarishlar xalqaro tashkilotlarning faoliyatini qayta qurish va isloh qilish zaruratini taqozo qilmoqda. Chunki dunyo xavfsizligini talab darajasida ta'minlashda aynan shu tashkilotning huquqiy va siyosiy imkoniyatlari hamda uning ulkan xalqaro nufuzidan omilkorlik bilan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, BMTgina barcha a'zo davlatlar va kerak bo'lsa, bashariyat nomidan ish yuritish huquqiga ega bo'lgan tashkilotdir.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'z-o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'ymoqda.

Afsuski, xalqaro munosabatlarning subyektlari bo'lmish davlatlarning tub manfaatlariga zid holda, BMT faoliyatida yirik

davlatlar va harbiy-siyosiy guruhlar tazyiqi ostida o'z siyosiy dasturi va ideallarini amalga oshirish imkoniyatidan borgan sari chetlatish holati sodir bo'lmoqda. (Masalan, 2005-yilning 13–14-may kunlarida Andijon shahrida terroristik aktlarni sodir etib, ko'plab gunohsiz odamlarning o'limiga sababchi bo'lgan va qo'shni Qirg'iziston Respublikasi hududiga qochib o'tgan bir to'da ashaddiy jinoyatchilarga «qochoq» maqomini berib, ularning Ruminiyaga joylashishiga imkon va sharoit yaratib bergan BMTning «Qochoqlar bo'yicha komiteti» xatti-harakatini qanday baholash mumkin?) Bunday xatti-harakatlar ko'p qutbli, totuvlik madaniyati va o'zaro ishonchga asoslangan, shuning bilan birgalikda barcha muammolar yechimiga faqat siyosiy yo'l, ya'ni serqirra hamkorlikka tayangan barqaror xalqaro tizim shakllanish jarayonini zaiflashtirmoqda.

Natijada, xalqaro hamjamiyat tomonidan dunyoda xavfsizlikni kafolatlovchi, davlatlararo hamkorlikning samarali yo'llarini izlab topishga qodir bo'lgan hozirgi kunda muqobili yo'q, noyob institut yordamidan foydalanish imkoniyatining ko'lami toraymoqda. Holbuki BMTning boshqa a'zolari kabi O'zbekiston ham bu nufuzli tashkilotning mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash hamda hozirgi zamonning boshqa dolzarb muammolarini hal etish borasidagi ishtiroki kengayishidan manfaatdordir.

Shu bilan birga, jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog'liq mutlaqo yangi tendensiya va vaziyatlar, shuningdek, yangi tahdidlarning paydo bo'lishi BMT tuzilmalarini, birinchi navbatda, uning yetakchi organi – Xavfsizlik Kengashini isloh qilish va tarkibini qayta ko'rib chiqishni tezlashtirishni taqozo etmoqda¹.

Yevropa Ittifoqi. Ushbu xalqaro tashkilotning tashkil topish tarixi aslida 1947-yilda «Ko'mir va po'lat» konsernining tashkil topishidan boshlanadi. 1993-yilda Yevropa Ittifoqi nomini olgan tashkilot Maastrixt (Niderlandiya)da 12 ta davlatning rahbarlari imzolagan shartnomaga binoan vujudga kelgan federativ davlat

¹ *Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т. 13. – Т., 2005. – В. 198–199.

xususiyatlarini o‘zida birlashtirgan davlatlararo birlashmadir.

Yevropa Ittifoqining maqsad va vazifalari quyidagilardir:

1) Yevropa xalqlarining yaqin ittifoqini tashkil etish, muvozanatlashgan va uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashish, bunda, ayniqsa, quyidagilardan foydalanish: ichki chegaralari bo‘lmagan makonni yaratish; iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish; yagona valyutani joriy etish;

2) xalqaro sohada, ayniqsa, tashqi siyosatni va xavfsizlik sohasidagi siyosatni, kelajakda esa mudofaa siyosatini birgalikda yuritish orqali o‘z mohiyatini tasdiqlash;

3) adliya va ichki ishlar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish.

Keyingi 50-yil davomida beshinchi marta o‘z safiga yangi a‘zolari qabul qilgan bu tashkilot siyosiy, iqtisodiy, madaniy, harbiy-texnik, ilmiy-texnologik hamkorlikning sifat jihatdan eng zamonaviy ko‘rinishi bo‘lib, hozirgi davrda 25 davlat uning a‘zosi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning jon boshiga 22 ming dollardan ortiq qiymatni tashkil etayotganligi, shubhasiz, bu hamkorlikning samarasidir. Hududi 4,2 million kv.km.ni, aholisi esa 455 milliondan ortiq kishini tashkil etgan bu hududda Buyuk Britaniya, Daniya va Shvetsiyani hisobga olmaganda 2002-yilning 1-yanvaridan buyon yagona pul birligi – yevro amal qilmoqda¹.

Yevropa Ittifoqining oliy ijrochi organlari – Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevroparlament va Yevrokomissiyadir. Yevropa Ittifoqi Kengashining 1996-yil iyunda Florensiyada (Italiya) bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Prezident I. A. Karimov boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi. Uchrashuv jarayonida «O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida»gi kelishuv imzolandi. Yevropa Ittifoqida erishilgan yuksak natijalar tajribasi davlatlararo boshqa tashkilotlar uchun ham, muayyan bir davlatning taraqqiysi uchun ham foydadan xoli emas.

Shu bois, Prezident I. A. Karimov: «MDHning istiqboli Yevropa Ittifoqi kabi modelning amalga oshirilishida ko‘rinadi... Aynan shu model MDHni jonlantirishi, unga toza havо

¹ Саидкасимова Б. Магнетизм европейской интеграции // Хуқуқ–Право–Law. – 2004. – №2. – С. 65.

berishi mumkin. Hamdo'stlikning har bir a'zosi o'zining munosib o'rnini topa oladigan istiqbol — bu Yevropa Ittifoqi modeli asosida rivojlanish, deb o'ylayman.

Albatta, demokratiyani rivojlantirish va demokratik jamiyat qurish sohasida ham biz Yevropa Ittifoqi andozalarini qo'llashimiz kerak bo'ladi. Bu — mening qat'iy fikrim. Yevropa Ittifoqiga xos demokratik qadriyatlar, inson tafakkuri, ta'lim tizimi, ijtimoiy kafolatlar, aholining ijtimoiy huquqlari — bularning barchasi biz uchun to'la mos keladi. Men ushbu tizimni ko'rkona ko'chirib olishni nazarda tutayotganim yo'q, albatta. Bizning o'z mentalitetimiz, o'z muammolarimiz bor va biz bu jihatlarni hisobga olamiz», deb ta'kidlaydi¹.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) 1975- yilda tashkil topgan xalqaro siyosiy tashkilotlardan biridir. 1992-yil 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi uning a'ziligiga qabul qilindi. Shu bois 1994-yildan O'zbekistonning YXHTdagi vakolatxonasi Venada, 1995-yildan esa YXHTning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari bo'yicha byurosi Toshkentda faoliyat yuritmoqda. 1999-yilda ushbu byuroga YXHTning mintaqadagi markazi maqomi berildi. Markaz faoliyati nazariy jihatdan siyosiy-harbiy, iqtisodiy-ekologik va inson huquqlari kabi sohalarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Biroq YXHTning Toshkent markazi iqtisodiyot, inson huquq va erkinliklari bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirayotgan bo'lishiga qaramay, uning xodimlari faoliyatida O'zbekistondagi siyosiy vaziyatni real baholay olmaslik, bu yerning o'ziga xos ijtimoiy, tarixiy, milliy va psixologik xususiyatlarini tushunmaslik kabi kamchiliklar kuza-tilmoqda. YXHT (OBSE) missiyasi rahbarlari mintaqada va boshqa joylarda kafolatlangan xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etish o'rniga bu yerdagi mamlakatlar hukumatlari olib borayotgan ichki siyosatni asossiz ravishda tanqid qilish bilan band bo'lib qolmoqdalar². YXHTning sovetlardan keyingi si-

¹ *Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т. 13. — Т., 2005. — В. 366—367.

² *Толипов Ф. ОБСЕ в Узбекистане: стратегия и перспективы // Ҳуқуқ—Право—Law.* — 2004. — №4. — С. 33.

yosiy makonda olib borayotgan bunday faoliyatiga nisbatan keskin norozilik 2007-yilning 10-fevralida xalqaro xavfsizlik bo'yicha Myunxenda (Germaniya) bo'lib o'tgan konferensiyada Rossiya Federatsiyasi tomonidan ham izhor qilindi¹.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT). Bugungi kunda izchil faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar haqida so'z yuritilganda, shubhasiz, birinchi navbatda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tilga olinmoqda. Dastlab «Shanxay beshligi» deb nomlangan bu tashkilotga 2001-yilda O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lib qo'shilgach «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» deb ataladigan bo'ldi. Ayni paytda unga Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari rasman a'zodirlar. (Mongoliya, Hindiston, Pokiston va Eron kuzatuvchi maqomiga ega.) Xavfsizlikni ta'minlash, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, ekologiya muammolarini birgalikda hal qilish, savdo-sotiq aloqalarini chuqurlashtirish, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi munosabatlarni kengaytirish va boshqa hayotiy muhim yo'nalishlar bo'yicha muammolarni hal etish SHHTning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Tashkilotning Kotibiyati Pekinda joylashgan. Shuningdek, SHHT faoliyatida «uch yovuz kuch», ya'ni terrorchilik, ayirmachilik (separatizm) va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004-yildan boshlab Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Bu tuzilma faoliyati tufayli 2005-yilning o'zida ko'plab sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarining oldi olinganligi ma'lum.

2005-yilning iyul oyida tashkilotning Shanxay shahrida bo'lib o'tgan sammitida unga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan bir qator hujjatlar imzolandi. Xususan, xalqaro axborot xavfsizligi to'g'risidagi bayonot; terrorchilik, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha 2007–2009-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturiga doir qaror; SHHT mamlakatlari hududida

¹ Путин В. В. Хватит с нас однополярного мира // Аргументы и факты. — 2007. — № 7. — С. 4–5.

qo'shma aksilterror mashqlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi bitim; a'zo davlatlar hududiga terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik faoliyatga aloqador kishilar kirib kelishini aniqlash va bunday yo'llarni to'sib qo'yish borasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim. Bundan tashqari, SHHT doirasida 2020-yilgacha bo'lgan davrda savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan. Shuningdek, SHHTga a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, jumladan, ichki ishlar organlarining terrorchilik, separatizm va ekstremizmga, giyohvandlik va og'ufurushlikka qarshi birgalikda harakat qilishi, bu borada o'zaro axborot almashishi yaxshi samara bermoqda. Umuman, «Bugungi kunda SHHT xalqaro hamkorlikning qudratli institutiga, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning, xalqaro terrorchilik, separatizm va ekstremizm, narkotik moddalar ishlab chiqarish va tashish kabi zamonning eng qaltis tahlika va tahdidlariga qarshi kurashning kuchli omiliga aylanmoqda»¹.

Shu bois, siyosatchilar bugungi kunda SHHTni Osiyo uyiga qiyoslashyapti. Yevropa uyi – Yevropa Ittifoqida Konstitutsiya va byudjet bilan bog'liq kelishmovchiliklar chiqib turgan bir paytda Osiyo uyi mustahkamlanib bormoqda. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Osiyo uyida xuddi Yevropa uyidagi kabi hammaning turmush tarzi bir qolipga solinmaydi. Bu yerda millatlar erkinligi va milliy qadriyatlar daxlsizligi ta'minlanadi. Aslida Osiyo uyi – Shanxay Hamkorlik Tashkiloti turli taraqqiyot darajasidagi hamda an'ana va qadriyatlari turlicha bo'lgan davlatlarning ahil ittifoqidir.

Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES). Ma'lumki, Markaziy Osiyo Hamkorligi (Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston) tashkilotining 2005-yil 6–7-oktabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida MOHT bilan Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatini birlashtirishga kelishib olingan edi. Mazkur ikki tashkilotning maqsad va vazifalari ko'p jihatdan o'xshash hamda bir-biriga yaqin bo'lganligi

¹ *Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди.* Т.13. – Т., 2005. – В. 440.

O'zbekistonning Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati safidan joy olishiga olib keldi.

1995-yilda Bojxona ittifoqi negizida tuzilgan bu tashkilotning strategik maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan. YevrAzESning 2005-yil noyabrida Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston bu tashkilotga qo'shilgach, Hamjamiyat a'zolari 6 taga yetdi (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston). Bu Hamjamiyatga a'zolik O'zbekiston uchun katta siyosiy ahamiyatga ega. Chunki yirik davlatlarning geosiyosiy manfaatlari kesishgan mintaqada joylashgan mamlakatimiz uchun YevrAzESga a'zolik turli ta'sir va tazyiqlardan himoyalaniş kafolatini beradi.

Xalqaro tashkilotlar orasida faoliyati ko'proq sof iqtisodiy masalalarni qamrab oluvchi **xalqaro iqtisodiy tashkilotlar** ham mavjud bo'lib, ular xalqaro bitim asosida ma'lum iqtisodiy aloqalarni (valyuta, kredit, soliq, transport, tovar almashuvi va h.k.) olib borish maqsadida tuziladi. Ular safiga Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Umumjahon savdo tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMTning Iqtisodiy-ijtimoiy kengashi, unga tegishli maxsus muassasalar, Jahon Islom konferensiyasi tashkiloti va boshqalar kiradi.

Jahon banki — 1944-yilda tashkil topgan bo'lib, shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan. Hozirgi paytda Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot banki deb nomlanadi. Bankning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga ko'maklashishdir. O'zbekiston Jahon bankiga 1992-yil 21-sentabrda a'zo bo'ldi. Mamlakatimizga Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 2493 aksiya chiqarilgan bo'lib, Toshkentda 1993-yildan buyon ushbu bankning vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Bozor strukturasi shakllanishida texnik yordam ko'rsatish; ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga oid loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatish; mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashda O'zbekistonga yordam berish Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot bankining Toshkentdagi

vakolatxonasi dasturida asosiy o'rinni egallaydi. Jahon banki energetika sohasini rivojlantirish va islohotlarni chuqurlashtirishga mo'ljallangan loyihalar uchun ham kredit ajratib, Orol dengizi muammosi yechimiga, ishlab chiqarish sektorlari rivojiga, paxtani qayta ishlash sohasiga ham e'tiborini qaratmoqda.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) – BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan biri bo'lib, bu xalqaro iqtisodiy tashkilot tomonidan O'zbekistonga hozirga qadar 198,013 mln AQSH dollari miqdorida kredit berildi¹. XVF va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida samarali hamkorlik keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu bankning vakolatxonasi o'z faoliyatini Toshkentda olib bormoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) – 1991-yilda Fransiyaning sobiq prezidenti F. Mitteran tashabbusi bilan tashkil etilib, o'z oldiga Markaziy va Sharqiy Yevropadagi bozorni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishini maqsad qilib qo'yan. O'zbekiston Respublikasi YTTB a'zoligiga 1992-yilda qabul qilingach, ushbu bank tomonidan O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarini moliyalashtirish uchun 120 mln AQSH dollari miqdorida yordam ko'rsatildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy bankiga kafolatsiz 60 mln; «Asaka» aksionerlik-tijorat bankiga 30 mln (O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati bilan); boshqa tijorat banklariga 30 mln AQSH dollari miqdorida (O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati bilan) kredit ajratildi².

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) – 1964-yilda mamlakatlararo va uning a'zolari o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni ta'minlash maqsadida tuzilgan mintaqaviy tashkilot bo'lib, qarorgohi Tehronda joylashgan. Ushbu tashkilotning ta'sisчилari Eron, Pokiston va Turkiya davlatlaridir. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga 1992-yilga kelib O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon va Afg'onistonning qo'shilishi natijasida uning a'zolari soni 10 mamlakatni tashkil etdi.

¹ Шодиев Р.Қ., Маҳмудов Э.Р. Жаҳон иқтисодиёти. – Т., 2005. – В. 268.

² O'sha manba. – В. 269–270.

Islom tashkiloti konferensiyasi – 1969-yilning 25-sentabrida musulmon mamlakatlari davlat va hukumat rahbarlarining Rabot (Marokash) shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyasida tuzilgan tashkilotdir. Ushbu tashkilot a‘zolari 54 ta mamlakatdan iborat bo‘lib, hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, 1994-yildan boshlab O‘zbekiston ham bu tashkilotga a‘zodir. ITKning maqsadi musulmonlar birdamligini mustahkamlashga ko‘maklashish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik qilishdir. Shuningdek, irqiy kamsitishlarga, kolonializmning barcha shakllariga chek qo‘yish, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashga oqilona yondashish, tashkilotga a‘zo mamlakatlar orasida va boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro keli-shuv, hamkorlikni rag‘batlantirish ITK faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, BMT, YI, YXHT, SHHT, YevrAzES kabi siyosiy tashkilotlar hamda Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi yirik, nufuzli xalqaro moliya va iqtisodiyot tuzilmalari dunyo hamjamiyatining bugungi hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Bu xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik kelgusida ham O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib qolaveradi.

3. O‘zbekistonning tashqi siyosiy konsepsiyasi

Har bir davlatning tashqi siyosati uning ichki siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlarda amal qilayotgan tamoyillarga bo‘lgan munosabati, maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi. Tashqi siyosat davlatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatish, xalqaro tashkilotlar qoshida vakolatxonalar ochish yoki unga a‘zo bo‘lish, turli darajalarda o‘zaro aloqalar o‘rnatish shakllarida amalga oshiriladi. Tashqi siyosatda o‘zaro axborot almashish, ikki tomonlama va ko‘ptomonlama shartnomalar va kelishuvlar imzolash, o‘zaro munosabatlar rivojiga xayrixohlik ko‘rsatishning boshqa vositalaridan foydalanish ham mumkin.

Tashqi siyosat har bir zamonaviy davlatning bosh atributi, fundamental jihati, ajralmas qismi va vazifasi hisoblanadi.

Chunki tashqi siyosat orqali davlat geografik-makoniy jihat kasb qilish bilan birga o'zini noyob tarixiy, sotsiomadaniy, sivilizatsion va nihoyat, geosiyosiy yaxlitlik sifatida ham namoyon etadi.

Hozirgi dunyo taraqqiyoti shunday kechmoqdaki, bugun har qanday davlat xalqaro siyosatda o'z ustuvorligini faqat oshkora ma'rifiy tashqi siyosat orqali saqlab turishi va shunga yarasha legitimlikka erishishi mumkin. Xalqaro siyosat maydonida siyosiy jarayon tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishning birdan-bir yo'li – ma'rifiylik, ya'ni kuch ishlatishni mutlaq inkor etgan tashqi siyosiy faoliyat bo'lishi mumkin. Tashqi siyosatni mafkuradan xoli etish xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolati bo'lib, uni muayyan mafkuraviy aqidalarga emas, balki xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurmoq lozim.

XX asrning oxirgi choragida jahonda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar davlatlar tashqi siyosati, uning mazmun va xarakterida ham o'zgarishlar yasadi. Ma'rifiy xalqaro siyosatni ta'minlashni ko'zlagan yangi jahon tartibotini shakllantirish uchun keng ko'lamlı harakat boshlandi. Davlatlar tashqi siyosatida ikki ijtimoiy-siyosiy tizim yoki «kapitalizm bilan sotsializm» lageri, «o'zaro kuch ishlatish», iqtisodiy, siyosiy, harbiy hokimlikka erishish, tazyiq ko'rsatish, mamlakat ichidagi nizolarni qo'llab-quvvatlash emas, balki davlatning suverenitetini tan olish, xalqaro huquq normalariga tayangan holda, xalqlarning erkinligini hurmat qilish asosida tashqi siyosat olib borish amaliyotiga o'tilmoqda¹. Chunki so'nggi yillarda jahonda yuz bergan voqealar dunyoning geosiyosiy strukturasi va yo'nalishini tubdan yangiladi, jahon siyosatiga asta-sekin bir guruh yangi suveren davlatlar kirib kelishi natijasida davlatlararo siyosat va diplomatiya maydoni butunlay boshqacha mazmun-mohiyat kasb etdi. Dunyo siyosiy xaritasida paydo bo'lgan bu yangi davlatlar sotsialistik o'tmishga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Ular, asosan, Sharqiy Yevropa va sobiq Ittifoq hudu-

¹ Политология: Ўқув қўлланма / S.Otamurodov, I.Ergashev, Sh.Akromov, A.Qodirov. – Т., 1999. – В. 191.

dida tashkil topdilar. Ushbu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'yib, boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeyini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo'lishga, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga harakat qilmoqdalar. Jumladan, O'zbekiston ham shulardan biri ekan, uning tashqi siyosiy doktrinasi va amaliyotiga ana shu shart-sharoitlar o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Shubhasiz, yangi jahon tartibotini shakllantirishda O'zbekistonning ham alohida o'rni, siyosiy manfaatlari bor. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlarini hisobga olgan holda tashqi siyosatning maqsad va vazifasini aniq belgilab oldi. Uning dunyo hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar, davlatlar, MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan tashqi siyosat borasidagi sa'y-harakatlari fikrimiz dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati amaldagi Konstitutsiya va 1996-yil 26-dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi qonun¹ talablaridan kelib chiqilgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan chiqishi mumkin», deyiladi. «O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 1997. — №2.

qonun ham tashqi siyosatimizning umuminsoniy tamoyillar va manfaatlar bilan to'la muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

U yoki bu yo'nalishdagi tashqi siyosatni tanlashga ta'sir ko'rsatadigan ko'pdan-ko'p omillar mavjud. Ular orasidan ikkita eng asosiysini alohida eslatib o'tish lozim. Birinchisi — O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishida hamma uchun bir xil bo'lgan talab mavjud bo'lsa, ikkinchisi — tashqi siyosatda iqtisodiy manfaatlarning siyosiy manfaatlarga nisbatan ustunligidir. O'zining milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari Prezident I. A. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» asarining tashqi siyosatga bag'ishlangan bobida aniq-ravshan ifodalab berilgan, ya'ni:

— milliy manfaatlar O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadidir;

— ko'ptomonlamalik O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

O'zbekiston tarixiy taraqqiyoti va etnik jihatlariga ko'ra musulmon mamlakatlari jumlasiga kiradi. Buni inobatga olgan holda musulmon mamlakatlari bilan aloqalarga katta e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyo Hamdo'stligi davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga ham a'zo bo'ldi.

Shu bilan birga, Yevropaning ma'rifatparvar dunyosi bilan ham o'zaro hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. Chunki, Yevropadan biz sanoatni jadallashtirish, ish bilan ta'minlash, favqulodda muammolarni hal etish va jahon bozoriga kirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnologiya olish imkoniyatiga egamiz. O'z vaqtida birgina Turkiya emas, shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston davlatlari, qolaversa, aholisining ko'pchiligi musulmon bo'lgan Misr, Quvayt, Malayziya, Indoneziya ham ana shu yo'lni tanlagan edi.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillar markaziy o'rinni egallashining yana bir isboti shuki, u suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirish sohasida faol ish olib borib, jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etmoqda. Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki, Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy Taraqqiyotga Ko'maklashuvchi Tashkilot, Xalqaro Mehnat taqsimoti, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va boshqa moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar a'zosi sifatida ular bilan faol aloqalar olib bormoqda.

Umumjahon va mintaqaviy o'zaro yaqinlashish ehtiyoji bizning MDH tarafdori ekanligimizni bildiradi. Xususan, O'zbekiston va Rossiya barcha sohalarda o'zaro aloqalar ko'lamini kengaytirishdan manfaatdor. Ana shu manfaatdorlik, shuningdek, hamkorlikdagi o'zaro ishonch va hurmat ruhi, ikki davlat rahbarlarining o'zaro samimiy munosabati, ko'pgina masalalarda fikrdoshligi 2004-yili Toshkentda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida Strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnomaning imzolanishiga asos bo'lgan edi. Ikki davlat rahbarlari tomonidan 2005-yilning 14-noyabr kuni Moskvada bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida esa O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolandi.

O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya katta o'rin tutganligi bois, ikkala mamlakat o'rtasida xalqaro maydondagi hamkorlik, siyosiy hamjihatlik mustahkamlanib, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ilmiy, harbiy-texnikaviy sohadagi aloqalar tobora rivojlanmoqda. Masalan, O'zbekiston tashqi savdosining beshdan bir qismi Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. 2008-yil yakunlariga ko'ra, bu boradagi ko'rsatkich qariyb 4 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. O'zbekiston eksportida sanoat mahsulotlarining, xususan, avtomobillarning ulushi (jami eksportning 28,6 foiz) ortib borayotgani diqqatga sazovordir. Shuningdek, ikki mamlakat o'rtasida sarmoya sohasidagi aloqalar ham jadal rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda yurtimizda 786 ta O'zbekiston—Rossiya qo'shma korxonasining, Rossiyada esa o'zbekistonlik

ishbilarmonlar bilan tuzilgan 349 ta qo'shma korxonaning faoliyat ko'rsatayotganligi buning dalilidir¹.

Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda bizning taraqqiyot strategiyamiz mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, integratsiya jarayonlarini jadallashtirishga, Markaziy Osiyo Umumiy bozorini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'z navbatida, bu iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga, aholi turmush darajasining o'sishiga qo'shimcha imkon yaratadi»².

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy kurashlardan qat'i nazar, tashqi siyosatda ochiq-oydinlik prinsipi O'zbekistonga qisqa muddat ichida ikki taraflama keng tashqi aloqalar o'rnatish imkonini berdi. Yevroosiyo iqtisodiy va madaniy ko'prigining barpo etilganligi, SHHT doirasidagi hamkorlikning kengayib borayotganligi respublika tashqi siyosatining strategik istiqbolidir. Dunyoning 170 dan ortiq mamlakati tomonidan tan olingan, 120 davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Tayanch tushunchalar

Xalqaro siyosat, ikki qutblilik, ko'p qutblilik, xalqaro siyosat subyektlari, tashqi siyosat, xalqaro xavfsizlik bilan bog'liq yangi tendensiya va yangi tahdidlar, «boshqariladigan beqarorlik», imperiyaviy tafakkur, parchalovchi omillar, yaratuvchi omillar, xalqaro siyosatning asosiy prinsiplari, xalqaro siyosatning dolzarb yo'nalishlari, inson huquqlari, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa

¹ Postda. — 2009. 24-yanv. — №4.

² Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. — Т., 2005. — В. 430.

tiklanish va taraqqiyot banki, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom tashkiloti konferensiyasi, yangi jahon tartiboti, O'zbekistonning tashqi siyosiy konsepsiyasi, milliy manfaat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Xalqaro siyosat», «ikki qutblilik va ko'p qutblilik», «xalqaro siyosat subyektlari» atamalarining ma'nolarini tushuntiring.
2. Hozirgi zamonda xalqaro xavfsizlik bilan bog'liq qanday yangi tendensiya va tahdidlar paydo bo'lmoqda?
3. Sizningcha «boshqariladigan beqarorlik» tushunchasi bilan imperiyaviy tafakkur o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
4. Xalqaro tartibotdagi parchalovchi va yaratuvchi omillar mazmunini tushuntirib bering.
5. Xalqaro siyosatning asosiy prinsiplarini izohlang.
6. Xalqaro siyosatni ma'rifiylashtirishda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qanday ahamiyat kasb etadi?
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotini modernizatsiyalash va isloh qilishning zarurligini izohlab bering.
8. I. A. Karimovning «MDHning istiqboli Yevropa Ittifoqi kabi modelning amalga oshirilishida ko'rinadi», degan so'zlaridan Yevropa Ittifoqi to'g'risida qanday xulosa chiqarish mumkin?
9. Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash hamda iqtisodiy hamkorlikni ta'minlashda SHHTning o'rni va ahamiyati to'g'risida gapiring.
10. Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES)ga a'zolik O'zbekiston uchun geosiyosiy nuqtayi nazardan qanday ahamiyatga ega?
11. O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan aloqalari olib borilayotgan islohotlar samaradorligida qanday o'rin tutadi?
12. Yangi jahon tartibotini shakllantirishda O'zbekistonning o'rni va siyosiy manfaatdorligi tashqi siyosatda qanday aks etayotganligini dalillar asosida tushuntiring.
13. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati qanday prinsiplarga tayanadi?
14. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi qonunni konspektlashtiring.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т., 2008.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий принциплари тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997. – №2.

Инсон ҳуқуқлари тўғрисида халқаро билл. – Т., 1992. – Б. 3–23.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т., 1998. – Б. 31–261.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б. 23–57.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 194–203; 400–419.

Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006. – Б. 56–60.

Каримов И. А. Ватан ҳимоячиларига байрам табриги // *Каримов И. А.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. – Т., 2006. – Б. 130–138.

Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. – Т., 2008. – Б. 368.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008. – Б. 110–127.

Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат (фалсафий-сиёсий таҳлил). – Т., 2008. – Б. 202.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. М., 2000. – С. 436–452.

Норматов И. Ўзбекистон ва ташқи дунё: сиёсатда ҳам сарҳисоб бор // Ўзбекистон овози. – 2005. – 31 дек. – №156–157.

Политология: Ўқув қўлланма/*С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров.* – Т., 1999.

Политология. Маърузалар матни/Тақризчилар: *В.С.Ким, Ж. Бахронов.* – Т., 2000. – Б. 163–213.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997. – Б. 236–268.

XALQARO TERRORIZM VA UNGA BARHAM BERISHNING SIYOSIY-HUQUQIY CHORALARI

1. Terrorizmning paydo bo'lishi, turlari va ko'rinislari

Ilk bor Aristotel tomonidan qo'llanilgan «terror» atamasi yunoncha «terror» so'zidan olingan bo'lib, dahshat, qo'rquv degan ma'nolarni anglatadi. Binobarin, terrorizm deganda o'zining muayyan maqsadlariga erishishda siyosiy raqiblarini harbiy harakatlarga bog'liq bo'lmagan, hech bir cheklanmagan sistematik jismoniy zo'rlik ishlatish yo'li bilan yo'q qilishni ko'zlovchi siyosiy kurash usuli tushuniladi. O'z avanturistik maqsadlariga erishishda jismoniy zo'rlik, qurolli usullar, terror va fitnadan keng foydalanishi esa terrorizmning ekstremistik tabiatini yaqqol namoyish etadi.

Jinoyatning bu ko'rinishi bugungi kun uchun kutilmagan holat emas. Chunki, terrorizm o'ta salbiy ijtimoiy hodisa sifatida u yoki bu ko'rinishda qadim-qadimdan ma'lum. Terrorchilar tarixning barcha davrlarida xalq ommasining ayrim qatlam va guruhlarini «yo'ldan urish», turli yo'llar bilan ular qalbiga yo'l topish taktikasiga amal qilib kelishgan. O'rta asr qaroqchilari va banditlari, yangi va eng yangi davrda ro'y bergan «o'ta inqilobiy xalq harakatlari» ham surbetlarcha oddiy mehnatkash nomidan ish ko'rishgan. Ayrim hududlarda terrorchi guruhlarning uzoq muddatga hokimiyat tepasiga kelganligi, hatto xalq bilan ma'lum bir vaqt davomida yakdil bo'lganliklari to'g'risida tarixda ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz. Demak, terrorizm o'zini «haqqoniy, xalqparvar» harakat deb baholashi uning bir xususiyati bo'lsa, bugungi o'zining eng tashkiliy jipslashgan davrida ham o'sha eski, uning uchun asosiy niqob bo'lib kelgan amaliyotga qat'iy sodiqligini namoyish qilmoqda.

Bir zamonlar terrorchilar Yer sharining turli joylarida alohida-alohida, bir-biridan batamom ajralgan holda harakat qilgan bo'lsalar, bugun ular o'z faoliyatini mintaqaviy, hatto umum-sayyoraviy darajada muvofiqlashtirishga intilmoqdalar. Ya'ni,

bugun insoniyat tinchligiga terrorchilar misolida xalqaro miqyosda uyushgan, kerak bo'lsa bir yoki bir necha qudratli markazlar tomonidan boshqarilayotgan siyosiy lashgan xalqaro jinoiy guruhlar tahdid solmoqda.

Muammo shundaki, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridan to hozirga qadar ham jinoyatning bu turi o'z maqsadiga erishishning eng maqbul yagona yo'li sifatida siyosiy hayotda qo'llanib kelinmoqda. Shu munosabat terrorizmning ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida paydo bo'lish tarixini, uning turlari va ko'rinishlarini, xalqaro huquqiy hujjatlarda uning qanday baholanganini hamda O'zbekistonda terrorizm xavfining oldini olish masalalarini o'rganish dolzarb ahamiyatga egadir.

Terrorizm tarixi. Terrorizm tarixini shartli ravishda to'rt davrga bo'lish mumkin:

1. Qadimgi terrorizm. (Proterrorizm.)
2. Klassik (mumtoz) terrorizm.
3. An'anaviy terrorizm.
4. Zamonaviy terrorizm.

Qadimgi terrorizm. Terrorizm uzoq tarixga ega hodisa bo'lib, uning ildizlari insoniyatning qadimgi tarixiga borib taqaladi. Jamiyatning siyosiy tarixida siyosat subyektlari tomonidan maqsadga erishishning asosiy vositalaridan biri sifatida zo'rlik, dahshatga solishdan foydalanish o'tmishda ham keng tarqalgan edi. Yozuv paydo bo'lganidan boshlab bitilgan ko'plab solnomalarga nazar tashlasak, siyosiy, ijtimoiy va harbiy sohada terrorchilik harakatlari sodir etilganiga guvoh bo'lamiz. Miloddan avvalgi 44-yilda Rim imperatori Gay Yuliy Sezarga uyushtirilgan suiqasdni siyosiy terrorizmga yorqin misol qilib ko'rsatish mumkin.

Qadimgi yahudiy qabilalarining «Shilot sikari» deb atalgan otryadlari esa yetmish yil davomida rimlik mustamlakachilar hamda boshqa dushmanlar bilan muvaffaqiyatli kurash olib borganligi tarixdan ma'lum¹. Milodning 66–73-yillarida sikarilarning Falastin hududida faoliyat ko'rsatgan bu sektasi

¹ *Антонян Ю.М.* Терроризм: криминологическое и уголовно-правовое исследование. – М., 1998. – С. 52

qadimgi terroristik guruhlardan biri bo'lib, Quddus ko'chalarida odamlar gavjum bo'lgan kunlarda, xususan, bayramlarda xanjar va kalta qilich («sika»)ni kiyimlari ichiga yashirib olgan terrorchilar o'z qotilliklarini daf'atan amalga oshirganlar va tezda aholi orasida izsiz yo'qolganlar. Sikarilar Rimga qarshi kayfiyatdagi ekstremist millatchilar bo'lib, mustamlakachilar bilan hamkorlik qilgan o'z millatdoshlarini ham ayamaganlar.

Milodning VII asrida islom dini doirasida yuzaga kelgan birinchi diniy-siyosiy ekstremistik harakat hisoblanadigan xori-jiylar esa «Xulafoi roshidiyn» (to'g'ri yo'ldan boruvchi payg'ambar o'rinbosarlari)ning ikkinchi va uchinchi bo'lgan Umar va Usmonlarning bevaqt o'limiga sababchi bo'lishgan. Ular ummaviylar hukmronligi davrida katta siyosiy kuchga aylanib, mamlakatda doimiy fitna va beqarorlik urug'ini sochganlar.

VIII asrning ikkinchi yarmida Iroq, Bahrayn, Yaman, Suriya, Misr, Xuroson va Movarounnahr hududida terroristik harakatlar sodir etgan qarmatiylar diniy-siyosiy ekstremistik oqimi islom nomi ostida olovga sig'inish e'tiqodini tiklamoqchi bo'lishgan. Ular birgina 317-hijriy yilda Ka'baga hujum qilib, 1900 kishini shahid etishgan. Makka shahrida esa 30 ming musulmonni o'ldirib, shaharni talon-taroj qilib, o't qo'yishgan.

Eronda bundan to'qqiz asr avval tuzilgan assasinlar totalitar sektasi¹ terrorchilik tashkilotiga tipik misol bo'la oladi. Ismoiliylar sektasidan ajralib chiqib, saljuqiylar sulolasiga qarshi terroristik aktlar sodir etgan, keyinchalik XIII asrda mo'g'ullar tomonidan yo'q qilingan assasinlar qo'shni Suriyaga bosqinlar uyushtirib, davlat amaldorlarini, hatto xalifalarni o'ldirganlar². Sekta rahbari Hasan ibn as-Sabboh boshchiligida assasinlar O'rta yer dengizidan tortib Fors qo'ltig'igacha bo'lgan keng hududni nazorat etganlar. Terrorchilik harakatlarining ishtirokchilari ruhlarini ko'tarish maqsadida giyohvandlik vositalari, jumladan, nasha,

¹ *Izoh:* Sekta — muayyan dindagi yangi mazhab bo'lib, tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida totalitar sektalar, odatda, diniy aqidalardan o'z ekstremistik manfaatlari yo'lida foydalanishga urinib kelishmoqda.

² *Izoh:* «Siyosatnoma» asarining muallifi, saljuqiylar saltanatida vazir lavozimida xizmat qilgan Nizomulmulk ham Hasan ibn as-Sabboh ko'rsatmasiga ko'ra assasinlar tomonidan o'ldirilgan.

ya'ni gashish iste'mol qilishgan. Sektaning Yevropada «Hashishin» deb nomlanishi ana shu so'zdan kelib chiqqan. Fransuzlar uni o'z tillariga moslab «Assasin» deb atashgan. «Siyosiy qotillik» ma'nosini anglatuvchi «Assassiation» so'zi ham ana shundan kelib chiqqan.

O'ta maxfiy tarzda ish yuritgan assasinlar terror orqali amalga oshiriladigan o'z qotilliklariga ham diniy, ham siyosiy tus berib, uni o'ziga xos diniy marosim darajasigacha ko'targanlar. Assasinlar fe'l-atvorida zohidona intizom shakllantirilgan. Ular o'z maslaklariga ko'ra qiynoq va o'limni xursandchilik bilan kutib olib, yangi dunyoviy tartibning g'alabasiga chuqur ishonganlar. Shu tariqa diniy mutaassiblik va siyosiy terror o'zaro uyg'unlashib ketgan.

Hindistonda faoliyat yuritgan «bo'g'uvchilar» sektasi o'z qurbonlarini shoyi ip bilan bo'g'ib o'ldirishgan. Sekta a'zolari o'z teraktlarini ma'buda Kali sharafiga qilingan qurbonlik hisoblab, o'z qotilliklaridan rohatlanishgan. Xitoydagi terrorchilik guruhlariga, odatda, qo'l jangi ustasi bo'lgan shaxs boshchilik qilgan. Terrorchi guruhdagi professional qotillar goho firibgarlik bilan shug'ullanib, kim ko'p pul to'lasa, o'shanga xizmat qilganliklari ma'lum. Bunday yashirin jamiyatlar daromadni qimorxonada, kontrabanda savdosidan qo'lga kiritishda, lekin o'z manfaatlari yo'lida siyosiy zo'rlik bilan ham shug'ullanib, prefektlarni o'ldirishgan, ularning uylarini hamda ko'priklarni oddiy xalqni qo'rquvga solish maqsadida yoqib yuborishgan.

Umuman, siyosiy terrorizm tizimida yuqorida qayd etilgan holatlar hozirgi zamon terrorizmiga nisbatan birmuncha ibtidoiy ko'rinishga ega bo'lgan hodisalar bo'lganligi uchun uni qadimgi terrorizm yoki proterrorizm deb ataladi.

Klassik terrorizm. Terrorizm tarixining ikkinchi davri klassik terrorizm bo'lib, unda «terror»ga siyosiy kurash vositasi sifatida qaraladi. Chunki, «terror» atamasi Buyuk fransuz inqilobi davrida yuzaga keldi. Fransiyadagi jirondistlar va yakobinchilar tomonidan 1790-yillarda siyosiy leksikonga kiritilgan «terror»dan xalqni qo'zg'olonga tayyorlash va hokimiyatni egallash jarayonida fransuz inqilobining mafkurachilari foydalangan edilar.

Biroq monarxiyaga qarshi kurashda terrorni kurashning asosiy vositasi deb bilgan inqilobchi kuchlar yosh fransuz respublikasi davrida ham undan voz kechmadilar, aksincha Konvent (fransuz respublikasi hukumati) rahbarlari endilikda terrorni o'z mamlakati fuqarolariga qarshi qaratdilar. Ijtimoiy xavfsizlik Komiteti Xalq Konventini tanqid qilishga jur'at etgan har qanday shaxsni «siyosiy jinoyatchilik»da ayblab, qatl eta boshladi. «Terror» atamasi endilikda «qo'rquv», «dahshat» kabi mazmunini haqiqatda butun mohiyati bilan aks ettira boshladi.

«Terror» atamasi Fransiyada yuzaga kelgan bo'lsa-da, terrorizm siyosiy voqelik sifatida XIX asrning birinchi yarmida Avstriyaga tobe bo'lgan, lekin mustaqillik ilinjida bo'lgan Italiyada muayyan darajada rivojlandi. Bu yerdagi karbonariylar (italyan tilida – «ko'mirchilar») italyan milliy inqilobi g'alabasi uchun politsiya mahkamalariga hujumlar uyushtirish, banklarni o'marish, pul olish yoki siyosiy yon berishlarga majbur qilish uchun odamlarni o'g'irlash bilan shug'ullandilar. Italiyan ozodlik harakatining dohiysi Garibaldi esa bu paytda Angliyada turib Avstriya-Vengriya imperiyasiga qarshi terroristik aktlarni moliyaviy ta'minlash maqsadida mablag' to'pladi. Oxir-oqibat Italiya Avstriya imperiyasidan ajralib chiqqach, bu jarayon nihoyasiga yetdi. Keyinroq esa muntazam ravishda terroristik aktlarni so-dir etuvchi tashkilotlar vujudga keldi.

An'anaviy terrorizm. An'anaviy terrorizm klassik terrorizm zamirida shakllangan bosqich bo'lib, uning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1) terroristik aktlarni amalga oshirishning muayyan usullari va vositalari yaratildi. Bularga portlatish, qotillik, o't qo'yish, zaharlash, garovga olish kabi usullar hamda bomba, pichoq, xanjar, pistolet, miltiq, turli zaharlar va porox kabi vositalar kiradi;

2) terrorizm o'z mafkurasini yaratdi, natijada, terrorizmning turli ko'rinishlari paydo bo'ldi (so'l va o'ng, ijtimoiy va siyosiy, millatchilik, dunyoqarash, inqilobiy va boshqalar);

3) terrorizmning ijtimoiylashuvi ro'y berdi, ya'ni u aholining turli qatlamlari orasida, marginallardan tortib to aristokratlargacha o'z ijtimoiy bazasiga ega bo'ldi;

4) terrorizm institutsionallashib, o'zining doimiy tashkilotlarini yaratdi va xalqaro xarakter kasb eta boshladi.

Zamonaviy terrorizm. Zamonaviy terrorizm terrorizm tarixidagi hozirgi bosqichdir. Uning asosiy xususiyatlari esa quyidagilardir:

1) terrorizm ommaviy xarakter kasb eta boshladi, ya'ni u tobora ko'proq qurbonlik talab qilib, qo'rquv va tahlika sola boshladi;

2) terroristlar odamlarni sarosimaga va dahshatga solishning zamonaviy usullari – gaz, bakteriologik vositalar, masofaviy va kosmik aloqa, internet va OAVdan foydalanishga o'tdilar. Garovga olinganlar hayotiga, Yerning sun'iy yo'ldoshlari va hatto yadroviy arsenallarga nisbatan ham real xavf paydo bo'ldi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda zamonaviy terrorizm XX asr 60-yillari oxirlaridan vujudga kelgan deb hisoblash mumkin. Zamonaviy terrorizm tomonidan zo'rlikning noan'anaviy vositalarining qo'llanilishi real voqelikka aylandi. Jumladan, Yaponiyadagi sintoizm dini totalitar sektalaridan biri bo'lmish Aum Sinrikyo sektasining 1995-yilda Tokio metrosidagi passajirlarga qarshi zarin moddasini ishlatishi oqibatida 5500 inson jabrlandi. Yaponiya maxsus xizmatlari tomonidan tezkor chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilmaganida jabrlanganlar soni 40 ming kishigacha yetishi mumkin edi¹. Ushbu teraktdan so'ng terroristlar tomonidan zaharli gazlar, bakteriologik vositalarning, internet va OAVning qo'llanilishi yanada kuchayib ketdi.

Terrorizm turlari. Murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lgan terrorizmni turlarga bo'lish siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb masala bo'lib, bunda terakt jarayonida ishlatiladigan vositalarga asosiy mezon sifatida qaraladi. Shunga ko'ra terrorizm ikki turga: an'anaviy va zamonaviy texnologik (texnologik) terrorizmga ajratiladi.

Odamlarni halok qiluvchi azaldan ma'lum vositalar (sovuq qurol, o'q otuvchi qurol, portlovchi moddalar va hokazolar)-

¹ Химическое оружие и проблемы его уничтожения. – М., 1997. №3. – С. 12.
//Рахимов Д.Ф. Современный конструкции определения терроризма: международно-правовые аспекты. –Т., 2004. – С.20.

dan foydalanib siyosiy maqsadlar yo'lida amalga oshiriladigan terror an'anaviy terrorizmga xos xususiyatdir.

Zamonaviy (texnologik) terrorizm esa radioaktiv materiallar, o'ta zaharli gazlar, kimyoviy va biologik moddalar kabi vayron qilishning yangi vositalarini qo'llashni afzal ko'radi, nisbatan katta hududni qamrab olishi va ko'plab aholining qurbon bo'lishiga olib kelishi jihatidan o'ta xavfli jinoyat turiga kiradi.

Zamonaviy (texnologik) terrorizmning ko'rinishlari.

Yadroviy terrorizm – yadroviy portlovchi qurilmalarni portlatish yoki portlatish tahdidi, radioaktiv materiallar bilan zaharlash, yadroviy obyektlarni bosib olish yoki diversiya uyushtirishni ifoda etadi. Hozir dunyoning 30 mamlakatida 450 ga yaqin yadroviy sanoat obyektlari, yuzlab yadro reaktorlari, o'n minglab yadroviy qurilmalar mavjudligi e'tiborga olinsa, terrorizmning bu ko'rinishi insoniyatga nisbatan qanchalik katta tahdidga aylanganini tasavvur qilish mumkin.

Xaydjeking – yirik transport vositalari: samolyot, poyezd, avtomobil va kemalarni o'g'irlashni ko'zda tutadi. 2001-yil 11-sentabrda AQSH hududida mamlakat aviakompaniyalariga qarashli uch yirik samolyotning passajirlar bilan birga olib qochilganligi, amalga oshirilgan terakt natijasida ko'plab fuqarolarning halok bo'lganligi katta fojia bo'lgan edi.

Kiberterrorizm – maxsus xaker dasturlari orqali kompyuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish, kompyuter viruslari yordamida internet tarmog'ida terakt sodir etish, internet tarmog'ini ishdan chiqarishni ko'zda tutadi.

Bioterrorizm – shtam, virus, kukun kabi bakteriologik vositalardan foydalangan holda terakt sodir etish.

Kimyoviy terrorizm – zarin, neprin kabi zaharlovchi va bo'g'uvchi gazlardan terroristik maqsadlarda foydalanish.

Ekoterrorizm – terakt obyekti sifatida flora (o'simlik dunyosi) va fauna (hayvonot dunyosi)ning tanlanishi.

Infoterrorizm (axborot terrori) – terakt sodir etishga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotning OAV orqali tarqatilishi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatning o'z texnik imkoniyatlaridan boshqalarning zarari uchun foydalanishini anglatadi.

Misol uchun biron bir yolg'on xabar ba'zan butun dunyo davlatlarini bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yadi, ming-millionlab odamlarning ruhiyatini zaharlaydi, ularni yo'ldan adashtiradi. Shu bois, jahon ommaviy axborot vositalari orqali, xususan, «Internet» tarmog'idan tarqatilayotgan xabarlar noxolis berilar ekan, demak, turli zararli oqibatlar ham kelib chiqadi. Bunday zararli axborotlarni «Axborot terrori» deb atash mumkin. Terrorning bu ko'rinishi bugungi kunda siyosiy terrorizmining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Jumladan, AQSH Iroqqa hujum boshlashdan oldin OAV, xususan, televideniye va radio tarmog'ini ishdan chiqarganligi ham bejiz emas edi. Axborot terrorida asosiy diqqat-e'tibor odamlarning ongini ishg'ol qilishga, ularni o'z izmiga bo'ysundirishga qaratiladi. O'zgalarni tobe qilishning eng qulay yo'li — bir davlatni boshqalardan ko'ra badavlat yoki obro'li, insonparvar, demokrat qilib ko'rsatish, ya'ni manipulyatsiya qilishdir. Masalan, AQSHning har qanday qo'shin turida axborot urushini paydo qiladigan markaz mavjud. AQSH harbiy havo kuchlarining «axborot jangi» markazi Texas shtatidagi HHKning Kelli degan bazasida, quruqlikdagisi esa Virjiniya shtatining Belvuar fortida joylashgan¹.

Shu ma'noda bugungi kunda «davlat terrorizmi» tushunchasi keng tarqalgan. Davlat terrorizmining tashqi siyosiy jihati xorijiy davlatlarning muayyan mamlakat ichki ishlariga aralashuvida amalda namoyon bo'lmoqda. Muayyan davlat o'z harbiy-siyosiy ekspansiyasini (bosqinchilik siyosatini) amalga oshirar ekan, davlat terrorizmi milliy chegaralar doirasidan tashqariga chiqib, boshqa mamlakatlar suverenitetiga nisbatan tahdidga aylanadi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, davlat terrorizmining xalqaro huquq normalariga zid ekanligi BMT Bosh Assambleyasining 39-sessiyasida qabul qilingan rezolyutsiyada belgilab qo'yilgan. Ushbu rezolyutsiyaga ko'ra davlat terrorizmi suveren davlatdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirish yoki

¹ *Кўчқор Норқобил. Ниқоби йиртилаётган «демократия» // Ўзбекистон овози. — 2006. — 10-окт. — №120.*

buzish, qonuniy hukumatni ag'darish hamda terrorizmni qo'llab-quvvatlovchi xatti-harakat sifatida baholagandir¹.

Xullas, o'z vayronkorlik xususiyatlariga ko'ra davlat terrorizmini terrorizmning o'ta xavfli turlaridan biriga kiritish mumkin.

Terroristik tashkilotlarning g'oyaviy-siyosiy maqsadlariga ko'ra **terrorizmning mafkuraviy, millatchilik, diniy va boshqa ko'rinishlari** ham ajratiladi. Masalan, o'ng va so'l terrorizm mafkuraviy terrorizmga kiradi. O'ng terrorizm millat uchun an'anaviy bo'lgan siyosiy qadriyatlarga tayanadi. (Neofashistlar guruhlar, Lotin Amerikasidagi «o'lim eskadronlari».) Bugun G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlarida ham o'ng ekstremizm va terrorizmning jonlanishi kuzatilmoqda.

So'l (inqilobiy, «qizil») terrorizm esa mafkuraviy terrorizmining yana bir ko'rinishi bo'lib, soxta inqilobiy, jumladan, trotskiycha va maocha tamoyillarga tayanib, inqilobiy vaziyatni, aholining ommaviy qo'zg'olonini tashkil etishga, oxir-oqibatda mavjud tuzumni zo'rlik bilan ag'darishga intiladi. (Germaniyada «Qizil Armiya fraksiyasi», Italiyada «Qizil brigadalar», Gretsiya va Lotin Amerikasida «Xalq inqilobiy kurashi» kabi terroristik tashkilotlar.)

Millatchilik terrorizmi keng tarqalganligi, o'ta shafqatsizligi va ko'plab qurbonlarga olib kelishi bilan ajralib turadi. Mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, davlatchilikning ko'pincha federativ tuzilishini, mamlakatdagi mavjud milliy-davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilmalarni zo'rlik bilan o'zgartirishni o'zining siyosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Ispaniyada, Fransiyada, Angliyada, Belgiyada va boshqa Yevropa mamlakatlarida millatchi ekstremistik tashkilotlarning bunday faolligini kuzatish mumkin.

Millatchilik terrorizmining turli-tuman ko'rinishlariga separatizm terrorizmini (millatchi siyosiy ozchilik tomonidan mustaqillik yoki avtonomiyaga erishish uchun amalga oshiriladigan teraktlar. ETA, korsikalik terroristlar.); milliy-ozodlik terro-

¹ BMT Bosh Assambleyasining 39/159 rezolyutsiyasi // *Рахимов Д.Ф.* Современные конструкции определения терроризма: международно-правовые аспекты. – Т., 2004. – С. 17.

rizmini (mustamlaka va yarim mustamlaka mamlakatlarda davlat suverenitetiga erishish uchun terrordan foydalanish); repressiv-milliy terrorizmni (muayyan davlat ichidagi millatlararo nizolar jarayonida imtiyozli millat guruhlarining bir millatli davlat tashkil etish maqsadida milliy ozchilik talablarini terror yoʻli bilan bostirishida, oʻz navbatida, milliy ozchilikning terrorga terror bilan javob berishida namoyon boʻladi); hududiy-separtizm terrorizmini (oz tarqalgan hodisa boʻlib, bunda muayyan davlat ichidagi hukmron millat vakillari mamlakatning muayyan hududiga suverenitet berilishini talab qiladilar) kiritish mumkin.

Bundan tashqari, dunyoqarash terrorizmi ham mavjud boʻlib, hukmron siyosiy meʼyorlar va munosabatlar bilan murosqa qilishni istamaslik undagi asosiy xususiyatdir. Diniy terrorizm shu maʼnoda dunyoqarash terrorizmiga kiradi. Terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan soʻnggi oʻn yillikda kuchaygan tahdidi jamiyat va davlatni boshqarishning demokratik, dunyoviy shakllarini inkor etuvchi diniy terrorizm va ekstremizm mohiyatiga chuqurroq eʼtibor berishni taqozo etmoqda.

Diniy terrorizm — hozirgi zamon terrorizmining keng tarqalgan koʻrinishlaridan biri boʻlib, u yoki bu diniy aqidalardan foydalangan holda muayyan siyosiy maqsadlarni koʻzlaydi. Siyosat dunyosini oʻz tamoyillari asosida qayta qurishni, odamlar ongiga taʼsir etishni diniy aqida va qadriyatlar negizida amalga oshirishni istovchi diniy-terroristik guruhlar hokimiyat uchun kurashish, millatlararo janjallar va har xil siyosiy mojarolarni keltirib chiqarishda dindan siyosiy qurol sifatida foydalanishga harakat qiladilar.

Shuni qayd etish kerakki, dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat koʻrsatmoqda. Ularni siyosiy maqsadlari; diniy yoʻnalishi; qanday qilib va nima uchun paydo boʻlgani; ijtimoiy va etnik tarkibi; soni va tashkiliy tuzilishi; qayerda faoliyat yuritishni maʼqul koʻrishi; terror usullari; tajovuzkorlik darajasi va murosaga moyilligi boʻyicha tasniflash mumkin. Aksar terrorchilik tashkilotlari yashirin faoliyat koʻrsatishiga qaramay, koʻplab mamlakatlarning hukumatlari ularni hisobga olishga harakat qilishadi. Jumladan, Rossiya hukumati oʻz «qora» roʻyxatiga quyidagi terrorchilik tashkilotlarini kiritgan:

- 1) «Kavkaz mujohidlari birlashgan kuchlari oliy harbiy majlisi»;
- 2) «Ichkeriya va Dog‘iston xalqlari kongressi»;
- 3) «Baza» — («Al Qoida»);
- 4) «Absat Al-Ansor» (Livan);
- 5) «Muqaddas urush» («Al-Jihod», Misr);
- 6) «Islom guruhi» («Jamoat ul-Islomiyah», Misr);
- 7) «Musulmon birodarlar» («Al-Ixvon al-Muslimun»);
- 8) «Islom ozodligi partiyasi» («Hizbut-tahrir al-Islomiy»);
- 9) «Lashkari — Toyba» (Pokiston);
- 10) «Islom guruhi» («Jamoati Islomiy»);
- 11) «Turkiston islom partiyasi» (sobiq O‘zbekiston Islom harakati).

Terrorchilik tashkilotlarining asosiy siyosiy maqsadlari quyidagicha:

- globallashuv va transmilliy kompaniyalarga qarshi;
- biror diniy konfessiya yoki etnik guruhga qarshi;
- o‘z hukumatiga qarshi;
- bir davlat manfaati yo‘lida boshqa hukumatga qarshi;
- millat yoki din sofligi uchun kurashish;
- ayirmachilik maqsadida va o‘z davlatini tuzish uchun kurashish;
- biror dunyoqarashga qarshi (abortga, ekologiyaning buzilishiga qarshi kurashish va hokazo).

Diniy yo‘nalish tushunchasi nihoyatda shartlidir. Chunki aksar terrorchilik tashkilotlari o‘z maqsadlariga yetishish yo‘lida dindandaniqob sifatida foydalanishadi. Bular: soxta islom, soxta nasroniylik, soxta iudaizm, yangi din o‘ylab topish, dinlarni inkor etish kabilardir¹.

Terrorizmning sabablari. Terrorizm siyosiy ekstremizmning beshafqat ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u umumiy etikani rad etuvchi nigilizm oqibatida kelib chiqadi. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Xo‘sh, terrorizmning kelib chiqish sabablari nimada?

¹ Terrorчилик ташкилотлари. Улар ҳақида қисқача маълумотлар // Postda. — 2004. 15-апр. — №16.

Terrorizm ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida kelib chiqadi. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: muxolifatni siqib qo'yish, davlatlararo ziddiyatlar, etnik va diniy ziddiyatlar, ayirmachilik va mustaqillik uchun kurashish, qashshoqlik va ishsizlik, mafkuraviy bo'shliq. Boshqa davlatlarning qo'llab-quvvatlashi, an'anaviy turmush tarzini buzuvchi globallashuv, amerikacha siyosat, iqtisodiy va madaniy gege-moniyaga intilish kabi tashqi omillar ham terrorizmni keltirib chiqarishi mumkin.

Biroq ayrim mutaxassislar aholining kambag'alligi, qashshoqligini terrorizmning asosiy sababi deb hisoblaydilar. Bunday sababchi omillarni inkor etmagan holda ularning bosh sabab emasligini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Birinchidan, aholining o'ta qashshoq qismi doim siyosatdan yiroq bo'ladi, binobarin siyosiy ekstremizm jinoyatlariga uni sherik qilish adolatdan bo'lmasa kerak. Qolaversa, qashshoqlikdan, nochorlikdan tamomila tushkunlikka tushgan shaxs qo'lga qurol olib yoki qo'yniga bomba solib, o'zi bilan boshqa o'nlab mutlaqo beayb insonlar hayotiga zomin bo'ladi, deyish mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Ikkinchidan, agar shunday bo'lsa, nega qoloq, qashshoq, madaniy taraqqiyot darajasi anchagina past mintaqalarda (masalan, Janubiy Afrika bushmenlari, Meksika hindulari va boshqa o'troq kambag'al qabilalarda) terrorizm degan tushunchaning o'zi yo'q?

Kambag'allikni terrorizm sabablari sifatida qayd etuvchi tadqiqotchilar fikrlarini mutlaq rad etmagan holda unga aniqlik kiritib, shuni aytish joizki, terroristik aktlarni amalga oshirishni ko'zlovchi guruhlar itoatkor ijrochilarni ko'proq yuqorida sanab o'tilgan qatlamlardan izlaydilar hamda kambag'allik, qashshoqlikning sabab va oqibatlarini yo'q qilish vositasi sifatida riyokorlik bilan terrorchilikni ko'rsatadilar.

Xulosa qilib aytganda, terrorizm o'ta murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u o'z tarkibiga ko'ra:

- terroristik, ekstremistik g'oya yoki mafkurani;
- terrorchilik aktlarini u yoki bu shaklda amalga oshirishni tashkillashtiruvchi tashkiliy tuzilmani;

– terrorchilik aktlarini amalga oshirishga qaratilgan aniq faoliyat yoki xatti-harakatni o‘z ichiga oladi.

2. Terrorizm to‘g‘risidagi xalqaro huquqiy hujjatlar

Terrorning aniq inson, odamlar guruhi, aholi yoki davlatga qarshi qaratilgan jinoyiy harakat sifatida kvalifikatsiya qilinishi dastlab 1937-yilda Millatlar Ligasi tashabbusi bilan o‘tkazilgan Jeneva konferensiyasi hujjatlarida uchraydi. O‘sha yilda terrorizmning butun dunyoga yoyilishi xavfini olish maqsadida Millatlar Ligasi 11 davlat vakillaridan iborat maxsus ekspertlar qo‘mitasini tuzib, unga siyosiy terrorizmga oid jinoyatlarga qarshi xalqaro konvensiya loyihasini tuzishni topshirdi. 24 davlat tomonidan imzolangan «Terrorizmning oldini olish va uning uchun javobgarlik to‘g‘risida», «Xalqaro jinoyat sudini tuzish to‘g‘risida» kabi konvensiyalarda «terrorizm» tushunchasiga dastlabki siyosiy-huquqiy ta‘rif berilgan edi. Garchi bu konvensiyalar o‘sha paytda kuchga kirmagan bo‘lsa-da («Terrorizmning oldini olish va uning uchun javobgarlik to‘g‘risida»gi konvensiyani faqatgina Hindiston ratifikatsiya qilgan edi), keyinchalik bu hujjatlar BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatida nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Muayyan kamchiliklariga qaramay terrorizm to‘g‘risida qabul qilingan ushbu konvensiyalar xulosalari 1956-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan yaratilgan «Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi» loyihasini tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qildi.

Bizning davrimizga kelib esa xalqaro hamjamiyat tomonidan terrorizm to‘g‘risida bir qancha xalqaro shartnomalar, kelishuv va konvensiyalar ishlab chiqilgan hamda qabul qilingan. Ularda xalqaro terrorizmning har qanday ko‘rinishlariga, uni moliyaviy ta‘minlash va qo‘llab-quvvatlovchi xatti-harakatlarga qarshi kurash masalalari o‘z ifodasini topgan.

BMT va uning maxsus muassasalari ko‘p yillardan buyon terrorizmni bartaraf etish, terakt uchun javobgar bo‘lganlarni jazoga tortish bo‘yicha keng qamrovli xalqaro huquqiy hujjat-larni tayyorlab bermoqda. 1963-yildan boshlab tayyorlanayotgan bu hujjatlar samolyotlarni olib qochish, odamlarni garovga olishdan tortib, to terrorizmni moliyalashtirishgacha bo‘lgan

terrorizmning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashda foydalanish uchun mo‘ljallangan asosiy yuridik normalardir.

BMT terrorizm muammosi bilan huquqiy jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham bevosita shug‘ullanadi. BMT va uning Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO), Xalqaro dengizlar tashkiloti (IMO) va Xalqaro atom energiyasi agentligi singari ixtisoslashtirilgan muassasalari terrorizmga qarshi kurash borasida huquqiy vosita hisoblangan qator xalqaro bitimlarni ishlab chiqdi.

Jumladan:

1) Havo transportida sodir etilgan huquqbuzarliklar va boshqa harakatlar to‘g‘risida konvensiya (1963-yilda Tokioda qabul qilingan);

2) Havo kemalarini noqonuniy qo‘lga olishni to‘xtatish to‘g‘risida konvensiya (1970-yilda Gaagada qabul qilingan);

3) Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko‘rsatuvchi aeroportlarda noqonuniy zo‘ravonlik harakatlarini to‘xtatish to‘g‘risidagi protokol (1988-yilda Monrealda qabul qilingan) va hokazolar.

Jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning terrorizmga nisbatan munosabatini aniqlashda BMT Bosh Assambleyasi rahbarligida tuzilgan quyidagi uch konvensiya alohida ahamiyatga ega.

1. Garovga olishga qarshi kurash to‘g‘risida konvensiya (1979). Unda ishtirok etuvchi mamlakatlar garovga olish tegishli tartibda jazolanadigan harakat ekaniga kelishib olishdi. Ular, shuningdek, o‘z hududlarida muayyan turdagi faoliyatlarni taqiqlash, axborotlar almashish va tergov faoliyatlarini hamda ekstraditsiya imkoniyatlarini yaratish to‘g‘risida ham kelishib oldilar. Agar ishtirok etuvchi mamlakat u yoki bu jinoyatchini berishdan bosh tortar ekan, ishni o‘z adliya organlariga tekshirish uchun berishi lozim. 1998-yilning o‘rtalariga kelib Konvensiyaga 83 mamlakat a‘zo bo‘ldi.¹

2. Bomba terrorizmiga qarshi kurash to‘g‘risida xalqaro konvensiya. Ushbu Konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan

¹ БМТ. Асосий омиллар. — Т., 2001. — В. 311.

1977-yilda qabul qilingan. U terrorchilik akti sodir etib, boshpana qidirib yurgan shaxslarga boshpana berishni taqiqlashni ko'zda tutadi, har bir mamlakat zimmasiga bunday shaxslarga nisbatan, ularni berishdan bosh tortgan holda jinoiy ish ochish majburiyatini yuklaydi.

3. Jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyalash va o'qitishga qarshi kurash to'g'risida xalqaro konvensiya (1989)¹.

Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasi yadro terrorizmiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konvensiya loyihasini ishlayotgan maxsus komitet ham ta'sis etdi.

Bosh Assambleya siyosiy sohada 1994-yilda «terrorizmning barcha harakatlari va ko'rinishlari, u qachon va kim tomonidan sodir etilganidan qat'i nazar kechirib bo'lmaydigan jinoyat sifatida» qoralanadigan deklaratsiya qabul qildi. Ushbu xalqaro huquqiy hujjat «Xalqaro terrorizmni bartaraf etish borasidagi choralar to'g'risidagi deklaratsiya», deb ataladi. Assambleya ishtirok etuvchi davlatlardan xalqaro terrorizmni bartaraf etish bo'yicha milliy va xalqaro miqyosda chora-tadbirlar qabul qilishni qattiq talab qildi.

Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar nafaqat BMT doirasida, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, YXHT, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti kabi tuzilmalar a'zolari bo'lgan davlatlar o'rtasida ham imzolanmoqda. Jumladan:

1. MDH a'zolari tomonidan 1999-yilning 4-iyunida imzolangan «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi shartnoma».

2. Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida 2001-yil 15-iyunda imzolangan Shanxay konvensiyasi².

3. Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi to'g'risida 2002-yil 7-iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zolari o'rtasida imzolangan kelishuv va boshqa hujjatlarda terrorizm, separatizm va

¹ Bu Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi 1997-yil 26-dekabrda qo'shildi.

² Ushbu Konvensiya SHHT a'zolari – Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tomonidan imzolangan.

ekstremizmning xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, davlatlararo do'stona munosabatlarga hamda insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga xavf solayotganligi, shuning uchun barcha tinchliksevar kuchlarning unga qarshi kurashda hamkorlik qilishi zarur ekanligi qayd etilgan. 2004-yilning 1-yanvaridan boshlab Toshkentda to'laqonli faoliyat yuritishni boshlagan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi zimmasiga o'ta muhim vazifalar yuklatilgan.

2004-yil iyunida Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tgan sammitida xavfsizlikka tahdidlar masalasida yagona yondashuv va qarash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqaro miqyosdagi yetakchi aksiterror markazlari (BMT, Interpol, ASEAN) bilan konstruktiv hamkorlik qilish Mintaqaviy aksiterror tuzilmasining faoliyatidagi o'ziga xos prinsipial jihatlar ekanligi yana bir bor qayd etildi.

Shuningdek, Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmning barcha ko'rinishlari hamda xalqaro jinoiy faoliyatni moliyaviy ta'minlab turgan narkotrafikka qarshi izchil kurashish borasida mintaqa mamlakatlariga ko'maklashishi zarur.

Bugungi kunda terorizm va uning turli-tuman ko'rinishlariga qarshi o'nlab xalqaro siyosiy-huquqiy hujjatlar tayyorlangan va jahonning ko'pgina davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Hozirda ham bu jarayon davom etmoqda. Zero, dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash terorizm, separatizm va ekstremizm kabi insoniyatga qarshi jinoyatlarni oldini olish hamda bartaraf etishni taqozo etadi.

3. O'zbekiston Respublikasida terorizm xavfining oldini olish masalalari

O'zbekistonda shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o'ta murakkab va mashaqqatli siyosiy jarayonga asoslangandir. Bir tomondan eski sovet tuzumidan qolgan salbiy meros demokratik o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatsa, ikkinchi tomondan ayrim siyosiy kuchlar xalqimiz tanlagan

dunyoviy taraqqiyot yo‘liga rahna solib, uni izdan chiqarish va diniy maqomga burib yuborishga harakat qilmoqdalar. Bu «ayrim siyosiy kuchlar» diniy ekstremizm va terrorizmning bevosita ilhomchilari va bajaruvchilari bo‘lib, ular nopok siyosiy maqsadlari yo‘lida inson va jamiyatning eng nozik va qaltis tarixiy qadriyati – dindan foydalanishga urinmoqdalar. Bu xavfni nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlangan o‘z yo‘limizda qat’iyligimizni, ya’ni O‘zbekiston aqidaparastlikning – u xoh diniy, xoh kommunistik shaklda bo‘lsin – har qanday ko‘rinishlariga qarshi ekanligini doimo ta’kidlab keladi.

1999-yilning 16-fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlardan boshlab terrorizm muammosi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi. Chunki teokratik davlat qurish ilinjida bo‘lgan terrorchilar jamiyatimiz siyosiy texnologiyasidagi zaif nuqtalardan (ishsizlik, hokimiyat amaldorlarining ayrim nuqsonlari va hokazolar) o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanmoqchi bo‘ldilar.

Jinoyatning o‘ta xavfli bu turiga qarshi kurash Milliy xavfsizlik xizmati, IIV, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mita, Mudofaa vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi kabi idoralar zimmasiga yuklatildi. Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan tegishli davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, unga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bu hujjatlarning asosiylari quyidagilardir:

1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi (2001-yil 18-oktabrdagi o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan).

2. O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuni (2000-yil 15-dekabr).

3. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoyat, Jinoyat-protses-sual kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonuni (2001-yil 29-avgust).

4. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuni (2004-yil).

Ushbu huquqiy-me‘yoriy hujjatlar orasida O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonunlar alohida e‘tiborga molik. Chunki, bu qonunlar tufayli O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurashning normativ, tashkiliy va moddiy-texnik asoslari yaratildi. Unga ko‘ra terrorizmni targ‘ibot qilish, terroristik guruh va tashkilotlarni tuzish hamda ularning faoliyati, tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terroristik jinoyatlarga oid ma‘lumot va dalillarni yashirish taqiqlanadi.

«Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonunda «terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlari sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rluk, zo‘rluk ishlatish yo‘li bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar» sifatida tavsiflangan¹.

Terrorizmga qarshi kurash dastavval uni oziqlantiruvchi

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2001. – №1–2.

g'oyaviy-ma'naviy va moliyaviy-iqtisodiy manbalarni zararsizlantirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan 2006-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka oid operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Respublika Bosh prokuraturasi huzurida faoliyat ko'rsatayotgan Soliq, valyutaga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti zimmasiga moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning kanal va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalarning monitoringini amalga oshirish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash kabi yangi vazifalar yuklatildi.¹ Chunki bugun diniy shiorlar bilan niqoblangan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosidan kelayotgan katta-katta mablag'lar evaziga yashayotgan xalqaro terrorchilik mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. I. A. Karimov ta'kidlaganidek «Markaziy Osiyo davlatlari yuzlab tonna opium va geroinni, asosan, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlariga olib chiqish uchun eng qisqa va qulay yo'llarga — koridorlarga aylanmoqda»².

Xalqaro valyuta fondining 2006-yildagi ma'lumotlariga ko'ra dunyoning turli mintaqalaridagi narkokartellar uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorizmni moliyalashtirishga har yili 500 milliondan to 1,5 milliard dollargacha mablag' sarflamoqda. Jumladan, so'nggi 6–8 yilda ro'y bergan 111 ta mojarolarda ishtirok etgan terrorchi guruhlarning narkokartellar bilan moliyaviy aloqadorligi XVF ekspertlari tomonidan aniqlandi. Mintaqadagi barqarorlikka xavf tug'dirishda hamon asosiy omil bo'lib qolayotgan Afg'onistonda YAIM (yalpi ichki mahsulot)ning

¹ *Йўлдошев Н. Терроризмнинг молиявий манбаларига қарши кураш хавфсизлик ва барқарорлик шартидир // О'zbekiston ovozi. — 2006. — 24-avg. — №97–98.*

² *Ислом Каримов терроризм хавфи тўғрисида / Тузувчи муаллифлар: Ш. Р.Қобилов, Б.У.Таджиханов. — Т., 2001. — В. 107.*

50% ini giyohvand moddalardan olinayotgan daromad tashkil etmoqda¹.

O'zbekistonda terrorizmning paydo bo'lish ildizlari, tarqalish dinamikasi, islom dini niqobi ostida faoliyat yuritishga kirishgan diniy-ekstremistik guruhlar faoliyati, ularning siyosiy maqsad-muddaolari xususida alohida to'xtalishdan avval «diniy fundamentalizm», «diniy ekstremizm», «diniy terrorizm» kabi tushunchalar mohiyatini anglab olish huquq-tartibot idoralari-ning har bir bo'lajak xodimi uchun katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

«Fundamentalizm» so'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, «asos» yoki «poydevor» ma'nosini anglatadi. («Biror narsaning asosi, jumladan, dinning asosi yoki poydevori» ma'nosida.) Fundamentalizm barcha dinlarga xos bo'lib, dinning asli qanday bo'lsa uni shundayligicha saqlab qolishga harakat qiladi.

Aslida «fundamentalizm» atamasi avvalambor xristian dini bilan bog'liqdir. U ilmiy manbalarga ko'ra, ilk bor 1908-yilda AQSHning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan «Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi»ga nisbatan qo'llanilgan edi. Fundamentalistik tendensiya barcha jahon dinlariga xos bo'lsa-da, biroq u ma'lum sabablarga ko'ra faqat islom diniga nisbatan qo'llanilmoqda. Shu ma'noda «islom fundamentalizmi» atamasi ko'proq geopolitik ma'noga ega bo'lib, undagi fundamental g'oyalarga zid keladi. Chunki islom dini buddizm, yahudiylik va xristianlik kabi asl mohiyati bilan ezgulikka asoslangan bo'lib, kishilarni ma'naviy jihatdan yakdillikka, ma'naviy barqarorlikka undaydi. Biroq bugungi ommaviy axborot vositalarida «fundamentalizm» atamasi ko'proq tajovuzkor ma'noda ishlatilmoqda. Holbuki, «fundamentalizm» tushunchasiga siyosiy ma'no berib, uni «terrorizm» va «ekstremizm» tushunchalari bilan bir qatorga qo'yish hozirgi paytda dunyo siyosiy sahnasida o'z gegemonligini o'rnatishga da'vogarlik qilayotgan ayrim davlatlarning dunyo jamoatchiligini «islom xavfi» bilan qo'rqitish, «islom dini tajovuzkor din» degan tasavvurni

¹ Незаконная торговля наркотиками — угроза стабильности и процветанию // Правда Востока. — 2006. — 23 сент. — №184.

tugʻdirish orqali ular eʼtiborini ijtimoiy muammolardan chalgʻitish borasidagi manfaatlariga xizmat qiladi.

Shu bois, ayrim Gʻarb ommaviy axborot vositalari tomonidan tashviq etilayotgan «islom terrorizmi», «islom ekstremizmi» kabi iboralarning orqasida baʼzi xorijiy davlatlarning siyosiy manfaatlari va maqsadlari yashiringanligini ijro hokimiyatining vakillari boʻlmish ichki ishlar organlari xodimlari chuqur anglamoqlari lozim. Buni anglash xalqimizning azaliy qadriyati boʻlmish diniy qadriyatlarga, diniy eʼtiqodga, fuqarolarimizning konstitutsiyaviy huquqlariga tajovuz etishga olib keluvchi xatti-harakatlardan tiyilishga olib keladi. Shuningdek, «fundamentalizm» tushunchasi mohiyatida ijobiy maʼno ham borligini tushunish, yaʼni islom dinining tub qadriyati hisoblanmish ezgulik va adolat kategoriyalarining ekstremizm va terrorizm kabi yovuzlik kategoriyalariga zid ekanligini anglashga koʻmaklashadi. Eng muhimi – fundamentalizmning siyosiy emas, balki mafkuraviy hodisa ekanligini anglashga olib keladi. Afsuski ommaviy ongda nafaqat fundamentalizm va ekstremizm oʻrtasidagi farqni, balki fundamentalizmning mafkuraviy hodisa ekanligini, ekstremizm esa din niqobidagi siyosiy hodisa ekanligini bilmaslik hukmronlik qilmoqda.

Shubhasiz, har qanday dinda, jumladan, islom dinida ham tajovuzkor, gʻayridiniy, gʻayriinsoniy totalitar mazhab va oqimlar uchraydi. Bir vaqtlar arab dunyosida tajovuzkorligi bilan tanilgan «Musulmon birodarlari», «Al-jamoa al-islomiya» (Misr), Falastin, Iordaniya, Jazoir va boshqa mamlakatlarda katta taʼsir kuchiga ega boʻlgan «Hizbulloh», «Fath», «Xamas» kabi terrorchi tashkilotlar bu fikrning isbotidir. Ularning faoliyati muayyan darajada Isroil davlatining ekspasiyaviylik siyosatiga ham qarshi qaratilgandir. Biroq bundan islom dini tajovuzkor, radikal dindir, degan xulosa chiqarish notoʻgʻridir.

Dindagi muqaddas aqidalarni niqob qilib olgan terrorchilik tashkilotlari va totalitar sektalar boshqa dinlarga eʼtiqod qilinadigan mintaqalarda ham uchraydi. Masalan, chorak asrdan buyon xristian dinidagi katolik va protestant yoʻnalishlari oʻrtasida davom etib kelayotgan terroristik, ekstremistik harakatlarni «Irlandiya Respublika Armiyasi» nomli terrorchi tashkilot fao-

liyatida, Yaponiyadagi sintoizm dini mazhablaridan biri — «Aum Senrikyo» harakatlarida, 1990-yillarda Ukrainada qator jinoyatlar sodir etgan «Oq birodarlik» nomli diniy mazhab faoliyatida, Shri Lankadagi buddizm diniga mansub «Ilay Lamani ozod qilish yo‘lbarlari» kabi terrorchi tashkilotlarining xatti-harakatlarida ham yaqqol kuzatish mumkin.

«Islom fundamentalizmi» islomdagi hozirgi uch oqimdan (traditsionalizm va modernizm bilan birga) biri bo‘lib, o‘zini diniy uyg‘onish tarafdori deb ataydi hamda mustaqil «islom taraqqiyot yo‘li»ni islomning fundamental prinsiplaridan izlashga urinadi. Islom an‘anachilaridan farq qilgan holda islom fundamentalistlari islomdagi fundamental prinsiplarni qayta tiklash va ularga amal qilish tarafdorlaridir.

Demak, diniy fundamentalizm aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo‘jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqiniga tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so‘zma-so‘z talqiniga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo‘yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarning qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladigan istilohdir¹.

«Islom fundamentalizmi» deganda islom dinining siyosiy hayotga aralashuvi va pirovardida siyosiy hokimiyat uchun kurashuvi nazarda tutiladi. Ayrim adabiyotlarda diniy fundamentalizm diniy ekstremizm bilan bir-biriga qo‘shilib ketgan tushunchalar sifatida talqin etiladi².

Bunday talqin muayyan ma’noda to‘g‘ridir, chunki dindagi fundamental asoslarni zo‘rlik bilan hayotga tatbiq etish diniy ekstremizmni; ekstremizm esa diniy terrorismni vujudga keltiradi. Chunki «ekstremizm» so‘zi aslida fransuzcha-lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, keskin fikrlarning bildirilishi va qattiq tadbirlarning qo‘llanilishi yoki keskin fikr va choralarni yoqlovchi,

¹ «Диний экстремизм ва фундаментализм: тарихи, моҳияти ва бугунги хавфи» курсини ўрганиш бўйича методик тавсиялар / Тузувчилар: Ф. Ҳотамов, М. Лафасов, А.Умаров. — Т., 1999. — В. 37.

² O‘sha manba. — В. 51.

keskin choralarga tarafdorlik ma'nolarida qo'llaniladi. Bunday keskin fikrlar sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi mumkin. Shu sababli jamiyat uchun nosog'lom ma'nodagi keskin chora va fikrlarni yoqlovchilarni ekstremistlar yoki ba'zi ma'nolarda jaholatparastlar ham deb atashadi.

O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka, mamlakatning demokratik taraqqiyotiga xavf-xatar tug'dirayotgan, islom dinining muqaddas qadriyatlari niqobi ostida harakat qilayotgan diniy-terroristik oqimlar, guruh va tashkilotlar to'g'risida quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Chunki, O'zbekistonga diniy ekstremizm va terrorizmning suqilib kirishi, aholining g'oyaviy jihatdan bo'sh yoki ijtimoiy tang tabaqalaridan foydalanishga urinishi, mamlakatni dunyoviy taraqqiyot yo'lidan ozdirib, diniy davlatchilik (teokratiya) o'zaniga olib kirishga harakat qilish kabi hodisalar o'zining siyosiy tahlilini talab qiladi.

Islom qadriyatlarini himoya qilish va qayta tiklash niqobi ostida diniy terroristik aktlar sodir etgan va hamon dunyoning ko'pgina nuqtalarida yashirin faoliyat yuritayotgan jinoiy guruhlardan biri **vahhobiylik** harakatidir. Bu harakat va ta'limot XIV asrda yashagan Ibn Taymiya (1263–1328)ning o'tmishdagi xalifalik davlatini ideallashtiruvchi, qurolli jihodni maqsadga erishishning asosiy vositasi deb biluvchi g'oyalaridan oziqlangan edi.

Vahhobiylar islomni Muhammad (s.a.v.) davridagi asl holiga keltirishga, arablarni chinakam islom bayrog'i ostida birlashtirishga harakat qilganlar. Harakatning asoschisi Muhammad ibn Abdul Vahhob ibn Sulaymon bo'lib, 1703-yilda Arabistondagi Nadj viloyatining Ayyana shahrida tug'ilgan. Vahhobiylik muqaddas joylarni ziyorat qilishni, avliyo va mozorlarga sig'inishni, zohidlikni qoralaydi.

XVIII asrning o'rtalarida Markaziy Arabistonda yuzaga kelgan vahhobiylik oqimi islom dinini «asl holatiga qaytarish» da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik va begunoh insonlarning qonini to'kish kabi terrorchilik ishlari tufayli tarixning qora sahifalaridan o'rin oldi. Jumladan, bu oqim vakillari marhumlarni xotirlash, ularning ruhiga Qur'on tilovatini qilib, qabrlarini ziyorat etishni kechirilmas gunoh hisoblaydilar. Ular har qanday yangilikni

islomga zid deb bilib, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni qat'iy qoralab, musiqa, teatr va tasviriy san'at bilan shug'ullanishni rad etadilar. Bir so'z bilan aytganda, o'zlari yashab turgan jamiyatni Muhammad (s.a.v.) davrlaridagi sodda hayot tarziga qaytarishga intiladilar. Bunga qarshi chiqqanlarni esa islom dushmanlari deb atab, ularga nisbatan siyosiy va qurolli kurash olib boradilar.

Diniy terroristik tashkilotlardan yana biri «**Hizb-ut-tahrir**» (Ozodlik partiyasi)dir. Bu tashkilot mohiyatan g'oyaviy-siyosiy tashkilotdir. XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida islom dunyosida paydo bo'lgan «Ixvonul muslimiyn», «Al-Jihad al-Islomiy», «Al-Qoida», «Al-muhojirun» va «Tablig'» kabi «Hizb-ut-tahrir» ham faol diniy-ekstremistik faoliyat olib bormoqda.

To'liq nomi «Hizb-ut-tahrir al-Islomiy» bo'lgan bu norasmiy diniy-siyosiy partiya 1952-yilda Quddus shahrida falastinlik huquqshunos Taqiyuddin Nabaxoniy (1909–1979) tomonidan tashkil etilgan. Aslida bu partiya XX asrning 20–30-yillarida Misr Arab Respublikasida paydo bo'lgan «Musulmon birodarlari» yoki «Al-Ixvon al musamin» diniy-siyosiy tashkilotining alohida yo'nalishi hisoblanadi. «Hizb-ut-tahrir» rahbarlari asosan G'arbiy Yevropada yashashadi va o'sha yerdan turib Misr, Tunis, Quvayt, Iordaniya, Pokiston, Afg'oniston kabi davlatlardagi filiallarini boshqarib turishadi. Asosiy maqsadlari esa musulmonlar yashovchi mavjud yigirma ikkita arab, jami 55 ta musulmon mamlakatlarini birlashtirib, yagona islom davlati – xalifalikni yaratishdir. Partiyaning nazariy asoslari uning tomonidan yaratilgan «Nizom ul-Islom» («Islom tizimi»), «Davlat ul-Nizom» («Islom davlati»), «Xalifalik» kabi asarlarda ifoda etilgan. 1989-yildan boshlab hizbchilar muntazam nashr etilayotgan «Ong» yoki «Al-Va'y» jurnalidan foydalanishmoqda¹. Xalqaro terrorchi Usoma bin Lodin tashkilotning asosiy moliyaviy homiysidir.

«Hizb-ut-tahrir»ning siyosiy strategiyasi mafkuraviy ta'sir vositasida aholining ko'pchiligini qamrab olish, agar bunga imkon

¹ *Izoh:* «OHF» jurnalining 100 dan ortiq soni O'zbekistonda ham tarqatilgani ayrim hizbchilar ustidan olib borilgan tergov jarayonida aniqlandi.

bo'lsa noqonuniy yo'l bilan davlat to'ntarishini amalga oshirish va konstitutsiyaviy hokimiyatni ag'darib tashlashni ko'zda tutadi. Dastlab xayr-ehson va ma'rifatchilik ko'rinishida o'z faoliyatini shakllantirishga harakat qilib, tarafdorlar orttirgach, o'z maqsadlariga erishish uchun terror usulini qo'llovchi hizbchilar «Xudo bizning ideal, Payg'ambar bizning dohiy, Qur'on bizning konstitutsiya, jihad bizning vosita, din va Xudo yo'lida qurbon bo'lish bizning ezgu niyatimiz» kabi soxta iboralarni shior qilib olishgan.

Bugun jahonning qaysi qit'asida joylashganligidan qat'i nazar, har bir davlat o'z yurtida demokratik tamoyillarni shakllantirishga intilmoqda. Biroq «Hizb-ut-tahrir» butun dunyo tan olgan bu tamoyillarni «kufir nizomi» deya qayta-qayta ta'kidlamoqda. U demokratiyani samoviy dinlarga hech qanday aloqasi yo'q, balki insonlar o'ylab topgan nizom, deb biladi. Yevropa davlatlarini demokratiyaga asos solganlikda ayblab, ularni o'ylab chiqqan qonun va hukmlari uchun «kofir G'arb davlatlari», deya haqorat qiladi.

O'zbekiston tanlagan dunyoviy, demokratik taraqqiyot yo'li, mamlakatdagi huquqiy tartib ham tabiiyki, hizbchi va boshqa diniy aqidaparast kuchlarga yoqmaydi. Ular bugungi o'tish davriga xos bo'lgan turli qiyinchiliklardan ustamonlik bilan foydalanib, hokimiyatni terror orqali egallashga intiladilar. Biroq O'zbekistonda o'rnatilgan huquqiy tartib, terrorizmning har qanday ko'rinishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar bunga yo'l qo'ymaydi.

Jumladan, diniy-ekstremistik kuchlarning¹ faollashuvi, millatlararo va dinlararo hamjihatlikni buzishga harakat qilishlari 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni qayta ko'rib chiqishni, uni konkretlashtirishni taqozo etdi. Natijada, yangi tahrirdagi bu Qonun 1998-yilning 1-mayida Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi. Ushbu Qonun normalari xususiyatidan kelib chiqib, Oliy

¹ *Izoh:* 1990-yillarning birinchi yarmida noqonuniy faoliyat yuritib, fosh etilgan va butunlay tugatilgan «Adolat», «Islom lashkarlari», «Tavba» kabi vahhobiylik guruhlarini nazarda tutilmoqda.

Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning bir necha moddalariga o'zgartishlar kiritildi va qator yangi moddalar qo'shildi. JKning 145-moddasi II va III qismlari (vijdon erkinligini buzish), 216-moddasi (faoliyati taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar tuzish) yangi tahrirda berilib, 246-moddasiga ham tegishli (kontrabanda) qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, quyidagi yangi normalar: 216¹ (g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash), 229¹ (diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish), 244¹ (jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash va tarqatish), 244² (diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik va boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish) Jinoyat kodeksiga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 155-moddasida esa terrorizm portlatishlar, o't qo'yishlar yoki odamlarning halok bo'lishi, katta mulkiy zarar keltirish yoxud ijtimoiy xavfli oqibatlar-ga olib kelish xavfini tug'diruvchi boshqa harakatlar sodir etishdan iborat bo'lgan va jamoatchilik xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat sifatida qayd etildi.

Qonunchiligimizga kiritilgan yuqoridagi o'zgartish va qo'shimchalar sabablarini tushunmoq uchun, avvalo, mustaqil-likning dastlabki yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat-ni bilish lozim. Darhaqiqat, 1991-yilda sobiq Ittifoq hududida tashkil topgan mustaqil davlatlarda milliy o'zlikni anglash tuy-g'usi, yo'qotilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarni tiklashda be-vosita dindan foydalanishga intilish kuchaygan edi. O'sha payt-da boshqa davlatlarda bo'lgani singari O'zbekistonda ham hoki-miyatning to'la qudratga ega bo'lmaganligi, iqtisodiy va ijtimoi-y qiyinchiliklar, ko'p kishilarning demokratiyani to'la anglab yetmaganligi bois turli diniy-ekstremistik guruhlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Biroq tezda 1989–1992-yillarda Namangan viloyatida di-niy-terroristik harakatlar sodir etgan «Adolat», «Islom lashkar-lari», «Tavba» kabi vahhobiylik guruhlari fosh etildi va ularning antikonstitutsion faoliyatiga chek qo'yildi. Shundan keyin O'zbekistonda jinoyatning bu turi keskin pasaygan bo'lsa-da,

endilikda o'zlarini «**Turkiston islomiy harakati**» deb nomlagan jinoiy guruh o'z jinoiy maqsadlarini o'ta maxfiylashtirilgan tarzda amalga oshirishga kirishdi. Diniy-ekstremistik va terroristik guruhlar tomonidan 1999-yil 16-fevral kuni Toshkentda, 1999–2000-yillarda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida, 2004-yilning 29--30-martida Buxoro viloyatining Romitan tumani va Toshkent shahrida, 2005-yilning 13-mayida Andijon shahrida amalga oshirilgan teraktlar mamlakatimiz uchun jiddiy xavf-xatarga aylandi.

Xususan, Andijondagi terrorchilik harakatlari tashqi buzg'unchi kuchlar tomonidan O'zbekistonning mustaqil siyosatiga, uning milliy manfaatlariga qarshi puxta rejalashtirilgan va tashkil etilgan xuruj bo'lib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirish va bu kuchlarning geosiyosiy manfaatlariga to'liq javob beradigan islom davlatini tuzishga qaratilganligini yana bir bor isbotladi. 2004-yil avgust oyidan boshlab bu buzg'unchi kuchlar «Turkiston islomiy harakati», «Hizb-ut-tahrir» va uning oqimlaridan biri bo'lgan — «Akromiyalar» xalqaro-terrorchilik va diniy-ekstremistik tashkilotlarini jalb qilgan holda, 2005-yil may oyida hokimiyatni egallash va konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish maqsadida, O'zbekistonda terrorchilik harakatlari so'dir etishni rejalashtirgan.

Ushbu jinoiy guruhlar Farg'ona vodiysi (O'zbekiston Respublikasining Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari, Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati, Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod viloyatlari)ni o'z ichiga olgan alohida chegaralangan hududda islom davlati qurish rejasini amalga oshirmoqchi bo'lishgan. Shu munosabat bilan «Turkiston islom harakati» xalqaro terroristik tashkilotining rahbari Tohir Yo'ldoshev o'z vakillari orqali Rossiya Federatsiyasining Ivanovo shahrida faoliyat yuritayotgan jinoiy uyushma a'zosi K. Qosimxo'jayevga qurol-yarog' sotib olish uchun 200 ming AQSH dollari bergan. O'z navbatida K. Qosimxo'jayev ushbu valyuta mablag'larini bojxona nazoratini chetlab, aylanma yo'llar bilan O'zbekistonga olib kirib, jinoiy uyushma a'zosi J. Usmonovga topshirgan.

Ular tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari

oqibatida jami 187 kishi halok bo'lgan, ulardan 60 nafari tinch aholi bo'lib, ikkitasi voyaga yetmagan bola va bittasi ayoldir. Terrorchilar tomonidan 31 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimi va harbiy xizmatchi o'ldirilgan... Terrorchilarga qarshi ko'rilgan tadbirlar davomida 94 terrorchi yo'q qilingan. Terrorchilik harakatlari davomida jinoyatchilar 70 kishini garovga olib, ulardan 15 nafarini vahshiyona o'ldirgan¹.

O'zbekiston hukumati va huquqni muhofaza qilish organlari tegishli choralarni ko'rib, mamlakatimizda va mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lida jinoyatchilar, ularning xorijdagi rahnamolari va homiylarining yovuz rejalarini barbod qildi².

«Hizb-ut-tahrir»ning yurtimizdagi birinchi amiri, 1960-yilda Andijon viloyatida tug'ilgan Abdurashid Qosimovdan hizb ta'limini olgan Akrom Yo'ldoshev 1996-yilning o'rtalariga kelib, ellikka yaqin faol a'zosi bilan aniq maqsad va vazifalari belgilangan «Akromiylar» jamoasini shakllantirdi. U 12 darsdan iborat «Iymonga yo'l» nomli kitobida «Hizb-ut-tahrir» kabi hozirgi insoniyat jamiyatlarining barchasini «qiyinchilik va iztirobga tushgan», deya baholaydi hamda T. Nabhoniy kabi kishilar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish, ya'ni «fikrlarni o'zgartirish» orqaligina muammoning yechimi topiladi, deb biladi. Boshqacha aytganda, hujumlar fikrlarga qaratilmog'i lozim, natijada, bu hujum fikriy kurashga, fikriy kurash o'z navbatida fikriy inqilobga olib boradi. Fikriy inqilobning orqasidan esa hukm, nizom va boshqa aloqalarni o'zgartirib yuboradigan siyosiy inqilob keladi, deb hisoblaydi.

Agar terrorchilar ilgarilari muayyan maqsadlarga erishish yo'lida odamlarni garovga olish, aholi o'rtasida vahima uyg'otish, u yoki bu davlat obyektlarini portlatish, davlat arboblari suiqasd qilish kabi usullardan foydalangan bo'lsalar, bugungi kunda o'z g'arazli maqsadlari yo'lida katta moliyaviy manbalarga

¹ Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси матбуот хизматининг Андижон воқеалари бўйича тергов ишларининг бориши тўғрисида Олий Мажлис комиссиясига ҳисоботи // Postda. — 2005. — 8 sent. — №36.

² Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Т., 2005. — В. 433.

tayangan holda to'g'ridan-to'g'ri inson resurslaridan foydalana boshladilar.

Terrorizmning bu ko'rinishi — «shahidlik» yoki «qurbonlik» **terrorizmi** bo'lib, jinoyatning ushbu turini malakali kvalifikatsiyalash huquq-tartibot idoralari xodimidan nafaqat huquqiy, balki siyosiy bilimdonlikni ham talab qiladi. Shubhasiz, terrorning bu ko'rinishi ham davlatning u yoki bu siyosatiga qarshi qaratilgandir. Lekin shunga qaramay «shahidlik» terrorizmini siyosiy kurash shakllaridan biri, deb baholash mumkin emas. Bu diniy va dunyoviy nuqtayi nazardan isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Birinchidan, siyosiy kurash — tinch, munozara asosida olib boriladigan kurashdir. Siyosiy kurashda jismoniy qurbonlar bo'lmaydi. Shuning uchun muayyan siyosiy maqsadlarda (milliy mustaqillik, ozodlik va h.k.) terror vositalaridan foydalanish xalqaro gumanitar huquq normalariga tamomila ziddir. BMT Nizomining 51-moddasiga binoan muayyan maqsadlarga zo'rvonlik, terror vositasida erishishga urinish — jinoyatchilikning alohida ko'rinishi, deb baholanadi.

Ikkinchidan, «jihod» tushunchasi islom dinini kuch ishlatish va qon to'kish orqali targ'ib etish emas, balki Vatanni dushmanandan ozod etish yoki ilm istagida talabalik qiyinchiliklarini bo'yniga olish kabilarni o'z ichiga oladi. Biroq ekstremistlar bu haqda imkon qadar sukut saqlashni afzal biladilar. Aslida hech qanday dunyoviy qiyinchiliklar barcha dinlar tomonidan gunohi azim hisoblanadigan va dindan chiqish deb e'tirof etiladigan o'zini o'zi o'ldirishni oqlay olmaydi. Ekstremistlar esa bu kabi shaxslarni «Islom va xalifa davlati barpo etish yo'lida qurbon bo'lish shahidlar darajasiga ko'taradi», deb aldab, ulardan o'z yovuz maqsadlarida foydalanishga urinadilar.

Ta'kidlash zarurki, «shahid»lar berishdek jirkanch usul Falastin jangari terroristik tashkilotining Isroilga, Checheniston-dagi jangarilarning Rossiyaga qarshi ayirmachilik harakatlarida tobora ko'proq kuzatilmoqda. Turli xalqaro terroristik tashkilotlar va fondlar tomonidan uzluksiz ravishda «shahid»lar oilasiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilmoqda.

Masalan, Falastinda «shahidlik» xaridorgir tovar bo'lib, o'zini

o'zi o'ldirish orqali terroristik akt uyushtirishga rozi bo'lgan shaxslar katta pul (taxminan 20 ming AQSH dollari) olish bilan birga o'z oilalarining moliyaviy ta'minlab qo'yilishiga kafolat oladilar¹.

Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, «shahid» yoki «qurbon» bo'lish — faqat bir vositadir. Shahidlikning ortida muayyan kuchli mafkura va e'tiqod yotadi. Bunday mafkura va e'tiqod bir kunda shakllanmaydi. «Shahid» qachonki, ijtimoiy-siyosiy va shaxsiy individual hayotda adolatsizliklarga uchrasa, unda ijtimoiy mavqe uchun hech qanday umid qolmasa, kelajagini tasavvur eta olmasa, o'zini jismoniy qurbon qilishga (o'z joniga qasd qilishga) ruhan tayyor bo'ladi².

G'arazli siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi kuchlar qo'lidagi «vosita»ga aylangan bunday kishi irodasi zaif, ongiga singdirilgan vazifani so'zsiz bajaradigan zombiga aylanadi. Bu hodisaning siyosiy jihati shundaki, jismoniy qurbonlik faqat vosita bo'lib, «qurbonlik» ijtimoiy hayotni larzaga solish, ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarish, mazkur hodisaga hokimiyatning e'tibori-ni qaratish uchun sodir etiladi.

Diniy terrorizm bu yo'lda jamiyatning ijtimoiy mavqeyi, tabiiy biologik jihatlari nuqtayi nazaridan zaif tabaqalari, xususan, ayollar va bolalardan keng foydalanmoqda. Sharq ayollarining milliy libosi, tekshiruv vaqtida ko'pincha to'xtatilmaligi portlovchi moslamani yashirish imkonini beradi.

Terrorizmning har qanday ko'rinishlarini oldini olish vazifasi qator huquqiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Jumladan:

1. Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy norozilikni keltirib chiqarmasligi, ya'ni adolatsizliklarga olib kelmasligi lozim. Aks holda ekstremist kuchlar rasmiy siyosiy tartibni qo'porib tashlashda jamiyatning ezilgan qatlamlaridan ijtimoiy baza sifatida foydalanishga urinadilar.

2. Inson resurslaridan oqilona foydalanish, bozor munosabat-

¹ *Муҳаммад Салома*. Мусулмонларга қарши кураш жиҳодми? Бу курашда қурбон бўлиш шаҳидликми? // *Xalq so'zi*. — 2004. — 17-avg. — №79–80.

² *Қодиров А., Исмоилов М.* «Қурбонлик» ёки «шаҳидлик» кўринишидаги терроризм // *Нуқуқ—Право—Law*. — 2004. — №2. — В. 18.

larini rivojlantirish, chet el investitsiyalari hajmini oshirish hisobiga qo'shimcha ish joylarini yaratish (ishsizlik muammosini yechish), iqtisodiy sohani erkinlashtirish mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

3. Ijro hokimiyatini isloh qilish, uning har bir bo'g'ini va darajasida ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish.

4. Aksilterror davlat konsepsiyasini ishlab chiqish va unda mintaqaviy milliy va diniy tahdid omillarini hisobga olish.

5. Xalqaro terrorizmga qarshi ikkiyoqlama va ko'ptomonlama davlatlararo shartnomalar yaratish va o'zaro hamkorlikni kuchaytirish.

Shu o'rinda ichki ishlar idoralari xodimlari ham hushyorlikni oshirishlari, bunday noxush hodisalarning oldini olish choralari ko'rishlari zarur. Albatta, bunda xizmat vazifalarini adalat bilan bir qatorda o'zlarining siyosiy ongini, dunyoqarashini muntazam oshirib borishlari talab etiladi.

Xulosa shuki, bugungi kunda biz nafaqat terrorizm, balki axborot terrori bilan ham kurashga tayyor turishimiz, fuqarolarimiz dunyoqarashida turli xil buzg'unchi g'oyalarga nisbatan sobitlik bilan qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasidagi chora-tadbirlarni kuchaytirmog'imiz, jaholatga ma'rifat orqali barham bermog'imiz lozim. Buning uchun o'qish, o'rganish va zamon bilan hamnafas bo'lish bilan birga teran tafakkur, zukko bilim va aqlga ega bo'lib, chuqur mulohaza va mushohada yurita olishimiz zarur. Shundagina oldimizga qo'yilgan vazifani talab darajasida uddalay olamiz. Terrorizmning har qanday ko'rinishiga yuzaki qarash, mensimaslik, mahkamachilik ruhiyati jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqoridagi siyosiy-huquqiy tahlil har qanday g'ayriinsoniy, jinoiy xatti-harakat davlat va jamiyat birlashgandagina jilovlanishi mumkinligidan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik qaror topishidan dalolat beradi.

Tayanch tushunchalar

Terror, qadimgi terrorizm, klassik (mumtoz) terrorizm, an'anaviy terrorizm, zamonaviy terrorizm, assasin, sekta, yadroviy terrorizm, xaydjeking, skaydjeking, kiberterrorizm, bioterrorizm, kimyo-

viy terrorizm, ekoterrorizm, infoterrorizm, davlat terrorizmi, diniy terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, traditsionalizm, modernizm, vahhobiylik, «Hizb-ut-tahrir», «Turkiston islom harakati», «Akromiylik», «shahidlik» terrorizmi, «jihod», BMT va SHHTning terrorizmga qarshi konvensiyalari, SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi, separatizm, narkokartel, mafkuraviy immunitet.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Terrorizm ildizlari tarixning qaysi davrlariga borib taqaladi?
2. Qadimgi va klassik terrorizmning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat edi?
3. Ma'lumki, an'anaviy terrorizm davrida terrorizm o'z mafkurasini yaratdi. Natijada, terrorizmning so'l va o'ng, ijtimoiy va siyosiy, dunyoqarash, inqilobiy ko'rinishlari paydo bo'ldi. Ularning mafkuraviy da'volari mohiyatan g'ayriinsoniy ekanligini izohlang.
4. Zamonaviy terrorizmning asosiy turlarini, ko'rinishlarini va xususiyatlarini tushuntiring.
5. «Davlat terrorizmi» tushunchasining mohiyatini izohlang.
6. Terrorchilik aktlarining sabablarini qanday omillar bilan bog'lash mumkin?
7. Terrorizmni bartaraf etish borasida xalqaro tashkilotlar tomonidan qanday konvensiyalar qabul qilingan?
8. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?
9. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunlari terrorizm xavfini bartaraf etishda qanday amaliy ahamiyat kasb etadi?
10. Terrorchi tashkilotlar va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi bilan shug'ullanuvchi narkokartellar o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
11. «Diniy fundamentalizm», «diniy ekstremizm», «diniy terrorizm» tushunchalarining mazmunini izohlang.
12. Islom dinini niqob qilib olgan qaysi terrorchi tashkilotlarni va harakatlarni bilasiz?

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикасининг «Терроризмга қарши кураш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 2001. — №1–2.

«Миллий гоё тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори // Ўзбекистон овози. — 2006. — 26 авг.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. — Т., 1998. — Б. 31–261.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. — Т., 2002. — Б. 22–47.

Каримов И. А. Биз танлаган йўл — демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. — Т., 2003. — Б. 44–89.

Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. — Т., 2004. — Б. 23–77.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмади. Т. 13. — Т., 2005. — Б. 433.

Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари — олий қадрият. Т. 14. — Т., 2006. — Б. 248–254.

Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т., 2008. — Б. 176.

«Диний экстремизм ва фундаментализм: тарихи, моҳияти ва бугунги хавфи» махсус курсини ўрганиш бўйича методик тавсиялар/ Тузувчилар: Ф. Ҳотамов, М. Лафасов, А.Умаров. — Т., 1999. — Б. 3–34.

Алимасов В. Очиқ жамият муҳолифлари // Тафаккур. — 2003. — №4.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Асосий омиллар. — 2001. — Б. 3–77.

Диний-экстремистик ташкилотларнинг Ўзбекистондаги фаолияти ва мақсадлари тўғрисида. — Т., 2004. — Б. 3–30.

Ислом ва дунёвий-маърифий давлат / З. И. Мунавваров ва В. Шнайдер-Детерснинг умумий таҳрири остида. — Т., 2003. — Б. 7–14.

Ислом Каримов терроризм хавфи тўғрисида / Тузувчи-

муаллифлар: Ш. Р. Қобилов, Б.У. Таджиханов. – Т., 2001. – Б. 11–14.

Қодиров А. Ҳуқуқий давлатнинг шаклланишига хавф солаётган ҳодисалар // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2005. – №1.

Қодиров А., Исмоилов М. «Қурбонлик» ёки шаҳидлик кўринишидаги терроризм // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – №2.

Раббимов К. Ислом глобализм ва ахборот технологиялари шароитида // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2005. – №1.

Рахимов Ф. Д. Современные конструкции определения терроризма: международно-правовые аспекты. – Т., – 2004. – С. 11–33.

Саидкасимов С. Ислам не приемлет насилие // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – №4.

Саидкасимов С. Ислам отвергает террор // Ҳуқуқ–Право–Law. 2005. № 2.

Терроризм ҳақида нималарни билишимиз шарт? Ўқув қўлланма /А. М. Шарапов, Т. Ж. Тўлагановнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2004. – Б.3–23.

Террорчилик ташкилотлари. Улар ҳақида қисқача маълумот // Постда. – 2004. – 15 апр. – №16.

Файзиев С., Тошқулов Ж. Терроризмнинг молиявий манбалари хусусида // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2007. – №4. – Б. 37–41.

Хасанов У. Региональные конфликты и проблема безопасности (Центральноазиатский регион) // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – №4.

Ходжаев А. Шанхайская Организация Сотрудничества и Узбекистан: перспективы развития отношений // Ҳуқуқ–Право–Law. – 2004. – №4.

Экстремизм, терроризм, гуруҳий ва уюшган жиноятчиликка қарши кураш муаммолари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т. 1998. – Б. 3–56.

UMUMINSONIY MADANIYAT TIZIMIDA SIYOSIY MADANIYAT

1. «Siyosiy madaniyat» tushunchasi, uning tuzilishi va turlari

XX asrning oxiri XXI asr boshlarida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlarda siyosiy madaniyat fenomenini o'rganish jadallashdi. Jumladan, demokratik jamiyat barpo etish jarayonida O'zbekiston Respublikasida ham siyosiy madaniyatga bo'lgan qiziqish keskin ortdi. Bu bejiz emas, chunki hokimiyat munosabatlarida, siyosiy tizim va jamiyat o'rtasidagi aloqalarda yuzaga kelgan vaziyatni ko'pincha «siyosiy madaniyat» iborasi orqali tushuntirish mumkin.

Siyosiy madaniyatni o'rganishning muhimligi umuminsoniy qadriyatlarni e'tiborga olmasdan biron-bir jiddiy masalani ko'rib chiqib bo'lmasligi bilan izohlanadi.

Siyosiy madaniyat an'ana, milliy meros, geografik-siyosiy omil, tarixan vujudga kelgan ijtimoiy va etnik tuzilish, diniy e'tiqod kabilarni qamrab oluvchi ijtimoiy-tarixiy negizning tarkibiy qismidir. Ularning barchasi hal qiluvchi asoslar bo'lib xizmat qiladi. Insonlar o'z siyosiy tarixini yaratuvchisi ekanligi ma'lum, ammo ular bu tarixni o'zboshimchalik bilan emas, balki o'zlari bevosita yashovchi, o'zlariga meros qolgan sharoitlarda yaratadilar.

«Siyosiy demokratiyani vujudga keltirish ishtiyoqida bo'lgan davlat arboblari ko'pincha asosiy e'tiborni demokratik hukumat institutlarining rasmiy majmuini tuzish va konstitutsiya yozishga qaratadilar. Vaholanki, barqaror va samarali demokratik boshqaruv rivojlanishi uchun hukumat tuzilmalari va siyosiy jarayonning o'zi kifoya qilmaydi. U...siyosiy madaniyatga bog'liqdir. Agar bu madaniyat demokratik tuzumni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lmasa, mazkur tuzumning muvaffaqiyat qozonishi juda mushkul»¹.

¹ Iqtibos manbayi: *Общая и прикладная политология*. – М., 1997. – С. 689. Qarang: *Одилқориев Х.Т., Фойибназаров Ш.Ф. Сиёсий маданият*. – Т., 2004. – В. 7.

Bu haqiqat hozirgi O'zbekiston uchun ham juda dolzarbdir. Mamlakatimizda mavjud siyosiy madaniyat demokratiyaning qad rostlashi va rivojlanishiga qanday hissa qo'shadi? Umuman bu ikki tushuncha bir-biriga qay darajada bog'liq? Siyosiy madaniyat bilan bog'liq muammoning dolzarbligi hozirgi kunda uning saviyasi ancha pastligi bilan izohlanadi. Bu faqat oddiy fuqarolargagina emas, balki hammaga — davlat idoralari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga ham taalluqlidir.

Ko'pchilik jamiyatshunos olimlarning fikricha, davlatning rivojlanishi aynan siyosiy madaniyatning ahvoli bilan bog'liq bo'lib, siyosiy madaniyatning rivojlanganlik darajasiga qarab, jamiyat siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Ya'ni, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy layoqatini ifoda etuvchi, siyosiy institutlarning shakllanishiga, faoliyat ko'rsatishiga, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ldi.

Siyosiy madaniyat — jahon umumiy madaniyatining tarkibiy qismi, siyosiy tajriba, siyosiy bilimlar va his-tuyg'ular darajasi, siyosiy subyektlar xulq-atvori va faoliyati namunalarining bosh ko'rsatkichi, mamlakat, sinf, millat, ijtimoiy guruh siyosiy turmush tarzining umumiy ta'rifidir.

Chunki insoniyat o'z tarixiy-siyosiy taraqqiyoti jarayonida siyosiy tajriba orttirdi. Mazkur tajriba ta'sirida siyosiy ong shakllandi. Odamlarning siyosiy ongi esa, o'z navbatida, ijtimoiy tabaqalar, xalqlarning siyosiy xulq-atvorini belgilaydi. Binobarin, siyosiy madaniyat tarixiy-siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvorning mushtarakligidir.

Siyosiy madaniyat — jamiyat siyosiy tizimining eng muhim elementlaridan biri bo'lib, jamiyatning boshqa kichik tizimlari — iqtisodiy, diniy, huquqiy, tashkiliy, boshqaruv va boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqadordir. U jamiyat, undagi ijtimoiy guruhlar va individlarning siyosiy tajribasini, ularning siyosiy hokimiyat, siyosiy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy hodisalarga baho berish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Qisqa qilib ta'riflaganda siyosiy madaniyat insonning siyosiy institut

va qadriyatlarda qayd etilgan ijodiy faoliyatining tavsifi va in'ikosidir.

«**Madaniyat**» atamasini ilk bor Qadimgi Rim jamoat arbobi Mark Porsiy Katon o'zining «Agrikola» («Dehqonchilik haqida») asarida yerga ishlov berish, o'simliklar yetishtirish, hayvonlarni parvarishlash; «cultor» iborasini esa — yerga ishlov beruvchi, ziroatchi, chorvador, ya'ni qishloq fuqarosi va dehqon ma'nolarida qo'llagan. Vaqt o'tishi bilan bu so'z qadriyatlarni yaxshilash, takomillashtirish, yaratish ma'nosida qo'llana boshlandi. Shu bois, mashhur huquqshunos va notiq Mark Tuly Sitseron (mil. av. 106—43) «madaniyat» tushunchasini ma'rifatlilik, tarbiyalilik, tarbiyachi, ustoz ma'nolarida ham ishlatgan. Umuman olganda madaniyatni insonning tabiatni o'zgartirish borasidagi aqlga muvofiq faoliyati, shuningdek, mazkur faoliyatning moddiy va ma'naviy sohalarda ifodalangan, o'z aksini topgan natijasi deb tushunishimiz mumkin.

Madaniyat va siyosat. Madaniyat va siyosat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki siyosiy madaniyat insoniyatning o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'plagan siyosiy tajribasidir. Siyosiy madaniyat o'z kelib chiqishiga ko'ra siyosiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liq. Ammo bu bog'liqlik siyosatdagi jamiki narsalarni «siyosiy madaniyat» deb atashga imkon bermaydi. Chunki madaniyat doirasidan tashqaridagi siyosat ba'zan zo'rvonlik va o'limga sababchi bo'ladi. Madaniyatning siyosat bilan o'zaro aloqasi, kesishishi va to'qnashishi siyosiy hokimiyatning legitimligi hodisasida kuzatiladi. Legitimlashtirish jarayoni esa bevosita yoki bilvosita siyosiy munosabatlar qadriyatlarga asoslanishini nazarda tutadi. Legitimlikka ega bo'lish jarayonida hokimiyat madaniylashadi, bu esa unga zo'rvonliksiz va samarali tarzda ramziy vositachi vazifasini bajarish imkonini beradi. Shuning uchun ham hokimiyatning legitimligiga qarab jamiyat siyosiy madaniyatining xususiyati va darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Yuqoridagi jihatlariga ko'ra, siyosiy madaniyat jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustahkamlash hamda uni demokratlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda Platon, Aris-

totel, Konfutsiy, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, N. Makiavelli, Sh. L. Monteskyo, A. Tokvil, M. Veber, N. Y. Danilevskiy, N. A. Berdyayev va boshqalar tomonidan ma'lum darajada talqin qilingan.

«Siyosiy madaniyat» atamasi esa ancha keyinroq – XVIII asrda nemis faylasufi va ma'rifatparvari I. Gerder (1744 – 1803) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

XX asrning 50–60-yillarida siyosiy madaniyat hodisasini o'rganishga e'tibor tobora kuchaydi. Chunki bu davrda mustamlakachilik zulmidan qutilgan mamlakatlar AQSH siyosiy institutlaridan andoza olishga intildilar, ammo ularning bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Buning sabablarini aniqlashga uringan amerikalik siyosatshunoslarning siyosiy madaniyat tahliliga bag'ishlangan yirik tadqiqotlari samarasi sifatida 1956-yilda amerikalik nazariyotchi X.Fayerning «Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi», G. Almond va S. Verbaning AQSH, Angliya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tahlil qilishga bag'ishlangan «Fuqarolar madaniyati», 1965-yilda esa L. Pay va S. Verbaning 10 ta mamlakat jamiyati siyosiy madaniyati tahliliga oid «Siyosiy madaniyat va siyosiy taraqqiyot» nomli asarlari nashr qilindi. Mazkur ilmiy ishlarda siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyasi yaratildi. Bu konsepsiyaga tayanib, «siyosiy madaniyat» atamasiga quyidagicha umumiy ta'rif berish mumkin:

Siyosiy madaniyat – siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyati, shuningdek, siyosiy institutlar xarakterining, faoliyat tartibining va jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining sivilizatsiyalashganligi darajasi.

Umumiy nuqtayi nazarga ko'ra, siyosiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining tarkibiy jihatlaridan biri bo'lib, odamlarning o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashda ishtirok etish, hokimiyatga ta'sir ko'rsatish yoki uni egallash uchun boshqa tabaqalar va siyosiy kuchlar bilan tortishishga moyilligi va tayyorligining ifodasi hisoblanadi.

Insonlarning bevosita ma'naviy hayoti, qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'luvchi siyosiy hodisa bo'lgan siyosiy madaniyat bir joyda qotib turmaydi, u

doimo o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Ayni paytda siyosiy madaniyat bo'sh joyda, o'z-o'zidan paydo bo'lib ham qolmaydi. Uning shakllanishida rol o'ynovchi ko'plab omillar mavjud.

Siyosiy madaniyatning tuzilishi. Siyosiy madaniyat o'ziga xos ichki tuzilishga ega bo'lib, siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Siyosiy tajriba:

- a) xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlari;
- b) mentaliteti;
- v) tarixiy xotirasi va an'analari;
- g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi hamda milliy qadriyatlardan kelib chiquvchi siyosiy maqsadlaridir.

Siyosiy ong:

- a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent;
- b) emotsional – psixologik komponentlardan iboratdir.

Siyosiy xulq-atvor:

- a) siyosiy vaziyat, siyosiy jarayondagi xatti-harakat, faoliyat yo'nalishi;
- b) ijtimoiy – siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlarining xususiyatlaridir.

Siyosiy madaniyatning mazkur o'ziga xos tuzilishidan qanday mantiqiy xulosa chiqarish mumkin?

Avvalambor, siyosiy madaniyatning asoslari har bir xalqda uzoq tarixiy davrni o'zida qamrab oluvchi jarayonlar asosida shakllanadi. Bunda har bir xalqda shakllangan madaniy va ma'naviy qadriyatlar, ulardagi o'ziga xos milliy fazilatlar hamda o'ziga xos tafakkur qilish uslubi hal qiluvchi fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, siyosiy madaniyatning shakllanishi faqatgina subyektiv holatning o'zi bilangina bog'liq bo'lmaydi. Siyosiy madaniyatning shakllanishida odamlarning jamiyatdagi siyosiy reallik bilan hamkorlik qilishi va ularning siyosiy jarayonlarga qo'shilishi muhim o'rin tutadi. Masalan, jamiyatning siyosiy tizimi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalari hamkorlik qiladi. Ularning har biri o'z navbatida siyosiy madaniyatni shakllantirishda u yoki bu darajada ishtirok etadi hamda mazkur jarayonlarning yo'nalishini belgilab beradi. Bu o'rinda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV, fan va ta'lim

tizimining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan siyosiy, tarbiyaviy, ma'rifiy, ma'naviy va mafkuraviy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bularning barchasi mamlakatda o'ziga xos siyosiy madaniyat modelining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Siyosiy madaniyat turlari. Barcha ijtimoiy hodisalar singari siyosiy madaniyatni ham turli mezon va asoslarga ko'ra turkumlash mumkin. So'nggi yillarda ilgari surilayotgan turkumlash asosida siyosiy madaniyat quyidagi turlarga ajratiladi:

Siyosat subyektiga ko'ra:

- umuminsoniy siyosiy madaniyat;
- xalq, etnos, sivilizatsiya siyosiy madaniyati;
- milliy, mintaqaviy siyosiy madaniyat, submadaniyat¹;
- ijtimoiy tabaqa (ishchilar, dehqonlar, elita, byurokratiya, ziyolilar, rahbarlar) siyosiy madaniyati;
- jins va yosh bilan bog'liq siyosiy madaniyat, ijtimoiy-demografik, kasbiy, diniy va boshqa guruhlar siyosiy madaniyati.

Siyosiy jarayon sohalariga ko'ra:

- hokimiyat, boshqaruv siyosiy madaniyati;
- siyosiy ishtirok etish madaniyati;
- siyosiy muxolifat siyosiy madaniyati.

Hokimiyatni amalga oshirish shakllariga va usullariga ko'ra:

- demokratik siyosiy madaniyat;
- avtoritar siyosiy madaniyat;
- totalitar siyosiy madaniyat;
- o'tish tipiga xos siyosiy madaniyatlar.

Siyosatda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra:

- fuqaroviy, demokratik siyosiy madaniyat;
- tobelik siyosiy madaniyati;
- qavmlar siyosiy madaniyati.

Siyosiy tizimdagi o'rniga ko'ra:

- yetakchi yoki ergashuvchi siyosiy madaniyat (submadaniyat).

Qamrab olish darajasiga ko'ra:

¹ *Izoh:* Muayyan (siyosiy, kasbiy, etnik, diniy va boshqa) guruhning siyosiy qarashlari va qadriyatlari jamiyatdagi ko'pchilikning siyosiy madaniyatini tashkil etuvchi normalar, qadriyatlar va tasavvurlardan jiddiy farq qilgan hollarda siyosiy submadaniyat shakllanadi.

– ommaviy yoki elitar siyosiy madaniyat¹.

Siyosiy madaniyatning boshqa tipologiyalari ham mavjud. Masalan, ayrim adabiyotlarda² siyosiy madaniyatning «yopiq» va «ochiq» turlari to‘g‘risida ma’lumot beriladi:

Siyosiy madaniyatning «yopiq» turi – siyosiy madaniyatning boshqa turlariga nisbatan murosasizligi, ularni mutlaqo qabul qila olmasligi hamda o‘z tor milliy qobig‘ida qolib ketishligi bilan xarakterlanadi.

Siyosiy madaniyatning «ochiq» turi – siyosiy madaniyatning boshqa turlarini ijobiy qabul qiladi. O‘zida boy an‘analari bo‘lgan holda siyosiy voqelikdagi o‘zgargan yangi realliklarni qabul qila oladi. Doimiy ravishda o‘z-o‘zini boyitib borish xususiyatiga ega, shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy va siyosiy jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi.

Aytish joizki, G‘arb siyosatshunosligida siyosiy madaniyatni fuqarolarning o‘zlari yashaydigan davlatni rivojlantirishning bo‘lg‘usi konsepsiyasini ma’qullashlari yoki ma’qullamasliklari nuqtayi nazaridan turkumlashga ko‘proq e’tibor beriladi. Shu jihatdan siyosiy madaniyatni turkumlashda G. Almond va S. Verbaning «Fuqarolar madaniyati» asarida taklif etilgan usul fanda alohida e’tibor qozondi. Ular siyosiy madaniyatni quyidagi uch «sof» turga ajratadilar:

Siyosiy madaniyatning patriarxal turi – unchalik rivojlanmagan ma’naviy madaniyati va qadriyatlarga ega bo‘lmagan xalqlarga xos bo‘lib, ushbu tur vakillarining siyosiy faollik holati deyarli bo‘lmaydi, ular siyosiy qadriyatlar, siyosiy normalar va institutlarga qiziqmaydilar. Siyosiy madaniyatning bu turi aholining siyosiy tizimdan butkul uzilib qolganligi hamda hech qanday siyosiy bilimga ega emasligi bilan ajralib turadi. Bunday jamiyatlarda ixtisoslashgan siyosiy rollar mavjud bo‘lmaganligi uchun dohiylar, shomonlar va boshqalar asosiy «aktyorlar» sifatida ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham diniy vazifani bajaradilar. Masalan, Afrikaning markazlashgan qabila va knyazliklarida

¹ *Одилқориев Х. Т., Фойибназаров Ш. Ф. Сиёсий маданият. – Т., 2004. – В. 77.*

² *Политология: Маърузалар матни/Тақризчилар: В. С. Ким, Ж. Бахронов. – Т., 2000. – В. 144.*

siyosiy madaniyat, asosan, patriarxal xususiyatga egadir.

Tobelik siyosiy madaniyati – siyosiy institutlarning ahamiyati katta, fuqarolarning faolligi esa past bo‘lgan siyosiy madaniyat. Passiv siyosiy xulq-atvor, hukmron rasmiy qadriyatlar va normalarga tayanish, bu qadriyatlarni mustaqil tushunishga intilishning yo‘qligi bunday madaniyatning asosiy belgilaridandir. Umuman olganda, odamlarda siyosiy tizimga nisbatan o‘ziga xos boqimandalik – paternalistik munosabat ustunlik qiladi. Ya’ni, jamiyat a’zolari siyosiy tizimdan ne’matlar kutadi, yo jazodan qo‘rqadi. Siyosiy madaniyatning bunday turiga siyosiy tizimga kirish yo‘llari aniq ajratilmagan, individlar esa o‘ziga «siyosiy aktyorlar» deb qaramaydigan jamiyatlarda duch kelish mumkin.

Faol siyosiy madaniyat turi – uning xususiyati shundaki, fuqarolar jamiyat siyosiy hayotida faol ravishda shaxsan ishtirok etadilar. Bu ishtirokchilik fuqarolarning siyosiy jihatdan savodxonligi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga o‘z ishtiroki bilan ta’sir ko‘rsata olishiga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi. Bu ishtirokchilik va ishonch orqali jamiyat siyosiy tizimida shaxsan ma’lum bir statusga ega bo‘lishlikni mo‘ljallaydilar. Siyosiy madaniyatning bu turi fuqarolarga siyosiy hayotda ishtirok etishdan, faollik ko‘rsatishdan manfaat ko‘rish imkonini beradi. Bunday jamiyatlar yuksak darajada funksional tabaqalashganligi bilan ajralib turadi: jamiyat hayotining turli sohalari nisbatan erkin, kichik tizimlar (tashkiliy, madaniy-mafkuraviy, me’yoriy, axborot-kommunikatsiya tizimlari) esa ancha rivojlangan va keng tarmoq otgan bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, real hayotda siyosiy madaniyatning faqat birgina turining sof holda namoyon bo‘lishi juda kam uchraydi. Jumladan, rivojlangan demokratik mamlakatlarda ham siyosiy madaniyatning faol turini sof ko‘rinishda uchratish mushkul va ulardagi fuqarolar kamdan-kam hollarda bu modelga amal qilib yashaydilar. Ularni siyosatdan yaxshi xabardor yoki siyosatda faol deb ham aytish qiyin.

Ko‘pincha siyosiy madaniyat aralashgan holda namoyon bo‘ladi. Masalan, «fuqarolik madaniyati» tushunchasi ana shunga mos keladi. Fuqarolik madaniyati siyosiy madaniyatning bosh-

qa turlaridagi ijobiy elementlarni samarali tarzda o'zlashtirib, siyosiy tartibotning konstruktiv ravishda faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi. Shu jihatdan qaraganda, milliy siyosiy madaniyatlar turli madaniyatlarning ijobiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan, ya'ni aralashdir.

Siyosiy madaniyatning darajalari. Hozirgi zamon siyosatshunos olimlari siyosiy madaniyatning quyidagi uch darajasini qayd etadilar:

a) taffakur qilish, anglash darajasi. Ba'zi adabiyotlarda bu daraja «dunyoqarash darajasi» deb ham ataladi¹. Unga jamiyat, guruh va alohida shaxsning siyosat hamda dunyoning siyosiy manzarasi haqidagi tasavvurlari, shuningdek, siyosiy hayot ishtirokchilari amal qiluvchi normalar, qadriyatlar, ramzlar,² ko'rsatmalar kiradi. Bu darajada shaxs siyosat dunyosida o'z o'rnini aniqlab oladi.

b) fuqarolik darajasi — bu darajada siyosiy madaniyatning asosiy o'zagi shakllanadi, shaxs siyosiy hokimiyatga nisbatan o'z munosabatini belgilaydi. Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, unga jamiyat siyosiy tuzilishiga nisbatan, siyosiy hokimiyat imkoniyatlariga va vakolatlariga nisbatan o'z munosabatlarini shakllantiradi.

v) siyosiy daraja — bu darajada insonning siyosat hodisasiga munosabatlari shakllangan qadriyat darajasiga yetadi. Inson o'zini siyosatning subyekti sifatida qabul qila boshlaydi.

Siyosiy madaniyat modellari. Siyosatshunoslikda siyosiy madaniyatning quyidagi uch modeli qayd etiladi:

1. Siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli — unda shaxsning individual jihatlarini sun'iy ravishda buziladi, siyosiy qadriyatlar va siyosiy ong jamiyatda markazlashgan tarzda davlat tomonidan shakllantiriladi va shuning asosida davlat manfaatlarini inson, ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan ustun qo'yiladi.

¹ *Одилқориев Х. Т., Фойибназаров Ш. Ф. Сиёсий маданият. — Т., 2004. — В. 52.*

² *Izoh:* Siyosiy madaniyatning ramziy qismini davlat ramzlari (gerb, madhiya, bayroq); milliy bayramlar va davlat marosimlari (Prezident qasamyodi); me'morchilik majmualari (Vashingtonda — Oq uy, Toshkentda — Oqsaroy) tashkil etadi. Tarixiy shaxslar ham ramz bo'lib xizmat qilishi mumkin (J.Vashington, Amir Temur).

Bundan tashqari, jamiyatni axborot bilan ta'minlash hokimiyat tomonidan belgilanadi va faqat bir yo'nalishda olib boriladi, faol siyosiy hayot bir xil qolipda kechadi, jamiyatning siyosiy madaniyati hech qanday muqobilsiz yuqoridan turib shakllantiriladi, aholi aksariyat qismining siyosiy madaniyati nihoyatda past bo'ladi, siyosiy madaniyat tashqi dunyodan sun'iy ajratilgan bo'lib, u «siyosiy-madaniy makon» sifatida biqirligi bilan ajralib turadi.

2. Siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli – fuqarolar siyosiy huquq va erkinliklarini huquq asosida yuqori darajada ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Bu modelning o'ziga xos xususiyatlari:

– jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari aksilmarkazlashtirilgan holda shakllantiriladi;

– jamiyat keng qamrovli siyosiy axborot tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– siyosiy tizim yetarli darajada yuqori bo'ladi.

Umuman, siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli tashqi siyosiy makonga nisbatan o'z «ochiqdigi» bilan ajralib turadi.

3. Sharqona siyosiy madaniyat modeli va uning asosiy xususiyatlari:

– siyosiy madaniyatda axloq masalasiga yetakchi e'tibor beriladi;

– Sharq xalqlari siyosiy tafakkurida davlat rahbari siyosatidagi adolat va insof masalasi hal qiluvchi, markaziy o'rinni egalaydi;

– siyosiy to's-to'polonlarga nisbatan toqatsizlik, siyosiy muvozanatni saqlash, siyosiy tinchlik va barqarorlikka kuchli moyillik;

– kundalik hayotda siyosiy rahbarga suyanish, undan doimo adolat kutib yashash va unga nisbatan chuqur hurmat-ehtirom ko'rsatish, siyosiy xulq-atvorda kuchli andishalilikni namoyon qilish;

– siyosiy erkinlikni axloq me'yorlari doirasida qabul qilish;

– bag'rikenglik (tolerantlik), xalqaro totuvlik va ishonchga kuchli moyillik¹.

¹ Политология: Маърузалар матни / Тақризчилар: В. С. Ким, Ж. Баҳров. – Т., 2000. – В. 141–144.

Shu o'rinda Prezident I. A. Karimov ta'kidlarini keltirish joiz: «Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliy adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan»¹.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyatni ikki murakkab ijtimoiy tizim — siyosat va madaniyat o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa deb ta'riflashimiz mumkin. U ko'proq jamiyatga xos bo'lgan siyosiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlar, an'analar va siyosiy xulq-atvor ramzlarining majmui bo'lib, siyosiy tizimni barqarorlashtiruvchi, ma'rifiylashtiruvchi omil vazifasini bajaradi hamda siyosiy an'analar, urfodatlar, ijtimoiy-tarixiy tajribaning vorisiyligini ta'minlaydi.

Siyosiy madaniyatning o'ziga xos jihatlari esa quyidagilardan iborat:

— ommaning siyosiy ongini va siyosiy xulq-atvorini belgilaydi;

— jamiyat tarixiy rivojlanishining, jamoaviy siyosiy ijodning mahsuli hisoblanadi;

— mahalliy xususiyatga ega bo'lib, takrorlanuvchi barqaror aloqalarni, siyosiy jarayonning elementlari o'rtasidagi munosabatlarni qayd etadi, siyosiy tajribani mustahkamlaydi.

2. Siyosiy madaniyatning asosiy vazifalari

Jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish orqali har bir insonda o'z huquq va majburiyatlarini har kuni ro'yobga chiqarishga intiluvchi fuqarolik his-tuyg'usini tarbiyalash siyosiy madaniyatning eng asosiy vazifasidir.

Shaxsning fuqarolik his-tuyg'usi uning faol hayotiy pozitsiyasi bilan uzviy bog'liq. Siyosiy madaniyatni o'zlashtirish jarayonida uning ijtimoiy faolligi ham ortib boradi. Biroq insonning ijtimoiy faolligi ijtimoiy muhitning bu faollikni «hazm qilish» darajasiga ham bog'liq. Ijtimoiy faolligi bir xil bo'lgan ikki odamni tasavvur

¹ *Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари.* — Т., 1995. — В. 13.

qilaylik. Ulardan biri tanqid qabul qilinmaydigan, boshqaruvda fuqarolar ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan jamoada, ikkinchisi esa o‘ta qulay sharoitlar yaratilgan jamoada mehnat qiladi. Ularning ijtimoiy faollik mezoni o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra har xil bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, ijtimoiy faollik ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bo‘lib, u amaliy faoliyat jarayonida voqelikka aylanadi. Shu ma’noda ijtimoiy faollikni «faoliyat mezoni»ga tenglashtirish to‘g‘ri emasligi mutaxassislar tomonidan qayd etiladi¹.

Faol pozitsiyada shaxsning muayyan ijtimoiy vaziyatlardagi ijtimoiy faolligi namoyon bo‘ladi. Bunday pozitsiyaga muayyan ijtimoiy harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki e‘tiqodni, jamiyat rivojiga salbiy ta’sir etuvchi hodisalarga nisbatan murosasizlikni, bunday hodisalarga qarshi kurashga tayyorlikni, o‘zi bajarayotgan ish uchun yuksak ijtimoiy mas’uliyatni, jamoa manfaatlarini o‘z shaxsiy manfaatlarini deb bilishni, egalik hissining rivojlanganligini kiritish mumkin.

Shaxsda bunday faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish siyosiy madaniyatning vazifasidir. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat insonni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Vatanparvarlik tuyg‘usi esa nafaqat jang maydonida dushmanga qarshi kurashda, ayni paytda – kundalik tinch hayotda ilm-fan sirlarini sabot bilan egallashda yoki o‘z korxonasida mehnat unumdorligini oshirishda namoyon bo‘ladi.

Siyosiy madaniyatning vazifalari. Amaliy siyosatshunoslik siyosiy madaniyat bajaradigan quyidagi vazifalarni e‘tirof etadi:

Normativ vazifa – individlar, guruhlar va jamoaga muayyan normalar, siyosiy tafakkur va xulq-atvor standartlarini belgilab beradi, siyosiy qadriyatlar ustuvorligining nisbatini o‘rnatadi.

Integrativ (birlashtiruvchilik) vazifasi – ma’naviy sog‘lom va boy jamiyatni, shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu vazifa siyosiy institutlar faoliyati uchun intellektual zamin tayyorlab, ijtimoiy ongning siyosiylashuvi, o‘shishiga yordam beradi, fuqarolarning siyosiy xulq-atvorlari shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

¹ *Одилқориев Х.Т., Ғойибназаров Ш.Ғ. Сиёсий маданият. – Т., 2004. – В. 56.*

Boshqaruvchilik vazifasi — o‘z-o‘zini boshqarish sharoitlarida shaxsiy manfaatlarning yangi bir turini shakllantirishda, unda ijtimoiy maqsad va vazifalar, sotsial rejadagi ehtiyojlar aks etadi.

Regulyativ (yo‘naltiruvchilik) vazifasi — odamlarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlariga va ularning tashkilotlariga bo‘yicha va bilvosita ta‘sir o‘tkazishda o‘zini namoyon qiladi. Bu vazifa odamlarning siyosiy voqea-hodisalarni qanday qabul qilishlariga, siyosiy tizimlarni, uning tarkibiy qismlarini baholashlariga, undagi siyosiy arboblarning faoliyatlariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Tarbiyalovchilik vazifasi — egallangan va yangidan o‘zlashtirilgan siyosiy bilimlarning shaxs intellektual rivojiga ko‘rsatadigan ta‘siri jarayonida maydonga chiqadi.

Kommunikativ (aloqa) vazifasi tufayli esa hukmron ijtimoiy ong va ijtimoiy hayotning siyosiy an‘analari yangi, yosh avlodga uzatiladi.

Yuqoridagilardan tashqari siyosiy madaniyatning quyidagi vazifalari ham mavjud:

1. Aynan moslashtirish (identifikatsiya) vazifasi — siyosiy madaniyat shaxsda jamiyatga, mamlakatga yoki ma‘lum ijtimoiy guruhga mansublik hissini mustahkamlaydi, siyosat institutlari va mexanizmlari orqali shaxs, guruh va jamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarish vosita va usullarini aniqlashga yordam beradi.

2. Yo‘naltirish vazifasi — shaxsning siyosiy hodisalarni ongli idrok etishini ta‘minlaydi, unga siyosat sohasidagi o‘z o‘rni va imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish, o‘z huquq va manfaatlarini muayyan siyosiy tizim doirasida muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishda yordam beradi.

3. Moslashtirish vazifasi — shaxsning o‘zgaruvchi siyosiy vaziyatga, yangi imkoniyatlarga, siyosiy faoliyatdagi u yoki bu cheklashlarga moslashuviga ko‘maklashadi.

4. Ijtimoiylashtirish vazifasi — shaxs jamiyatning siyosiy madaniyatini o‘zlashtirish jarayonida siyosatdagi o‘z manfaatlarini himoya qilish imkonini beruvchi ko‘nikmalar va vositalarga ega bo‘ladi.

5. Siyosiy hayotni barqarorlashtirish vazifasi — aynan siyosiy madaniyat jamiyat a‘zolarida mavjud siyosiy tizim va uning insti-

tutlariga nisbatan xayrixoh munosabat shakllanishiga yordam beradi.

6. Birlashtirish funksiyasi — jamiyatning turli tabaqalari va guruhlarini umumiy g'oyalar, tasavvurlar va qadriyatlar asosida birlashtirish orqali davlat va jamiyatning mushtarakligini mustahkamlashga ko'maklashadi.

7. Aloqalarni ta'minlash vazifasi — hokimiyat institutlari va boshqa siyosat subyektlari (siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlar, ijtimoiy tabaqa va guruhlar) umumiy qadriyatlar va siyosatdagi o'yin qoidalari asosida, shuningdek, umumiy tushunchalar va ramzlardan foydalanish hisobiga o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

8. Jamiyatning siyosiy tizimi va siyosiy hayotini yangilash vazifasi — siyosiy madaniyat doirasida shakllangan va qaror topgan jamiyatning siyosiy tuzilishini o'zgartirish haqidagi yangi g'oyalar yangi siyosiy institutlar, jarayonlar va mexanizmlarning yaratilishiga olib keladi.

9. Siyosiy tuzilishda va siyosiy hayotda vorisiylikni ta'minlash vazifasi — siyosiy madaniyat bunga yangi g'oyalarni avvalgi siyosiy tajriba bilan bog'lash orqali erishadi¹.

Siyosiy madaniyatning asosiy vazifalari ana shulardan iborat bo'lib, jamiyatda bu vazifalarning hammasini birvarakayiga o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan boshqa biron-bir hodisa mavjud emas. Bu vazifalarning tahlili siyosiy madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qilishini ko'rsatadi, zotan har bir ijtimoiy hodisa siyosiy yondashuvga muhtojdir. Shuning uchun ham siyosiy madaniyatni ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasi bilan cheklash mumkin emas. U, kasbi va mansabidan qat'i nazar, har bir odamga zarur. Siyosiy madaniyat mamlakatimiz fuqarosi ijtimoiy va ma'naviy qiyofasining muhim ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida siyosiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari va uni yuksaltirish muammolari. Adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov ta'kidlaganidek, «Qadimgi Gretsiya Yevropada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'rin

¹ *Одилқориев Х.Т., Фойибназаров Ш.Ф. Сиёсий маданият. — Т., 2004. — В. 58.*

tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rin egallagan»¹.

Biroq XVI–XVII asrlardan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqiroz tufayli Markaziy Osiyo mintaqasida fuqarolarning hokimiyatdan ajratib qo'yilgani, o'zini-o'zi idora qilish mexanizmlarining past darajadali bilan bog'liq holda siyosiy madaniyatning o'ziga xosligi shakllangan.

Shu bilan birga XX asrda totalitar rejim tomonidan butun ichki qatlamlar (savdogar, boy, o'ziga to'q dehqonlar, ziyolilar) va xalqning qatag'on qilinishi, iqtisodiyotda bozor munosabatlaridan voz kechish, kommunistik mafkurani majburan kiritish siyosiy madaniyatga o'zining kuchli salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Totalitar rejimning bunday siyosati sobiq Ittifoq respublikalarining dunyo hamjamiyati bilan madaniy aloqalariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Umuman bunday siyosat sobiq Ittifoqning boshqa hududlarida bo'lgani singari O'zbekistonda ham madaniyatning bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Buning ustiga tarixan jamoaviy qadriyatlar ustuvor bo'lgan mintaqamizda guruh adolatining individ erkidan ustuvorligi tamoyili birinchi o'ringa chiqdiki, bu hol hokimiyatni personifikatsiyalashgan holatda idrok qilishni, shuningdek, xarizmatik yetakchiga moyillikning kuchayishini keltirib chiqardi. To'g'ri, Markaziy Osiyo xalqlarining inson va davlat o'rtasidagi munosabatlariga oid o'ziga xos tasavvurlarida kundalik hayotda siyosiy rahbarga suyanish, undan doimo adolat kutib yashash va unga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom ko'rsatish, siyosiy xulq-atvorga kuchli andishalikni namoyon qilish an'anaviy xususiyatga egadir. Biroq XXI asr siyosiy sahnasidagi ziddiyatli o'zgarishlar va mavjud realliklar siyosiy madaniyat fenomeniga chuqur e'tibor bilan qarashni taqozo etmoqda. Chunki, aholisi ongiga demokratik an'analar singib ketgan, hokimiyat ustidan nazorat yurituvchi samarali institutlar mavjud bo'lgan davlatlarda ayrim fuqarolarning siyosatga befarqligi aytarli muammolar tug'dirmasa-da, yaqindagina mustabidlik tartiblarini kechirgan

¹ Жаҳонгашта ёзувчи, таниқли арбоб // Postda. — 2004. — 8 dek. — №50.

mamlakatda fuqarolarning siyosatdan ommaviy uzoqlashishi og‘ir ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun demokratik siyosiy ta‘limni kuchaytirish lozim, zero demokratik tuzum aholining tegishli siyosiy madaniyatisiz o‘rnatilishi va samarali bo‘lishi mumkin emas. Demokratik siyosiy ta‘lim qanchalik samarali bo‘lsa, fuqaro o‘zi yashayotgan ijtimoiy tuzumni shunchalik to‘g‘ri baholab, davlatdagi o‘z o‘rni va rolini, huquq va majburiyatlarini chuqurroq anglaydi. Yuksak siyosiy madaniyatgina insonni hozirgi murakkab dunyoda oqilona yo‘l topa bilishga, boshqalarning manfaatlarini yuzaga chiqarish va himoya qilishga, umumiy muammolarni jamoa bilan hal qilishga imkon beradi.

O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi davomida o‘ziga xos siyosiy madaniyat shakllangan. Bu quyidagi omillar ta‘sirida sodir bo‘lgan:

1) respublikaning o‘ziga xos jug‘rofiy-siyosiy o‘rni, o‘tmishda o‘lkamizga qilingan bosqinchilik urushlari, uzluksiz urush tahdidi yoki mustamlaka zulmi natijasida o‘zbekistonliklarda siyosiy ong G‘arbdagiga nisbatan o‘zgacha shakllandi;

2) islom dini an‘analari va madaniyati ta‘sirida jamoaviy turmush tarzi va shakllari ko‘proq rivojlandi;

3) mustabid sho‘ro tuzumi davridagi ma‘muriy-buyruqbozlik tazyiqi va cheklashlarning natijasi o‘laroq jamiyatda kundalik turmush muammolarini hal qilishda o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tartibga solish keng rivoj topmadi.

Biroq mustaqillik yillarida mamlakat xavfsizligini mustahkamlash, turli terrorchi guruhlar buzg‘unchiliklarini oldini olish va bartaraf etish jarayonida fuqarolarda jipslashish va o‘z kuchlarini safarbar etish qobiliyati ancha to‘liq shakllandi.

Mutaxassislarning bashoratlariga ko‘ra XXI asrda iqtisodning rivojlanishi va jadal o‘sishi hisobiga O‘zbekistonning siyosiy madaniyati o‘zgarsa ham u «ishtirokchilik» (faol siyosiy madaniyat) elementlari yetakchilik qiluvchi «fuqarolar» madaniyatini eslatsa kerak. Ammo hozirgi kunda O‘zbekiston fuqarolarining siyosiy madaniyati klassik tipologiyaga ko‘ra aralash tipga mansubdir. Bir tomondan, xalq saylov jarayonlarida faol ishtirok etadi (respublikada o‘tkaziladigan saylovlarda o‘rta

hisobda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan mamlakat aholisining 90–92% qatnashadi), ammo boshqa tomondan, odamlarda «aynan mening ovozim umumiy natijada hech narsani hal qilmaydi», degan qarash ham ancha keng tarqalgan¹.

Yuqoridagi omillar O'zbekistondagi siyosiy madaniyatning quyidagi umumiy xususiyatlarini belgilab berdi:

– *birinchidan*, alohida shaxs manfaatlarining jamiyat va davlat manfaatlariga hamohangligi;

– *ikkinchidan*, ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlatning va jamiyatning hal qiluvchi roli e'tirof etilishi;

– *uchinchidan*, hokimiyatga an'anaviy hurmat munosabatining mavjudligi, rahbarning ma'naviy qiyofasiga yuksak talablar qo'yish;

– *to'rtinchidan*, parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi roliga e'tiborli munosabatning mavjudligi.

Hozirgi zamon O'zbekiston siyosiy madaniyatining xususiyati shundaki, unda ilg'or fuqarolik madaniyatining elementlari teran ildiz otmoqda, jadal rivojlanmoqda; siyosiy partiyalar parlament doirasida o'z maqsadlariga erishish hamda bahslashish madaniyatini o'zlashtirmoqdalar. Shu ma'noda siyosiy madaniyat yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim omilidir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishning eng muhim vazifalaridan biri mavjud siyosiy madaniyatni demokratik qadriyatlar negizida rivojlantirish, ma'naviy erkinlik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda fuqarolar faolligini oshirishga imkon yaratish masalasiga borib taqaladi. Bu vazifaning bajarilishi esa G'arb davlatlaridagi kabi hokimiyat faoliyatini nazorat qilishning samarali mexanizmini shakllantirishga olib keladi.

Tayanch tushunchalar

Madaniyat, siyosiy madaniyat, milliy meros, siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy xulq-atvor, demokratik siyosiy madaniyat, avtoritar

¹ Одилқориев Х.Т., Фойибназаров Ш.Ф. Сиёсий маданият. – Т., 2004. – В. 252.

siyosiy madaniyat, totalitar siyosiy madaniyat, o'tish davriga xos siyosiy madaniyat, patriarxal madaniyat, tobelik madaniyati, faol madaniyat, siyosiy madaniyatning «yopiq» turi, siyosiy madaniyatning «ochiq» turi, «fuqarolik madaniyati», siyosiy madaniyat darajalari – tafakkur qilish, fuqarolik, siyosiy darajalar, siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli, siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli, sharqona siyosiy madaniyat modeli, normativ vazifa, integrativ (birlashtiruvchilik) vazifasi, boshqaruvchilik vazifasi, regulyativ (yo'naltiruvchilik) vazifasi, tarbiyalovchilik vazifasi, kommunikativ (aloqa) vazifasi, demokratik siyosiy ta'lim, volyuntarizm.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Madaniyat», «siyosiy madaniyat» tushunchalari mohiyati va ular o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni tushuntiring.
2. O'zbekistonda fuqarolar siyosiy madaniyatini oshirishning dolzarbligini siz qanday izohlaysiz?
3. Siyosiy madaniyat demokratiyaning qad rostlashi va rivojlanishiga qanday hissa qo'shadi?
4. Hokimiyatning madaniylashuvida legitimlik qanday o'rin tutadi?
5. Siyosiy madaniyat hodisasi tahliliga bag'ishlangan qanday ilmiy adabiyotlarni bilasiz?
6. Siyosiy madaniyat qanday tarkibiy tuzilishga ega?
7. Siyosiy madaniyatni turkumlashda qanday mezonlarga asoslanish mumkin?
8. Siyosiy madaniyatning «yopiq» va «ochiq» turlarini o'zaro taqqoslang.
9. Siyosiy madaniyatning patriarxal, tobelik va faol turlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
10. Hozirgi zamon siyosatshunos olimlari siyosiy madaniyatning qanday darajalarini qayd etadilar?
11. Siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar, liberal-demokratik va sharqona modellarini o'zaro taqqoslang.
12. O'zbekiston Respublikasida sharqona siyosiy madaniyatga xos qanday xususiyatlar ko'zga tashlanadi?
13. O'zbekiston fuqarolarining siyosiy madaniyati klassik tipologiyaga ko'ra aralash tipga mansubdir. Siz bu jummalarni qanday tushunasiz?

14. O‘zbekistondagi siyosiy madaniyat qanday umumiy xususiyatlarga ega?

15. Siyosiy madaniyatning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

ADABIYOTLAR

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2008.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 31–261.

Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б. 370–404.

Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т. 5. – Т., 1997. – Б. 104–131.

Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000. – Б. 22–46.

Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т., 2001. – Б. 21–60.

Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б. 45–78.

Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003. – Б. 67–89.

Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. – Т., 2004. – Б. 3–67.

Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. – Б. 174–222.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 176.

И. А. Каримов миллий давлатчилик, истиқлол мафкураси ва ҳуқуқий маданият тўғрисида (Ўзбекистон Президенти асарларини ўрганувчиларга ёрдам) / Тузувчилар: У. Таджиханов, А. Саидов. – Т., 1999. – Б. 455–573.

Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. – М., 2000. – С. 280–305.

Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: Сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Т., 1998. – Б. 13–46.

Одилқориев Х. Т., Фойибназаров Ш. Ф. Сиёсий маданият. – Т., 2004. – Б. 23–59.

Отамуротов С. Глобаллашув ва миллат (фалсафий-сиёсий таҳлил). — Т., 2008. — Б. 202.

Политология: Ўқув қўлланма / *С. Отамуродов, И. Эргашев, Ш. Акрамов, А. Қодиров.* — Т., 1999.

Политология: Маърузалар матни / Тақризчилар: *В. С. Ким, Ж. Бахронов.* — Т., 2000. — Б. 137–149.

Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўқув қўлланма. — Т., 2004. — Б. 317–333.

Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. — Т., 1997. — Б. 218–235.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
-----------------	---

SIYOSATSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, TARKIBI VA VAZIFALARI

1. Siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishi	5
2. Siyosatshunoslikning predmeti, qonuniyatlari va kategoriyalari	13
3. Siyosatshunoslikning vazifalari va usullari	22

IJTIMOY-SIYOSIY TA'LIMOTLAR: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida siyosiy-huquqiy gʻoyalarning kelib chiqishi	33
2. Oʻrta asrlar va yangi davrdagi ijtimoiy-siyosiy gʻoyalar	42
3. XIX–XX asr siyosiy gʻoyalaridagi asosiy yoʻnalishlar (liberalizm, konservatizm, sotsializm)	52

MARKAZIY OSIYODA IJTIMOY-SIYOSIY TAFAKKUR RIVOJINING ASOSIY BOSQICHLARI (*Qadimgi davrdan XX asrning 30-yillariga qadar*)

1. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy gʻoyalarning kelib chiqishi	64
2. Sharq Uygʻonish davridagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy taʼlimotlar	68
3. Amir Temur va temuriylarning siyosiy qarashlari	74
4. Markaziy Osiyoda XVII–XIX asrlarda roʻy bergan siyosiy inqiroz sabablari	82
5. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy gʻoyalari	87

JAMIYAT HAYOTIDA SIYOSAT VA SIYOSIY TIZIM

1. «Siyosat» tushunchasi. Uning obyektlari va subyekt munosabatlari. Siyosatning turlari, yoʻnalishlari va shakllari.	103
2. Siyosiy tizim va uning asosiy elementlari. Siyosiy tizimlar tipologiyasi	118
3. Oʻzbekistonda oʻtish davri siyosiy tizimining oʻziga xos xususiyatlari.	126

SIYOSIY HOKIMIYAT VA KO‘PPARTIYAVIYLIK

1. Siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirish mexanizmi.
Legitimlik tushunchasi 137
2. O‘zbekistonda shaxs va hokimiyat munosabatlarini
demokratlashtirish. 145
3. Siyosiy partiyalarning kelib chiqishi,
vazifalari va turlari. Partiyaviy tizimlar 148
4. O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar faoliyatining
o‘ziga xos xususiyatlari 157

SIYOSIY YETAKCHILIK

1. Hokimiyat tarkibida siyosiy yetakchilik 172
2. Siyosiy yetakchilik tabiati va turlari 177
3. Siyosiy yetakchilikning shakllanish tartibi.
Demokratik jamiyatda siyosiy yetakchi va siyosiy
elitaning o‘rni 187

JAMIYAT SIYOSIY HAYOTINING DEMOKRATIK ASOSLARI

1. «Demokratiya» tushunchasi, uning mohiyati va amal
qilish mexanizmlari 194
2. Demokratik siyosiy tizimning asosiy shakllari va
prinsiplari 206
3. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatni
demokratlashtirishdagi roli 219

SIYOSAT, DIN VA MAFKURANING O‘ZARO ALOQASI

1. Hozirgi jamiyatda siyosat va din 228
2. «Siyosiy mafkura» tushunchasi. Hozirgi zamonning
asosiy mafkuraviy oqimlari 238
3. O‘zbekiston milliy mafkurasida din va
siyosatning o‘rni 251

XALQARO SIYOSAT VA XALQARO MUNOSABATLAR

1. Xalqaro siyosat: asosiy prinsiplari va
yo‘nalishlari 260
2. Xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar va ularning
dunyo hamjamiyatidagi o‘rni. Birlashgan Millatlar
Tashkilotini modernizatsiyalash va isloh qilishning
zarurligi 269
3. O‘zbekistonning tashqi siyosiy konsepsiyasi 279

**XALQARO TERRORIZM VA UNGA BARHAM
BERISHNING SIYOSIY-HUQUQIY CHORALARI**

1. Terrorizmning paydo bo'lishi, turlari va ko'rinishlari 287
2. Terrorizm to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlar. 299
3. O'zbekiston Respublikasida terrorizm xavfining oldini olish masalalari 302

**UMUMINSONIY MADANIYAT TIZIMIDA
SIYOSIY MADANIYAT**

1. «Siyosiy madaniyat» tushunchasi, uning tuzilishi va turlari 321
2. Siyosiy madaniyatning asosiy vazifalari 331

Xojimurod ODILQORIYEV
Davron RAZZOQOV

SIYOSATSHUNOSLIK

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim
vazirligi tomonidan oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan**

(To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashr)

Muharrirlar: *Q. Qayumov,*
B. Ergashev
Dizayner: *I. Jumanov*
Musahhah: *H. Zokirova*

O‘zbekiston faylasuflari
milliy jamiyati nashriyoti

100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; faks: 239-88-61.

Bosishga ruxsat etildi 05.08.09-y. «Tayms» garniturasida.
Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.
Shartli bosma tabog‘i 21,45. Nashriyot bosma tabog‘i 22,0.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 10.
Bahosi shartnoma asosida.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent sh., 8-mart ko‘chasi, 57-uy.

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHIRIYOTI**

ISBN 998-9943-319-71-4



9 789943 319714